

D.B.BOTIROVA

YOSH DAVRLAR PEDAGOGIK PSIXOLOGIYASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

D.B.BOTIROVA

YOSH DAVRLAR PEDAGOGIK PSIXOLOGIYASI

D A R S L I K



Toshkent 2021

UO‘K: 37.015.3
KBK. 88.4
B-88

Mazkur darslikda yosh davrlarining psixologiyasi shaxs taraqqiyoti va pedagogik va psixologik bilimlarning o‘rni va ahamiyati, xar bir yosh davrining psixologik mexanizmlari individual-psixologik xususiyatlari, ta’lim va tarbiya jarayonining mazmun va mohiyati, ta’lim shaxs faoliyati va uning psixologik xususiyatlari, bilish jarayonlari, haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Darslikdan barcha bakalavriatura ta’lim bosqichi talabalari, o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, umuman shu sohaga qiziqqan keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

Ma’sul muharir:

Umarov B.M. - psixologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Nazirova L.V. - psixologiya fanlari nomzodi

Jabbarov.X.X. - psixologiya fanlari buyicha Phd

Mazkur darslik Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2021-yil 04 maydagi 7-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli bo‘yrug‘iga asosan 5120100-Filologiya tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.

(Ro‘yxat raqami 500/ t-003)

KIRISH

“Yosh davrlar pedagogik psixologiyasi” fani psixologiyaning alohida sohasi sifatida psixologik fikrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganish orqali yangi, istiqbolda hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab beradi hamda uni hal etish strategiyalarini ko‘rsatib beradi. U eng qadimgi davrlardan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e‘lon qilingandan keyingi davrda psixologik fikrlar va ta‘lim tizimining rivojlanishi hamda eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha jahon mamlakatlarida yosh davrlarniing asosiy xususiyatlari rivojlanishining yosh bosqichlari ta‘lim tarbiya va o‘qituvchi psixologik fikrlar rivojiga doir masalalarni o‘zida aks ettiradi.

Fanning maqsadi: bo‘lajak mutaxasislarni zamonaviy psixologiya fanining nazariy asoslari va o‘qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish. bo‘lg‘usi mutaxasislarga o‘zlari tanlagan ixtisoslik bo‘yicha malakalarni yanada mustaxkamlash uchun ko‘mak beradigan, yoshlar ongida yangicha tafakkur va dunyoqarash shakllanishining ijtimoiy psixologik ta‘sir mexanizmlariga oid bilimlar berish, jamoa shaxs psixologiyasining o‘ziga xos ta‘sir sharoitlarini o‘rgatishdan iboratdir.

Fanning vazifalari: Talabalarni komil insonni voyaga yetkazishning bir butun holatdagi muammolarini hal qilish; Respublikamizda ta‘lim tizimida ro‘y berayotgan isloxotlarni amalga oshirish sharoitida talabalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish masalalariga ijodiy yondoshish; “Yosh davrlar pedagogik psixologiyasi” fani psixologiyaning alohida sohasi sifatida psixologik fikrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganish orqali yangi, istiqbolda hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab beradi hamda uni hal etish strategiyalarini ko‘rsatib beradi. U eng qadimgi davrlardan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e‘lon qilingandan keyingi davrda psixologik fikrlar va ta‘lim tizimining rivojlanishi hamda eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha jahon mamlakatlarida yosh davrlarniing asosiy xususiyatlari rivojlanishining yosh bosqichlari ta‘lim tarbiya va o‘qituvchi psixologik fikrlar rivojiga doir masalalarni o‘zida aks ettiradi.

1-MAVZU: YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

Reja:

- 1.1 Yosh va pedagogik psixologiyasining fan sifatida rivojlanishi.
- 1.2. Yosh psixologiyasining tarmoqlari va boshqa fanlar bilan aloqasi. Yosh psixologiyasining nazariy va amaliy nazariyasi
- 1.3. Sharq mutafakkirlarining (Al-Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, ibn Rashid va boshqalar) bola tarbiyasi haqidagi fikrlari J. Piaget maktabida psixik taraqqiyotiga yondashish.
- 1.4. Xozirgi zamon psixologiyasida psixik taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchlari muammosi. (S.L. Rubeynshteyn, Leontev, L.S. Vigotskiy D. Elkonin va boshqalar).

Maqsad:

Yosh va pedagogik psixologiya faniga kirish, fanning predmeti. Yosh va pedagogik psixologiyasi fanining prinsiplari va tadqiqot usullari. Hozirgi zamon pedagogik va yosh davrlar psixologiyasi fanining asosiy vazifalarini yoritish va tadbiq qilishni o'rgatish

Vazifa:

1. Yosh va pedagogik psixologiyasining fan sifatida rivojlanishini bayon qilish
2. Yosh psixologiyasining tarmoqlari va boshqa fanlar bilan aloqasi. Yosh psixologiyasining nazariy va amaliy nazariyasini asoslash
3. Sharq mutafakkirlarining (Al-Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, ibn Rashid va boshqalar) bola tarbiyasi haqidagi fikrlari J. Piaget maktabida psixik taraqqiyotiga yondashishni taxlil qilish
4. Xozirgi zamon psixologiyasida psixik taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchlari muammosi. (S.L. Rubeynshteyn, Leontev, L.S. Vigotskiy D. Elkonin va boshqalar). bilan tanishish.

Tayanch tushunchalar:

Yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, ta'lim tarbiya nazariyalari, psixik taraqqiyot, tashkiliy metod, empirik, natijalarni sharhlash.

1.1. Yosh va pedagogik psixologiyasining fan sifatida rivojlanishi

XXI asr bo'sag'asida juda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda ham barcha soxalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini xar qachongidan ham yuqori

saviyaga kutarib, inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z mukammalligi xususida qaygurish muammosi xar qachongidan xam dolzarb masalaga aylandi.

Milliy Dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, yosh avlod ongining ta'lim olish davridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirishi va undagi aqliy, intellektual qobiliyatlarga nechoglik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish, ma'naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish xam shaxs psixologiyasini teran bilgan xolda o'qitishning eng ilgor va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiq etishni taqozo etadi. Yosh davrlari psixologiyasi fanining mavzu baxsi bolaning tugilishidan boshlab voyaga yetgunicha xar psixologik rivojlanishi, shaxsining tarkib topishi muammolarini, ularning psixologik mexanizmlarini o'rganishdan iborat.

Pedagogik psixologiya esa ta'lim va tarbiyaning psixologik qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadi.

Yosh va pedagogik psixologiya aloxida predmet sifatida XIX asr boshlarida vujudga kelgan. Rossiyada mazkur soxadagi tadqiqotchilar namunalari Sharq va Garb madaniyati ta'sirida inson ruxiyati bilan bogliq qator ogzaki va yozma, amaliy va ilmiy asarlarda paydo bula boshladi. Dastlabki pedagogik-psixologik mazmunidagi asarlar 17-18 asrlarda diniy-axloqiy tarzda yozilgan edi. XVIII asrdan boshlab bolalar psixologiyasi buyicha muayyan tartibga, yo'nalishga va uslubga ega bo'lgan ilmiy fikrlar vujudga keldi. Jumladan, K.R.Ushinskiyning «Inson tarbiya predmeti», N.F. Kapterifning «Pedagogik psixologiya», I.A.Sikorskiyning «Bola ruxi», A.F.Lazurskiyning «Maktab o'quchisining tavsifi», P.F. Lesgaftning «Oilada bola tarbiyasi va uning axamiyati» asarlari psixologik ilmiy tadqiqotni shakllantirishga xizmat qildi. I.M. Sechenov psixikaning reflektor xususiyatini kashf qilib fan olamida keskin o'zgarish yasadi. I.P.Pavlov kashf etgan qator qonuniyatlar, xossalar, 2-signallar sistemasi eksperimental ishlarni olib borishga puxta zamin xozirladi. Sechenov va Pavlov goyalariga P.O.Efrusi, N.E.Ribakov, K.N.Kornikov, P.P.Blonskiy, L.S. Vigotskiy va boshqa olimlar yosh psixologiyasi buyicha qimmatli tadqiqotlarni amalga oshirdilar va yangidan-yangi qonuniyatlarni yaratdilar. O'tgan ajdodlarimiz yosh psixologiyasining muammolarini izchil va atroflicha, ma'lum konsepsiya asosida o'rganmagan bo'lsalar xam, 4 xil manbalardan - xalq ijodiyoti, muayyan shaxslarga bagishlab yozilgan ugit-nasixat va xikoyatlar, qomusiy asarlar va badiiy asarlarda bu borada qimmatli fikrlar bildirgan. Hozirgi davrda mamlakatimizda, shu jumladan xalq maorifi sistemasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar barcha pedagoglar oldiga o'quvchilarga zamonaviy bilimlarni berish, ularning bilimlarni yuksak darajada o'zlashtirishlariga erishish; o'quvchilar mustaqil tafakkurini, ularning umumiy

faolligini rivojlantirish; ularda yuksak ahloqiy sifatlarni tarbiyalash; ularning tafakkur, muloqat, o'qish, mehnat qilish qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi murakkab va ma'suliyatli vazifalarni qo'ymoqda.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun har bir o'qituvchi faqat pedagogika fanining nazariy asoslarini, predmetni o'qitish metodikasini, maktab o'quvchilarining fiziologiyasi, gigienasi asoslarinigina, bilishi emas, balki psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi lozim. Har bir pedagog ma'lum darajada psixolog ham bo'lishi talab etiladi, chunki ular har biri faqat o'ziga xos bo'lgan, turli yoshdagi, turli individual xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ish olib boradilar.

Har bir bola faqat o'ziga xos bo'lgan bilish faoliyati, iroda, harakter, xulq-atvor xususiyatlariga ega. Maktabdagi ta'lim-tarbiya berish jarayonida o'quvchilarning ana shu xususiyatlarini bilish va shunga asoslanib ularga individual munosabatda bo'lishi lozim. Mana shularni hisobga olgandagina, har bir pedagog o'zining asosiy vazifasi, ya'ni yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshiradi.

Shuning uchun ham psixologiya fanining alohida sohalari bo'lmish rivojlanish psixologiya asoslarini chuqur bilish har bir pedagog uchun muhim hisoblanadi.

Psixologiya fanining bir qator tarmoqlari, sohalari mavjud. Ular orasida yosh psixologiyasi alohida ahamiyatga ega. Rivojlanish psixologiyasi psixik rivojlanish, shuningdek, bolalik, o'smirlik, o'spirinlik va yetuklik davrida shaxs taraqqiyotining xususiyatlarini o'rganadi. Juda ko'p fundamental tadqiqotlar o'tkazilganligiga qaramay bugungi kunda inson psixikasini uning butun hayotiy yo'li bosqichlarida rivojlanish xususiyatlarini yaxlit holda tavsiflashga erishilmagan.

Psixik rivojlanish bir tomondan organizmga, ya'ni inson organizmining anatomik fiziologik tuzilishiga bog'liq. Nerv sistemasi va miyaning insoniy tuzilishi uni ong egasi, nutq va yuqori darajadagi intellekt sohibi sifatida rivojlanishiga imkon beradi. Nasliy yo'l bilan yoki jiddiy kasallik oqibatida yuzaga keluvchi organizm anatomik fiziologik holatidagi buzilishlar psixik taraqqiyotga ta'sir etishi va rivojlanishdan orqada qolishga olib kelishi mumkin. Bolaning miyasi yetilib bo'lmaguncha unda verbal nutqni va u bilan bog'liq bo'lgan qobiliyatlarni shakllantirish mumkin emas.

Organizmning psixik rivojlanishi ikkinchi tomondan, muhitga ham bog'liq. Chunki psixik taraqqiyotga ta'lim-tarbiyaning ta'siri juda beqiyos. Biroq, psixik taraqqiyotning u yoki bu bosqichida bu omillardan qaysi biri ko'proq ta'sir etishini aniq aytish qiyin.

Stixiyali ta'lim-tarbiya maxsus ta'limiy maqsadlarsiz, hech qanday dasturlarsiz, insonning jamiyatda boshqa kishilar bilan munosabatlari natijasida amalga oshadigan ta'lim-tarbiya hisoblanadi. Tashkil etilgan ta'lim-tarbiya esa maqsadga qaratilgan holda maxsus ta'limiy tizimda olib boriladigan ta'lim-tarbiyadir.

Shak-shubhasiz, inson stixiyali va tashkil etilgan ta'sirotlar ostida psixologik jihatdan taraqqiy etadi, lekin ulardan qay biri inson xulq-atvoriga kuchliroq ta'sir etishi masalasi muammoligicha qolmoqda.

Keyingi muammo – layoqat va qobiliyatlarning o'zaro munosabati masalasidir. Bolaning qobiliyatlari rivojlanishiga ta'sir etuvchi layoqatlarning o'zi nima? Layoqatlar tarkibi faqat organizmning nasliy xususiyatlari bilan bog'liqmi yoki uning tarkibiga insonning orttirilgan xulq-atvor va psixik xususiyatlarini ham kiritish mumkinmi? Bola qobiliyatlarining taraqqiyoti ko'proq mavjud layoqatlarga bog'liqmi yoki unga to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiyaning ta'siri kuchliroqmi? kabi savollar hanuzgacha to'la-to'kis o'z yechimini topmagan.

Yosh va pedagogik psixologiyasi psixika va xulq-atvorda bir yosh davridan ikkinchisiga o'tishda yuzaga keladigan miqdoriy hamda sifatiy o'zgarishlarni o'rganadi. Odatda bu o'zgarishlar hayotning muayyan bosqichlarini, 1 necha oydan (go'daklik davri) to bir qancha yillarni (katta yosh davrida) qamrab oladi. Ushbu o'zgarishlar “ doimiy ta'sir etib turuvchi ” omillar – biologik yetilish hamda inson organizmining psixofiziologik holati, uning insonga xos bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimida tutgan o'rni, intellektual hamda shaxs rivojlanishida erishgan darajasiga bog'liq bo'ladi.

Psixika va xulq-atvorda yuzaga keladigan bu turdagi yoshga xos o'zgarishlar evolyusion o'zgarishlar deb ataladi. Evolyusion o'zgarishlarda miqdoriy va sifatiy qayta qurishlar nisbatan sekinlik bilan amalga oshadi.

Nisbatan qisqa vaqt oralig'ida jadal yuz beradigan chuqur o'zgarishlarni revolyusion o'zgarishlar deb atash mumkin. Revolyusion o'zgarishlar odatda bir yosh davrining tugallanishi, ikkinchi yosh davrining boshlanishi arafasida ro'y berib, yosh taraqqiyotining inqirozlari bilan bog'liq bo'ladi. Yosh taraqqiyotidagi inqirozlar va ular bilan bog'liq bo'lgan psixika va xulq-atvorda ro'y beradigan revolyusion qayta (qurishlar) tuzilishlar yoshni davrlarga ajratishning asoslaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Rivojlanish belgilaridan biri bo'lgan yana 1 turdagi o'zgarishlar aniq bir ijtimoiy vaziyatning ta'siri bilan bog'liq bo'lib, ularni situasion (ya'ni vaziyat bilan bog'liq bo'lgan) o'zgarishlar deb atash mumkin. Bunday o'zgarishlar inson xulq-atvori va psixikasida tashkil etilgan yoki maxsus tashkil etilmagan ta'lim-tarbiya ta'sirida vujudga keladi.

Evolyusion va revolyusion o'zgarishlar odatda barqaror hamda qaytarilmas bo'lib, sistematik mustahkamlashni talab qilmaydi. Situasion o'zgarishlar beqaror, o'zgaruvchan, ularni mashqlar orqali mustahkamlash talab qilinadi. Evolyusion va revolyusion o'zgarishlar inson psixologiyasini shaxs sifatida qayta o'zgartirsa, situasion o'zgarishlarda xulq-atvorning ba'zi ko'rinishlari, bilim, malaka va ko'nikmalar hosil bo'ladi.

1.2.Yosh psixologiyasining tarmoqlari va boshqa fanlar bilan aloqasi.

Yosh psixologiyasining nazariy va amaliy nazariyasi

Yosh psixologiya va pedagogik psixologiya bir-biriga maxkam bog'liq va ular biri ikkinchisi taqozo etadi. Ularning har ikkisi bitta umumiy ob'ektni – ulg'ayib borayotgan shaxsning psixik faoliyat hamda uning xulq-atvorini tadqiq etadi. Shunga qaramasdan har ikkisining aloxida vazifalari ham bor

Yosh psixologiyasi odamning psixik rivojlanish xususiyatlarini ontogenezda, ya'ni organizmning vujudga kelishidan boshlab to umrining oxirigacha bo'lgan individual rivojlanish yo'lida o'rganadi

Pedagogik psixologiya esa ta'lim va tarbiyaning psixologik qonuniyatlarini o'rganadi. o'quvchining bilish faoliyati va ularning aqliy rivojlanishi bilishning muloqotga kirishishi va mehnatining ongli sub'ektlari sifatida shakllanib borishi pedagogik psixologiyaning predmeti hisoblanadi.

Yosh psixologiyasi: insonning psixik rivojlanishini davrlarga bo'lib chiqish qoidalariga muvofiq quyidagi shahobchalarga ajraladi:

Bolalar psixologiyasi.

Kichik maktabgacha yoshdagi o'quvchilar psixologiyasi.

O'smirlar psixologiyasi.

Yigit qizlar psixologiyasi (o'smir yoshlar psixologiyasi)

Katta yoshli kishilar psixologiyasi.

Cherento psixologiyasi (qariyalar psixologiyasi).

Pedagogik psixologiyaning asosiy shahobchalari:

Ta'lim va tarbiya psixologiyasi.

O'qituvchi psixologiyasi

Yosh va pedagogik psixologiya predmeti – inson psixikasining yosh jihatdan taraqqiyoti, psixik jarayonlar hamda inson shaxsi hislatlarining ontogenezini o'rganishdan iborat.

Yosh psixologiya o'z navbatida bir qancha sohalarga bo'linadi. Bular :

1.Bolalar psixologiyasi

2.Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologiyasi.

- 3.O'smir psixologiyasi.
- 4.Ilk o'spirinlik yoshi psixologiyasi.
- 5.Katta yoshdagilar psixologiyasi.
- 6.Gerontopsixologiya (qarilik) psixologiyasi.

Yosh va pedagogik psixologiyasining umumiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini hamda bosqichlarini tadqiq etish.
- 2) psixik jarayonlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishidagi yosh imkoniyatlarini tadqiq qilish.
- 3) shaxs rivojlanishining muhim omillarini o'rganish.
- 4) har bir yoshning psixologik va individual xususiyatlarini o'rganadi.

Rivojlanish psixologiyasining asoslarini bilmay turib, ta'lim-tarbiyaning hech qanday nazariy hamda amaliy masalalarini muvaffaqiyatli hal qilib bo'lmaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri, ilmiy asosda tashkil qilish uchun o'quvchilarning yosh xususiyatlarini bilish va shunga ko'ra bilimlarni o'zlashtirish jarayonini, ko'nikma va malakalarni, faol, mustaqil hamda ijobiy tafakkur jarayonlarini tarkib toptirishni yaxshi bilish lozim bo'ladi. O'tilgan materiallarni qanday yo'l bilan psixologik jihatdan samarali qilib mustahkamlash mumkin? O'quvchiga savolni qanday berish mumkin: umumiy qilibmi yoki konkret shakldami? Bir xil savollarni beraverish to'g'rimi? Yordamchi savollarning roli qanday? (Psixologiyada shu narsa ma'lumki, javob beriladigan savolning ifodalanishiga ham bog'liq bo'ladi).Bunday savollarning yechimini topish pedagogik psixologiya faning vazifalaridandir.

Yosh davrlari pedagogik psixologiyasi har bir yosh davrining qaytarilmas individual psixologik xususiyatlarini, psixik va shaxs xususiyatlarini, shaxs sifatida o'zini ijtimoiy munosabatlarda namoyon qilishi, kasb tanlashi, muloqot jarayonida o'zining erk, huquq va majburiyatlariga intilishi kabi jihatlarni tadqiq etadi.

Bilimlarning har bir sohasi o'ziga xos nomlanishga ega. Lekin ba'zi bir bilimlar sohasi bir necha nom bilan ham atalishi mumkin. Masalan, rivojlanish psixologiyasini boshqacha qilib, yosh psixologiyasi deb nomlanishi mumkin. Ammo bu yerda aynan bitta yoki bir-biriga mazmun jihatdan juda yaqin bo'lgan bilimlar sohasi ko'zda tutiladi va inson xulq-atvori, psixik rivojlanishning yosh xususiyatlari to'g'risida fikr yuritiladi. Rus psixologi R.S.Nemov asarlarida ular sinonim sifatida qo'llaniladi.

Yosh psixologiyasi – turli xil yosh davrlarining psixologik xususiyatlariga e’tibor beradi. Rivojlanish psixologiyasi – inson psixologiyasining yosh jihatdan qayta tuzilishi qonunlari haqidagi bilimlar sohasi hisoblanadi.

Yosh va pedagogik psixologiyasini rivojlanishdan, rivojlanishni yosh xususiyatlaridan ajratib tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Yosh va pedagogik psixologiyasi fanining bir qator muammolarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Inson psixik xususiyatlari va xulq-atvori rivojlanishining organizm va muhitga bog‘liqligi muammosi.

2. Insonning rivojlanishiga stixiyali ta’lim va tashkil etilgan ta’limning ta’siri muammosi.

3. Layoqat va qobiliyatlarning o‘zaro munosabati muammosi.

1.3. Sharq mutafakkirlarining (Al-Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, ibn Rashid va boshqalar) bola tarbiyasi haqidagi fikrlari J.Piaje maktabida psixik taraqqiyotiga yondashish

Yuksak tafakkur namoyondalarining asarlarida bilim olishga keng o‘rin berilgan bo‘lib, o‘tmishda ham, hozirda ham, qaerda ta’lim sohasiga e’tibor yuqori bo‘lsa, o‘sha yerda taraqqiyot doimo ilgarilab borganligi yaqqol ko‘rinadi.

Sharqning qomusiy olimlari asarlarida ta’lim-tarbiya, shaxs kamoloti borasidagi fikrlari bilan birga bilim egallash, ilm olish yo‘llari xususida qator ilmiy ma’lumotlar keltiriladi. Jumladan, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Burhoniddin Zarnujiy, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Umar Xayyom, Abu Hamid Gazzoliy, Alisher Navoiy, Muhammad Rizo Ogahiy, Abdulla Avloniy kabi olim va mutafakkirlarning asarlarida yuqoridagi muammolar yuzasidan atroflicha ma’lumotlar keltiriladi.

Qomusiy olim **Imom al-Buxoriy** ham ilm o‘rganishni yuqori darajaga qo‘yib, o‘z asarlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradilar: “Kishi ilm bobida nafaqat o‘zidan yuqori yoki tengdoshlaridan, balki o‘zidan past bo‘lganlardan hadis olmaguncha, yetuk muhaddis bo‘la olmaydi”. Imom Buxoriy ushbu fikri bilan o‘quv faoliyatining ijobiy motivlari ustoz-muallim tomonidan shakllantirilishiga urg‘u beradi.

Abu Nasr Forobiy esa ko‘plab asarlarida bilish masalasiga katta e’tibor beradi. U bilishda ikki bosqichni - hissiy va aqliy bilishni farqlaydi hamda bilishda inson aqlining roliga ahamiyat beradi. Forobiy insonlarni ilmi bo‘lishga chaqirib, o‘quvchining ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari

to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surgan. U o'quvchiga ta'lim berish, uni ilmi qilish uchun o'qituvchi tinmasdan mashaqqatli mehnat qilsagina o'quvchi o'qishga, ta'lim olishga, bilimli bo'lishga intilishi mumkinligini ta'kidlaydi. O'qituvchi o'quvchiga bilim beraman desa, o'quvchi oldida haqiqatgo'y bo'lishi kerak, o'zi fahm-farosatli bo'lib, or-nomusini qadrlashi lozim, shogirdlariga nisbatan adolatli bo'lishi, ko'zlagan maqsadiga erishishida qat'iylik ko'rsata bilishi va o'rnak bo'lmog'i joiz, deya ta'kidlaydi mutafakkir. Forobiy tushunishni, bilimning mohiyatini uqib, anglab olishni quruq yodlashdan ustun qo'yadi, o'quvchiga umumiy qonun-qoidalarini o'zlashtirishni tavsiya etadi, chunki qonun - qoidalarini anglash, uning e'tirofiga ko'ra, juda katta ahamiyatga ega. Allomaning mulohazasiga binoan, har qanday o'quvchi o'z xatti-harakatidan xabardor bo'lmog'i, ya'ni o'zini anglagani, zamonaviy psixologiya fani terminologiyasiga ko'ra, o'zini refleksiya qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi va shu sayi-harakatlari tufayli baxtga erisha oluvchi insonligini anglamog'i lozimdir. Forobiy o'quvchining shaxsiga xos qator fazilatlariga holisona sharh bergan olimdir.

Qomusiy olim **Abu Ali ibn Sinoning** fikricha, inson tafakkuri, aqlining kuchi bir necha bosqichdan iborat. Aqliy kuchlar dastlab mutlaq tinch, sokin holatda bo'ladi. Bolalardagi yozishni, o'qishni o'rganishdagi potensial kuchlar shunga misol bo'la oladi. Abu Ali ibn Sino bu kuchlarni moddiy kuchlar deb nomlagan, ya'ni mazkur kuchlarni tashqi motivlar deb tushunsa bo'ladi. Sekin-astalik bilan bu kuchlar harakatga aylanadi, bular mehnat quroli samarasidir, ya'ni mehnat quroli orqali harakatga keladi va namoyon bo'ladi. Bu holatni bola yozishni xohlab turibdi-yu, ammo yozish quroli bo'lgan qalamning yo'qligi bilan izohlash mumkin. Bu ikki kuchni Ibn Sino ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan kuch deb atagan. Nihoyat, uchinchi kuch esa irodaning yetishmasligi bilan tushuntirib beriladi. Ya'ni shunday holatning kuchi bor, ammo uni ishlatishga, ruyobga chiqarishga bolada iroda yetishmaydi. Alloma nazarida, shu kabi uch holat bilan aql, bilim olish izohlanadi. "Tayr" asarida esa insonlarni do'stlikka, bilim o'rganishga chaqiradi.

Ibn Sino "Xayy ibn Yaqzon" qissasida inson fe'l-atvorini, ruhiyatini tushunish uchun mantiq ilmini o'rganishga chorlaydi. Bu fan inson tafakkur doirasining kengayishiga katta yordam beradi. Insonlarning fe'l-atvorini bilish uchun o'qish, o'tkir bo'lish uchun farosat ilmidan xabardor bo'lish kerak. Darhaqiqat, ilm o'rganishga Forobiy musiqiy, falsafiy ilm bilan da'vat etgan bo'lsa, ibn Sino mantiq ilmi orqali da'vat etgan.

Abu Ali ibn Sino bolalarning o'qish, ta'lim olishlariga mas'uliyat bilan qarash tarafdorlaridan bo'lgan. U bola 6 yoshga yetgach muallimga bilim olish uchun topshirilishi mumkinligini aytib o'tadi. Hozirda ham bolalarning 6, 7 yoshdan boshlang'ich sinflarga qabul qilinishi ibn Sinoning o'sha davrdagi

g'oyalarining naqadar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi, zotan ushbu hol bolaning o'qishga bo'lgan muhabbatini kuchaytirishi mumkin. Uning fikricha, bolaga ta'lim asta-sekinlik bilan berilishi joiz. Uni birdaniga kitobga bog'lab qo'yimaslik lozim. Ibn Sino kishilarning yashashga qobil bo'lishi va bekorga jabr ko'rmasligi uchun ularga ehtiyot bo'lib ta'lim berish kerakligini uqtiradi. Ya'ni ularning o'qishga bo'lgan ijobiy motivlarini so'ndirmaslikka undaydi.

O'quvchilarning o'qish faoliyatiga oid fikrlar qomusiy olim **Abu Rayhon Beruniy** asarlarida ham o'z aksini topgan. Uning fikriga ko'ra, bilim olish uchun o'quvchilarda avvalo intilish va qiziqish bo'lishi kerak. Darhaqiqat, nimanidir o'rganish, tadqiq qilish uchun insonda intilish, harakat va qiziqish bo'lmasa, u hech narsaga erisha olmaydi. Ilm olishning muhim yo'llaridan biri inson hammani o'ziga do'st tutishi va boshqa insonlarga ham yaxshilik qila olishi lozim. Olimning mazkur fikrlarini fan tilida o'quv faoliyatiga nisbatan ehtiyoj tug'ilsagina o'quv motivlari shakllantirilishi mumkin, deya talqin qilsa bo'ladi.

Beruniy ilm olishda axloqiy poklikni yuqori o'ringa qo'yib, ta'lim va tarbiyani bir xil izchillikda olib borganlar komil inson darajasiga erishadilar, deydi. Beruniy o'qitish uchun muallim o'z malaka va bilimlarini doimo orttirib, zamonga moslashib borishi lozimligini uqtiradi. U kitob o'qish usullariga alohida e'tibor qaratadi. Kitoblarni shunchaki emas, fikrlab, kichik-kichik bo'limlarga bo'lib o'qish va umumlashtirib borish kerakligi haqida ma'lumotlar beradi. Beruniy o'qitishda faqat induktiv (umumiy xulosa) yo'li bilangina emas, balki deduktiv (juz'iy xulosa) yo'li bilan ham ish tutish lozimligini ta'kidlaydi, zotan bunday o'qishda tafakkur kengayib, bilimlar ortib boradi.

Abu Rayhon Beruniy o'qituvchilar o'quvchining e'tiborini *taqqoslash*, *qiyoslash* kabi operatsiyalarga qaratishlari lozimligiga alohida ahamiyat beradi. Zotan, bugungi kunda ham ongli, ifodali, to'g'ri va tez o'qish hozirgi zamon o'quvchilarining savodli bo'lishlarini ta'minlovchi asosiy tarkibiy qismlardandir.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashga zo'r berib, yosh o'quvchilarni toliqtirib va zeriktirib qo'ymasdan, turli psixologik usullarni qo'llashni, shu orqali ularning tafakkurini boyitib, bilimlarini chuqurlashtira borishni ilgari surgan buyuk zotdir. Ya'ni o'qishga nisbatan bo'lgan qiziqishni so'ndirmaslik uchun bolalarning yoshiga xos psixologik xususiyatlar albatta inobatga olinishi kerakligini e'tirof etadi.

Beruniyning tafakkur operatsiyalari - analiz, taqqoslash, umumlashtirish kabilarni shakllantirish orqali o'qishga qiziqish uyg'otish haqidagi fikrlari to hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Sharqning boshqa bir yirik olimi **Burhoniddin Zarnujiy** o'zining "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" kitobida: "O'qib o'rganish uchun eng yaxshi vaqt yoshlik davri, erta tong va qosh qoraygan payt. Bilim oluvchi ana shu

vaqtni samarali tashkil etishga odatlansin, bordi-yu, unga bir fan zerikarli bo'lsa, boshqasi bilan mashg'ul bo'lsin", - deya ta'lim beradi. "Ta'limul – mutaallim" nomli kitobida bo'lsa ta'limning uzviylik prinsipini e'tirof etadi.

XI asrda yashab ijod etgan **Mahmud Qoshg'ariy** ham o'zining "Devonu lug'atit turk" asarida insonlarni bilim olishga da'vat etgan. Asardagi: "Ey o'g'lim, mendan o'git, nasihat ol, odobli va tarbiyali bo'lishga tirish, toki el ichida zo'r olim bo'lib tanil va ular orasida odob va ilm tarqat" yoki "Ilm, hikmat o'rgan, o'rganishda havoyilik va takabburlik qilma, hech narsa o'rganmasdan, o'zini bilimdon ko'rsatib maqtangan kishi imtihon vaqtida uyaladi, achinadi" kabi fikrlari buning yorqin misolidir.

O'rta Osiyoning yana bir buyuk mutafakkiri **Yusuf Xos Hojib** ham o'z ijodida bilimni yuksak baholaydi. Alloma bilimni boylik, kiyim, yemish kabi narsa-hodisalarga qiyoslaydi. Bilim va bilimdonlikni his eta olmoq, uni tushunmoq darkorligi, bilimdon bo'lishning tarbiya bilan chambarchas bog'liqligi, bola qanchalik erta tarbiya qilinsa, bilim olishga ishtiyoqi ortishi haqida yozadi.

O'quvchining psixologik xususiyatlari va shaxsiy fazilatlariga oid mulohazalar qomusiy olim **Umar Xayyom** asarlarida chuqur yoritib berilgan. Umar Xayyomning fikricha, o'quvchilar o'qituvchidan olgan bilimlari bilan cheklanib qolmasdan, hayotda bo'layotgan voqea-hodisalarni o'rganish va kuzatish, amaliyot davomida bilim, ko'nikma hamda malakalarini har xil usullarda ko'p martalab takrorlab borish jarayonida egallaydilar, ya'ni olim ta'limdagi predmet bilan hayot uzviy aloqadorligi prinsipini ilgari suradi. Uning fikricha, ta'limni amaliyot bilan uzviy ravishda bog'lagan holda o'quvchilarda mustaqil tafakkurni shakllantirib borish zarur. Buning uchun u "Sen osongina o'ylayapsan", "Ko'p o'ylab, maqsadga erishish mumkin", "Bir oz o'ylagandan keyin, tushunib olasan" kabi so'zlarni ishlatish orqali, o'quvchilarni mulohaza qilishga undash va sekin-astalik bilan o'qishga bo'lgan ishtiyoqlarini oshirish mumkin, deb ta'kidlaydi.

Inson hayotida ilm va amaliyotning birligi haqida **Abu Hamid G'azzoliy** ham fikr bildirgan edi. Darhaqiqat, inson olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay borishi kerak deb o'ylaymiz, chunki bilim va ilmgina emas, balki fan va tajriba yutuqlarini amalda qo'llay bilish ham insoniy hislatlardan biridir.

Buyuk mutafakkir va alloma **Alisher Navoiy** inson tafakkuri, aqli-farosati hamda ilmini yuksak qadrlagan. U: "Bilim va donishmandlik insonning bezagidir",- deb yozadi. Alisher Navoiy bolalarga kichik yoshligidanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berish kerakligini aytib, ibn Sino kabi, 6 yoshdan muallim qo'liga topshirish kerakligini ta'kidlaydi.

Iste'dodli shoir va tarjimon, tarixchi **Muhammad Rizo Ogahiy** asarlarida inson bekamu ko'st kamolga yetishishi uchun yoshlikdan ilm va kasb-hunar

egallashi shart ekanligini aytib o'tadi. Uning fikricha, ilm-ma'rifat insonning ma'naviy kamolotida va jamiyat taraqqiyotida kuchli vositadir. Ilm inson aqlini boyitadi. Ogahiy ilmni ko'proq xalq o'yinlari orqali yetkazib berish uchun harakat qiladi, chunki bu narsa ijobiy o'quv motivini shakllantirishga xizmat qiladi. Xalq o'yinlari, aslida psixologik o'yinlar hisoblanadi. Bu vaqtda bola ham ta'lim oladi, ham shakllanadi.

XX asr boshlarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida pedagogik fikrlar rivojida yetakchi rol o'ynagan olimlardan biri **Abdulla Avloniydir**. Abdulla Avloniyning fikriga ko'ra, ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, ne'matidir. Ilm o'rganmoq, olim bo'lmoq uchun maktabga kirmoq, muallimdan ta'lim olmoq lozimligini u qayta-qayta ta'kidlaydi.

Ma'rifatparvar alloma Avloniy inson ma'naviy kamolotining yo'llari ustida to'xtalib o'tadi. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidir, deb ta'kidlab o'tadi.

U ilmning nazariy ahamiyatini ko'rsatibgina qolmasdan, balki uning amaliy faoliyat uchun hayotiy zaruriyat ekanligini ham ta'kidlab o'tadi. Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarishi, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarishi, yomon fe'llardan, buzuvq ishlardan qaytarishi, yaxshi xulq, odob sohibi qilishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, rohatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqligini qayta-qayta takrorlaydi.

Olimning ta'kidlashicha ilm kishi zehni, fikrini qilich kabi o'tkir qiladi. Ilmsiz inson mevasiz daraxtga o'xshaydi. Ilm daraxt mevalaridek har shaxsga ozuqa berib, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat dunyosiga olib kiradi. Yomon odamlardan, buzuvq ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulqli va odobli bo'lishga xizmat qiladi. Natijada, ilm kishilari har yerda aziz va hurmatli bo'ladilar. Kishi hayotini haqiqiy va to'g'ri yo'lga soladigan vosita - bu ilmdir. Shuning uchun ham ilm orqali oliy fazilatlarga ega bo'lgan, ulug'likka va orzu-istaklariga erishgan buyuk kishilar xalq orasida yuksak qadrlanadilar.

Kishilarning bilimi, ilmi, amaliy malakalari rivojisiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Muayyan ma'naviy ehtiyojlarga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan kishilarda ilm-fanni o'rganishga, halol mehnat qilib, kasb-hunar egallashga, malaka oshirishga ishtiyoq ham bo'lmaydi. Shu sababli jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida avval yoshlarni tarbiyalab, keyin ularga ta'lim berganlar.

Haqiqatdan ham, bilimga, ilmga ehtiyoj anglangan motivlar tizimidir. Biror muammoni hal etish imkoniyatlarini inson o'z aql-zakovati, bilimi, kuchi va irodasi bilan aniqlaydi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Sharq

mutafakkirlari o'quv motivlarini ehtiyojlar nuqtai nazaridan tahlil qilishga harakat qilganlar. Mazkur ehtiyojlarni hosil qilishga, oshirishga, asosan o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonining psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish, ya'ni o'qish jarayonida bolalarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ularga imkon qadar individual yondashish orqali erishish mumkinligini e'tirof etishgan. Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlarining buyuk xazinasini, bolalarga ta'lim, tarbiya berishdagi ilg'or fikrlari hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Shveysariyalik psixolog **J.Piaje** (1896—1980) insonning kamol topishini bir necha davrlarga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi:

1.Bola — tashqi muhit - ma'lumotlarni qayta ishlash.

2.Tafakkur:

a) ijtimoiy davrgacha;

b) ijtimoiy davr.

3.Intellekt (aql):

a) sensomotor — 2 yoshgacha;

b) operatsional davrgacha — 2— 7(8);

v) yaqqol operatsiya davri — 7(8) —11(12) yoshgacha;

g) rasman (formal) operatsiya davri —11(12) —15 yoshgacha

J.Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funksiyalari (vazifalari) hamda uning davrlari haqidagi ta'limotni o'z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy funksiyalari (vazifalari) uyushqoqlik va moslashish, ko'nikishdan iborat bo'lib, aql-idrokning funksional invariantligi deb yuritiladi.

Muallif intellektni (aqlni) quyidagi rivojlanish davrlariga ajratadi:

1) sensomotor (hissiy-harakat) intellekti (tug'ilishdai 2 yoshgacha);

2) operatsiyalardan (fikriy harakatlardan) ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha);

3) yaqqol xatti-harakat davri (7—8 yoshdan 11—12 yoshgacha);

4) rasmiy sa'y-harakatlar davri.

J.Piajening g'oyalarini davom ettirgan psixologlarning bir guruhini kognitiv-genetik nazariyachilarga qo'shish mumkin. Bu yo'nalishning namoyandalari L.Kolberg, D.Bromley, Dj.Birrer, A.Vallon, G.Grimm va boshqalardan iboratdir

1.4.Xozirgi zamon psixologiyasida psixik taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchlari muammosi.(S.L.Rubeynshteyn, Leontev, L.S.Vigotskiy D. Elkonin va boshqalar).

Rus psixologiyasidagi ontogenezni davrlarga tabaqalash muammosi dastlab **L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Ananov** singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug'ullanuvchilar safi kengayib bordi, shu boisdan tabaqalanish kelib chiqishi, ilmiy manbai, rivojlanish jarayonlariga yondashilishi nuqtai nazaridan o'zaro keskin farqlanadi. Hozir ontogenezni davrlarga tabaqalash yuzasidan mulohaza yuritishda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhlariga ajratish va ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiqdir.

L.S.Vigotskiy psixologlarning yosh davrlarini tabaqalash nazariyalarini tanqidiy tahlil qilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. Chaqaloqlik davri inqirozi.
2. Go'daklik davri – 2 oylikdan 1 yoshgacha.
Bir yoshdagi inqiroz.
3. Ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3 yoshdagi inqiroz.
4. Maktabgacha davr – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
7 yoshdagi inqiroz.
5. Maktab yoshi davri – 8 yoshdan 12 yoshgacha.
13 yoshdagi inqiroz.
6. Pubertat (jinsiy yetilish) davri – 14 yoshdan 18 yoshgacha.
17 yoshdagi inqiroz.

Olim o'z asarlarida har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur ilmiy ta'riflay olgan. Eng muhim shaxs ruhiyatidagi yangilanishlar haqida ilmiy va amaliy ahamiyatga molik mulohazalar bildirgan. Biroq bu mulohazalarida ancha munozarali, bahsli o'rinlar ham uchraydi. Umuman **L.S.Vigotskiyning** yosh davrlarini tabaqalash nazariyasi ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar roli to'g'risidagi mulohazalari va olg'a surgan g'oyalari hozirgi kunning talabiga mosdir.

L.S.Vigotskiyning shogirdi **L.I.Bojovich** insonning kamol topishini yosh davrlariga bo'lishda motivlarni asos qilib oldi, shuning uchun bu bo'lishni motivasion yondashish, deb atash mumkin. L.I.Bojovichning mulohazasiga ko'ra yosh davrlari quyidagi bosqichlardan iborat:

birinchi bosqich – chaqaloqlik; tug'ilgandan 1 yoshgacha; ikkinchi bosqich – motivasion tasavvur: 1 yoshdan 3 yoshgacha; uchinchi bosqich – “Men”ni anglash davri: 3 yoshdan 7 yoshgacha; to'rtinchi bosqich – ijtimoiy jonotlikni anglash davri: 7 yoshdan 11 yoshgacha; beshinchi bosqich – a) o'zini o'zi anglash davri: 12 yoshdan 14 yoshgacha; b) o'z o'rmini belgilash (topish) davri: 15 yoshdan 17 yoshgacha.

L.I.Bojovich har bir bosqichni psixologik tavsiflashda unda namoyon bo'ladigan o'zgarishlarni, bu o'zgarishlarning sabablari, omillari, manbalari, turtkilari, mexanizmlarini ham bayon qiladi.

D.B.Elkoninning tasnifi yetakchi faoliyat (A.N.Leontev) nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida faoliyatning biror ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi. Yetakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli nazariyaning negizini tashkil qiladi.

D.B.Elkonin yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratishni lozim topadi:

1) go'daklik davri – tug'ilgandan 1 yoshgacha: asosiy faoliyat – bevosita emotsional muloqot;

2) ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha: asosiy faoliyat – jism bilan nozik harakatlar qilish;

3) maktabgacha davr – 3 yoshdan 7 yoshgacha: asosiy faoliyat – rolli o'yinlar;

4) kichik maktab yoshi davri – 7 yoshdan 10 yoshgacha: asosiy faoliyat – o'qish;

5) kichik o'smirlik davri – 10 yoshdan 15 yoshgacha: asosiy faoliyat – shaxsning intim muloqoti;

6) katta o'smirlik yoki ilk o'spirinlik davri – 16 yoshdan 17 yoshgacha: asosiy faoliyat – o'qish, kasb tanlash.

D.B.Elkonin tasnifini, ko'pchilik psixologlar ma'qullashiga qaramay, unda ayrim munozarali jihatlar ham bor. Umuman esa D.B.Elkoninning mazkur nazariyasi psixologiya fanida, ayniqsa ontogenez psixologiyasida muhim o'rin tutadi.

Bolalar psixologiyasi fanining yirik namoyandasi **A.A.Lyublinskaya** inson kamolotini yosh davrlariga ajratishda pedagogik psixologiya, faoliyat nuqtai nazaridan unga yondashib, quyidagi davrlarni atroflicha ifodalaydi:

1. Chaqaloqlik davri – tug‘ilganidan bir oylikkacha.
2. Kichik maktabgacha davr – 1 oylikdan 1 yoshgacha.
3. Maktabgacha tarbiyadan oldingi davr – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
4. Maktabgacha tarbiya davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
5. Kichik maktab yoshi davri – 7 yoshdan 11 (12) yoshgacha.
6. O‘rta maktab yoshi davri (o‘smirlik) – 13 yoshdan 15 yoshgacha.
7. Katta maktab yoshi davri – 15 yoshdan 18 yoshgacha.

O‘QUV TOPSHIRIQ


Savol	Yosh davrlar pedagogik psixologiya fanining vujudga kelish sabablarini ko‘rsating.....
F -fikringizni bayon eting	
S -Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
M -ko‘rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U - fikringizni umumlashtiring	

Toifalash jadvali

Fan istiqboli va kutiladigan natija?

Ijobiylari	Salbiylari
------------	------------

1.	
2.	
3.	
4.	



Mustaqil ta'lim yuzasidan savollar:

1. Turli davrlarda psixik rivojlanish haqidagi talqinlarning mohiyatini yoritib bering.
2. Fanning predmeti, nazariy va amaliy vazifalari nimalardan iborat?
3. Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiyada tadqiqotlarni tashkil etish va ilmiy metodlari haqida ma'lumot bering.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati.

1. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi. –T., 2013 yil

2. Umumiy psixologiya, èki èsh psixologiyasi va pedagogik psixologiya kursi. M. 1982
3. Гамезо «Возрастная и педагогическая психология» М.. 1984 й.
4. Возр.и педаг. Психология. Под.ред. А.В.Петровского. 2 е.изу.М., 1979.
5. Возр.пед.психология.Под ред.М.В.Гализо.идр М.1984
6. Емелянов.С.Б.Профессиональное самовоспитание учителя,М.,1983.
7. Ivanov P.I., Zufarova M.E. «Umumiy psixologiya» T.: O‘zbekistonfaylasuflari milliy jamiyati., 2008.480b.
8. Do‘stmuhammedova Sh.A., Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbayeva “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” T., 2013.

2-MAVZU: YOSH DAVRLAR PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA FANINING SHAKLLANISHI XOZIRGI XOLATI

Reja:

- 2.1. Yosh davrlari pedagogik psixologiyasi shakllanishining tarixi va hozirgi holati. Pedagogik psixologiya - fanlararo ilmiy bilim soxasi.
- 2.2. Psixologiyada yosh tushunchasi va xususiyatlari. Yosh psixologiyasining metodlari.
- 2.3 Kuzatish va eksperiment metodlarining yosh psixologiyasida qo'llanilish xususiyatlari
- 2.4. Psixologik tadqiqotlarda "metodologiya, metod, va metodika" tushunchalarining munosabatini aniqlash

Maqsad:

Yosh davrlari pedagogik psixologiyasi shakllanishining tarixi va hozirgi holati xaqida tushunchalar beri va asoslash Pedagogik psixologiya - fanlararo ilmiy bilim soxasini bayon etishni shakllantirish

Vazifa:

1. Yosh davrlari pedagogik psixologiyasi shakllanishining tarixi va hozirgi holati. Pedagogik psixologiya - fanlararo ilmiy bilim soxasini bayon etish
2. Psixologiyada yosh tushunchasi va xususiyatlari. Yosh psixologiyasining metodlarini asoslash
3. Kuzatish va eksperiment metodlarining yosh psixologiyasida qo'llanilish xususiyatlarini yoritish
4. Psixologik tadqiqotlarda "metodologiya, metod, va metodika" tushunchalarining munosabatini taqqoslash

Tayanch tushunchalar:

Yosh davrlari, ilmiy bilim soxasi, yosh tushunchasi, metodlar. Kuzatish va eksperiment, tadqiqot, asos

2.1. Yosh davrlari pedagogik psixologiyasi shakllanishining tarixi va hozirgi holati. Pedagogik psixologiya - fanlararo ilmiy bilim soxasi

Yosh davrlari pedagogik psixologiyasi fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida tarkib topadi. **Ch. Darvin**ning evolyusion g'oyalari ham yosh psixologiyasi fanining taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Evolyusion ta'limot psixik

taraqqiyot manbalari muammosiga e'tiborni qaratishga olib keladi. Bundan tashqari taniqli rus pedagogi **K.D. Ushinskiy**ning asarlari, ayniqsa uning "Inson - tarbiya predmeti sifatida" nomli asari katta rol o'ynaydi.

XX asrning boshlariga kelib, umumiy psixologiyada o'tkaziladigan eksperimental tadqiqotlarni pedagogika sohasiga shundayligicha o'tkazish mumkin deb qaraldi. Ammo o'sha davrning umumiy psixologiya fani pedagogika uchun yetarli bilimlar boyligini bera olmas edi.

1906 yil Peterburgda pedagogik psixologiya bo'yicha s'ezd chaqirildi. Pedagogik psixologiya namoyondalari – **A.P.Nechaev, N.E. Rumyansev** va boshqalar pedagogik adabiyotlarni keskin tanqid qilib chiqdilar. Psixologiyani pedagogik amaliyot bilan yaqinlashtirish, eksperimental tadqiqotlarni ta'lim-tarbiya jarayonining o'zi orqaligina o'tkazish mumkin degan muhim xulosa chiqarildi. Ya'ni eksperimental ma'lumotlar tashqaridan emas, balki psixologik-pedagogik tadqiqotning o'zidan olinishi kerak, degan xulosaga kelinadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa yosh va pedagogik psixologiyaning muhim nazariy, metodologik masalalarini hal qilishning to'g'ri yo'llarini izlab topish lozim edi. Shu tufayli psixik taraqqiyotning manbalari va uning ta'lim jarayoniga munosabati masalasi yosh va pedagogik psixologiyaning markaziy muammosi bo'lib qoldi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida AQSh da **pedologiya** deb ataluvchi yangi fan vujudga keladi. Uning namoyondalari – **S.Xoll, E.Meyman, V.Preyer**. Bu oqim namoyondalari bola rivojlanishining biologik, fiziologik va psixologik nazariyalarini mexanik ravishda qo'shadilar.

20 - 30 yillarda pedologiya "Bola haqidagi yagona marksistik fan" rolini da'vo qila boshlaydi va pedagogika hamda bolalar fiziologiyasini siqib chiqarishga harakat qiladi.

Pedologlarning qarashlari idealistik va mexanistik harakterda edi. Ular yaratgan o'quvchilarning "aqliy qobiliyat koeffisienti"ni aniqlashga oid testlari asossiz bo'lib, psixologiya va pedagogikaga salbiy ta'sir ko'rsatdi hamda maktabga katta ziyon yetkazdi. Shuning uchun 30 yillarning boshlarida pedologiyani keskin tanqid qilish boshlandi. 1936 yil 4 iyulda VKP (b) MK ining "Xalq maorifi komissarligi sistemasidagi pedologik buzg'unliklar haqida" gi qarori chiqdi. Bu qarorda pedologiya fani marksistik nuqtai - nazarga zid ekanligi ta'kidlanib, katta tanqid ostiga olindi. Shu tariqa pedologiya faniga barham berildi.



2.2 Psixologiyada yosh tushunchasi va xususiyatlari. Yosh psixologiyasining metodlari

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga individual yondoshish uchun ularning individual-psixologik xususiyatlarini, o'quvchilar shaxsining o'ziga xosligini bilish, o'rganish zarur. "Agar pedagogika odamni har jihatdan tarbiyalamoqchi bo'lsa, u oldin o'sha odamni ham har jihatdan bilib olishi kerak", - deb yozgan edi K.D. Ushinskiy.¹

Shuning uchun har bir o'qituvchi o'quvchilarni o'rganish usullari bilan qurollanishi shart. Demak, yosh va pedagogik psixologiya asoslarini bilish har bir fan o'qituvchisi, har bir pedagog uchun muhim ahamiyatga ega.

Har bir fanning o'z predmetini o'rganish metodlari bo'lgani kabi, yosh va pedagogik psixologiya ham psixologiya fanining alohida bo'limlari sifatida o'z tadqiqot metodlariga ega. Yosh va pedagogik psixologiyaning metodlari faqat nazariy, ilmiy tadqiqot ishlari uchungina emas, balki kundalik, amaliy vazifalarni hal qilish uchun ham zarur.

Rus psixologi **B.G. Ananov** bo'yicha tadqiqot metodlari 4 guruhga bo'linadi:

I. Tashkiliy metodlar: taqqoslash, longityud va kompleks metodlari kiradi. Taqqoslash–umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, pato- psixologiya va defektologiyada keng qo'llaniladi. Yosh va pedagogik psixologiyada o'rganilayotgan psixik jarayonlarning dinamikasini aniqlash uchun qo'llaniladi. Longityud – (uzluksiz) uzoq vaqt davomida ayni bir xil kishilar o'rganiladi. Kompleks – psixologik tadqiqotlar boshqa fanlar metodlari ishtirokida o'tkaziladi. (shaxsning jismoniy, fiziologik, psixik va ijtimoiy taraqqiyoti aniqlanadi).

II. Empirik metodlar: Bu guruhga kuzatish (o'z o'zini kuzatish ham kiradi), eksperimentalar metodlar, psixodiagnostik (testlar, anketalar, so'rovnomalar, sotsiometriya, intervyu va suhbat) metodlari, jarayon va faoliyat mahsulotlari

¹¹ 1) Ushinskiy K.D. Tanlagan asarlar. 8-tom. M-L; 1950, B.55

(rasmlar, haykallar, turli ilmiy ishlar) tahlili, biografik metodlar (inson hayotidagi hodisalar, hujjatlar, guvohnomalar va boshqalarning tahlili) kiradi. Kuzatish metodi ayniqsa bolalar rivojlanishini o'rganishda ko'proq ishlatilib, uning muhimligini mashxur fransuz psixolog Anri Vallon ta'kidlab o'tgan. Bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan empirik metodlar ko'pincha bolalar bog'chasi, maktablar va boshqalarning odatiy sharoitida o'tkaziladi. Shuning uchun ham yosh va pedagogik psixologiyada o'yin, mehnat va o'sib kelayotgan insonning o'qish faoliyati doirasida olib boriladigan tabiiy eksperiment ko'p ishlatiladi. Yosh va pedagogik psixologiyaning o'ziga hosligi deganda doirasida maqsadga yo'naltirish jarayonida psixologik o'ziga hosliklarning rivojlanish dinamikasini o'rganishning maxsus sharoitlari yaratiladigan shakllantirish eksperimenti tushuniladi.

III. **Ma'lumotlarni qayta ishlash metodlari:** miqdoriy (statistika) va psixologik yoki sifatiy tahlil turlariga bo'linadi.

IV. **Sharhlash metodlari:** Genetik va "donalash" metodlari. Genetik metodda taraqqiyotdagi bosqich, pog'onalar, inqiroz holatlari ajratib ko'rsatiladi (vertikal aloqa). Donalash metodida esa shaxsning barcha harakteristikalari o'rtasidagi "gorizontal" aloqalar aniqlanadi. Genetik metod yosh va pedagogik psixologiyaga hos bo'lgan qiyosiy metod variant hisoblanadi.

Ushbu metod quyidagi variantlarda qo'llaniladi:

- 1) geneologik izlanish (qarindoshlarni o'rganish);
- 2) asrab olingan bolalar va ota-onalarni o'rganish;
- 3) egizaklarni o'rganish (monozigot va dizigot juft egizaklarni solishtirish).

Egizaklar metodi yordamida har xil oilalarda yashovchi va xar biri o'z ta'lim sistemasidan o'tgan egizaklarni solishtirish, o'ta qiziqarli izlanishlar o'tkazilgan.

Zamonaviy sharoitda psixologik izlanishlar ko'pincha kompleks izlanishlar dasturiga kiritilib, bu dasturlarda boshqa fanlar vakillari qatnashishadi. Ushbu dasturlar, odatda, amaliy vazifalarni bajarish uchun ishlab chiqiladi. Bitta ob'ekt o'rganilganida kompleks izlanishlarda alohida yondishuvlar orasida vazifalar bo'linishi yuz beradi. Bunday tadqiqot turli hodisalar (masalan, insonning jismoniy, fiziologik, psixologik, ijtimoiy rivojlanishi va boshqalar) orasidagi aloqa va bog'lanishini belgilash imkonini beradi

2.3 Kuzatish va eksperiment metodlarining yosh psixologiyasida qo'llanilish xususiyatlari

Kuzatish — psixik xususiyatlarni uzoq vaqt davomida, rejali, biror maqsad asosida o'rganish. Kuzatish — universal metod bo'lib, turli vaziyatlarda ishlatiladi. Ilmiy kuzatish hayotiy (ilmiy bo'lmagan) kuzatishdan tubdan farq qiladi. Hayotiy kuzatish – kundalik hayotda, rejasiz amalga oshirilib, turli tasodiflarga bog'liq bo'ladi. Kuzatish ilmiy bo'lishi shu bilan bir qatorda psixologik-pedagogik kuzatish bo'lishi uchun bir qancha talablarga amal qilishi lozim:

1. Maqsadga yo'nalganlik. Umuman o'quvchini emas, balki uning shaxsiy sifatlari konkret namoyon bo'lishini turli vaziyatlarda va faoliyatning har xil turlarida – o'yin, o'qish, mehnat, muloqat jarayonida kuzatish.

2. Reja. Kuzatishni boshlashdan oldin muayyan vazifalar belgilanishi (nimani kuzatish), reja tuzilishi (vaqti va vositalari), ko'rsatkichlari aniqlab olishi (nimani qayd etish), bo'lishi mumkin bo'lgan xatolar va ularni oldini olish yo'llari, taxmin qilinayotgan natijalarni o'ylab olishi lozim. Bunda kuzatilayotgan xususiyat aniq belgilanishi lozim (ular ko'p bo'lmasligi zarur). Kuzatishdan maqsad xulq-atvordagi topilgan kamchiliklarni to'g'irlash yo'llarini ishlab chiqish bo'lmog'i lozim.

3. Mustaqillik. Kuzatish yo'l-yo'lakay qilinishi lozim bo'lgan emas, balki mustaqil ravishda o'tkazilishi kerak bo'lgan vazifa bo'lmog'i lozim.

4. Tabiiylik. Psixologik-pedagogik kuzatish o'quvchilar uchun tabiiy sharoitlarda o'tkazilishi lozim. U o'qituvchining ishtirokisiz o'tkazilishi zarurki, o'quvchi kuzatilayotganini sezmasin.

5. Tizimlilik. Kuzatish o'qituvchining xohishi bilan emas, balki doimiy reja asosida, tizimli ravishda yoki rejalashtirilgan ma'lum oraliqdan so'ng o'tkazilishi zarur.

6. Ob'ektivlik. Kuzatish jarayonida o'z taxminlarini emas, ob'ektiv fakt, harakat, o'quvchilar xulq-atvorining ob'ektiv xususiyatlarini qayd etish va shu asosda xulosa chiqarish lozim.

7. Qayd etish. Olingan barcha ma'lumotlar ma'lum tizimda qayd etilishi lozim. Olingan natijalar kuzatish jarayonida yoki uni o'tkazilgandan so'ng darhol qayd qilishi kerak.

Kuzatish metodining ijobiy tomoni shundaki, eksperimental ravishda o'rganish imkoni bo'lmagan faoliyatni analiz qilish, o'quvchi xulq-atvorini tabiiy sharoitda o'rganish imkoniyati mavjud.

Kuzatish pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan asosiy metodlardan biridir. Kuzatish intervallari yoshga bog'liq bo'lishi kerak.

Tug'ilgandan 2 - 3 oygacha – xar kuni

2 - 3 oydan - 1yoshgacha – xar hafta

Ilk bolalik ya'ni 1 – 3 yoshda – xar oyda

3 yoshdan 6 – 7 yoshgacha – yarim yilda 1 marta

7 – 11 yoshda – 1 yilda 1 marta kuzatish o'tkazilishi zarur.

Eksperiment metodi. Eksperiment metodi tabiiy va laboratoriya eksperimenti turlariga bo'linadi. Bu metod psixik holatni ta'riflashgagina emas, balki ularni tushuntirib berishga ham imkon beradi.

Kuzatishdan farqli o'laroq, psixologik eksperiment tadqiqotchining sinalayotgan faoliyatga faol aralashuvi mumkinligini nazarda tutadi. Jumladan, psixologik fakt aniq namoyon bo'lishiga, uning tadqiqotchi xohlagan yo'nalish bo'yicha o'zgartirilishiga, har jihatdan tadqiq qilish uchun bir necha martalab takrorlanishiga imkon beradigan shart-sharoitni yaratadi.

Laboratoriya eksperimentining harakterli belgisi faqat uning laboratoriya sharoitlarida maxsus psixologik asbob-uskunalar yordamida o'tkazishlarida va sinaluvchining xatti-harakatalari yo'l-yo'riqqa binoan sodir bo'lishi bilangina emas, balki sinalayotganligini biladigan sinaluvchi (garchi, odatda, sinalayotgan kishi eksperimentning mohiyati nimadan iboratligini, konkret nimani va nima maqsadda tadqiq qilinayotganligini bilmasa ham) kishining munosabati bilan ham belgilanadi. Laboratoriya eksperimenti yordamida bilish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish mumkin. Hozirgi paytda laboratoriya eksperimentini ko'pincha odam odatdagi sharoitlarda bajarishi mumkin bo'lgan faoliyatning ba'zi psixologik jihatlarini modellashtirilib qo'yish tarzida o'tkaziladi. Jumladan, eksperimentda anchagina hissiy zo'riqish vaziyati modellashtirilib, uning jarayonida sinaluvchi, masalan, kasbi-kori uchuvchi bo'lgan kishi anglanilgan yechimlar qabul qilishi mumkin. Yuksak darajadagi uyg'unlikni taqazo etadigan murakkab harakatlar qilishi, asboblardagi ko'rsatkichlarga munosabat bildirishi va hokazolar belgilab qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Tabiiy eksperiment (birinchi marta 1910 – yilda **A.F. Lazurskiy** taklif etgan) mo'ljallanganiga ko'ra, eksperiment o'tkazilayotganini biladigan sinaluvchida hosil bo'ladigan zo'riqishga yo'l qo'ymasligi va tadqiqotni odatdagi, tabiiy sharoitlarga (dars, suhbat, o'yin, uy vazifalarini bajarish va boshqalar) ko'chirishi lozim.

Masalan, materialni yodlashning samaradorligi uni uzoq vaqt xotirada saqlab qolish to'g'risidagi ko'rsatmaga bog'liqligini tadqiq qilish tabiiy eksperimentga misol bo'la oladi. O'quvchilardan bir guruhi o'rganilishi lozim bo'lgan material bilan tanishtiriladi va ushbu material yuzasidan ertasiga so'ralishini aytadi. Boshqa bir guruhda esa o'quv materiali xuddi shunday tarzda o'tilib bo'lgach, o'quvchilarga o'tilgan dars bir haftadan so'ng so'ralishi aytiladi. Haqiqatda esa har

ikkala guruhda ham o'quvchilardan ikki haftadan keyin so'ralgan. Ana shu tabiiy eksperiment jarayonida materialni uzoq vaqt xotirada saqlab qolishga mo'ljallangan yo'l- yo'riqning afzalliklari aniqlanadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqot vazifalarini bajaradigan tabiiy eksperiment **psixologik-pedagogik eksperiment** deb ataladi. Har xil yosh bosqichlarida o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini o'rganishda, o'quvchi shaxsini shakllantirishning konkret yo'llarini aniqlashda uning roli benihoya kattadir. Psixologik-pedagogik eksperiment uch qismdan iborat- aniqlovchi, shakllantiruvchi, nazorat eksperimentlari. Aniqlovchi eksperimentda sinalluvchilardagi biror psixik jarayonning rivojlanish darajasi aniqlanadi. Masalan, boladagi xotiraning rivojlanish darajasi "Me'yorli" testi yordamida aniqlanishi mumkin. Shakllantiruvchi eksperimentda aniqlangan psixik jarayon me'yordan orqada bo'lsa, uni rivojlantirish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi. Misolga qaytsak, xotirani rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi. Nazorat tajribalarida shakllantiruvchi ta'sirning samaradorligini aniqlash uchun diagnostik metod yana bir marta takroran o'tkaziladi." Me'yorli" testi yana bir bora o'tkazilib, maxsus matematik- statistik metodlar yordamida shakllantiruvchi ta'sirning samaradorligi aniqlanadi.

2.4. Psixologik tadqiqotlarda "metodologiya, metod, va metodika" tushunchalarining munosabatini aniqlash

Yosh va pedagogik psixologiyada tadqiqot o'tqazishning quyidagi 4- bosqichi ajratib ko'rsatiladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi.
2. Tadqiqot (eksperiment) bosqichi.
3. Ma'lumotlarni qayta ishlash bosqichi.
4. Ma'lumotlarni tushuntirib berish bosqichi.

Birinchi bosqich – tayyorgarlik bosqichi. Bunda har xil vositalar yordamida material o'rganiladi, dastlabki ma'lumotlar to'planadi (o'quv mashg'ulotlari va mehnat faoliyati chog'ida, turmushda, ataylab uyushtirilgan suhbatlar jarayonida kuzatuvdan foydalaniladi, ba'zan maxsus tanlangan savollar yozilgan anketalar qo'llaniladi, biografik ma'lumotlar aniqlanadi, anamnez to'planadi, ya'ni tadqiq qilinayotgan faktning hosil bo'lishiga qadar mavjud shart- sharoitlar ta'riflanadi va hokazolar).

Ikkinchi bosqich – xususan eksperimental bosqich bo‘lib, tadqiqotning qonkret metodikasi amal qiladi va o‘z navbatida bu bosqich birin- ketin qo‘llaniladigan qator bo‘g‘inlarga – eksperiment seriyalariga bo‘linadi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichi – tadqiqot ma’lumotlarini sifat jihatidan qayta ishlashdir. U psixologiyaning matematik apparatini – dastlab ilgari surilgan farazning tasdig‘i tarzida olingan xulosalarning haqqoniyligi haqida hukm chiqarish imkonini beradigan turli xildagi statistik usullar va ehtimollik nazariyasining asosiy qoidalarini qo‘llanishni taqozo etadi.

Tadqiqotning to‘rtinchi – bosqichi olingan ma’lumotlarni izohlab berish, ularni psixologik nazariya asosida talqin qilish, farazning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini uzil- kesil aniqlashdan iboratdir.

Psixologik tadqiqot bosqichlari

Tayyorgarlik bosqichi	
I. Muammoning o‘rganilganlik holatini tahlil qilish, vazifalarni belgilab olish, tadqiqotning ishchi farazini ilgari surish, metodikalar tanlash.	
II. Xulosalar ishonchliligini ta’minlovchi ma’lumotlar to‘plash. Buning uchun turli metodlar qo‘llanilib, bir yoki bir necha bosqichlarda eksperiment o‘tkaziladi.	
III. Tadqiqot natijalarini miqdoriy qayta ishlash, o‘rtacha qiymat, korrelyatsiya koeffisientlarini aniqlash, grafiklar va jadvallar, diagramalar tuzish.	
IV. Ma’lumotlarni tavsiflash (interpretatsiya qilish), xulosalar ishlab chiqish.	

1-jadval. Psixologik tadqiqot bosqichlari.

Rivojlanish psixologiya metodlari


Asosiy metodlar			
Kuzatish		Eksperiment	
Psixologik holatlarning sabablarini ilmiy tarzda tushuntirib beruvchi tadqiqot metodi.		Psixologik ma’lumotlarni aniqlashga qaratilgan sharoitlarni yaratish maqsadida tadqiqotchining tekshiriluvchi faoliyatlariga faol aralashuvi	
Hayotiy kuzatish	Ilmiy kuzatish	Laboratoriya eksperimenti	Tabiiy eksperiment
ma’lumotlari-ni qayd etish bilangina cheklanib,	ma’lumotlarni qayd qilishdan ularning ichki mohiyatini tushuntirib berishga o‘tish, uning zaruriy sharti – aniq reja	maxsus yaratilgan sharoitlarda, maxsus (apparaturalar) asbob uskunalari yordamida	oddiy hayotiy sharoitlarda o‘tkazilib, turli yosh davrlarida

tasodifiy harakterga ega.	va natijalarni maxsus kundalik yoki bayonnomalarda qayd etishdir.	oʻtkaziladi. Tekshiriluvchi xatti-harakatlari koʻrsatma orqali belgilanadi.		bilish imkoniyatlarini oʻrganish uchun qoʻllaniladi.
		Psixologik-pedagogik eksperiment		
		Aniqlovchi	Shakllantiruvi	Nazorat
Yordamchi metodlar				
Faoliyat mahsulini tahlil qilish Tarjimai hol metodi		Sotsiometriya Anketa Suhbat Egizaklar metodi Test		

2-jadval Yosh davrlar psixologiya metodlari.

O'QUV TOPSHIRIQ

Umr davrlarining amaliy o'rganish metodlarining ijobiy tomonilari.....



“Blits-so'rov”

Savollar	Javoblar
Metod nima?	
Metod va metodikaning farqini kursating?.	
Tashkiliy metod deganda nimani tushunasiz?	

Mustaqil ish yuzasidan savollar:

- 1) Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining vujudga kelish sabablarini ko'rsating.
- 2) Turli davrlarda psixik rivojlanish haqidagi talqinlarning mohiyatini yoritib bering
- 3) Fanning predmeti, nazariy va amaliy vazifalari nimalardan iborat? Uning istiqboli haqida nima deya olasiz?
- 4) Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiyada tadqiqotlarni tashkil etish va ilmiy metodlari haqida maxlumot bering.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'ixati.

1. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi. –T., 2013 yil
2. Возр.и педаг. Психология. Под.ред. А.В.Петровского. 2 е.изу.М., 1979.
3. Возр.пед.психология.Под ред.М.В.Гализо.идр М.1984
4. Емелянов.С.Б.Профессиональное самовоспитание учителя,М.,1983.
5. Кан-Калик.В.А.Учителю о педагогическом общении.М.,1987.
6. Sh.T.Alimbayeva “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” T., 20
7. Obuxova L.F. Yosh psixologiyasi. M., 1999
8. Regush L.A. Kuzatish va kuzatuvchanlik bo'yicha amaliy darslik. SPb., 2001
9. Yosh va pedagogik psixologiya bo'yicha amaliy darslik / A.I.Sherbakova tahriri ostida. M., 1987

3 MAVZU.PSIXIK TARAQQIYOT VA TA'LIM

Reja:

- 3.1. Taraqqiyot-bolaning ijtimoiy tajribani egallash jarayoni ekanligi.
- 3.2. Taraqqiyotning biologik va fiziologik shartlari
- 3.3. Faollik - bola taraqqiyotining manbai ekanligi
- 3.4. Bolalikni davrlarga ajratish muammolari

Maqsad:

Yosh davrlar pedagogik psixologiyasi fanida psixik rivojlanish va ta'lim muammosining o'ziga xos tahlilini amalga oshirish. Faollik - bola shaxsi psixik taraqqiyoti sharti ekanligini o'rganish.

Vazifa:

1. Taraqqiyot-bolaning ijtimoiy tajribani egallash jarayoni ekanligi xaqida tushunchaga ega bo'lish
2. Taraqqiyotning biologik va fiziologik shartlari asoslash va yoritish
3. Faollik - bola taraqqiyotining manbai ekanligini bayon etish
4. Bolalikni davrlarga ajratish muammolari asoslab berish

Tayanch tushunchalar:

taraqqiyot, faollik, biologik va fiziologik omillari genetik omillar, ijtimoiy omillar, yosh taraqqiyoti davrlari

3.1. Taraqqiyot-bolaning ijtimoiy tajribani egallash jarayoni ekanligi.

Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish – yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Ta'lim bolaning psixik rivojlanishi jarayonida belgilovchi rol o'ynaydi. Ta'lim tabiiy iste'dod, ijtimoiy muhit va u yoki bu yosh uchun samarali, tushunarli ta'lim usullariga asoslanadi. Shunday qilib, shu narsani ko'rish mumkinki, go'daklikda ko'rgazmali-harakatli fikrlash, keyin esa ko'rgazmali-obrazli, og'zaki-mantiqiy, mavhum, umumiy nazariy fikrlash turlari paydo bo'ladi.

Rivojlanish jarayonida faqat bilim va harakat usullarining o'zgarishi, murakablashishi sodir bo'lmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlar, ya'ni shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish dinamikasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) bola shaxsini yo'naltirishdagi umumiy xususiyatlar (o'qish, anglash, atrofdagilar bilan munosabat),

2) faoliyatining psixologik tuzilishi xususiyatlari (motiv, maqsad, ob'ekt) va

3) anglash mexanizimining rivojlanish darajasi.

Shunday qilib, bolaning butun rivojlanish jarayonini uch qismga bo'lish mumkin:

1) ta'lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi, 2) egallangan usullarni tatbiq etish mexanizmlarining psixologik rivojlanishi,

3) shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishi (yo'naltirilganlik, faoliyatning psixologik tuzilishi, anglash va fikrlash).

Ko'rsatilgan rivojlanish yo'llarining har biri o'ziga xos. Bu yo'llarning barchasi o'zaro bog'liqlik va faqat birgalikdagina psixik rivojlanish deb ataluvchi shaxsdagi o'zgarishlar jarayonini tashkil etadi.

Bir tomondan, bolaning o'z ota-onasidan meros sifatida o'zlashtirgan sifatleri: anatomo-fiziologik xususiyatlar, miya faoliyatining o'ziga xosligi, tana tuzilishi albatta psixologik jihatdan odam bolasining muhitga moslashuvi, unda erkin harakat qilishi, jarayonlarni ongida aks ettirishiga sabab bo'ladi. Chunki oddiygina anatomik anomaliya holati (qo'l yoki oyoqning kaltaligi) psixikaga va shaxsning jamiyatda o'zini tutishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan, tashqi muhit ta'sirini ham inkor etib bo'lmaydi. Masalan: agar bola maxsus o'quv maskanlarida o'qimasa, unga tarbiyaviy ta'sirlar ko'rsatilmasa, uning rivojlanishi qanday bo'lishini tasavvur qilish qiyin emas.

Bolaning psixik taraqqiyotida ta'lim-tarbiya hal qiluvchi rol o'ynaydi. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya bilan taraqqiyotning o'zaro munosabati masalasida bir qancha ta'limotlar mavjud:

1. Ta'lim-tarbiya va taraqqiyot jarayonlari bir-biridan mustaqil.

2. Ta'lim-tarbiya ayni patda taraqqiyotdir.

3. Ta'lim-tarbiya va taraqqiyot boshqa-boshqa jarayonlar bo'lsada, bir-biriga ta'sir etadi.

3.2.Taraqqiyotning biologik va fiziologik shartlari

Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlarning ijodiy faolligining rivojlanish manbaalari uning tevarak atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi determinlashgan (sababiy bog‘liqlikda) bo‘lib ijtimoiy turmush bilan bog‘liqdir. Shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Bu kelajakda insonning psixik xususiyatlari, ya’ni uning ahloqiy sifatlari, xarakteri, irodaviy hislatlari, qiziqishlari, mayl va qobiliyatlarining tashkil topishiga ta’sir qiladi.

Shuningdek, psixik va biologik taraqqiyot muayyan shart-sharoitlarda tarkib topadi. Biz odamni ijtimoiy zot deymiz. Lekin uning biologik mohiyatini inkor qilib bo‘lmaydi. Chunki odamning psixik rivojlanishi uchun tabiiy, biologik imkoniyatlar nihoyatda zarurdir. Insonning psixikasi normal shakllanishi uchun uning biologik tuzilish, miyasi va asab tizimi bo‘lishi shart. Insonning biologik tuzilishi psixik taraqqiyot uchun muhim shartdir. Bu tabiiy xususiyatlar psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar, faktorlar emas, balki faqat dastlabki shart-sharoitlardir xolos. Miya biologik tarzda tashkil topgan a’zo sifatida ongning yuzaga kelishi uchun dastlabki shartdir, ong esa inson ijtimoiy tuzilishining mahsulidir. Asab tizimi tevarak atrofdagi olamni aks ettirish uchun tug‘ma organik imkoniyatga ega. Lekin tegishli qobiliyat faqat ijtimoiy hayot sharoitidagi faoliyatda tarkib topadi. Qobiliyat kurtaklarining, ya’ni asab tizimi va miya ba’zi bir tug‘ma anotomik va fiziologik xususiyatlarining mavjudligi qobiliyatning rivojlanishi uchun tabiiy shart-sharoitdir. Bu shart-sharoitlar qobiliyat rivojlanishini ta’minlaydi. U ta’lim tarbiya ta’sirida tarkib topadi.

Biologik xususiyatlar psixik taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch emas, lekin uning taraqqiyotiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi.

1) Tabiiy xususiyatlar psixik xususiyatlar taraqqiyotining turli yo‘llarini va usullarini belgilab beradi. Inson asab tizimining xususiyatlari o‘z-o‘zicha shaxsning hech qanday psixik xususiyatlarini belgilamaydi. Hech bir yaxshi rivojlangan bola dadil yoki qo‘rqoq, irodali yoki irodasiz, mehnatsevar yoki dangasa bo‘lib tug‘ilmaydi. Agar tarbiya to‘g‘ri tashkil qilinsa asab tizimining istalgan tipi asosida xarakterning barcha ijtimoiy qimmatli hislatlarini hosil qilish mumkin.

2) Tabiiy xususiyatlar odamning biror sohada erishgan yutuqlari darajasiga ta’sir qilishi mumkin. Masalan, qobiliyat kurtaklarida tug‘ma individual farqlar bo‘ladi. Shu sabali ba’zi odamlar boshqa odamlardan

ma'lum bir faoliyatni egallash imkoniyati jihatdan ustun turishlari va shu bilan bir paytda faoliyat turini egallash imkoniyati jihatdan ulardan ojizlik qilishlari ham mumkin.

Demak, odamning ijtimoiy tashkil topgan va rag'batlantirilgan faoliyati uning psixik rivojlanishini asosiy, vositasi va shartidir.

3.3.Faollik - bola taraqqiyotining manbai ekanligi

Bolaning psixik taraqqiyotida biologik va ijtimoiy faktorlardan tashqari bolani faolligi ham muhim ahamiyatga egadir. Bolalar psixologiyasi bolaga tarbiyaning passiv "ob'ekti" deb qaramaydi, balki bola psixikasining taraqqiyotida bolaning aktiv faoliyatini to'g'ri tashkil qilib, yo'lga solib turilsa, undagi mavjud sifatlar faoliyatining har xil turlarida namoyon bo'lib, o'sayotganini hisobga olib turilsagina tarbiya muvoffaqiyatli bo'ladi.

Bola psixikasi o'yin, o'qish, o'rganish, mehnat va ijtimoiy faoliyat jarayonida tarqqiy etadi. Har bir faoliyat bolaning hayoti o'zgarishi bilan turli yoshda turlicha xarakter kasb etadi. Agar bog'chagacha va bog'cha yoshi davridagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin bo'lsa, maktab yoshidagi bolalar faoliyati o'qish, o'rganishdan iboratdir. O'yin yoki o'qish, o'rganish, mehnat yoki ijtimoiy faoliyat turlari orasida keskin chegara bo'lishi mumkin emas. Maktab yoshi davrida o'yin ham saqlanadi, u hatto katta yoshli kishilar hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat faoliyatiga esa biz bolalarni juda yoshligidan jalb qilamiz. Lekin har bir faoliyat turi ham o'z mazmuni bilan bolaning ham jismoniy, ham psixologik tomondan rivojlanishi imkonini beradi. Bola psixikasining taraqqiy etishda o'yinning roli beqiyosdir. Biz bolaning psixik taraqqiyotini o'yinsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Chunki, o'yin orqali bola faqat jismoniy tomondan emas, balki psixologik tomondan ham rivojlanadi. O'yin orqali bola olamni, undagi narsa hodisalarni, ularga xos xususiyatlarni o'rganibgina qolmay, balki nutq so'zlashga, mustaqil fikrlashga, xayol qilishga, ijod qilishga, muomala madaniyatiga o'rganadi. Rus pedagogi A.S. Makarenko "Bola o'yinda qanday bo'lsa, o'sib ulg'aygach ishda ham ko'pincha, ko'p jixatdan shunday bo'ladi" –deb to'g'ri aytgan edi. A.M. Gorkiy "O'yin bolalar yashayotgan va o'zgartirishi ish lozim bo'lgan dunyoni bilish yo'lidir"-deb bejiz aytmagan. Haqiqatdan ham o'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir. Bolaning o'yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o'zgarib turadi. O'yin doimo o'zgarib turganligi tufayli bola o'ynab charchamaydi,

zerikmaydi. Bolaning atrof muhitga kishilarga, narsalarga va o'ziga bo'lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o'zgarib turadigan o'yin jarayonida namoyon bo'ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlari o'yin jarayonida bevosita rivojlanadi. O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o'zlashtiriladi. Shuning uchun psixologiya nuqtai nazardan oqilona ya'ni to'g'ri tashkil qilingan o'yin bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida—sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi. O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti-harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob – ahloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Bola o'yin jarayonida tabiblik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlarni shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo'ladi. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q. Bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga yetishiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichida bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (havas) lari bevosita o'yinda ifodalanadi. O'yin bolalarning xayolparastligi tufayli narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga “o'zgartirish” imkoniyatini beradigan faoliyatdir.

Bog'cha yoshi davrida bola o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadi. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof hayotdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashga o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo'lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilish materiallari bilan ishlash, muzika va boshqa mazmundagi mashg'ulotlar bolani aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi.

Keyinchalik bolaning hayotiga alohida faoliyat turi kirib keladi. Bu faoliyatning shunday turiki, uning bevosita maqsadi yangi-yangi informatsiyalar, harakatlar va ish-harakatlari shakllarini o'zgartirishdan iboratdir. Sub'ektning o'z maqsadi o'rganishdan iborat bo'lgan mana shunday maxsus faoliyat ta'lim jarayonidir.

Ta'lim maktabda **yetakchi faoliyat** bo'lib u quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

a) ma'lum bir faoliyat turini muvaffaqiyat bilan tashkil qilish uchun olamning zarur xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish (bu jarayonning mahsuloti bilimdir);

b) mana shu faoliyat turlarini yuzaga keltiradigan usul turli harakatlarni o'zlashtirishi (bu jarayonning mahsuloti ko'nikmadir);

v) ko'zlangan maqsad va berilgan masala shartiga mos ravishda to'g'ri yo'l va harakatni tanlash hamda nazorat qilish uchun ko'rsatilgan ma'lumotlardan foydalanish usullarini egallash (bu jarayonning mahsuloti malakadir).

Bolalarning qiziqish va qobiliyatlari o'qish-o'rganish jarayonida namoyon bo'ladi va mustahkamlanadi. Bilish, iroda va hissiyot jarayonlari ta'lim jarayonida yuzaga chiqadi va taraqqiy etadi. Bolalar aqliy jihatdan ancha rivojlanibgina qolmay, o'quvchilarning xarakter hislatlari ham o'zgaradi, ahloqiy jihatdan shakllanadi. Ta'lim-ta'rbiya jarayonida psixikaning qanchalik tez va samarali taraqqiy etishi o'qituvchilarning diqqat-e'tiboriga va o'ylab ish tutishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Bola shaxsining tarkib topishiga o'yin va o'qish – o'rganish har qancha ta'sir etmasin, bola shaxsi mehnatda takomillashadi. Mehnat ma'lum ijtimoiy foydali moddiy yoki ma'naviy ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdir. Mehnat faoliyati insonning asosiy faoliyatidir. Agar katta kishilar mehnat qilishdan to'xtab qoladigan bo'lsa, inson zoti o'z hayotini tugatgan bo'lar edi. Mehnat odam psixikasining tarkib topishi faktori sifatida bolalar hayotida ham muhim ahamiyatga ega.

Yosh bola ham tom ma'noda mehnat qilmaydi. Uning mehnat jarayoni avvalo o'yin, keyinchalik o'qish-o'rganish jarayoni bilan bog'liq holda rivojlanadi. Agar yosh bolaga “ana uni menga olib kelib ber”, – desangiz uni sizga qiynalib olib keladi. Bola bunda harakat qiladi va uni o'ynab bajarishi mumkin, lekin u o'z harakatida mehnat elementlarini bajaradi.

Mehnat ijobiy, ongli munosabatni tarbiyalashi lozim. Chunki bola mehnat qilib, avvalo qiyinchiliklarga bardosh berishga, o'z-o'zini boshqarishga, sabr toqatli bo'lishga o'rganadi. Keyinchalik kishilarning mehnatini qadrlashga, uni mohiyatini anglashga, undan zavqlanishga, jiddiy mehnatga muhabbat bilan qarashga, mehnatsiz baxtli bo'lish mumkin emasligini anglashga o'rganadi. Hammadan ham muhimi u mehnat qilib, undan zavqlanadi va mehnatning qadriga yetadigan bo'lib qoladi.

K.D. Ushinskiy (1860 yilda) "Mehnatning psixologik va tarbiyaviy ahamiyati" degan maqolasida bunday deb yozgan edi, mehnatning moddiy samaralari odamzod mulkidir; lekin mehnatning ichki, ma'naviy, hayotbaxsh kuchi odamzod qadr-qimmatining manbai bo'lib xizmat qiladi, shu bilan birga odob-ahloq va baxt-saodat manbai bo'lib ham xizmat qiladi. Ishlayotgan kishi uchun qilinadigan shaxsiy mehnatgina ana shunday hayotbaxsh ta'sir ko'rsatadi. Mehnatning moddiy samaralarini tortib olish, meros qoldirish, sotib olish mumkin, lekin mehnatning ichki, ma'naviy, hayotbaxsh kuchini tortib olish ham, meros qoldirish ham, Kaliforniyaning jami tillasini berib sotib olish ham mumkin emas; bu kuch mehnat qilgan kishida qoladi."

Darhaqiqat, bunday zavq faqat mehnat qilgan kishida qolar ekan, u shu kishining kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi. Biz yoshlarning yoshligidan boshlab mehnatga muhabbatini uyg'otishimiz va ularni mumkin qadar mehnatga ertaroq jalb qilishimiz, ahloqiy va irodaviy sifatlarini shakllanirib borishimiz, komil insonni tarbiyalashimiz hozirgi zamon talabidir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnat tarbiyasi bilan birga ijtimoiy ishlarda qatnashishi ham muhimdir, chunki u ham bola uchun mehnatdir. Bog'chada turli-tuman ishlarga qatnashishi, jumladan, guruhlarda navbatchilik qilish, gullarni sug'orish, plastilin va loydan buyumlar yasashda, qirqib yopishtirish, qurilish materiallari bilan ishlash mashg'ulotlarida tarbiyachiga yordam berish, mehnat anjomlarini, o'yinchoqlarni joy-joyiga qo'yish kabilar ham bolani mas'uliyatni his qilishga, o'z burchini anglashga, uni sadoqat bilan bajarishga o'rgatib boradi. Bolalar psixologiyasi taraqqiyot faktorlarini ta'lim-tarbiya jarayonida hisobga olish bilan birga, qaysi faktor qaysi faoliyatda faollik darajasida ekanligidan qat'iy nazar tarbiyada ularning ahamiyatiga, qudratiga asoslanadi.

Shuningdek bolalar psixologiyasi tarbiya bolaning ichki tomondan faolligini hisobga olishga asoslansagina, tarbiyaviy ta'sir natijalari qanday bo'lishini psixik xususiyatlariga va faol faoliyatiga qarab aytib bergandagina tarbiya taraqqiyotining qudrati va hal qiluvchi faktori bo'ladi deb hisoblaydi.

3.4.Bolalikni davrlarga ajratish muammolari

Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalash bo'yicha turlicha usullar mavjuddir. Bu inson shaxsini tadqiq qilishga turli nuqtai-nazardan yondashuvi va mazkur muammoning mohiyatini turlicha yoritadi.

Ma'lumki, har bir davr o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterli yangi sifatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida shakllanishi va o'z navbatida, o'zidan keyingi davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda psixologiyada mavjud yosh davrlarini tabaqalash nazariyalariga urg'u berib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bolalikni yosh davrlariga ajratish, uni tabaqalash bolalar psixologiyasida juda qadimiy muammolardan biridir. Bolaning aql-idroki, fe'l-atvori, voqelikka munosabati, jismoniy va psixik o'sishi, rivojlanish xususiyatlari uning taraqqiysi bilan o'zgarib turadi. Bu o'zgarish uning faoliyati va hayot kechirishidagina emas, balki yoshiga ham bog'liqdir. Masalan: Hozir tug'ilgan bola bilan undan bir hafta ilgari tug'ilgan bola orasida ham farq bor. Yangi tug'ilgan bola gavdasining sonidan bo'yingacha bo'lgan qismi uzun, oyoqlari kalta, boshi nisbatan katta, bo'yni qisqa, bosh suyagi esa hali qotmagan bo'ladi. U shartsiz reflekslar bilan dunyoga keladi va vaqt o'tgan sari ham jismoniy, ham psixologik tomondan shakllanib boradi. Bunday o'zgarishlar turli oy va turli yoshlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'sib ulg'ayish bolaning jismoniy taraqqiyoti bilan bo'lsa, sifat o'zgarishlari bolaning psixik taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bolada yuz beradigan sifat o'zgarishlari birdaniga sodir bo'lmaydi, asta –sekin yuzaga keladi. Bolalarni turli yosh davrlarga ajratishda ularning hayotida yuz beradigan sifat o'zgarishlari, ya'ni psixik taraqqiyoti jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishlari asos qilib olinadi. Bolalarni turli yosh davrlariga ajratishda turlicha fikrlar juda qadim zamonlardan beri fanga ma'lumdir. Ko'pchilik olimlar bolalarni turli yosh davrlariga ajratishda faqatgina jismoniy o'sishni asos qilib, uni:

- 1) chaqaloqlik davri,
- 2) balog'atga erishish davri,

3) balog'atga erishgandan keyingi davr deb tabaqalagan bo'lsalar, ba'zi birlari esa:

- 1) emish davri

2) emaklash davri,

3) ikki oyoqlab yurish davri deb davrlarga ajratishgan, yana ba'zi olimlar, masalan P.P. Blonskiy

1) tishsiz bolalik davri

2) sut tish davri

3) doimiy tish davri

4) doimiy tishning tushish davri (qarilik) deb ajratganlar. Bolalikni bunday davrlarga ajratishda ularni faqat fiziologik va biologik belgilarigagina suyanib, pisixik xususiyatlar hisobga olinmagan.

Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino ham bolalikni quyidagi davrlarga ajratgan:

1) podsholik davri 5 yoshgacha

2) qullik davri (6-12 yoshgacha)

3) o'rtoqlik, do'stlik davri deb bolaning keyingi taraqqiyoti davrini nazarda tutgan.

Podsholik davrida bolaning yoshligi uning aytganini kattalar tomonidan bajarilishi, bola o'zining "shirin" qiliqlari, gaplari bilan kattalarni o'ziga rom qilishi bilan xarakterlanadi. 6-12 yoshgacha bo'lgan davrni qullik davri deb bejiz aytmagan, albatta. Chunki bu davrda bolani xulq atvorga o'rgatish, kishilar bilan o'zaro munosabatlarda qoida –qonunlarga bo'ysunish, mehnatga o'rgatish, unga nisbatna ijobiy munosabatni shakllantirish, bilim olish, o'qish, o'rganish, mehnat qilishda qiyinchiliklarga bardosh berish, milliy an'analarimizga sadoqatli bo'lish, kattalarni, mehnatini qadrlash kabilarga muhabbat ruhida tarbiyalashda bolaga nisbatan e'tibor qaratgan.

Do'stlik davri esa bolalarga do'stlarcha munosabatda bo'lish, ularni xurmat qilish, qilgan ishlarini qadrlash, munosabatlarda samimiy bo'lish lozimligini nazarda tutadi.

Chet el psixologlari orasida ham bolalikni davrlarga ajratish masalasiga katta e'tibor berilgan. Jumladan, Shveysariyalik psixolog J. Piaje bolaning aql idrokiga xos bo'lgan xususiyatlariga qarab : 1) sensomotor intellekti (0-2 yoshgacha);

2) operatsiyalardan ilgari tafakkur davri (2-7 yoshgacha)

3) aniq operatsiyalar davri (7,8-11,12 yoshgacha);

4) rasmiy operatsiyalar davri, deb ajratadi.

Fransuz olimi, psixolog A.Valon bolaning jismoniy rivojlanishga qarab (homilaning ona qornidagi davri, impulsiv harakat davri- 0-6 oygacha, his-tuyg'u davri -6 oydan-1 yoshgacha, sensomotor davri -1-3 yoshgacha; shaxsga

aylanish davri -3-5 – yoshgacha; farqlash davri -6-11 yoshgacha; jinsiy yetilish va o'spirinlik davri (12-18 yoshgacha) deb ajratgan. Shuningdek chet el psixologiyasida bolani psixik rivojlanishi tomonidan davrlarga ajratish to'g'risida ko'pgina materiallar to'plagan. Bu materiallar asosida bolalikni 2 keskin davrga ajratilgan.

1) go'daklik davridan maktabgacha tarbiya davriga o'tishdagi inqiroz davri (3 yoshlik inqiroz davri deb ataladi);

2) kichik maktab davridan o'smirlik davriga o'tishi (balog'atga yetish inqirozi davridir).

Bu ikki davr o'rtasida juda katta farq va o'xshashliklar mavjud. Jumladan har ikkala davr ham o'zining mustaqilligi va kattalar bilan o'zaro munosabati jihatidan farqlanadi.

Rus psixologlari P.P. Blonskiy va L.S. Vigotskiylar bolalikni davrlarga ajratishda bola yashash sharoitining o'zgarishi, ta'lim-tarbiya mazmuni va usullarining o'zgarishini ham taraqqiyotga ta'sir etishini alohida e'tiborga olish lozimligini ko'rsatadilar. Ular har bir yosh davr psixik rivojlanishda alohida sifat o'zgarishlariga, bola shaxsining tuzilishida turli xususiyatlarning shakllanishi bilan farqlanishiga asoslanadilar. Shuningdek L.S. Vigotskiy aqliy taraqqiyotning ikki bosqichini: aktual o'sish bosqichi va eng yaqin o'sish bosqichini ajratadi. U yosh davrlarga ajratishning ilmiy manbai -rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib, bolalikni quyidagi bosqichlarga ajratadi.

1. Chaqaloqlik davri -2 oygacha bo'lgan davr inqirozi.
2. Go'daklik davri -2 oylikdan 1 yoshgacha bo'lgan inqiroz davri.
3. Ilk bolalik davri 1-3 yoshgacha bo'lgan inqiroz davri.
4. Maktabgacha davr -3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan inqiroz davri.
5. Maktab yoshi davri -8-12 yoshlar oralig'idagi inqiroz davri.
6. Pubertat (jinsiy yetilish) davri -14-18 yoshgacha bo'lgan inqiroz davri.

Keyinchalik, rus psixologi D.B.Elkonin bolalikni psixik taraqqiyot va bola faoliyati xarakteriga qarab 3 asosiy guruhga ajratadi.

I guruh: 1) bevosita hissiy aloqada bo'lish (0-1 yoshgacha);

2) predmetlarni qo'l bilan harakatga keltirish davri (1-3 yoshgacha);

II guruh: 1) rolli o'yinlar faoliyati davri (7-10 yoshgacha);

2) o'qish faoliyati davri (7-10 yoshgacha);

III guruh: 1) o'zaro samimiy, munosabatda bo'lish davri (10-15 yoshgacha);

2) o'quv professional faoliyat davri, kasb tanlash davri (17 yoshgacha)

D.B. Elkoninning yosh davrlarni tabaqalash haqidagi ta'limoti bolalar psixologiyasida muhim o'rin egallaydi. Bolalar psixologiyasi fanining yana bir namoyondasi A.A. Lyublinskaya ijodida ham yosh davrlarni tabaqalash masalasiga katta o'rin berilgan. Olima bola kamolotini uning faoliyatiga qarab davrlarga ajratadi.

1. Chaqaloqlik davri (0-1 yoshgacha).
2. Kichik maktabgacha yosh davri –(1 oydan -1 yoshgacha).
3. Maktabgacha tarbiyadan avvalgi davri 1 yoshdan 3 yoshgacha.
4. Maktabgacha tarbiya davri (3-7 yoshgacha).
5. Kichik maktab yoshi davri (7-11-12 yoshgacha).
6. O'rta maktab yoshi davri (13-15 yoshgacha).
7. Katta maktab yoshi davri (15-18 yoshgacha).

Pedagogik psixologiya fanining namoyondasi V.A. Kruteskiy ham bola kamolotini quyidagicha ta'kidlaydi:

1. Chaqaloqlik (0-10 kungacha).
2. Go'daklik (10-kundan -1 yoshgacha).
3. Ilk bolalik (1-3 yoshgacha).
4. Bog'chagacha davr (3-5 yoshgacha).
5. Bog'cha yoshi (5-7 yoshgacha).
6. Kichik maktab yoshi (7-11 yoshgacha).
7. O'smirlik (11-15 yoshgacha).
8. Ilk o'spirinlik yoki katta maktab yoshi (15-18 yoshgacha).

Hozirgi zamon psixologiyasining ko'zga ko'ringan yirik psixologi A.V. Petrovskiy turli yosh davrlarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olib, yoshlikni quyidagi davrlarga ajratadi.

1. Ilk bolalik (0-3 yoshgacha).
2. Bog'cha davri (3-7 yoshgacha).
3. Kichik maktab yoshi davri (7-11 yoshgacha).
4. O'rta maktab yoshi, o'smirlik davri (11-15 yoshgacha).
5. Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri (15 yoshdan 17 yoshgacha).

A.V. Petrovskiy davrlarga ajratishda har bir yosh davr orasida bosqichlar o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib ifodalagan.

Yuqorida keltirilgan ko'pchilik olimlarning bola kamolotini davrlarga ajratish muammolari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Biz ularni ham fiziologik, ham psixologik taraqqiyoti, faoliyat turlarining o'zgarib turishi va

organizmdagi sodir bo‘ladigan xususiyatlarni hisobga olib bolalikni quyidagi davrlarga ajratishni tavsiya etamiz.

1. Chaqaloqlik davri (0-1 yoshgacha);
2. Go‘daklik davri (1 oydan -1 yoshgacha);
3. Ilk bolalik davri (1-3 yoshgacha);
4. Bog‘cha yoshi davri (3-7 yoshgacha);
5. Kichik maktab yoshi davri (7-11 yoshgacha);
6. O‘rta maktab yoshi yoki o‘smirlik davri (12-15 yoshgacha);
7. Ilk o‘smirlik (kollej, litsey) davri (15-18 yoshgacha);

Albatta bu davrlarni bir-biridan qat’iyan bir yosh bilan chegaralab qo‘yish mumkin emas. Bola o‘zining o‘shida shu davrlarni ertaroq yoki kechroq kechiradi, ammo bu davrlar bir-biriga tabiiy bog‘lanib boradi va oldingisi keyingisiga zamin hozirlaydi. Har bir davrda bolaning ayrim ruhiy tomonlarigina emas, balki uning umumiy siymosi, afti-angori ham boshqacha ko‘rina boshlaydi va ularning yosh belgilariga qarab ta’lim tarbiya muassasalariga qabul qilinadi.

Bolaning yosh belgisi uning taraqqiyoti darajasini ko‘rsata olmaydi. Chunki yoshi teng 2 ta bola belgisi jihatidan bir xil bo‘lsa ham, taraqqiyot darajasi har xil bo‘lishi mumkin. Shunga binoan biz bola shaxsining individual xususiyati va yoshlik xususiyati deb ularni bir-biridan farq qilamiz. Har bir ota-ona, tarbiyachi va o‘qituvchilar bola shaxsining xususiyatlarini bilishi va uning ko‘ngliga yo‘l topa olishi lozim. Mazkur nazariyalar insonning shaxs sifatida shakllanishi bosqichlari haqida ko‘proq ma’lumot beradi, xolos. Ularda yoshlik, yetuklik, qarilik davrlarining xususiyatlari, qonuniyatlari to‘g‘risida nazariy va amaliy ma’lumotlar yetishmaydi. Shunga qaramay ular o‘rta maktab pedagogik psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘QUV TOPSHIRIQ

“T-organayzer”

Ushbu usul yordamida bola shaxsi taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillarni qiyosiy taxlil qiling.

Biologik omillar	
Afzalliklari	Kamchiliklari

Fiziologik omillar	
Afzalliklari	Kamchiliklari
Ijtimoiy omillar	
Afzalliklari	Kamchiliklari

“BBB” texnologiyasi

Talabalar egallagan nazariy bilimlar aniqlash maqsadida qullaniladi.

SAVOLLAR	BILAMAN	BILISHNI XOXLAYMAN	BILIB OLDIM
Yosh taraqqiyoti qanday davrlarga bo‘linadi?			
Faollik nima?			

Mustaqil ish yuzasidan savollar:

1. Psixik taraqqiyotning omillari, shartlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqida ma'lumot bering?
2. Psixik taraqqiyot va ta'limning o'zaro munosabati deyilganda nimani tushunasiz?
3. Psixik taraqqiyotning qonuniyatlari nimalardan iborat?
4. Yetakchi faoliyat deyilganda nimani tushunasiz?
5. Yosh davrlarini tasniflab bering?
6. Yosh davrlarini tabaqalash haqidagi turli nazariyalar haqida ma'lumot bering?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'ixati.

1. G'oziev E. Psixologiya. -Toshkent, 1994 y.
2. G'oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. - Toshkent, 1997 y.
3. Adizova T.M. Psixokorreksiya. 2006
4. Зимняя И.А. Педагогическая психология: Учебник М.: Логос, 1999.
5. Ильясов И.И. Структура протсесса учения. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1986.
6. Тализина Н.Ф. Педагогическая психология: Учебное пособие. М.: ИС

«Академия», 1998.

7. Теории учения: Хрестоматия / Ред.-сост. Н.Ф.Тализина, И.А.Володарская. М.: РПО, 1996. Ч. 1.
8. Хрестоматия по возрастной и педагогической психологии / Ред.-сост. И.И.Илясов, В.Яляудис. М., 1981.
9. Nishonova Z.T. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. 2006.
10. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. 2007.

4-MAVZU: GO'DAKLIK VA MAKTABGACHA YOSHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Reja:

- 4.1 Psixodinamika nazariyasi
- 4.2.Go'daklikdagi psixologik rivojlanish asoslari va xususiyatlari
- 4.3. Ilk bolalik yoshi tavsifi
- 4.4.Bolaning maktabgacha yoshda rivojlanishining psixologik va fiziologik xususiyatlari
- 4.5 Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi bilish jarayonlari va ijtimoiy vaziyatlar xususiyatlari

Maqsad:

Go'daklik va maktabgacha yoshning psixologik xususiyatlari erta bolalik davrida bolaning aqliy rivojlanishi. Bog'cha yoshi davrining psixologik xususiyatlari. Bog'cha yoshidagi bolaning sensor va intellektual taraqqiyoti. Emotsional-irodaviy xislatlari shakllanishi. Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlikni tahlil etish va o'rganish.

Vazifa:

- 1.Psixonamika nazariyasini yoritish
- 2.Go'daklikdagi psixologik rivojlanish asoslari va xususiyatlari asoslash
- 3.Ilkin bolalik yoshi tavsifi bilan tanishish
- 4.Bolaning maktabgacha yoshda rivojlanishining psixologik va fiziologik xususiyatlarini taqqoslash
- 5. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi bilish jarayonlari va ijtimoiy vaziyatlar xususiyatlari xaqida tushunchalar berish

Tayanch tushunchalar:

Psixonamika, go'daklik, erta bolalik, bog'cha yoshi, sensor va intellektual taraqqiyot, maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik

4.1 Psixonamika nazariyasi.

Amerika psixologi E.Erikson inson umrini 8 ta davrga ajratadi va ular o'ziga xos, betakror xususiyatlarga ega deb hisoblaydi.

1 – davr. Ilkin go'daklik (tug'ilgandan 1 yoshgacha). Bu davrda tashqi dunyoga "Ongsiz ishonch" tuyg'usi vujudga keladi. Buning asosiy sababi ota-onaning mehr-muhabbati, g'amxo'rliqi va jonkuyarligidir. Agar go'dakda bu ishonch paydo

bo'lmay qolsa, ona bolaga yomon munosabatda bo'lsa, voyaga yetganda umidsizlik vujudga keladi.

2 – davr. Kechki go'daklik (1 yoshdan 3 yoshgacha). Yarim mustaqillik va shaxsiy qadrgimmat tuyg'usi shakllanadi. Bu esa o'z tanasini boshqarish uchun keng imkoniyat



yaratib, intizom, ma'suliyat, javobgarlik, hurmat tuyg'ulari tarkib topishiga zamin hosil qiladi. Anomal rivojlanish: ikkilanish, qobiliyatga shubhalanish, hayotga moslashmaganligini his qilish.



3 – davr. Ilk bolalik (3–5 yoshgacha). Anomal rivojlanish: insonlarga befarqlik, tashabbusning sustligi, boshqa bolalarga hasad, beqarorlik. Tashabbus tuyg'usi, qandaydir ishni bajarish mayli tarkib topadi, guruhliy o'yinlar, tengqurlari bilan muloqatga kirishish muhim ahamiyatga ega.

4 – davr. (5–11 yoshgacha). Bu davr maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik bilan harakterlanadi. Salbiy tomonlari – ong hayotning barcha qirralarini qamrab ololmaydi, muammolarni hal qilishda aql zakovat darajasining pastligi, bilimlarni o'zlashtirishdagi qoloqlik. Anomal rivojlanish: shaxsiy kamchiliklarni his qilish, qonformlik, passiv mehnat vazifalaridan qochish.

5 – davr. (11–20 yoshgacha). O'smirlik va o'spirinlik, hissiy yetuklik. Betakror, o'ziga xos yosh davri. Salbiy tomoni qat'iyatsizlik.

6 –davr. (20–45 yoshgacha). Ilk (erta) yetuklik. Boshqa jinsga psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati va ehtiyoji vujudga keladi. Bundan tashqari yolg'izlikka moyillik va odamovilik kabi yoqimsiz xususiyatlar bilan farqlanadi.

7 – davr. O'rta yetuklik davri (40–60 yoshgacha). Hayotiy faoliyatning barcha sohalarida (mehnat, ijodiyot, g'amxo'rlik, pusht qoldirish, tajriba uzatish) mahsuldorlik tuyg'usi hamrox bo'ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki bo'ladi. Anomal rivojlanish: xudbinlik, o'z-o'ziga e'tiborini qaratish, ishida besaramjonlik, erta invalidlik, o'zi haqida qayg'urishni yo'qolishi.

8 – davr. Kechki yetuklik (60 va undan yuqori). Hayotdan qanoatlanish tuyg'usi bilan harakterlanadi. O'tgan umri haqida o'ylash, o'limga tik qarash va undan qo'rqmaslik. Salbiy tomoni – hayot faoliyatidan noumidlik, ko'ngil sovish tuyg'ulari. Umrni bekorga o'tkazganidan qayg'urish, vaqtni tez o'tayotganidan,

o'zidan, boshqalardan qoniqmaslik, umrini boshqatdan yashashga xohish, hayotdagi betartiblikdan ranjish, o'limdan qo'rqish. Psixodinamika nazariyasi asosini shaxsning xulqini emotsiya, mayl yordamida tahlil qilish mumkinligi tashkil etadi. Kognitivistik yo'nalish namoyondalaridan birinchi bo'lgan J. Piaje aql-idrok nazariyasi va uning davrlari haqidagi ta'limotni yaratgan. Bu ta'limotda intellektning rivojlanish davrlari ko'rsatib beriladi.

Bu davrlar:

1. Sensomotor intellekt (tug'ilgandan 2 yoshgacha).
2. Operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha).
3. Konkret operatsiyalar davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha).
4. Formal operatsiyalar davri.

Har bir yosh davri o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, harakterli qarama-qarshiliklari, psixikaning sifat xususiyatlari, psixik jihatdan yangi hislatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida vujudga keladi va o'z navbatida, o'zidan keyingi davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bir yosh davrdan 2-yosh davriga o'tish tinch yo'l bilan yoki inqirozlar bilan kechishi mumkin. Buni pedagog albatta bilishi zarur. Inqiroz taraqqiyotning turli bosqichlarida vujudga kelishi mumkin. Eng yorqin namoyon bo'ladigan inqirozlar quyidagilar:

1. Yangi tug'ilgan chaqaloqlik inqirozi.
2. Uch yosh inqirozi.
3. O'smirlik davriga o'tishdagi inqiroz.
4. O'rta yosh inqirozi.

Agar kattalar tomonidan bolaning yangi ehtiyojlari hisobga olinsa hamda ularni qondirish imkoniyatlari shakllanishiga yordam berilsa, keyingi davrga o'tish uchun psixologik tayyorgarlik ishlari amalga oshirilsa inqiroz vujudga kelmasligi ham mumkin. Bunda shaxsning rivojlanishi inqirozsiz, tinch yo'l bilan amalga oshishi ta'minlanadi.

Shuningdek, pedagog har bir yosh davrida psixikaning muayyan tomonlari samarali rivojlanishi uchun optimal imkoniyatlar mavjud ekanligini ham bilishi lozim. Bunday davr senzitiv davr deb ataladi. Masalan: ilk bolalik davri, ya'ni bir yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davr bola nutqining rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Kichik maktab yosh davri – o'quv malakalarining rivojlanishi uchun qulaydir. Har bir yosh davri bir qancha xususiyatlar bilan harakterlanadi.

Bular:



1. Oilada va jamoada bola holatining o'zgarishi.
2. Ta'lim-tarbiya shakllarining o'zgarishi.
3. Bola organizmi ayrim xususiyatlarining voyaga yetishi.
4. Bolada yangicha faoliyat turining vujudga kelishi.

4.2. Go'daklikdagi psixologik rivojlanish asoslari va xususiyatlari

Go'daklik davri - bu bolaning himoyasiz, kam harakat, atrofidagi hodisalarga juda kam reaksiyasi bo'lgan boladan juda jadal ravishda rivojlanadigan, faol, tez ilg'aydigan, harakatchan, yordamga chaqira oladigan quvnoq bolaga aylanish davridir. Go'daklik davri inson hayotidagi organik ehtiyojlarni (kislorodga, ovqatga, issiq yoki sovuqqa) qondirishga nisbatan yo'naltirilgan xatti-harakatlarning tug'ma, instinktiv shakllari sof holda kuzatiladigan yagona davr hisoblanadi. Insonga xos bo'lgan xatti-harakatlarni va yangi tajribalarni egallash uchun beqiyos imkoniyatlarning borligi go'dak yoshidagi bolalarning asosiy xususiyatlaridandir. Go'dak yoshidagi bola ham jismonan, ham psixik, ham ijtimoiy jihatdan juda tez rivojlanadi. U qisqa vaqt ichida kattalar bilan munosabat o'rnatadi, predmetlarni ushlashga va ulardan foydalanishga o'rganadi. U atrof-olamdagi narsalarni kuzatadi, predmetlarni qo'li bilan ushlab, ularni qandayligini bilishga intiladi, tovushlarga e'tibor beradi va predmetlarni harakatlantirish yordamida shu tovushlarni o'zi yaratishga harakat qiladi. U o'z onasi va boshqa yaqinlari bilan emotsional munosabatga kirishadi. Juda qisqa vaqt ichida, kattalarning yaqin kelishidan quvonadigan bolaga aylanadi.

Go'daklik davridagi bolaning hayoti to'liq kattalar bilan hamkorliqdagi emotsional munosabat bilan bog'liq bo'lib, bola kayfiyatining yaxshi bo'lishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. 4-5 oylikidan boshlab, bola o'z yaqinlarini begonalardan ajrata boshlaydi. **Kattalar bilan emotsional munosabat shu yoshdagi bolalarning asosiy yetakchi faoliyati bo'lib, bola psixik taraqqiyotining asosi bo'lib hisoblanadi.** Bolaning kattalarni doimiy ravishda u bilan birga bo'lishlariga, unga o'z diqqatlarini qaratishlariga odatlanishi, uning o'yinchoqlarga nisbatan qiziqishini susayishiga olib kelishi

mumkin. Tarbiyaning to'g'ri olib borilishi bolaning kattalar bilan bo'ladigan muomala-munosabatini predmetlar, o'yinchoqlar bilan munosabatining almashinishiga olib keladi. Kattalar yordami bilan bajariladigan barcha xatti-harakatlari bolaning kelgusi psixik rivoji uchun asos bo'ladi. Kattalarning bolaga nisbatan emotsional munosabati, ularning gaplariga bolaning o'z diqqatini qaratishi, javob qaytarishga harakat qilishi, ba'zi so'zlarni yodida saqlab qolib, emotsiya bildirishi, diqqat, xotira, nutq va boshqa bilish jarayonlarining rivojlanishiga zamin bo'ladi. Ikki oylik davridan boshlab bolada oddiy ranglarni ajratish, 3-4 oyligidan boshlab, esa predmetlarning shaklini ajratish layoqati yuzaga kela boshlaydi.

4.3. Ilk bolalik yoshi tavsifi

Ilk bolalik (1-3 yosh) davrida bola yura boshlaydi, tevarak-atrofdagi narsalarni bilishdagi dastlabki qadamini qo'yadi. Nutqi yordamida atrofdagilar bilan munosabatda bo'la boshlaydi. Bu esa undagi psixik jarayonlarning rivojlanishiga imkon beradi.

Bu davrda bolaning barcha analizatorlari uygun xolda ishlay boshlaydi bu esa sezgi va idrokning usishiga olib keladi, diqqati beqaror buladi. 1 ta o'yingoxni uynab, darrov 2-chisiga o'tadi, lekin bu davrning oxirida tartibsiz xarakatlar, behuda yugurish urniga bir mashgulot bilan ancha mashgul buladigan buladi, 3 yoshga yetganda o'z-o'ziga xizmat qilish va kattalarning yumushini bajarishi tufayli ixtiyoriy diqqat o'sib boradi.

Asosan obrazli xotira ustun buladi kattalar xarakatiga taqlid qilishi xolatida xarakat xotirasi xam ko'rinadi.

Nutqning o'sishi 2 davrga bulinadi

1-davr - 1 yoshdan 1,5 yoshgacha- atrofdagilarni nutqini tushunishi - passiv nutqning rivojlanishi davri;

2-davr - 1,5-3 yoshda. Aktiv nutqni tez egallay boshlaydi, kattalarga taqlid qilib, xar bir yangi so'zni o'zlashtirib oladi. Bolada nutq paydo bulgach, fikrlash xam yaxshilanadi. Bu davrda tafakkur yaqqol obrazli bo'lib, o'yinchoqlarni xar-xil qilib kayta ko'rishida ko'rinadi. Xaèl jaraèni xam usib boradi- tulkinlanib turgan pardani dengizga, bulutlarni gulga uxshatadi.

K.N.Polivanning ta'kidlashiga ko'ra bir yoshgacha bo'lgan davrda bola qo'yidagi bosqichlarni boshidan kechiradi:

- 1) bolada biror predmet yoki vaziyatga nisbatan turg'un jalb bo'lish holati
- 2) bolaning diqqat markazida turgan predmet u uchun muhim obekt hisoblanadi.
- 3) Hohishlariga ta'qiq qo'yish ahloqiy reaksiyani vujudga keltiradi va psixologik jihatdan intilishni o'rgatadi.
- 4) So'z turg'un affektni anglatadi.

Bir yoshdan ijtimoiylikka va predmetlarga nisbatan subektiv qarash shakllana boshlaydi. bolada intilish paydo bo'lib, o'zining "men"nini paydo bo'lishining ilk bosqichlari ko'zga tashlana boshlaydi. U biror predmetni boshqarishda o'z harakatlarini ko'rsata boshlaydi.

Bolaning ikki yoshligida eng muhim harakatlardan biri bu qadam tashlash hisoblanadi. Bu harakat bolani mustaqil bo'la olishiga yordam beradi keyinchalik bola biror to'siq bo'lsa ularni aylanib o'tishni ham o'rgana boshlaydi. Ikki yoshning oxirlarida bolaning harakat koordinatsiyalari kuchaya boshlaydi, endi u qiyin harakatlarni ham o'zlashtira boshlaydi. Bu yoshdagi bola qo'lini yuvishni o'ganadi, o'yinchog'ini olish uchun stul ustiga chiqa oladi, sakrashni, balandlikka chiqishni va to'siqlarni o'zicha yengib o'tishni yaxshi ko'radi. U o'z harakat ritmini juda yaxshi tushunadi.

Bolaning rivojlanishida turli xil predmetlarni o'rganish va ularni maxsus vazifalari va ulardan foydalanishni o'rganishida namoyon bo'ladi. Bitta predmetni masalan o'yinchoq quyunchani qulog'idan qo'lidan, oyog'idan, dumidan ushlab, ularning vazifalarini ajrata oladi. Ikki yoshidan boshlab, qoshiq, piyola va shunga o'xshash predmetlarni faol ravishda tushuna oladi. Bunday predmetlardan foydalanishda bola bu predmetlarni qo'lining bir qismi sifatida tushunadi, shuning uchun bunday harakat qo'l harakati deb nomlanadi. SHunaqa qilib u har bir predmetning vazifasini o'rgana boshlaydi predmetlarni o'rganishi bolaning boshlang'ich fikrlashining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bolaning rivojlanib xarakterining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. U predmetlarni obektivligiga qarab ajrata boshlaydi, mavjud muhitda ularni o'zaro birga ko'ra olish, bir necha predmetlarning bir –biriga nisbatan bo'lgan munosabatini o'rganadi.. Predmetlarni o'rganish bolada og'zaki uslubning rivojlanishiga yordam beradi. Bola endi kattalar bilan muloqotga kirisha boshlaydi. Bola savol javob jarayoniga kirishadi, kichkina dialoglar paydo boladi. Bolada so'z boyligi kengaya boshlaydi. U so'zlarni talaffuz qilishda faol harakatini boshlab yuboradi. Bu payt bola bir bo'ginli so'zlarni ko'p talaffuz qiladi. Ikki yoshligining oxirlarida bola ikki bo'g'inli sozlarni ham talaffuz qilishni o'rgana boshlydi. Ularning talaffuzidagi eng qiziq narsa shuki ular bitta so'zni qayta –qayta takrorlashni yaxshi ko'rishadi. Bu bilan ular xuddi o'yin o'ynayotganga o'xshaydi. Natijada bola o'sha so'zni qanday talaffuz qilishni o'rganadi va uning ma'nosini ham

tushuna boshlaydi, shuningdek bola qisqa gaplar ham tuza boshlaydi. Bu jarayon atrofdagilar bilan yanada yaxshiroq muloqotga kirisha olish mumkinligini ko'rsatadi. Shuning uchun bu jarayonni Senzitiv deb nomlashadi. Nutqning shakllanishida psixologik rivojlanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar biror bir sabab tufayli masalan, birorta kasallik yoki yetarlicha bo'lmagan muloqot bolada nutqning yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi, keyinchalik uning muloqotga kirishishi sekinlashadi.

Ikki yosh oxirlarida bolada kuzatish funksiyasi rivojlana boshlaydi, u har-xil o'yinlarni va kattalar harakatini kuzata boshlaydi. Bunday yoshda ular haqiqiy predmetlarni o'ynashni ma'qul ko'radilar. Bu davrda bola juda emotsional bo'ladi.

Uch yoshgacha bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishidagi asosiy yangi o'zgarishlar.

Yosh davrlari	Bilishi	Harakati	Muloqoti
3 yosh	Ko'rgazmali harakat tafakkurning rivojlanishi. Obrazli tafakkurning dastlabki nishonalari. Atrof-muhitdan o'zini ajratishi; qat'iylikni anglashi	Qo'l predmetli harakatlarning rivojlanganligi, o'z xatti-harakatlarini irodaviy boshqarishning ko'rinishlari	Nutqning shakllanishi. O'z-o'zini anglashning yuzaga kelishi. Dastlabki axloqiy qoidalarni egallashi
2 yosh	Bilish faolligining birinchi tafakkur operatsiyalarining yuzaga kelishi	Qo'l va oyoq funksiyalarining aniq belgilanishi	Faol nutqni nutqni tushunishi, nutqning jadal rivojlanishi
1 yosh	Atrof-muhitni bilishga qiziqish	Mustaqil holda tik turish va yurish	Nutqni qo'llashning dastlabki belgilari
10 oylik	Sensomotor intellektning rivojlanishi	Mustaqil holda tik turish va yurishga harakat qilish	Bog'liqlik reaksiyasining yuzaga kelishi, begona muhit va begonalar orasida xavotirlik
8 oylik	Sensomotor intellektning yuzaga kelishi	Tayanib yurishi	Jest, mimika va pantomimika, shuningdek bo'g'inlar yordamida muloqot

7 oylik		Yordam bilan turishi	Bo'g'inlar yordamida muloqotga kirishishi
5 oylik	Sezgilarning rivojlanishi	Yordam bilan o'tirishi	Tovushlar yordamida muloqotga kirishishi
3 oylik	Ko'rish qobiliyatining shakllanishi	Yon tomoniga o'girilishi	Onaning jilmayishiga javob qaytarishi
2 hafta	Onaning tovushini boshqa tovushlardan farqlashi	Qo'l va oyoq harakatarida qat'iylik elementlarini yuzaga kelishi, harakatlardagi, qat'iylikni yuzaga kelishi	
1 hafta	Harakatlarni kuzatishi	Qo'l va oyoqlarning betartib harakati	

4.4.Bolaning maktabgacha yoshda rivojlanishining psixologik va fiziologik xususiyatlari

Ontogenezda 3 dan - 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan xolda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri(4-5 yosh) kichik bog'cha yoshi o'rta maktabgacha davr (o'rta bog'cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog'cha yoshilarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va xodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga

kiritgan barcha yutuklarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan hatti-harakatlarni,



tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini

rivojlantirish hamda ijtimoiy ahloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axlokiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axlok me'yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiklashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutki jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustahkamlashga extiyoj sezadi. O'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik xodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishiga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shugullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshi davrida bolalar jismoniy tomondan tez rivojlana boshlaydilar. Bola yoshidan oshgach, uning tashqi qiyofasi ham anchagina o'zgaradi. Bu o'zgarish turli a'zolarining nisbati boshqacha bo'lib qolganligida ko'rinadi. Bir yoshdan oshgan bolaning bosh suyaklari ilgarigidek tez o'smaydi. Boshining o'sishi biroz sekinlashib, uning evaziga qo'l va oyoqlari tez o'sa boshlaydi. Maktabgacha yoshidagi bolalar suyaklarining rivojlanishida ham jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Bu yoshdagi bolalarda tog'aysimon suyaklarning o'sishi va qotishi tezroq davom etadi. Umurtqa suyaklari borgan sari mustahkamlanib, suyaklanish (qotish) jarayoni tezlashadi. Umurtqa suyaklarining bunday o'zgarishi bola yurganda, yugurganda va murakkab sakrash harakatlarini bajarganda gavda og'irligini ko'tarish imkonini beradi.

Biroq maktabgacha yoshidagi bolalar umurtqa suyaklari hali juda ojiz va elastik bo'ladi. To'g'ri o'tirmaslik, tekis qilib solinmagan o'rinda yotish natijasida bolaning umurtqa suyaklari qiyshayib qolishi mumkin. Qiyshayib qolgan umurtqa suyagini to'g'rilash juda qiyin ishdir. Bola bir umrga mayib bo'lib qolishi mumkin. SHuning uchun ota-onalar, agar erta bog'chaga borsa, bog'cha tarbiyachilari bola suyaklarining to'g'ri va normal o'sishiga ahamiyat berishlari kerak. Bir yoshga to'lgan bolaning harakatchanligi o'rta borgan sari uning organlari faoliyatida ham muhim o'zgarishlar yuzaga keladi.

4.5 Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi bilish jarayonlari va ijtimoiy vaziyatlar xususiyatlari

Maktabgacha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, hayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o'yinchoqlar berish lozim rangli kiyimlar berish rangli xalqalar, qutichalar va shu singar o'yinchoqlar.

Bog'cha yoshidagi bolalarning turli narsalarni idrok qilishida ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli hil savollar bilan ularni tahlil qilishga o'rgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini:

1. Suratning mazmunini (syujetini) to'g'ri idrok qilishga;
2. Suratning umumiy ko'rinishida har bir tasvirlangan narsalarning o'rnini to'g'ri idrok qilishga;
3. Tasvirlangan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok qilishga qaratish kerak.



Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. SHuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi

bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun hyin juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maksadlarini ilgari suradilar.

Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlari uchun ahamiyatga ega bulgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar.

Bog'cha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega.

Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi.

Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil xarakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir.

Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so'na boshlaydi.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Ko'pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, «ko'p mahmadona bo'lma», «sen bunday gaplarni qaerdan o'rganding», deb koyib beradilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari savol ham berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'yinining psixologik xususiyatlari

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir. Bog'cha yoshidagi bolalarning



o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini uziga jalb qilib kelmoqda.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Ma'lumki, bolaning yoshi ulg'ayib mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo'yicha dunyoqarashi kengayib boradi.

Bog'cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa harakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofda o'zining haddi sigadigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan o'zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi xaydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib samolyotda uchgisi va rostakam milisioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali ya'ni bolaning uyin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin;

- birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

- ikkinchidan esa, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bulgan narsalarga aylantirib hohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning 'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan bir vositadir. O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol, surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki o'yin faqat tashki muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xislatlari ham shakllanadi. Demak,

bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati, ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir.

Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o'zi, o'yin jarayonida yuzaga kelib, rivojlanadigan narsadir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan bizning hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), xar hil xayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli hayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da extiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida turli hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashki muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirishi passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik, jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o'yin faoliyatlarining yana bir xususiyati, o'yin jarayonida bolaning qiladigan hatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko'pincha umumiylik xarakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, vrachning, milisionerning, tarbiyachining, uchuvchining hatti-harakatlarnigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning hatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar xolos. Masalan, oyisini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabilarni. O'rta yoki katta bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. O'zgacha kilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Agarda biz bolalarning o'yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, uyin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga kuprok qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon

bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari, ularning individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tassavvur, tafakkur hamda xarakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli rolli o'yinlarda bolalar, asosan, o'zlari har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning hatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o'yini asta – sekinlik bilan jamoa shaklidan xislatlarga ega bo'lib boradi.

Bolalarning individual xususiyatlarini, xususan, ularning jamoa o'yinlari orqali kuzatish qulaydir. Bu o'yinlarda bolalar kattalarning faqat predmetlarga munosabatini emas, balki ko'proq o'zaro munosabatlarini aks ettiradilar. Shuningdek, jamoa o'yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poezd» o'yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko'mir yoquvchi, provodniklar, kontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yulovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. Chunki, jamoa o'yinidagi har bir bola o'z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma'lum rollarga bo'lingan jamoa o'yin, bolalardan qat'iy qoidalariga bo'ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, xush muammolilik o'yin qoidalariga, tartib-intizomga bo'ysunish va shu kabi boshqa ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Katta bog'cha yoshida syujetli-rolli o'yinlar esa endi o'z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farklanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlana boshlaydi.

3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos-ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar. 3-7 yoshlik davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:


- predmetlarni o'rganishi;
- individual predmetli o'yinlar, jamoa syujetli-rolli o'yinlar;
- individual va guruxiy ijod;

- musobaqa o'yinlari;
- muloqot o'yinlari;
- uy mehnati.

O'QUV TOPSHIRIQ

VEEN DIAGRAMMASI

Bog'cha yoshidagi bolalarning bilish jarayonining rivojlanishi va bir biriga bog'liqligini asoslang?



“Tushunchalar tahlili ” organayzerini to'ldiring? 1-gurux

Muxim muammolarni yechimini topishda ushbu organayzerdan foydalanamiz

Tushunchalar	Mazmuni
Senzitiv	
Psixodinamika	
Turg'un	
Refleksiya	

Mustaqil ish yuzasidan savollar:

1. Bog'cha yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari.
2. Bog'cha davrida bola shaxsining rivojlanishi shart-sharoitlari.
3. Bog'cha yoshidagi bola faolyaitining psixologik xususiyatlari.
4. Bog'cha yoshdagi bolada xulq motivlarining rivojlanishi va o'ziga baho berishi shakllanishi.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'ixati.

1. Дети с нарушением развития: Хрестоматия. М., 1995.
2. Диагностика школьной дез адаптации / Под ред. S.A. Беличевой,
3. Калинина Н.В. Психологические аспекты индивидуального подхода к школьникам в процессе обучения: Метод, рек. Ульяновск, 1999.
4. Климов Е.А. Психология: воспитание, обучение: Учеб. пособие. М., 2000.
5. Ливер Бетти Лу. Обучение всего класса / Пер. с англ. М., 1995.
6. Лусканова И.Г. Методы исследования детей с трудностями в обучении: Учеб.-метод. пособие. М., 1999.

5-MAVZU: KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRI PSIXOLOGIYASI

Reja:

- 5.1.Kichik maktab yoshining umumiy tavsifi va jismoniy xususiyatlari
- 5.2. Bolada maktab hayotining boshlang'ich davri xususiyatlari
- 5.3.Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning o'qish faoliyati va bilish jarayonlarini rivojlanishi
- 5.4.Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning shaxsining rivojlanishi

Maqsad:

Maktab - bola hayotining boshlang'ich davri va uning xususiyatlarini o'rganish. Maktabga kirish bilan bog'liq psixologik qayta qurilish, kichik maktab o'quvchilarining o'qish faoliyatini o'rganish. Maktab - bola hayotining boshlang'ich davri va uning xususiyatlari. Maktabga kirish bilan bog'liq psixologik qayta qurilish. Kichik maktab o'quvchilarining o'qish faoliyati. Kichik maktab o'quvchilarining mehnat faoliyati. Kichik maktab o'quvchilarida bilish jarayonlarining rivojlanishi. Kichik maktab o'quvchilari shaxsining taraqqiyoti.

Vazifa:

- 1. Kichik maktab yoshining umumiy tavsifi va jismoniy xususiyatlarini yoritish
- 2. Bolada maktab hayotining boshlang'ich davri xususiyatlarini asoslash
- 3. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning o'qish faoliyati va bilish jarayonlarini rivojlanishini taqqoslash
- 4. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning shaxsining rivojlanishini tasniflash

Tayanch tushunchalar:

Kichik maktab yosh davri, maktab, psixologik qiyinchiliklar, o'qish va mehnat faoliyati, bilish jarayoni, shaxs taraqqiyoti: qiziqish, o'z-o'zini anglash, o'zini baholash

5.1.Kichik maktab yoshining umumiy tavsifi va jismoniy xususiyatlari

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi. Bu davrlarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning psixikasida hamda jismoniy rivojlanishida ham sezilarli darajada o'zgarishlar vujudga keladi. Kichik yoshdagi o'quvchi maktabgacha yoshdagi bolalarga

va o'zidan kattaroq yoshdagi bolalarga nisbatan bir qancha jismoniy xususiyatlarga egadir. Kichik maktab yoshida suyak tizimi mustahkam bo'lib qolgan bo'lsa-da, biroq suyaklarini qotishi jarayoni hali tamomlanmaydi.



Shuning uchun bolalardan mashg'ulotlar davomida partada to'g'ri o'tirishini talab qilib, ana shu holga e'tibor berish kerak. Bolalarni ko'p yozish bilan charchatib qo'ymaslik kerak, chunki hali ular qo'l barmoqlari va panjani aniq harakat qildirishda qiynaladilar. Ularning yurak-tomir tizimi sistemasi hali yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi, shuning uchun o'quv mashg'ulotlari va o'yinlar davomida toliqtirib qo'yishga yo'l qo'ymaslik kerak. Kichik yoshdagi o'quvchida oliy asab tizimi oldingi yosh davrlariga nisbatan ancha yuqori darajada rivojlangan bo'ladi.

Bola miyasining og'irligi 7 yoshdan keyin birmuncha ortadi. Agar 3–6 yoshda miya o'rtacha 1100 g kelsa, 7 yoshga borib u 1250g ga, 9 yoshgacha 1300g ga yetadi. Shu bilan birga 7yoshdan 11yoshgacha bosh miyaning peshana qismlari o'sayotganligi ayniqsa sezilarli bo'ladi. Bola 7 yoshdan 11yoshgacha jismoniy jihatdan nisbatan osoyishta va bir tekisda rivojlanadi. Bo'yi va og'irligi organizimining pishiqligi, o'pkasining hayotiy hajmi ancha tekis va proporsional rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda yurak muskullari avval boshda ham ancha kuchsiz bo'ladi, tez o'sadi. Qon tomirlarining diametri nisbatan katta bo'ladi. Miyaning funksional takomillanishi yuzaga keladi - miya po'stining analitik va sintetik funksiyasi rivojlanadi, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro munosabati sekin–asta o'zgaradi; tormozlanish protsessi ustunlik qiladi, shuning uchun kichik maktab yoshidagi bola yuksak darajada qo'zg'aluvchandir.

7 yoshdagi bolaning jismoniy taraqqiyotini susaytirmaslik va uni unchalik toliqtirmaslik uchun 3–5 soat dars mashg'uloti o'tish va uy vazifalarini berish tasiya qilinadi. Bola maktab ostonasiga qadam qo'yishi bilan yangi hayot faoliyatiga, yangi muhit sharoitiga kirib keladi. Bu davrdan boshlab bola faoliyatining mazmuni ham, tevarak atrofdagi narsalarga munosabati ham

o'zgaradi. Endi u o'quvchi degan sharaflı nomga ega, uning muayyan vazifalari va o'quvchilik burchi bor. Bu yoshdagi bola maktab qoidalariga rioya qilishi, dars mashg'ulotlariga kechikmay o'z vaqtida yetib kelishi, darsda o'qituvchining tushuntirayotgan materiallarini tinglab uqib olish, topshiriqlarni o'zi bajarishi lozim. Darsda o'zini qanday tutishi, gigiena va tozalikka rioya qilishi o'qituvchi va kattalar tomonidan berilgan buyruq va ko'rsatmalarni so'zsiz bajarishi, jamiyat orasida o'zini qanday tutishi, lozimligini bilishi kerak. Yashash sharoitidagi bunday o'zgarishlar bola psixikasining o'sishiga, xulq atvoriga, shaxsining tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Maktabga kirish bolaning hayotida, uning faoliyatida burilish davri hisoblanadi.

5.2. Bolada maktab hayotining boshlang'ich davri xususiyatlari

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og'irligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo'yi esa 0,5 sm gacha ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va yengil yugura oladilar. Ular sakrash, kon'kida yugurish, chang'ida uchish, suzish singari harakatlarni ham bemaolol bajara oladilar.

Musika bo'yicha mashg'ulotlarda bu yoshdagi bolalar hilma-hil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashklarni aniq, tez, yengil va chaqqon bajara oladilar. Shuningdek, 6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, ko'rish va eshitish qobiliyatiga alohida e'tibor berish, shuningdek, umurtqa pog'onasining to'g'ri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o'sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o'rgatish hali barmoq muskullari to'liq rivojlanmaganlik sababli ularga ma'lum darajada zarar keltirishi yoki uni chiroyli yoza olmasligi, o'z-o'zidan bolani o'ziga nisbatan ishonchini yoki o'qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin. Keyingisi bolaning aqliy tayyorgarligidir. Ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning ma'lum bir dunyokarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mexnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum hatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining

asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan bilish jarayonlarini talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki organizmning tabiat bilan bog'liqligini va o'zaro ta'sirini ham tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi bo'lib yuqori darajada rivojlangan ko'rgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bog'liqlikni ajrata olishidir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar balki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy rivojlanishida ham asosiy funksiyani bajaradi. Bu borada bolada ma'lum bir ko'nikmalarning tarkib topganligi ham nihoyatda muhimdir. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq.



Maktabga o'qish uchun kelaetgan bola yangi ijtimoiy mavqeini-turli majburiyatlari va xuquqlari bo'lgan va unga turli talablar qo'yiladigan-o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog'i lozim. Katta bog'cha yoshdagi bolalar asosan, maktabda o'qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu hohish va ehtiyoj motivi turlicha bo'lishi mumkin. «Menga chiroyli forma, daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi», «Maktabda o'rtoqlarim ko'p bo'ladi va men ular bilan mazza qilib o'ynayman», «Maktabda uxlatishmaydi», «Maktabning tashqi ramzlari, shubxasiz maktabdagi bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun asosiy sabab bo'la olmaydi», «Men otamga o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak», «Yozishni juda yaxshi ko'raman», «o'qishni o'rganaman», «Maktabda qiyin misollarni yechishni o'rganaman».

Ushbu hohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun tabiiy ravishda asos bo'la oladi. Bolaning endi o'zini katta bo'lganini, bog'cha bolasi emas, balki ma'lum bir majburiyatlari bor o'quvchi bo'lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug'ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy xolat xisoblanadi. Maktabda shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini

shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Har bir bola bolalar jamoasiga qo'shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta'minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o'qishdagi asosiy qiyinchilik,



ko'pincha bu yoshdagi bolalar o'qituvchini uzoq vaqt davomida tinglab olmaydilar. O'quv xarakatlariga uzoq vaqt o'z diqqatlarini to'plab olmaydilar. Bunga sabab, faqat, shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olishi xususiyatiga ham bog'liq.

Chunki, shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida so'ray oladilar. Natijada ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va o'qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

Bolaning uning atrofidagi kishilar bilan xilma-xil munosabatlari yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki ahloqiy motivasion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyat-sizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi xislarning yuzaga kelishi hisoblanadi.

5.3.Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning o'qish faoliyati va bilish jarayonlarini rivojlanishi

O'quv jarayoni I sinf o'quvchilarini o'ziga jalb qiladi. Chunki o'quv faoliyatida zavqli o'quvchi bo'lish, maktab talablarini ado etish maroqlidir. So'ngra o'qish jarayonining o'ziga bo'lgan qiziqishi o'qish samarasiga ko'chadi. O'qituvchi bolalarning muayyan maqsadga qaratilgan faoliyatga qiziqishlarini

rivojlantiradi. Ta'lim jarayonida o'quv amallarini o'qituvchi tomonidan nazorat qilib borilishi o'quvchini o'qishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi va o'qish faoliyati motivi muayyan bir maqsadga aniq yo'naltirilmagan bo'lsa, 3–4 sinf o'quvchilarining o'quv motivlari aniq bir maqsadni ko'zlashga qaratiladi. Ular nima uchun yaxshi o'qish, bilim olish, a'lochi bo'lishning motivlarini his qiladi. Ular yaxshi o'qisa, bilim olsa kelgusida muhandis, o'qituvchi, shifokor bo'lishlarini biladilar. Maktabga kirgan davridan boshlab uning asosiy faoliyati o'qish ekanligini tushungan o'quvchi o'zining muhim ijtimoiy vazifasi – o'qish, bilim orttirishdan iborat ekanligini bilib oladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qish faoliyati qat'iy ravishda maqsadga muvofiqlashtirilgandir.

Bolaning maktabga kirishi bilan butun hayot tartibi, ijtimoiy holati, jamoadagi, oiladagi ahvoli keskin o'zgarib ketadi. Maktabga kirgan davridan boshlab uning asosiy faoliyati o'qish bo'lib qoladi.

Bolaning maktab o'quvchisi bo'lishi uning hayotida “burilish”ni yuzaga keltiradi. Uning asosiy faoliyati, birinchi va eng muhim vazifasi o'qish, ya'ni yangi bilimlarni, ko'nikma va malakalarni orttirishdan, tabiat hamda jamiyat haqida sistemali ma'lumotlar to'plashdan iborat bo'lib qoladi. O'z – o'zidan ma'lumki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga nisbatan yuksak javobgarlik munosabati birdaniga tarkib topib qolmaydi. Bunda anchagina individual farqlar kuzatilsa ham o'qishga bo'lgan munosabatlar va motivlarining rivojlanish dinamikasi odatda qonuniy xarakterga ega bo'ladi. Yetti yoshli bolalar ta'limning boshlang'ich davrida maktab mashg'ulotlarining yaqin kelajakdagi istiqbollarini ijobiy idrok qiladilar. Bolalarda hatto xarakterli xususiyatlarni jihatlardan farq qiladigan o'ziga hos ehtiyoj ham paydo bo'ladi. Bu aslida hali o'qishga bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj emas, biron yangi narsani, tevarak- atrofdagi voqelik hodisalarini bilishga bo'lgan ehtiyojdir. Bu ehtiyoj o'zining kichkina bolalik holatini o'zgartirish, mustaqillikning navbatdagi bosqichiga ko'tarilishi, oilaning katta va ish bilan band a'zosi bo'lish istagidir. Bunda o'qishning tashqi belgilari yangi forma kiyish hohishi, o'z shaxsiy papkasiga ega bo'lish, mashg'ulotlar uchun o'z joyiga ega bo'lish, kitoblarini qo'yish uchun javonchaga ega bo'lish xuddi otasi yoki onasi ishga borganlaridek har kuni maktabga borish hohishi katta ahamiyatga ega. Shu bilan kichkina bolalar ko'zi oldida yuksaklikka ko'tarilishdek yoqimli istiqbol ularni maftun etadi. Maktabga bo'lgan bunday munosabatning mustahkamlanishiga ikkinchi sentyabrda tantanali bayram sharoiti, maktab o'quvchisi degan nom berish an'anasi ham anchagina yordam beradi.

Bola hali maktabga bormasdan oldinoq, ya'ni oiladan va bog'chada ijtimoiy hayotimizning turli sohalari bilan, ayniqsa maktab hayoti, ularning xilma-xil faoliyatlari bilan tanishadi va unda yuksak ijtimoiy qiziqish-havas kurtaklari paydo bo'la boshlaydi.

Bola maktab yoshiga kirib maktab borishga, o'quvchi bo'lishga g'oyat darajada qiziqadi. Bu uning gap-so'zlaridan va qilayotgan harakatlridan ham ko'rinib to'radi. SHu kezlari bola maktab va maktabda o'qish uchun kerak bo'ladigan narsalar to'g'risida ko'proq gapiradi. Sumka, "Alifbe", qalam, daftar va sanoq cho'plarini tezroq tayyorlab qo'yish ustida ko'proq bosh qotiradi. SHu bilan birga u o'zining to'plagan o'quv qurollarini nihoyatda avaylab sumkasiga solib, qayta-qayta sumkasidan olib ko'rib, ularni maktabga ko'tarib borishga oshiqadi va bunga juda ham havas qiladi. Biroq o'qishga bo'lgan dastlabki bunday havas uning tabiatiga xos bo'lgan "Bu nima?" tarzidagi tekshirish refleksi asosida yuzaga keladigan faoliyatdan iborat bo'lsa ham, lekin unda ko'rina boshlagan bunday qiziqish-havas talim-tarbiya jarayonida takomillasha boradi. O'qish bo'lsa - boladan ma'lum uyushqoqlikni, intizomlilikni, anchagina irodaviy zo'r berishlikni talab qiladigan jiddiy mehnatdir.

Maktab ta'limining birinchi kunidan boshlab kichik maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch bo'lgan asosiy qarama – qarshilik yuzaga keladi. Bu qarama – qarshilik bola shaxsiga, uning diqqati, xotirasi, tafakkuriga nisbatan o'quv ishlari, o'qituvchilar hamda jamoa tomonidan qo'yilayotgan va doimo orttirib borilayotgan talablar bilan o'quvchining mavjud psixik rivojlanish darajasi o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. Talablar hamma vaqt o'sib boraveradi va bolaning mavjud psixik rivojlanish darajasi ana shu o'sib borayotgan talablarga tenglashishga to'xtovsiz ravishda intilaveradi. To'g'ri tashkil etilgan ta'limda bu turdagi bolalar o'rta maktab dasturida ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab, o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. O'zlashtirmaslikning asosiy sabablari: bu aqliy taraqqiyot va uquvchanlikning bir muncha orqada qolishidir. N.S.Leytes mulohazalariga ko'ra inson yoshi ulg'aygan sari aqliy rivojlanish darajasi bir muncha ko'tariladi, uquvchanlik esa bir muncha pasayadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning uquvchanligi albatta o'smir va o'spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o'smir va o'spirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan yuqoridir.

Oradan ma'lum vaqt o'tgach shodiyona lahzalarining ta'siroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va o'qishning kundalik aqliy mehnat, irodaviy zo'r berish, yoqtirmagan narsa bilan shug'ullanish, diqqatni taqsimlash, o'z xulqini idora qilish ekanligini anglaydi. SHunday aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa, uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi. O'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak. Birinchi sinf o'quvchisida o'qish faoliyatining aynan o'ziga qiziqish ko'zga tashlanadi. Psixolog olimlar o'tkazgan maxsus tadqiqotlarda bolalar bilan keraksiz mashqlar o'tkazilgan va ularga oldindan bu mashqlar keyinchalik kerak bo'lmasligi aytilgan, lekin bolalar ularni bajarishga kirishganlar. O'quvchi shaxsiy faoliyatida erishgan dastlabki yaxshi natija uni boshqa natijalarni egallashga undaydi. Uning o'qish faoliyatidagi birinchi mehnat mahsuli shodlik va quvonch his-tuyg'o'sini keltirib chiqaradi.

Masalan: ayrim o'quvchilar u yoki bu matnni bir necha marta o'qishga harakat qiladilar. O'qish faoliyatiga qiziqish, uning mazmuniga ham qiziqishni vujudga keltiradi, bilim olish ehtiyojini tug'diradi va o'qish motivlarini tarkib toptiradi.

Shaxs shakllanishida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatini baholash unda o'qishga ijobiy munosabatni uyg'otishda muhim ahamiyatga egadir. 7 yosh bo'lgan bolalardagi maktabga, o'qishga bo'lgan bu xildagi dastlabki qiziqish – havaslar, asosan ulardagi ixtiyorsiz diqqat protsessida ro'y beradigan bevosita qiziqish – havaslardir.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda keyinroq borib o'z diqqat –e'tiborini muayyan bir narsaga, voqelik va hayotning ma'lum bir sohasiga, ma'lum bir faoliyatga birmuncha uzoq vaqt va barqaror qaratilishida ifodalanadigan bevosita qiziqishlar sekin- asta yuzaga kela boshlaydi. Dars jarayonida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar tevarak – atrofdagi narsa va hodisalarni kengroq tushunib boradilar. Har xil narsalarga qiziqqa boshlaydilar, ularning qiziqishlari borgan sari takomillashib, barqaror tus ola boradi. Endi maktab o'quvchilarini tevarak – atrofdagi ayrim hodisalargina emas, balki o'sha hodisalarning sodir bo'lish sabablari ham ko'proq qiziqтира boshlaydi. Shuning uchun ham bu davrda bola tomonidan beriladigan har xil “Nega bunday?”, “Nimadan qilingan?”, “Bu nima uchun kerak?” singari savollar yanada ko'payib ketadi.

Bolada ta'lim-tarbiya jarayonida ko'proq narsalarni bilib olishga, yuqoriroq baholarga erishishga muayyan darajada ehtiyoj va zarurat paydo qilish kerak.

Shundagina u o'zidagi buday talabni qondirishga harakat qiladi va aktiv faoliyat ko'rsatadi. Dars materiallarini bilib olishga, o'qituvchining topshiriqlarini yaxshilab bajarishga intiladi. Buning uchun esa bolani muayyan kun tartibiga odatlantirish va doimo dars tayyorlashga o'rgatish lozim. Shundagina u o'qishda muayyan daraja muvaffaqiyatlarga erisha oladigan bo'ladi va unda o'qishga havas uyg'onadi. O'qishning dastlabki kunlarida bolalar sinfdagi dars mashg'ulotlariga juda ham qiziqadilar. Ularni ko'proq rasm chizish, yozish, doskaga chiqish, qo'l ko'tarib o'qituvchi savollariga javob berish singari ishlar qiziqtiradi. Keyinroq borib ular faqat darsdagi mashg'ulot jarayonining o'zigagina emas, balki mashg'ulotlarning mazmuniga ham qiziqu boshlaydilar. Shu kezlari bola o'zining sinf va uyida bajarib kelgan ishlarini, yozma narsalarni o'qituvchiga tezroq ko'rsatishga oshiqadi. O'qituvchining o'quvchi bajargan vazifani og'zaki ma'qullashi ham uni g'oyatda quvontiradi.

Bolalarning bu xususiyatlarini yaxshi bilgan mohir o'qituvchilar e'tiborini ko'proq yozishga va berilgan topshiriqlarni tezroq bajarish lozim ekanligigagina emas, balki topshiriqlarni sifatli qilib bajarish, to'g'ri va chiroyli qilib yozish kerakligiga ham jalab etadilar hamda topshiriqlarni yaxshilab bajargan, to'g'ri va chiroyli yozgan o'quvchilarni o'z vaqtida rag'batlantirib boradilar. Natijada o'quvchilar sekin-asta dars mashg'ulotlarining mazmuniga qiziqadigan va ularni sifatli qilib bajarishga harakat qiladigan bo'lib qoladilar. O'quvchilar o'qituvchining "yaxshi yozibsan", "to'g'ri bajaribsan", "barakalla" singari og'zaki ma'qullashigagina emas, balki uning o'zlarining daftarlariga qo'yib beradigan baholariga ham qiziqu boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda o'qishga qiziqishning ortib borishida ularning o'z bilim va tushunchalarning takomillashib borayotganligini sezib borishlari, o'z imkoniyatlarining o'sib borayotganligini tushunishlari katta ahamiyatga egadir. Ma'lumki, maktablarda bolalarni og'zaki baholash odat tusiga kirib qolgan, chunki birinchi sinf o'quvchisi ana shu baho ta'sirida o'z faoliyatini kuchaytiradi, ijodiy izlanishga harakat qiladi. Hatto, o'quvchi dastlabki paytlarda "yaxshi" yoki "yomon" bahoning farqiga ham bormaydi, uni ko'proq nechta baho olgani qiziqtiradi. O'qituvchining rag'batlantirishi uning uchun eng muhim ahamiyatga ega.

Ko'pchilik mutaxassis olimlar kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni baholash salbiy oqibatlariga olib keladi deb hisoblaydilar. Ma'lumki, faqat baho uchun o'qish bilimning ijobiy ahamiyatini pasaytirishi mumkin. Shunga ko'ra bilimni tekshirishning boshqa usullarini topish hamda qo'llash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O'quvchilarning olgan baholariga kattalarning munosabati ham ularning o'qishga qiziqishlariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, o'quvchining olgan baholariga o'qituvchi va ota-onalarning beparvolik bilan qarashlari undagi o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishiga sabab bo'ladi. SHuning uchun ham o'qituvchilar va ota-onalar bolalarning oladigan baholariga alohida e'tibor berishlari, ularning olgan yuqori baholarini ma'qullab turishlari va harakat qilinsa, hamma fanlardan ham yuqori baho olish mumkinligini aytib, ularni rag'batlantirib turishlari juda muhimdir.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xilma – xil qiziqishlar bilan birga individual qiziqishlar ham tug'ila boshlaydi. Ba'zi o'quvchilar rassomlik ishlariga ko'proq qiziqsalar, boshqalari musiqa yoki she'riyatga muhabbat qo'yadilar. Shuningdek, ayrim o'quvchilar matematika yoki texnikaga qiziqsalar, ba'zilari ona tili yoki tibbiyotni yaxshi ko'radilar. Bulardan tashqari, ayrim o'quvchilarda har – xil kasblarga bo'lgan individual qiziqishlar ham ko'rina boshlaydi. Lekin bu yoshdagi o'quvchilarning orzu – havaslari hali tez – tez o'zgarib turadigan bo'ladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, ba'zi o'quvchilardagi ayrim narsalarga bo'lgan qiziqish umrbod saqlanib qolmog'i ham mumkin. Muayyan va doimiy qiziqish – havaslar o'quvchilarda asosan ayrim o'smirlik davrida tarkib topib borayotgan ideallar bilan bog'liq ravishda vujudga keladi va o'sadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining bilish jarayonlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish jarayonlaridan keskin farq qilishi bilan birga u sifat jihatidan ham o'zgara boshlaydi va tez rivojlanadi. Ma'lumki, diqqat o'qish jarayonining zarur sharti bo'lib hisoblanadi. Idrokning to'laligi, to'g'riligi, tezligi, esda qoldirishning tez va aniqligi diqqatga bog'liqdir. Fikrlash jarayonlari diqqat tufayli aniq mantiqli, mazmunli bo'ladi. Chunki o'quvchilarning mustaqil ravishda masala yechishi va bu masalani tushuntirishi eng oldin ular diqqatining kuchi va barqarorligini ta'minlaydi. O'quvchilarni aqliy faoliyatning zarur shartlari bilan ta'minlash uchun o'qituvchi kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatining xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari kichik yoshdagi o'quvchilarni bosh miya yarim sharlari po'stida juda tez paydo bo'ladi. Shu sababli, agar bir qo'zg'ovchi bolaning miya qobig'ida qo'zg'alishni vujudga keltirsa, unda ikkinchi qo'zg'ovchi bosh miyada juda tezlik bilan yangi qo'zg'alish o'chog'ini tormozlab qo'yishi mumkin. Bu kichik yoshdagi bolalarning diqqatini juda tez va oson chalg'itish mumkinligini ko'rsatadi. O'quvchilar diqqatining bu xususiyati ularning darsda o'qish materiallarini o'zlashtirishlariga halaqit beradi. Shu sababli o'qituvchi bola diqqatining bunday xususiyatlarini doimo esda tutgan holda, darsni uning bir mazmuni bilan ikkinchisini bog'lab, ustalik bilan o'tkazishi

va ularni bir – birini tormozlab qo‘ymasligi uchun darsning har bir bosqichini yaxshilab o‘ylab ko‘rish kerak.

O‘qish jarayonining ta’siri ostida kichik yoshdagi o‘quvchilar diqqatining barcha xususiyat va sifatlari intensiv ravishda o‘sib boradi va bu bilan ixtiyorsiz diqqatdan ixtiyoriy diqqatga ko‘chish jarayoni osonlasha boradi. Kichik yoshdagi o‘quvchilik davrida diqqat tez o‘sadi, maktabdagi ta’lim–tarbiya ishlari sinflarda olib boriladi. Ishlar bolaning diqqatini shakllantiruvchi va tarbiyalovchi yangi sharoitdir. Ixtiyorsiz diqqat qiziqish bilan mustahkamlanishi sababli, har bir o‘qituvchi o‘z darsini qiziqarli va maroqli qilishga intiladi. Lekin shu narsani yodda tutish lozimki, o‘quvchilarning diqqatini bevosita qiziqarli va maroqli bo‘lmagan narsalarga ham qaratishga o‘rgatish kerak. Aks holda nozik va injiq diqqat paydo bo‘lib qoladi. O‘quvchi faqat qiziq narsalarga diqqatini qaratishga o‘rganib qolsa, unday holda faoliyatining qandaydir elementlari bevosita qiziqish uyg‘otmasa, o‘quvchi ixtiyoriy diqqatini bu elementlarga safarbar eta olmaydi. Diqqat barqarorligining nisbatan kuchli bo‘lmasligi uning yosh xususiyatidan iboratdir. Bu asosan I va II sinf o‘quvchilari uchun xarakterlidir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar diqqatining beqarorligi tormozlanish jarayonining yosh bilan bog‘liq bo‘lgan zaifligi natijasidir. I sinf o‘quvchilari, ba’zan esa II sinf o‘quvchilari ham, biron ishga o‘z diqqatini uzoq vaqt davomida to‘play olmaydilar. Ularning diqqati osonlik bilan chalg‘ib ketadi. SHu sababli ular vazifani o‘zlari bajara olmasliklari, faoliyatining tempini va ritmini yo‘qotib qo‘yishlari, so‘zlarda harflarni, gaplardan so‘zlarni tushirib qoldirishlari mumkin.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, I va II sinf o‘quvchilari 30-35 minut davomida jim o‘tirishlari va o‘z diqqatlarini saqlab turishlari mumkin. Bundan ortiq saqlab tura olmaydilar. Darsni tashkil qilishda buni hisobga olib, ishda kichkina tanaffuslar qilish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari diqqatining o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanib diqqatni tarbiyalashning ayrim usullarini ko‘rsatib o‘tamiz.

1. Diqqatni rivojlantirishda o‘quv mashg‘ulotlarini samarali o‘tish uchun qulay bo‘lgan tashqi sharoitlar katta ahamiyatga egadir. O‘quvchi shug‘ullanayotgan xonada uning diqqatini chalg‘ituvchi, qo‘zg‘atuvchi (shovqin–suron, ortiqcha gap–so‘z, ishga keraksiz buyum)lar bo‘lmasligi, tegishli gigiena sharoitlariga - sof havo, yorug‘likning yetarli bo‘lishiga rioya qilinishi kerak.

2. Ixtiyorsiz diqqatni tarbiyalash uchun maktab o‘quvchilarining bilimiga oid qiziqishlarini rivojlantirish, ularning tasavvurlari doirasini kengaytirish kerak. Bolaning umumiy aqliy rivojlanishi qanchalik yuqori bo‘lsa, unda ixtiyorsiz diqqat shunchalik kuchli rivojlangan bo‘ladi.

3. Maktab mashg'ulotlarining dastlabki haftalarida o'qituvchining hikoya va ertaklar o'qib berishi diqqatni tarbiyalash uchun yaxshi vosita bo'lib xizmat qiladi.

4. Darsni yaxshi tashkil etish diqqatni jalb qilishning va saqlab turishning muhim shartidir. Buning uchun o'qituvchi darsga vijdonan tayyorgarlik ko'rishi, mashg'ulotlar rejasi va ularni to'g'ri taqsimlash hamda boshqa vaziyatlarni atroflicha o'ylab ish ko'rishi zarur.

5. Darsning boshlanishida o'qituvchilar o'z vazifalarini tushunib olishlari, nima bilan shug'ullanishlarini bilishlari uchun darsning maqsadini ma'lum qilgan foydalidir.

6. Ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy jalb qilish uchun o'quv materiallarining mazmuni va uni bayon qilish shakllari o'qituvchining jonli, yorqin, iloji boricha ta'sirli hikoyasi, aniq masalalar keltirishi, rasmlar ko'rsatishi, ko'rsatmali qurollarni qo'llashi katta ahamiyatga egadir.

7. Diqqatning ikkilanishi va chalg'ishining mavjudligi, bolalarning charchab qolishi bot-bot dam olishini, dam olish daqiqalarni o'tkazishni, shuningdek mashg'ulotlarni bir – biri bilan o'zgartirib turishni talab qiladi.

8. Materialni bayon qilishning o'zi bir ohangda va bir xilda bo'lmasligi, balki jonli, jo'shqin xarakterda bo'lishi zarur.

9. Diqqatni jalb qilish uchun bolalarning o'quv ishlarini faollashtirish zarur. Ular ko'proq o'ylashlari, o'z kuchlari yetadigan ishlarning hammasini o'zlari mustaqil bajarishlari kerak.

10. Diqqatni rivojlantirishda o'quvchining o'ziga o'rgatilayotgan narsani tushunishi katta ahamiyatga egadir. Agar biror narsa uning uchun noaniq bo'lib qolsa, diqqati susayishi mumkin.

11. O'quvchining ixtiyoriy diqqatini rivojlantirish uchun unda o'qishga ongli munosabatni, burch tuyg'usini, o'z ishi va xulq-atvori uchun mas'uliyatni tarbiyalamoq kerak. Ixtiyoriy diqqat bolaning xarakteri va irodasiga ayniqsa bog'liq bo'ladi.

12. Bolalarda parishonxotirlikni barham toptirishga, hatto ish yoki dars qiziq va oson bo'lmagan vaqtda ham sabot-matonat va tirishqoqlik ko'rsatishga intilishni ham tarbiyalash kerak.

Bolalar bilan ishlashda diqqatning ikki turini jalb qilish uchun iloji boricha ularni bir-biri bilan almashtirib, ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqatni vujudga keltirgandagina o'qituvchi ta'lim vazifasini ham, tarbiyaviy vazifani ham muvaffaqiyatli hal eta oladi. Shuningdek, o'qituvchi bolani qaysi diqqat turi bilan band bo'lsa, undan unumli foydalanishi lozim. Chunki agar bolani doimo ixtiyoriy

diqqat bilan o'tirishini talab qilinsa, bola tez toliqadi. Boshlang'ich sinflardagi o'qish faoliyati dastavval psixik jarayonlarning rivojlanishini, ya'ni tevarak – atrofdagi olamni bevosita bilishni – sezgi va idrokning rivojlanishini stimullashtiradi.

5.4.Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning shaxsining rivojlanishi

O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi va bola shaxsi shakllanadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar - o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatni boshqa tengdoshlarining muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi psixik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida boshqa davrdan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning o'zi haqida bergan fikr va baholariga qarab, o'zlariga-o'zlari baho beradilar. O'quvchining o'z-o'ziga beradigan bahosi asosan, to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlardagi muvaffaqiyatlariga bog'liq. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha – yuqori, adekvat - mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlar ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarining yuzaga kelishi va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Bolalarda mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq bo'lsa, unda asta- sekinlik bilan bo'ysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustahkamlana boradi. Biroq bolani mustaqillika erta undash, unda ba'zi salbiy xususiyatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki u

hayotiy tajribalarni, asosan kimlargadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. SHuningdek shunday bir ijtimoiy psixik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir mas'ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin, ana shu his bolada mustahkam bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. 7-11 yoshli bolalar o'zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolaning o'z-o'zini anglashi ham jadal rivoj beradi va mustahkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'zlarining ismlarini tengdoshlari va atrofdagilar tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bola o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o'z-o'zini anglashida ahamiyati juda katta. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa qizlar o'zlarining yuz tuzilishlariga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyati jarayonida o'zidagi xulq-atvorini va faoliyatini o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtirishga hamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishning qaror topishiga yordam beradi, o'quvchi xulq-atvorining motivi ham o'zgaradi. Bunda do'stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Ahloqiy his-tuyg'ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi.

O'quv faoliyatining xususiyatlari

Kichik maktab yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati bo'lgan o'qish shu yoshdagi bolalar psixikasi rivojidagi o'zgarishlarni belgilab beradi. Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rnini o'zgartiradi. Uning vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi. - Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyatlari murakkab bo'lgan ko'pdarajali motivlar tizimi bilan boshqariladi. O'quv faoliyati motivlari o'quvchilar nima uchun o'qiyotganlarini ko'rsatib beradi. Maktabning birinchi sinfiga kelgan bolalarda ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu motivlar atrofdagilar orasida yangi mavqeni egallash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va baholaniladigan faoliyat bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Maktabga birinchi bor kelgan bola o'z faoliyatining tub mohiyati va vazifasini to'la tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb biladi. Kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va bola

o'qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. Bu xolatda bola aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi, o'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi, amalda ko'rsatib isbotlab berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak. O'qish faoliyati davomida tarkib topgan xususiyatlar bolaning kelgusi rivoji uchun zamin bo'lib hizmat qiladi. Maktabdagi o'qish bolalarning bilish ehtiyojlarini tez rivojlanishi va sifatli tarkib topishiga, ularda atrof-hayotga nisbatan faol qiziqishlarni yuzaga keltirib, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratadi. Bola asta-sekinlik bilan o'z psixik jarayonlarini boshqara olishga o'rgana boshlaydi. Taniqli psixolog va pedagoglarning ilmiy asarlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchining o'quv faoliyatidagi mustaqilligi uchun shart – sharoitlarni yaratish nihoyatda ahamiyatli ekanligi xaqida fikrlar mavjud. SHunday shart – sharoitlardan biri boshlang'ich davrda o'quv faoliyatini jamoaviy faoliyat sifatida tashkil yetilishidir

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyatini jamoa faoliyati sifatida tashkil etilishiga ko'p vaqt unchalik e'tibor berilmadi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni individul jarayon deb xisoblangan. Buning natijasida pedagogik psixologiyada o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va mustaqil faoliyati ishning individual shakllaridagina ro'yobga chiqishi mumkin deb hisoblangan. Lekin so'nggi yillarda ilg'or o'qituvchilarning ishlari guruxiy, jamoaviy bilish faoliyati har bir o'quvchiga darsda maksimal faollik va mustaqillikni ta'minlanishi zarurligini tasdiqlagan. So'nggi yillardagi olib borilgan tadqiqotlar tafakkur mustaqilligini faoliyat sifatida an'anaviy tushunishga jiddiy tuzatishlar kiritdi. O'quvchilarning o'zaro nazorati va javobgarligiga asoslangan guruxiy, jamoaviy o'quv faoliyati tafakkur mustaqilligini rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratishi aniqlangan.

Quyidagi belgilar mavjud bo'lganda taqdirdagina ishni jamoaviy deb xisoblash mumkin.

1. O'qituvchi tomonidan berilgan o'quv vazifasi yoki aloxida bir mikrogrupp tomonidan baravar bajarish qabul qilinsa.
2. Vazifalarni o'zaro taqsimlagan xolda birgalikda biron-bir ish bajarilsa.
3. O'zaro nazorat va ma'suliyat mavjudligi.
4. Ishlarni taqsimlashni tashkil etish va uning kechishini o'quvchilarning o'zlari nazorat etishlari.

Darsdagi jamoaviy faoliyat o'quvchining to'liq mustaqilligi va faolligini rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Bunda o'quvchilar asta sekinlik bilan o'quv faoliyatining sub'ekti sifatida yangi imkoniyatlarini o'zlari uchun ochib

boradilar. Bu jarayonda o'quvchi faoliyati samaraliroq bo'lishi uchun o'zini o'zi nazorat etishga harakat qiladi.

O'quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni yechish yo'llari bilan tanishadilar va ularni egallagan zahoti aniq bir masalalarni yechishda amaliy foydalanadilar.

O'quv faoliyatida nazorat va o'z-o'zini nazorat etish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv harakatlarini mustaqil rejalashtirishi va bajarishni shakllanishida juda muhimdir. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining masalalarni yechishdagi ayrim yo'l va tushunchalarni yetarlicha egallamaganligi bu tushuncha va yo'llarni shakllantirishda bolalar barcha kerakli o'quv , harakatlarini bajarishga o'rgatilmaganligining natijasidir.

Kichik maktab davrining oxirlariga kelib o'qishga nisbatan ijobiy munosabatning birmuncha pasayishi ko'zga tashlanadi. O'quv faoliyatiga qiziqish – 1-2 sinflarda ko'tarilib, 3-4 sinflarda pasayadi. O'quv faoliyatiga qiziqishning pasayishida o'qituvchining tayyor materialni bayon etishi va o'quvchilarning yodlab olishlari ustanovkasi ustunlik qiladi va o'quvchilarning faolliklari taqlid qilish harakterida bo'ladi. 3-4 sinf o'quvchilari odatda o'qilganlarni qayta xikoya qilib berishni, doskada yozilgan mashqni ko'chirib yozishni, qoidalar va she'rlarni yodlashni yoqtirmaydilar va aksincha, misol va masalalarni mustaqil ravishda yechishni, tabiat xodisalarini kuzatishni, rasm chizish, plastelin va loydan narsalar yasash ishlarini yaxshi ko'radilar . Boshqacha aytganda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tashabbus va mustaqillik imkoniyati bor bo'lgan ishlarga ko'proq qiziqish bildiradilar. Kichik maktab yoshida o'qishga qiziqishning pasayish sabablaridan biri sifatida V.A.Suxomlinskiy o'qituvchi tomonidan past bahoning ko'p qo'yilishi , bu esa bolaning o'qishga nisbatan qiziqishning pasayishi va o'z imkoniyatlariga nisbatan bo'lgan ishonchning pasayishida deb biladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning xulq-atvor xususiyatlari

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. 6-7 yoshli bolaning boshqa yosh davrdagi bolalardan farqli bo'lgan muhim psixik xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki o'quvchi bo'lish istagini aks ettirishdan iboratdir. SHu ehtiyojlar asosida bolaning o'z portfeliga, shaxsiy o'quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi

yotadi. Ana shu ehtiyoj bola shaxsining shakllanishida, shuningdek uning ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga ega xisoblanadi.

Bu davrda bolaning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. U fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Fiziologlarning fikriga ko'ra, 7 yoshga kelib bolaning katta miya yarim sharlari bilimlarni egallash imkoniyati darajasida rivojlangan bo'ladi. Lekin bu yoshda inson miyasining psixik faoliyatni rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish kabi murakkab shakllariga javob beradigan maxsus bo'limlari xali to'liq shakllanib bo'lmagan bo'ladi. (miyaning bu qismlari 12 yoshda rivojlanib bo'ladi.) Miyaning boshqaruv funksiyalarini to'liq shakllanib bo'lmaganligi kichik maktab yoshidagi bolalarning xulq-atvorida, faoliyatlarini tashkil etishlarida va emotsional soxalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ayrim 6 yoshli bolalar ota-onasining hohishi bilan hali o'qishga tayyor bo'lmay turib, maktab ostonasiga qadam qo'yishadi. Afsuski, o'qish davomida aqliy-ruhiy zo'riqish oqibatida turli xil kasalliklarga chalinib, jismoniy va psixik rivojlanishda nuqsonlar paydo bo'ladi. Bunday bolalarda eng avvalo miya strukturasining va nerv psixik jarayonlarining maktabda o'qish uchun to'liq yetishmaganligi, ko'ruv harakat koordinatsiyasi va kichik motorikaning rivojlanmaganligi, mantiqiy fikr mahsuldorligining pastligi kuzatiladi. Undan tashqari motivatsiya, irodaviy jihatlarining ayniqsa, ixtiyoriy diqqat va xotiraning shakllanmaganligi, hatti-harakatlarni ixtiyoriy boshqaruvdagi muammolar, bir so'z bilan aytganda hali "O'quvchi ichki pozisiya"sining shakllanmaganligi maktabda o'qishga tayyor bo'lmagan bolalarning muqaffaqiyatli o'zlashtirib ketishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Pedagoglar, ota-onalar, bolalarni erta maktabga berishning foyda yoki zarari to'g'risida o'ylaganlarida inson miyasi rivojlanishining neyrofiziologik qonuniyatlarini ham alohida e'tiborga olishlari lozim. Bolani erta o'qish, yozish, sanashga o'rgatib uning bilish jarayonlari zo'riqtirilsa, bolaning emotsional hissiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan miya quvvatining tanqislashuviga sabab bo'ladi. Bundan bolalarning emotsional hissiy jarayonlarining kechishida yoki jismoniy rivojlanishida kamchiliklar sodir bo'ladi.

Bunday xolatda energiya taqsimlanishining majburan buzilishi sodir bo'lib, u 7-8 yoshli bolalarni qo'rquv, agressivlik yoki giperaktivlik holatlariga olib keladi. Bu bolani maktabda o'qishga tayyorlash kerak emas degan fikr emas, lekin bolaning aqliy rivojlanishiga erta o'qishni, sanashni, yozishni o'rgatish bilangina erishib bo'lmaydi. Ma'lumki rivojlanish qonuniyatiga ko'ra har qanday taraqqiyot ko'rgazmali obrazlilikdan abstrakt mantiqiylikka qarab boradi. Agar bola xali o'qishga aqliy, ma'naviy-ruhiy jihatdan tayyor bo'lmay turib, unga harf va raqamlarni yozish, o'qish o'rgatilsa psixik rivojlanishning teskari tomonga

ketishiga sabab bo'ladi. Psixolog olimlarning fikricha, psixik va evolyusiya taraqqiyot qonunlari ham fizik qonunlardek buzilmas, hamda universaldir. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, neyrofiziologik jihatdan ixtiyoriy diqqat va o'qish uchun zarur bo'lgan ko'plab miyada kechadigan jarayonlar asosan 7-8 yoshda (aqliy yoshi o'zib ketgan bolalarda olti yoshda ham) shakllanadi. Ya'ni shu yoshda bola 45 minutlik aqliy mehnatga tayyor bo'ladi.

Maktabda o'qishning boshlanishi 7 yoshda bo'ladigan ikkinchi fiziologik kriz bilan mos keladi(bola organizmida jadal bo'yning o'sishi, ichki organlarning kattalashuvi, vegetativ o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan keskin endokrin o'zgarishlar ro'y beradi).

6-7 yoshli maktabga tayyor bolada **"Men shuni xohlayman"** motividan **"Men shuni bajarishim kerak"** motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, masalan, ma'lum darajada qo'rqo'vni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi.

Bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimi va faoliyatidagi kardinal o'zgarishlar uning organizmidagi barcha tizimlar va funksiyalaridagi o'zgarishlarga to'g'ri kelib boladan kuchli zo'riqish va o'z ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zaruriyatini taqazo etadi. Maktabga tayyor bo'lgan boladagi ushbu o'zgarishlar salbiy oqibatlarni olib kelmay, aksincha uning yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib, bular: jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir.

Jismoniy faollik - sog'lom organizmning doimiy ravishda harakat qilishga, turli mavjud to'siqlarni yengishga nisbatan bo'lgan tabiiy ehtiyojdir. Bu yoshdagi bolalar nixoyatda serharakat bo'ladilar. Bu jismoniy harakat bolaning atrofdagi narsalarga qiziqish bilan qarayotganligi, ularni o'rganishga harakat qilayotgani bilan ham bog'liqdir. Bolaning jismoniy va psixik faolligi o'zaro bog'liqdir. Chunki, jismoniy va psixik sog'lom bola harakatchan bo'ladi, charchagan, siqilgan bola esa deyarli xech narsa bilan qiziqmaydi.

Psixik faollik - bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagi predmetlarni, voqea- xodisalarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir. Maktabga birinchi bor kelgan bola psihik faolligiga qator

qiyinchiliklar ta'sir ko'rsatadi. Bu qiyinchilik avvalo uning maktab qoidalariga bo'ysunishida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim o'tirishdir. Ko'pgina o'qituvchilar o'quvchilarining doimo jim o'tirishlariga harakat qilishadi, lekin passiv, quvvati kam bo'lgan o'quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi.

Boladagi keyingi qiyinchiliklar bu maktab hayotini o'zlashtirish, yangi kun tartibini yaratish va unga moslashish, u uchun yangi bo'lgan sinf jamoasiga qo'shilish, xatti-harakatlarini chegaralovchi qoidalarni qabul qilish, o'qituvchi bilan munosabatlarni o'rnatish, o'quvchi sifatidagi yangi oilaviy munosabatlarni qabul qilish v.x kz. Bunday vaziyatlarda bola psixik faolligida ma'lum bir susayishlar yuzaga keladi.

Kattalar, ya'ni ustoz va ota-onalarning bolalarga yordam berishlari bolani o'ziga nisbatan ishonchli his etishiga olib kelishi bilan bir qatorda ularni mavjud qiyinchiliklarni yengishga va faol harakat etishlariga turtki bo'ladi.

Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'z xatti-harakatlarini aniq baholashi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi, o'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda o'quvchilari o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi talablar va shartlarni so'zsiz qabul qiladilar, shuningdek, bu qoidalarga qiyinchilik bo'lgan taqdirda ham to'la amal qilishga harakat qiladilar. Bu davrga kelib bola atrofida gilar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda, o'z sinfi va oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan birmuncha ko'proq o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'la boshlaydi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab **“Men yaxshi bolaman”** emas, balki bu xatti-harakatlar o'z galar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda (2- 3 sinflarda) o'qish mazmunini va bilimlarni egallash yo'llariga qiziqishning yuzaga keltirilishi bilan o'qishning ijtimoiy ahamiyatini tushunish mustaxkamlanishi mumkin. Bunday xolda kichik maktab davrining oxirlarga borib o'qishga nisbatan motivatsiyaning pasayishi ko'zga tashlanmaydi. Kichik maktab davrida maqsadni qo'yish shu bilan harakterlanadiki, o'quvchining o'qituvchi tomonidan berilgan maqsadlarni qabul qilishga tayyor bo'lishi uning o'zini ham o'z maqsadlarini belgilashga tayyorlanayotganligidan dalolat beradi. O'quvchi darsdagi va darsdan tashqari o'z

vaqtini mustaqil tashkil etish borasidagi maqsadlarining ahamiyatini belgilashni o'rganib boradi. Bu uy vazifalarini bajarish tartibiga amal qilishda ko'rinadi. Mustaqil ravishda o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadlardagi oraliq maqsadlari tizimini masalan, masalani yechishning o'z yo'llari va bosqichlarini mustaqil aytib bera oladi, shuningdek, oraliq maqsadlarga erishish vositalarini belgilay oladi.

Kichik maktab davrida maqsad qo'yishning murakkab harakteri birinchi sinf o'quvchisining irodaviy xatti-harakatlari bilan bog'liqligi tadqiq etilgan. Kichik maktab davrida o'quvchining o'z xatti-harakatlarini o'qituvchi qo'ygan maqsad va vazifalarga moslashtirishi sinfdan-sinfga ko'tarilgan sari kuchayib boradi. Bu o'quvchining maktab qoidalariga amal qilishida, sinfdagi vazifalarini bajarishida ko'rinadi.² Kichik maktab davridagi o'quvchilarning motivasion soxasi o'zgarib boradi. maktabgacha davrda bo'lgan umumiy bilish va motivlarning ijtimoiy yo'nalganligi aniqlashib, maktabgacha davrning oxirlariga kelib bolada "o'quvchi mavqe'i"ni egallashiga, ya'ni maktabga borishga intilish, kichik maktab davrining boshida bu pozisiya qondirilganidan so'ng esa yangi munosabatlarning – o'quv motivlari va bir qadar murakkab shaklda bo'lgan ijtimoiy motivlarning yuzaga kelishi harakterlanadi.

Kichik maktab davrining oxirlariga kelib o'quvchilarda o'quv-bilish motivlari, ya'ni -faqat yangi bilimlarnigina emas, xatto umumiy qonuniyatlarni emas, balki yangi bilimlarni topishning aynan biron bir yo'llarini egallashga qiziqish shakllantirilgan bo'lishi lozim. Ushbu motivlarning shakllantirilishi kichik maktab yoshidagi bolalarning o'rta maktabga tayyorgarligining zaruriy jihati hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi

Kichik maktab yoshidagi bolalarning ***asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi.*** O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratgan xolda, bola shaxsining rivojlanishi uchun muhim omil xisoblanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofliqi, aniqligi, hayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan farqlanadi.

² Котирло В.К. Развитие волевого поведения у дошкольников. Киев, 1971, с. 179-182.

Kichik maktab davrida o'qish faoliyati bilan shug'ullanish, jumladan, moddiy narsalarning har xil xossalari bilan tanishish sezgilarning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda asosan ko'rish va eshitish, farq qila olish sezgilari ayniqsa tez o'sadi. 7-10 yoshli bolalarda ranglarning tuslarini sezish umumiy xolda 45% ga, 10-12 yoshgacha bolalarda esa 65%gacha ortishi rossiya olimlari tomonidan aniqlanilgan. Kichik maktab o'quvchilarini rasm chizishga o'rgatish ranglarni farqlash sezgirligining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ohanglarni farq qilish sezgirligi, ayniqsa bolalarga musiqa va ashula o'rgatish jarayonida kuchli suratda o'sadi.



Sezgilarning o'sishida shuningdek, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining ham ahamiyati katta. Aniq harakat qilishga jalb etuvchi mashqlar bolalarning muskul-harakat sezgilarini o'stiradi.

Kichik maktab davriga kelib idrokning hamma turlari asosan ta'lim-tarbiya tufayli mazmun, aniqlik, ravshanlik jihatdan ko'p darajada takomillashadi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kichik maktab yoshidaga bola ma'lum darajada o'z faoliyatini o'zi mustaqil rivojlantira oladi. U o'z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishni so'z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so'zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar o'z diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori bilish motivatsiyalarini tashkil etilishini talab etadi.

O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi, o'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida qay darajada saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi Birinchi signal sistemasi ikkinchi signal sistemasidan birmuncha ustunligi tufayli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mantiqiy xotiradan ko'ra ko'rgazmali harakatli xotira ustunlik qiladi. SHuning uchun ham ular nazariy qonun va qoidalar, mavxum tushunchalardan ko'ra yaqqol ma'lumotlar, axborotlar, voqea va xodisalarni, obrazlar va narsalarni tezroq hamda mustaxkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar.

Kichik maktab yoshidagi bolalar ta'lim olish munosabati bilan mantiqiy, ya'ni ma'nosini tushunib esda qoldirish qobiliyati o'sib boradi., Esda qoladigan materialning xajmi kengayib boradi., materialning mazmunini tushunish ham chuqurlashadi hamda murakkablashadi. Ba'zan boshlang'ich sinf o'quvchilari xatto mazmuni tushunarli bo'lgan materialni ham ma'nosiga e'tibor bermasdan, mexanik ravishda o'rganib oladilar Respublikamizning psixolog olimi E.G'. G'ozievning fikriga ko'ra buning sabablari quyidagilar:

1) Kichik maktab yoshidagi bolalarda mexanik xotira boshqa xotira turlariga qaraganda yaxshiroq rivojlangani uchun ham u ma'lumotlarni aynan, o'zgarishsiz eslab qolish imkonini beradi,

2) o'quvchilar o'qituvchi qo'ygan vazifani anglab yetmaydilar, natijada uning "to'g'ri tushuntirib ber" degan talabini so'zma-so'z takrorlash deb biladilar.

3) ularning nutq boyligining yetishmasligi (ilmiy atamalar, til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish, unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi uni so'zma-so'z qaytarishni osonlashtiradi.

4) o'quvchilar matnni to'g'ri, samarali usullar bilan eslab qolish yo'llarini bilmaydilar.

Bunday xolat shu yoshdagi bolalarda albatta bo'lishi kerak bo'ladigan xolat emas. Mexanik esda qoldirish ko'pincha o'qituvchilar o'quvchilarida mantiqiy xotirani o'stirishga yetarli e'tibor bermagan xollarda bo'lishi mumkin. Ta'lim jarayonida o'quv materialining ma'nosini, mohiyatini, turli muloxazalarni, dalillarni, ilmiy asoslarini eslab qolish va esga tushirish orqali o'quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi. Birinchi sinfdan boshlab ixtiyoriy esga tushirish qobiliyati tez rivojlana boshlaydi. O'qish jarayoni uchun ixtiyoriy esda qoldirish ham, ixtiyoriy esga tushirish ham barobar talab etiladi. Busiz o'qish jarayonining normal bo'lishi mumkin emas. O'quvchilardan faqat o'rganib, bilib olishgina emas, balki o'rganib bilib olganini xotirlay olish ham talab etiladi. O'quv materialini muayyan sistema bilan xotirlash faqat ixtiyoriy esga tushirish yo'li bilangina bo'lishi mumkin.

O'quvchilar tushuncha va qoidalarni ta'riflab berolmay kolganlarida yoki ta'riflash mumkin bo'lmagan paytlarda tasvirlab, takqoslab, harakterlab, misollar bilan ko'rsatib beradilar. Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchidan turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so'raydi. Bu holat, albatta, biron-bir yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo'lgan taqdirdagina


o'quvchi tasavvurini rivojlantirishi mumkin. Aks holda bu yoshdagi bolalar mustaqil tasavvur harakatlarni qilishga qiynaladilar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizayotganlarida, shuningdek ertak va hikoyalar to'qiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'z hayollari va tasavvurlariga asoslangan xolda qiziqarli ertak va hikoyalarni o'zlari mustaqil ravishda to'qiy oladilar. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar real borliqni tasavvur etsalar, boshqalari esa fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. SHu bois kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum siymolar, syujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar. Juda ko'p multfilmlar bolalarning tasavvurlari asosida yaratilgan. Turli tasavvurlar zahirida ularning qo'rquvni yengishi, do'st topishi, xursandchilik hislari yotadi. Bundan tashqari tasavvur terapevtik natija olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan holatda ham ko'pincha hayolga beriladi. Masalan, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola o'zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo'lishini, bu uyga o'g'rilar kelib qolsa, u qahramonlik qilishini tasavvur qiladi, o'z tasavvurida yaxshi yoki yomon holatlarni boshidan kechirgan bola o'zining kelgusi xatti-harakatlari motivatsiyasi uchun zamin tayyorlaydi. Kattalarga nisbatan bo'lgan tasavvurning bolalar hayotidagi ahamiyati juda katta. Bola tasavvur qilib atrof-hayotni chuqurroq bila boshlaydi, o'zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqa oladi, ijodiy layoqati rivojlanadi. SHu yoshdagi bolalar tasavvuri ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bola xilma-xil tasavvurlarning kattagina zapasiga ega bo'ladi. O'qish jarayonida u faqat idrok va xotira tasavvurlariga tayanib qolmasdan, balki shu bilan birga, hayolida yaratilgan tasavvurlarga ham tayanib, o'rgatilayotgan materialni yaqqol tarzda o'zlashtira boradi.

Bolaning hayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy san'at asarlarini yetarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Siymolar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, o'quvchilarda hayol paydo bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'ynaydigan o'yinlarda ham ularning hayolini o'sishi davom etaveradi. O'quvchilar o'z o'yinlarida turli narsalarni yasaydilar, turli yerlarga sayohat qiladilar. Bunday o'yinlarlardan o'quvchi mazmundor taassurotlar oladi va unda turli tasavvurlar xosil bo'ladi, uning ijodiy, qurish-yasash va badiiy qobiliyatlari o'sadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining hayoli o'zining kengligi va mazmundorligi jihatidagina o'zgarib qolmasdan, balki yo'nalishi

jihatidan ham o'zgaradi. Kichik maktab davridagi o'quvchining ixtiyorsiz hayoli ham, ixtiyoriy hayoli ham maktabgacha yoshdagi bolalarning hayolidan o'zining barqarorligi bilan farq qiladi. Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. 6 yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 3000-7000 so'zni ishlatadi. Bolalar nutqining o'sishida ularning maktabdagi o'qish faoliyati ayniqsa katta rol o'ynaydi. Bola maktabga kelmasidan oldin o'zi qanday gapirayotgani ustida o'ylab o'tirmasdan, o'z nutqidan faqat aloqa va bilish vositasi tariqasida foydalanadi. Maktabda esa bola gaplashayotgan til o'qitiladigan va o'rganiladigan fan bo'lib koladi. Maktabda o'qiyotgan bola o'z ona tilining grammatikasi bilan shug'ullanishi natijasida, o'z nutqini grammatika qoidalariga muvofiq ong'li ravishda tuzishni o'rganadi. Grammatikani o'rganish jarayonida bola nutqining fonetika jixati aniqlanadi, nutqning morfologik jixati to'g'ri bo'lib boradi, sintaksis tuzilishi esa ancha takomillashadi. Nutqning ayrim jihatlariga xos bo'lgan bu sifatlar faqat grammatikani o'qib o'rganish natijasidagina o'sib kolmasdan, balki, shu bilan birga, maktabda o'qitilayotgan boshqa fanlarning ta'siri ostida ham o'sadi. Maktabda o'qitilayotgan hamma fanlarni o'rganish va shu fanlar bilan shug'ullanish jarayonida o'quvchi nutqining lug'at zaxirasi boyiydi, so'zlarning mazmuni chuqurlashadi va kengayadi, har qaysi so'zning, har kaysi terminning ma'nosi aniqlanadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, sifat, son, fe'l, va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgan afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola jumllarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola nutqni butun bolalik davrida jadal ravishda egallab borib, uni o'zlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, endi ular o'z fikrlarini bayon etish uchungina emas, balki o'z suxbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar.

Bu davrda bolaning yozma nutqi ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jumllarni to'g'ri tuzish va so'zlarni to'g'ri yozishga ma'lum talablar qo'yilganligi bilan harakterlanadi. Bola so'zlarni qanday eshitgan bo'lsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to'g'ri talaffuz etishga va yozishga o'rganishi zarur. Yozma nutqni egallash asosida bolalarda turli matnlar haqida ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada o'zi yozgan fikrlarni, so'z va harflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda


berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot to'plash, muhim jihatlarini ajratib olish, reja tuzish, uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, malakasini yuzaga keltiradi. Jummalarni to'g'ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z hatolarini topa olish va to'g'rilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Olim va metodistlar kichik maktab yoshidagi bolalarining nutqini rivojlantirish uchun quyidagi nutq turlarini sistemali ravishda tashkil etish sxemasini tavsiya etadilar. Kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog'lomligida, uning bilish faolligida tafakkurning ham rivojlanishini ko'rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi asosan atrof-olamni bilish, o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalari va ular o'rtasidagi bog'liqlardan xabardor bo'lishga intiladi. Masalan, u o'zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari esa suzishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo'lsa, u shunchalik ko'p savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo'ladi. Bolani qor, yomg'ir qanday yog'ishi, quyosh kechasi qaerda bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, yerdan osmongacha bo'lgan masofani bilish juda qiziqtiradi. Bu ularning «*Nima uchun?*», «*Qanday kilib?*», «*Nima orqali?*» kabi savollariga javob olishga qaratilgan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o'zlari ko'rib turgan narsalar haqida chuqurroq fikr yurita oladilar. Bu yoshdagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir. Psixolog-olim Piaje tadqiqotlarida 6-7 yoshli bolalardan bir-biri bilan teng bo'lgan idishlardagi suv miqdori so'ralgan. Bolalar "Idishlardagi suv miqdori teng",-deb javob berishgan. Aynan shu miqdordagi suv bolalar ko'z o'ngida turli xil balandlikdagi idishlarga quyilib, so'ngra qaysi idishdagi suv miqdori ko'pligini so'ralganida bolalar ingichka, lekin baland idishdagi suvning miqdori ko'pligini aytishgan. Bolalar aynan o'sha suv miqdorini yana bir-biri bilan teng bo'lgan idishlardagi ko'rganlaridan so'nggina o'z javoblari noto'g'riligini bilganlar. Aynan shunday tajriba bir xil kattalikdagi plastilin shakllari o'zgartirilganida, hamda teng miqdordagi tugmachalar orasi ochiqroq qilib qo'yilgan qatordagi tugmachalar bilan solishtirilganida ham xuddi shunday javoblar bo'lgan.



Bu tajriba 6-7 yoshli bolalar asosan ko‘rganlari bo‘yicha fikrlashlarini isbotlab beradi. Bolalarga beriladigan va asosan maktabda amalga oshiriladigan ta’lim bolalar tafakkurining o‘sishi uchun g‘oyat katta ahamiyatga egadir. Ta’lim va maktabda beriladigan bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida, kuzatuvchanlik, xotira va hayol o‘sib borishi bilan kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkuriga material bo‘ladigan narsalar doirasi kengaya boradi, bolalarda mantiqiy tafakkur va tanqidiy fikrlash o‘sib boradi. Ta’lim jarayonida bolaning tafakkuri katta o‘sish yo‘lini — konkret tafakkurdan abstrakt — nazariy tafakkurga o‘sish yo‘lini bosib o‘tadi.

O‘QUV TOPSHIRIQ

Kichik maktab yosh davrida o‘quv jarayoni davomida yuzaga keladigan muammolariga sabab buluvchi omillarni asoslang?



“Nilufar guli” chizmasi

Maktabda bolalar qanday psixologik qiyinchiliklarga duch keladilar?

	B			Z			C	
			B	Z	C			
	D		D	A	F		F	
			G	H	Y			
	G			H			Y	

Mustaqil ish yuzasidan savollar:

- 1.Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari.
- 2.Maktabga ijgimoiy-psixologik moslashuv yo‘llari qanday?
- 3.Bolalar intellektual rivojlanishida kichik maktab davrining ahamiyati.

- 4.O'quv jarayoni davomida yuzaga keladigan muammolar.
- 5.Kichik maktab davridagi bolalar shaxsi rivojida yuzaga keladigan yangilanishlar.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'ixati.

1. M. G Davletshin taxririda. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya Tosh. 1974 y
2. Ivanov P.I., Zufarova M.E. «Umumiy psixologiya» T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati., 2008.480b.
3. Do'stmuhammedova SH.A., Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, SH.T.Karimova, SH.T.Alimbayeva "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" T., 2013
4. Гамезо ва бош. «Возрастная и педагогическая психология» М.. 1984 й.
5. А.А.Люблинская«Учителю о психологии младшего школьника.» Москва 1977.
6. Кан-Калик.В.А.Учител о педагогическом обшение.М.,1987

.

6-MAVZU. O‘SMIR PSIXOLOGIYASI.

Reja:

- 6.1. O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari.
- 6.2. O‘smirlik yoshidagi bolalarning jismoniy xususiyatlari
- 6.3. O‘smirning hayot kechirish tarzi va uning psixik taraqqiyotga ta’siri.
- 6.4. O‘smirlarning bilish jarayonlarining shakllanishi
- 6.5. O‘smirlik davrida shaxs shakllanishi

Maqsad:

o‘smirlik davrida shaxs taraqqiyotining o‘ziga xos psixologik va fiziologik xususiyatlarini tahlil etish va o‘rganish

Vazifa:

1. O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlarini tavsiflash
2. O‘smirlik yoshidagi bolalarning jismoniy xususiyatlarini yoritish
3. O‘smirning hayot kechirish tarzi va uning psixik taraqqiyotga ta’sirini taxlil qilish
4. O‘smirlarning bilish jarayonlarining shakllanishini asoslash
5. O‘smirlik davrida shaxs shakllanishini tasniflash

Tayanch tushunchalar:

o‘smirlik, o‘smirlarning jismoniy rivojlanishi, kattalar va tengqurlar bilan munosabati xususiyati, o‘z-o‘zini anglash, akseleratsiya nazariyalari, aqliy kamolot

6.1. O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari

O‘smirlik bu bolalar uchun katta o‘zgarishlar va o‘tish davri. Ular bolalikdan o‘tib o‘spirinlikka tomon qadam qo‘yishadi. O‘smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o‘z ichiga qamrab oladi, ya’ni 5-8 sinf o‘quvchilarini. Bu yoshdagi bolalar hayotidagi eng murakkab jarayonni o‘tish davrini boshidan o‘tkazadi. O‘tish davri- bu o‘smirlar uchun ham, ularning ota-onalari, o‘qituvchilari va murabbiylari uchun ham qiyin davr. Yoshlik maksimalizmi, isyonkorlik va qarama-qarshiliklar ruhi, shuningdek, o‘z shaxsiyatini ifoda etish istagi o‘smirlar uchun odatiy holdir. Biroq, o‘smirlar hammasi ham yomon emas. Ular qiziquvchan, qiziqarli va shiddatli! Ular juda zaif bosqichda va ular kattalarning ko‘magi, g‘amxo‘rligi va ko‘rsatmalariga muhtoj



Tonya Hillman - (More Reviews)

MS, LPC



Американинг “Better help”- “Кўпроқ ёрдам” психологик ёрдам маркази ўсмирлар психологи Тоня Hillman ўсмирларга: “Ўзингизни эркин қўйинг, бироқ ҳаддингиздан ошманг! Ўзингизни кашф қилин! Оила, дўстлар, мактабнинг тазйиқларига дош беринг ва ўз келажаги ҳақида ўйланг! (яъни қайси касбни эгаллашни хоҳлашади, университетга бориш ёки ҳоказо)”, - деб маслаҳат беради.

О‘смирлик 10—11 yoshdan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sinh oldinroq namoyon bo‘lmokda. Aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinfdan boshlanadi. «Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim harakterini bildiradi. O‘smirlik – bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan harakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, harakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, turli xil ziddiyatlar avj oladi.

O‘smirlik balog‘atga yetish davri hisoblanadi. Bu davr yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham harakterlanadi.




Bola kamolotining bu davrini ko‘pincha «qiyin», «murakkab», «muhim» davr deyiladi. Ota-onalar hamda hali tarbiyaviy ish sohasida yetarli tajribaga, shuningdek o‘smirlik yoshidagi bolalarning yosh va individual xususiyatlari haqida zarur bilimlarga ega bo‘lmagan yosh pedagoglar odatda, o‘smirlarni tarbiyalash juda qiyin, deb o‘ylaydilar. Lekin hozirgi kunda o‘smirlarni tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari fanga ma’lumdir.

O‘smirlik davri o‘zining taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmagani, hissiyotga beriluvchanligi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Bu o‘smirlarga xos xususiyatdir. SHuning uchun tashqi ta’sirlarga beriluvchan o‘smir o‘g‘il- qizlarga alohida e’tibor berish talab qilinadi.

O‘smirda psixik jarayonlar keskin o‘zgarishi bilan aqliy xususiyatida ham burilishlar sodir bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug‘iladi. Bular avvalo ta’lim jarayonida ro‘y beradi: yangi axborot, ma’lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va uslublari o‘smirni qoniqtirmay qo‘yadi. Ko‘pgina o‘smirlarda o‘zidan qonikmaslik holati kuzatiladi.

Shuningdek, o‘zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga to‘g‘ri kelmayotganligi o‘smirning asabiylashishiga olib keladi. Bu esa, o‘smirda o‘zi haqida salbiy fikr va qo‘rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Katta avlodni eskirgan va ba’zan ahmoq deb hisoblaydigan o‘smirlar kattalar tomonidan qo‘yiladigan chegara va tanqidlarni qabul qila olishmaydi va ularda hayotga nisbatan isyon paydo bo‘ladi. Bunday psixologik beqarorlik o‘ziga ishongan yigit-qizlarni ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkin




Fransuz psixologi J.Piajening ta’kidlashicha, “Ijtimoiy xayot uch narsaning ta’siri til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi”. Bu borada o’zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o’z-o’zidan tafakkurini yangi imkoniyatini yaratadi.

Bu davrda o’smirlarning o’z shaxsiy fikrlari paydo bo’ladi. Ularda oz qadri-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyani aniqlashi bo’yicha o’smirlarning psixik taraqqiyotini xarakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug’iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o’rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

O’smirlik davrida yetakchi faoliyat- bu o’qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. O’smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi bu – do’slik, o’rtoqlikdagi elementar qoidalarni aniqlash va egallashdir.

O’smirda psixik jarayonlarning keskin o’zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatlarda, o’quvchi bilan o’qituvchi muloqotida, kattalar bilan o’smirlarning muomalasida qat’iy o’zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar paydo bo’ladi, bular avvalo ta’lim jarayonida ro’y beradi, yangi axborotlar, ma’lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o’smirni qoniqtirmay qo’yadi.

Qanday qilib o’smir bilan samarali suxbatlashishi mumkin?!



Melburn Bolalar Psixologiya maktabi psixologlari jamoasi tomonidan 6 ta foydali
MASLAHAT

- 1.Yaxshi tinglovchi bo'ling!
- 2.Ko'z bilan aloqa qiling!
- 3.O'zingizni tuting!
- 4.Ularni jalb qiling!
- 5.Aralash xabarlar yubormang!
- 6.Tinchlaning!

O'smir o'zining juda ko'p, istaklarini, «xohlayman»larini amalga oshirishga intiladi: katta yoshli odamlar ega bo'lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo'lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, ko'rqmas va epchil bo'lishga intiladi. Tarbiyachilar ham o'z tarbiyalanuvchilari xuddi shunday bo'lishlarini istaydilar, ammo ular ana shu fazilatlarining faqat «kerakligi» uchun shunday bo'lishini istaydilar.

Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ba'zan oilada, maktabda, keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Tarbiyalangan odamda «xohlayman» fakat «kerak»ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o'smir bola tushunishga o'rgatilmagan bo'lsa va «kerak» bo'lgan narsani ongli ravishda bajarishga odatlanmagan bo'lsa, u o'zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning talablariga qarshilik qiladi hamda o'zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi.

6.2.O'smirlik yoshidagi bolalarning jismoniy xususiyatlari.

Bu davrda o'smirning fiziologik hamda psixologik rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bo'yga o'sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalar bir yilda 5-7 sm, o'g'il bolalar esa 5-10 sm o'sadilar. Bo'yiga karab o'sish paysimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro'y beradi.



Og'iz bo'shligi va xalqumdagi o'zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o'zgaradi. Bu xolat kiz bolalarga nisbatan o'g'il bolalarda ko'proq darajada sodir bo'ladi. O'g'il bolalarning tovushi vazminroq bo'lib qoladi, do'rillaydi.

Garchi bu davrda mushaklar tez sur'at bilan o'sib, mustaxkamlashsa ham, lekin baribir oyoq va

qo‘l suyaklarining o‘rish sur‘ati orqada koladi. O‘smirlarda bu xususiyat ularning besunaqay xatti-harakatlarida, yurish-turishlaridagi qo‘pollikka, katta-katta odim tashlashlariga sabab bo‘ladi.

Fiziologik o‘zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog‘liq ravishda tanadagi barcha a‘zolarining mukammal rivojlanishi va o‘rishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon bo‘ladi. Organizmdagi o‘zgarishlar bevosita o‘smir endokrin sistemasining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Bu davrda ichki sekresiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to‘qimalarining o‘rishi va muhim ichki sekresiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak usti bezi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo‘y o‘rishi tezlashadi, jinsiy balog‘atga yetish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo‘lishi) amalga oshadi. Ko‘krak qafasi gavdaning bo‘y o‘rishiga nisbatan sekin rivojlanadi.

Buning natijasida ayrim o‘smirlarning yelkasi, ko‘kragi tor bo‘lib koladi, bu esa o‘z navbatida kislorod yetishmasligiga, nafas qisishiga olib keladi. Kislorod yetishmasligi natijasida ruhiy faoliyatga putur yetadi. Bu davrda yurak kengayishi bilan qon tomirlari ham yo‘g‘onlashadi. Qon aylanish sistemasining qayta qurilishi, vegetativ nerv sistemasidagi barqarorlik qon aylanishini buzadi va o‘smirda ba‘zi hollarda qon bosimining ortishi ro‘y beradi.



Bu davrda ayniqsa jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi O‘smirda ro‘y beradigan biologik-jismoniy o‘zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. O‘smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo‘lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo‘lmaydi. Jinsiy yetilish o‘smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta’sir ko‘rsatib, bu ta’sir bevosita emas, balki ko‘proq bilvositadir.

6.3. O‘smirning hayot kechirish tarzi va uning psixik taraqqiyotga ta’siri.

O‘smirlik davri *«o‘tish davri»*, *»krizis davr»*, *«qiyin davr»* kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan harakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o‘smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa

olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O‘z davrida *L.S. Vigotskiy* bunday holatni **“psixik rivojlanishdagi krizis”** deb nomlagan. Kichik maktab davridan so‘ng bola alohida olingan shaxs sifatida o‘z-o‘ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o‘smirlik yoshini ikki xil davrga- kichik o‘smirlik davri va katta o‘smirlik davrlariga to‘g‘ri keladi. Birinchi bosqichda o‘smir o‘zini ”bola”lardan ajratib, endi o‘zini kattalar olamiga mansubligini ta’kidlamogchidek bo‘ladi.

Bu davrda o‘smirning ijtimoiy mavqei o‘zgaradi, o‘zining yaqinlari, do‘stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o‘zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi.

Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o‘zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo‘lishi, yordam berayotgan bir gurux tengdoshlari bilan ortiq darajada bog‘liq bo‘lib qolishi va shu singari holatlar karakterlidir.

O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o‘rtoqlari va o‘qituvchilariga ko‘rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo‘li bilan ham osongina ko‘rish mumkin Ikkinchi bosqichda o‘smir endi o‘zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o‘zligini aniq anglay boshlaydi, o‘z shaxsini ulug‘lab, o‘ziga hos harakatlar qila boshlaydi.

Bu davrga kelib uning harakatlari o‘zi bilan o‘rtoq bo‘lgan bir gurux tengdoshlariga bog‘liq bo‘lmay qoladi. O‘rtoqlari o‘smirga o‘zi to‘g‘risidagi noto‘g‘ri tasavvurlardan qaytib jiddiy o‘ylab ko‘rishga uni majbur qilmoqchi bo‘lganlarida ham u bemalol rad javobini berishi va o‘z fikrida qat’iy turib himoya qilishi mumkin. Bu davrda o‘zga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va o‘z xatti-harakatlarini o‘zi taxlil qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi ikkinchi bosqichdagi o‘smirlar hayotiga xos xususiyatlardir.

O‘smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obro‘larini ko‘radilar hamda havas qiladilar. O‘smirda **katta yoshli odam bo‘lishga yoki hech bo‘lmaganda katta yoshli odam bo‘lib ko‘rinishga qiziqish**, intilish paydo bo‘ladi va bu xohishni amalga oshirish unga osondek bo‘lib ko‘rinadi. O‘smirlarning ehtiyojlari va

imkoniyatlarining o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan ota-onalari, o'kituvchilari va boshqa murabbiylari o'rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. Xo'sh, o'smirlarning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch nima? O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch - uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlarni o'smirning psixologik kamolotini ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish, uning shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish orqali asta-sekin yo'qotish mumkin.

O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. O'smir katta odam, shuningdek, chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o'zini noqulay his qiladi. Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo'lgan o'smirda juda ko'p noqulay va tashvishga tushuvchi xolatlar bo'ladi.

Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va o'smirlik davri krizisi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg'izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o'jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning yuzaga kelishi sifatida namoyon bo'ladi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi, shuningdek, psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bunday paytlarda u o'zi singari katta fiziologik, psixologik o'zgarishlar kechayotgan o'rtog'i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do'sti o'smirga ijobiy ta'sir qiladimi yoki uni yo'ldan urib, yomon ta'sir kiladimi — bu narsa uning ahlokiy qiyofasi bilan bog'liq.

O'smirlik davrida yetakchi faoliyat shaxsiy -intim muloqotdir.

O'rtoqlarining ta'siri ostida o'smir o'zining ehtiyojlari va istaklarini qondirishi mumkin. Agarda bundan qanoatlanish unga katta mamnunlik bag'ishlasa, bunday xollarda uning ba'zi bir harakat yoki qiliqlarga nisbatan

bo'lgan tasodifiy qiziqishlari dastavval ishtiyoqqa, undan keyin extiros yoki odatga aylanishi mumkin. Ana shunday yo'l bilan o'quvchilarda, masalan, matematikaga, fizika yoki ximiyaga, duradgorlik, slesarlik yoki qandaydir boshqa bir ishlarga nisbatan ishtiyoq yuzaga keladi, ammo o'quvchilar xuddi shunday yo'l bilan yolg'onchilikka, bezorilikka va boshqa axloqsiz xatti-harakatlarga ham o'rganib kolishlarni mumkin.

O'smirlar nihoyatda taqlidchan bo'lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo'ladi. Ular tashqi ta'sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar.

Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay, o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. O'smirlarga farosatlilik, tejamkorlik, ehtiyotkorlik va uzoqni ko'ra bilishlik kabi psixik xususiyatlar hali yetishmaydi.

O'smir yoshlarning xulq-atvori va faoliyatlarida ba'zan o'zlarining kuchlari yetmaydigan qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi.



Asosiy qarama-qarshilik juda ko'p orzu-tilaklarni vujudga keltiruvchi, jadal ortib borayotgan jismoniy, ma'naviy va moddiy ehtiyojlar bilan ularni qondirish uchun nihoyatda cheklangan hamda ko'p jihatdan yetarli bo'lmagan imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. O'smirning o'z kuchiga to'la ishonmasligi uni butun vositalar bilan shunchaki o'zini katta kishi bo'lib qolganligini ta'kidlashga majbur qilibgina qolmay, shu bilan birga bu tuyg'uni yetarli baholay olmaslik xolatini ham vujudga keltiradi. Bu o'z navbatida kattalarga qo'pol munosabatda bo'lish va agressivlikni hamda ota-onalar bilan o'qituvchilarning maslaxat va talablarini pisand qilmaslik kabi xulq-atvor alomatlarini ham keltirib chiqaradi.

Katta o'smirlar asta sekinlik bilan bevosita o'z ishlari va xatti-harakatlarining natijalari hamda oqibatlarini oldindan ko'ra boshlaydilar. Ularda o'z-o'zini tuta bilish, matonat paydo bo'ladi, qarorlari birmuncha qat'iy bo'la boshlaydi, iroda tarkib topadi. Ular o'zlarining faoliyatlarida ishtiyoq va istaklardan ko'ra ko'prok soglom fikrga asoslanadigan bo'ladilar. Ularning ichki kechinmalari va

hayajonlari endi irodaviy nazoratga bo'ysundirilgan bo'ladi. Lekin axloqiy va estetik xislarning taraqqiyoti tufayli ichki kechinmalari va hayajonlari yanada kuchliroq bo'ladi. Kattalarga nisbatan qo'pol munosabatning paydo bo'lishi, nohush xulq-atvor alomatlari, o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar, uning tengdoshlari va turli jamoalardagi mavqei, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yo'li bilan o'smirlarning xulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish mumkin

6.4. O'smirlarning bilish jarayonlarining shakllanishi

Maktab ta'limi o'smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'qish o'smirlar hayotida katta o'rinni egallaydi. Ular uchun mashg'ulotlarning mustaqil shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari, qiziqishlarining ortishi, o'qituvchining o'quv materialini tushuntira olish mahoratiga bog'liq. O'qish faoliyati asosida o'smirning o'z-o'zini anglash darajasi kengayadi, boshqa odamlar, atrof olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. Bilim o'rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar o'smirning, hayotiy rejalari, kelajak kasbi va ideali bilan bog'liq bo'ladigan xolda bilish jarayonlari rivojlanish xarakteriga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Aynan o'smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ladi. Bilim o'smirlarga alohida bir quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi.

Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq og'zaki va yozma mavjud bo'lishi bilan kuchli vosita hisoblanadi. Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g'ri rivojlanishiga qulay sharoit yaratiladi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishiga ehtiyoj va intilish hisoblanadi.

O'smirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so'z boyligining oshishi hisobiga bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea va hodisalarning mazmun-mohiyatini anglashlari hisobiga bo'ladi. Bu davrda o'smir til yordamida atrof-borliqni aks ettirish bilan bir qatorda inson dunyoqarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlaydi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi. O'smirni ko'pincha muomalada so'zlarni ishlatish qoidalari – **«Qanday kilib to'g'ri yozish kerak?» «Qanday kilib yaxshiroq aytish mumkin?»** , **«Nima deyish kerak?»**, kabi savollar juda qiziqtiradi. O'smirlar maktabdagi o'qituvchilar, kattalar, ota-onalar nutqidagi kamchiliklariga, kitob, gazeta, radio va televidenie diktorlarining xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o'smirning bir tomondan o'z nutqini nazorat etishga o'rgatsa, ikkinchi tomondan kattalar ham nutq qoidalarini buzishlari mumkinligini bilishlariga va o'zida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib keladi.

Bolalarning yozma nutqni egallashlari ular nutqini o'stirishda muhim bosqich hisoblanadi. O'quvchi yozma nutqni to'g'ri tushunishni o'rganib oladi, o'z fikrlarini yozma nutq holida bayon qilish va boshqalarga tushuntirishni o'rganadi. Kitob o'qish va ayniqsa o'zidagi fikrlarni yozma tarzda ifodalab, bayon qilib berish tilning grammatika tuzilishini egallashda katta ahamiyatga ega. Yozma bayon qilish vaqtida fikrni to'liq tushuntirib berish zarurligi o'quvchini o'zi yozayotganlarining mazmunigagina diqqatini qaratmasdan, balki qanday yozayotganligiga ham e'tibor berishga undaydi.

Yozma nutqni egallash og'zaki nutqni va ayniqsa monolog nutqni to'g'ri va keng qilib tuzishga yordam beradi.

O'quvchi ovoz chiqarib, aynan yoki o'z so'zlari bilan takrorlash yo'li bilan o'zining artikulyatsiya apparatini mashq qildiradi, o'z nutqining qay darajada to'g'riligini nazorat qiladi, shu bilan birga o'zi o'zlashtirgan bilimlarning to'g'ri va mustahkamligini ham nazorat qiladi.

Albatta, o'quvchi nutqining o'sishida o'qituvchining nutqi katta rol o'ynaydi, chunki o'qituvchining nutqi o'quvchilar uchun namunali nutq hisoblanadi. Shu sababli, har bir o'qituvchi o'quvchilar nutqini o'stirishga intilib, o'zi ham o'z nutqini takomillashtirish ustida to'xtovsiz va tinmay intilishi lozim. Bu davrda bolalarning idroki, diqqati va tasavvurlari rivojlanadi, lekin bu rivojlanish bolaning o'ziga va atrofdegilarga sezilmagan holda kechadi. Shu bilan birga bu davrda bolaning xotirasi, tafakkur jarayonlari ham jadal rivojlanadi. Bu o'zgarishlar atrofdegilarga sezilarli darajada bo'ladi.

Diqqat. Agar kichik maktab davrida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qilib, ixtiyoriy diqqatni asosan o'qituvchi yuzaga keltirsa, o'smirlik davrida bola o'z diqqatini o'zi boshqara oladi. Dars davomida intizomning buzilishi aksariyat hollarda o'quvchilar diqqatsizligidan emas, balki ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi. O'smir o'z diqqatini to'la ravishda o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan va yuqori natijalarga erishishi mumkin bo'lgan faoliyatlarga qarata oladi. O'smirning diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo'lishi mumkin. Bolaning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o'qituvchi tomonidan doimo qo'llab-quvvatlanishi juda zarurdir. Pedagogik jarayonda ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqat darajasiga ko'tarish uchun bir qancha uslublar ishlab chiqilgan. SHuningdek, dars jarayonida o'smirning o'zini ko'rsatishi uchun sharoit yaratilishi ham uning diqqatini ixtiyorsizdan ixtiyoriyga aylanishida zamin bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'smirlar diqqatini psixodiagnostika qilish metodi

(Diqqatning taqsimlanishi va barqarorligini baholash metodikasi uchun matrisa)

9	5	11	23	20	21	12	7	1	20
14	25	17	1	6	6	15	17	3	18
3	21	7	19	13	19	4	8	25	13
18	12	24	16	4	24	2	22	10	5
8	15	2	10	22	9	14	11	23	16
		В					Г		
22	25	7	21	11	14	18	7	24	21
6	2	10	3	23	22	1	10	9	6
17	12	16	5	18	16	5	8	20	11
1	15	20	9	24	23	2	25	3	15
19	13	4	14	8	19	13	17	12	4
		Д							
5	14	12	23	2					
16	25	7	24	13					
11	3	20	4	18					
8	10	19	22	1					

Ushbu metodika yordamida o'smirlar diqqatining ko'rsatkichlarini, shu bilan bir qatorda taqsimlanishi va barqarorligini o'rganish mumkin. Sinaluvchi 1-tablisa(1a) ni ko'rib chiqadi va undagi 1dan 25 gacha bo'lgan sonlarni tartib bilan topadi. Xuddi shunday harakat har bir tablisa bilan bajariladi. Bitta tablisa bilan ishlashga ketgan o'rtacha vaqt aniqlanadi. Buning uchun har bir tablisa bilan ishlashga ketgan vaqt qo'shiladi va 5ga bo'linadi. Bu o'smir diqqati taqsimlanishining indeksi hisoblanadi. Xuddi shu metodika yordamida diqqatning

barqaroligini ham aniqlash mumkin. Buning uchun har bir tablisani ko'rib chiqishga ketgan vaqt taqqoslaniladi. Agar 1-dan to 5- tablisagacha har biri ko'rib chiqishga ketgan vaqt orasidagi farq juda kichik bo'lib 10 sek.dan oshmasa dmiqqat barqaror hisoblanadi.

O'smirlik. davrida juda qattiq charchash holatlari ham bo'ladi. Aynan 13-14 hamda 16 yoshlarda charchash chizig'i keskin ko'tariladi. Bunday holatlarda o'smir atrofdagi narsa va voqealarga to'liq diqqatini qarata olmaydi.

O'smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof-olamdagi bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishida keskin rivojlanish sodir bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi o'smir tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyati paydo bo'ladi.

Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi. J.Piajening ta'kidlashicha, *"Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi"*. Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

11-12 yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O'smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli taxlil etishni o'rgana boshlaydi. O'smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko'tarila olishi, uning o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi hamda intellektini rivojlanishini belgilab beradi. O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o'ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o'z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ulardan yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O'smirning kattalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar turli farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o'tkaza oladilar hamda ma'lum bir masala bo'yicha muqobil variantlarni taqqoslay oladilar. O'smir tafakkuri ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi. Respublikamizning bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tishida kishilardagi amaliy tafakkurning ahamiyati oshmoqda. Amaliy tafakkur tizimidagi- tadbirkorlik, tejamkorlik, hisob-kitoblik, yuzaga kelgan muammolarni tez yecha olishlik kabi aqliy sifatlar mavjud bo'lgan taqdirdagina amaliy tafakkurni rivojlangan deb hisoblash mumkin. Bu sifatlarni 1-sinfdanoq rivojlantira borish nihoyatda muhim.

O'smirlik davrida ishbilarmonlik sifatlarini o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishni yo'lga qo'yish, umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok etish orqali rivojlantirish mumkin. Bu borada o'quvchi ijrochi rolida emas, balki boshqaruvchi, mustaqil yo'l tanlovchi va tadbirkorlik munosabatlarida o'zi ishtirokchi bo'lgan taqdirdagina rivojlanish amalga oshishi mumkin. Bu yoshda tadbirkorlikni rivojlantirishda ko'proq mustaqillikning berilishi o'smir amaliy tafakkurining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'smir yoshdagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko'proq ularni qiziqtiradigan narsalarga mustaqil ravishda hisob-kitob qilib borishga o'rgatish orqali amalga oshirish mumkin, o'smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda yechish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta, bu bolaning temperamentiga ham bog'liq. Barcha o'smirlarni ham tez o'ylab, tez harakat qilishga o'rgatish mushkul, lekin ularni biror muammo yuzaga kelishi bilan orqaga chekinmay, zudlik bilan muammoni yechishning umumiy qoidalariga o'rgatib borish mumkin. O'smirlik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi qimmatli va obro'li hisoblanadi. O'smir shaxsida va uning bilishga qiziqishidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirda shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurning rivojlanishi bilan belgilanadi.

6.5. O'smirlik davrida shaxs shakllanishi

O'smirlik yoshi dunyokarash, e'tikod, prinsip, o'zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakllanadigan davr xisoblanadi. O'smir ulg'aygan sari unda "Ideal Men", "Axloqiy Men" va "Haqiqiy Men" singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e'tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o'zi to'g'risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo'lib qoladi.





O'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai -nazari asosida tashkil kila boshlaydi.

O'smir shaxsini tarkib topshirishda uning atrof -muxitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, o'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylilik, dilkashlik kabi ma'naviy, ahloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror e'tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axlokiy ideallar yuzaga kela boshlaydi.

Ma'lumki o'smirlik davrida o'smirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofida gilari ayniqsa, o'z -o'ziga bo'lgan munosabati, qizikishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi.

O'smir yoshdagi bolani birinchi galdagi intilishi , u o'zini endi kichkina bola emas, balki katta bo'lib qolganligini atrofida gilarga ishontirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o'smir shunday qilishga xaqqi borligiga o'zini-o'zi ishontiradi, chunki men endi “katta bo'lib qoldim” deb o'ylaydi. SHuning uchun ham psixologlar “katta bo'lib qolganlik tuyg'usi”ni shaxsning o'smirlik yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar.





Shu ijtimoiy sharoit ulardagi psixologik iqlimni o'zgartirish bilan, kichik o'smirdagi yomon xulq-atvor, o'jarlik, kamchiliklarini tan olmaslik kabi salbiy xislatlarning oldini olishi mumkin. Bu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar hayotida hali o'z o'rnini topa olmagan holatda bo'ladi. O'smir o'zining qobiliyati va kuchini to'g'ri baholamay turib, murakkab hayotiy masalalarni hal qilishga urinadi, ammo fikr yuritish qobiliyati yuzaki bo'lganligi sababli kundalik hayotida qator kamchiliklarga yo'l ko'yadi. Lekin u o'z xatosini tan olishdan ko'ra kattalar bilan baxslashishni afzal ko'radi. Tanqid qilgan kishilarni yoqtirmaydi, har bir tanqid go'yoki uni mensimaslik belgisi, atayin kilinayotgan ish bo'lib ko'rinadi. U mustaqil, o'zboshimchalik bilan ish tutishga urinadi, kattalarning maslahatiga e'tibor bermaydi. Ayrim o'smirlar o'zining kattalar safiga ko'shilganligini namoyish qilish uchun turli xil salbiy odatlarga o'rgana boshlaydilar. O'smir xulkidagi bunday o'zgarishlar o'qituvchi va ota-onalarni qattiq tashvishga soladi. Ularni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun esa katalardan psixologik bilim va tajribani talab etadi. Bu yoshda kattalar o'smirlarni bilib-bilmay qo'yayotgan kamchilik va xatolarini ko'pchilik ichida uyaltirib, kamsitib, qoralab emas, balki psixologik yo'l bilan yondashgan holda yordam berish uni **"katta bo'lib qolganlik"** tuyg'usini so'ndirib emas, balki katta odam qanday bo'lishi va qanday talablarga javob berishi kerakligini anglatishi zarur.

O'smirning yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo'ladi. O'smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko'rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda,

vasiylilik qilishganda, yo'naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo'ladi va norozilik bildiradi. O'smirda o'z qadrini bilish hissi paydo bo'ladi va u o'zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo'lmagan inson deb biladi. Ota-onalar va pedagoglar o'smirlar bilan alohida ishlab, ularning ko'nglini topishi va xatti –harakatlarini o'z vaqtida to'g'ri yo'lga solishlari lozim. Ba'zi o'qituvchilar kichik o'smirdagi bu o'zgarishlar - salbiy alomatlar, urushqoqlik, o'jarliklarining ildizlari qaerdan kelib chiqqani va nima bilan bog'langanligi, nimaning ta'siri ekanligini bilmay turib, noto'g'ri tashxis va xulosalar chiqaradilar, bu esa aksariyat holda fojiaga olib kelishi mumkin. Asosiy ziddiyatni keltirib chiqaruvchi omillardan biri o'smirning o'z mustaqilligini imkoniyatidan ortiq darajada baholashidir. O'z imkoniyatlarini ortiqcha baholash bilan kichik o'smirning psixik imkoniyatlari o'rtasida tafovut paydo bo'ladi. Kattalarning irodasiga bo'ysinmaslik, maktab, sinf faollari va boshqalarning qarorlarini bajarmaslik- bu mazkur sharoitga yetarli darajada baho bera olmaslikning yagona reaksiyasi bo'libgina qolmay, shu bilan birga bu o'smir, uning shaxsi nuqtai nazaridan o'zini boshqalarga tanitish yo'li sifatida ham xizmat qiladi. Bu yo'l orqali bola o'z shaxsining ahamiyatini, uning ta'sirchanligini hamda tevarak -atrofdagi kishilarga qarshilik ko'rsata olish qobiliyatini ham ta'kidlab ko'rsatishga erishmoqchi bo'ladi.

Demak, bu o'smirni to'laqonli psixik rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hayotiy bir hislat ekanligini bilgan holda shu bilan bog'liq salbiy ishlarni psixologik tabiatini to'g'ri tushunmog'i va bolalarni o'zlarini katta tutishlariga to'sqinlik qilmaslik, aksincha ularning bunday xatti-harakatlarini ijobiy baholashga intilishi kerak.

O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'proq kiziktiradi, ular o'zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga tarbiyalashga harakat kiladilar. U kattalar huquqini cheklaydi, o'zinikini esa kengaytiradi. kattalarning o'z shaxsi va insoniylik qadrini hurmat qilishlarini xohlaydi, ishonch va mustaqillik namoyon etishga da'vo qiladi, ya'ni kattalar bilan ma'lum tenghuquqlilikka va ularning shu narsani tan olishlariga erishishga harakat qiladi.

O'smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini imitatsiya - qilish **xosdir**. **Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar.**

O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z-o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda

oliy psixik funktsiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish instrumenti, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi.

O'z-o'zini anglash hissinini tarkib topishi, o'ziga nisbatan go'yo alohida mustaqil shaxs sifatidagi munosabatning vujudga kelishi bu davrdagi har ikki jinsdagi va istagan tepmerament tipidagi o'smirlar uchun muhim xususiyatlardir. O'smir o'g'il-kizlar shaxsining kamol topishida, o'zini anglash jarayonida o'ziga baho berish mayli va istagi o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o'ziga bino qo'yish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bular esa o'smirning psixik dunyosiga aqliy faoliyatiga, tevarak-atrofga munosabatning shakllanishiga ta'sir qiladi. Ilk o'smirlik davrida ko'pchilik o'smirlar o'zlariga salbiy shaxsiy xarakteristika beradilar. Katta bo'lgan sari o'smirning o'z-o'ziga bergan bahosi differensial xarakter (xulq-atvoriga, ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutishga va ayrim xatti-harakatlari)da namoyon bo'la boshlaydi.

O'smirlar uchun o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi g'oyat katta ahamiyatga egadir. U endi salbiy va ijobiy tomonlariga alohida bir urg'u bermagan holda o'zi xohlagan kishisi bilan do'st bo'lish xuquqini talab etadi. O'smirlar orasida sodiqlik va to'g'rilik kabi xislatlar yuqori baholanib, sotqinlik o'z so'ziga bevafoqlik, egoizm, qizg'anchilik qattiq qoralanadi va qattiq jazolanadi. Bu jazo u bilan urishish, kaltaklash unga qarshi baykot e'lon qilish va uni yolg'izlatib qo'yish shaklida bo'lishi mumkin. O'smirlar o'zini hurmat qilishini, o'z fikrini va qiziqishini himoya qilishni bilmagan tengdoshlariga juda past baho beradilar.

5-6 sinf o'quvchilariga sinfdagi o'zi egallagan mavqeiga katta e'tibor berish xususiyati xos. Ayniqsa, 6 sinfdan boshlab, o'quvchilar o'z tashqi ko'rinishlariga, shuningdek qarama-qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan o'zaro munosabatlariga e'tibor bera boshlaydilar.

7-sinf o'quvchilarida esa o'z layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi. 8-sinf o'quvchilari esa mustaqillik, o'ziga xoslik, do'stlik va o'rtoqlik bilan bog'liq bo'ladigan shaxsiy xislatlarni yuqori baholashadi. O'smirlarning ana shu ketma-ket yuzaga keladigan qiziqishlariga asoslangan holda faol ravishda irodaviy ishbilarmonlik va boshqa foydali sifatlarini rivojlantirishi mumkin. Shuningdek, bu davrda umumiy va maxsus layoqatlar shakllanadi va rivojlanadi.

O'smirlik davrida o'quv fanlarini turli o'qituvchilar o'qitishlari bilan kattalar shaxsi va faoliyatni baholashning yangi mezonlari ham shakllana boshlaydi. O'smirlik asosan, bilimli, talabchan, haqqoniy, o'quv materialini qiziqarli va tushunarli yo'l bilan yetkaza oladigan, o'quvchilarni ajratmaydigan

o'qituvchilarni ko'proq hurmat qiladilar va yaxshi ko'radilar. Ular o'qituvchi bilan munosabatlariga ham katta z'tibor beradilar. Maktab dasturini o'zlashtirish va yuzaga kelgan boshqa muammolarni yechishda ko'zga tashlanadigan o'smirlarning intellektual rivojlanganligi kattalarni ular bilan birga jiddiy muloqot o'rnatishga undaydi, o'smirlarning o'zlari ham bunga harakat qiladilar. Boshqa tomondan esa ayniqsa, kelajak kasb, xulq-atvor etikasi, o'z majburiyatlariga mas'ullik kabi muammolar muhokamasida infantillik (yosh bolalarga xos jismoniy va psixologik holat)ni kuzatish mumkin.10-15 yoshli bolalarning faoliyat motivlarida ham o'zgarishlar amalga oshadi.

O'smirlik yoshidagi o'quvchilarning emotsional xususiyatlari. O'smirlik yoshida, taxminan 13—14 yoshlarda, bolalarni emotsional kechinmalarida katta o'zgarishlar boshlanadi. SHu yoshdagi bolalarda ta'lim ta'siri ostida abstrakt-mantiqiy va tanqidiy tafakkur ancha o'sadi. O'smirlar o'z dunyokarashqarashlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar bilan qiziq boshlaydilar, ularning kamalak va kamolot tashkilotlarida ishtirok qilishlari bunday qiziqishlarning o'sishiga ko'p



jihatdan yordam beradi. Mana shularning hammasi xilma-xil intellektual va ahloqiy hislarni o'sishi uchun manba bo'lib qoladi. O'smirlarda hayol kuchli ravishda o'sadi. Hislarning o'zi hayolning o'sishiga yordam beradi. va hayolning o'zi ham xilma-xil chuqur emotsional kechinmalarning manbai bo'lib qoladi.

Kelajak to'g'risidagi orzular, qahramonlik, romantika- shularning hammasi o'smir uchun emotsional kechinmalarning manbaidir. Bu yoshda o'z-o'ziga baho berish hissi kuchli ravishda o'sadi.

O'smir yoshidagi bolalarning aloqa doirasining kengayishi va ularda ijtimoiy-siyosiy masalalarga qiziqishning o'sishi tufayli ahloqiy hislar o'smirlar hayotida katta o'rin oladigan bo'lib qoladi , ularda vatanparvarlik hissi yorqin namoyon bo'ladi. SHu yoshda organizmda fiziologik o'zgarishlar sodir bo'lishi sababli emotsional qo'zg'alishlarning xarakterida ham o'zgarish ro'y beradi. Hislar kuchli ravishda namoyon bo'laveradi, lekin ko'pincha bu hislar barqaror bo'lmaydi.

O'smirlik davrida shaxslararo munosabat

O'smirlik davrida yetakchi faoliyat shaxsiy- intim muloqot bo'lgani sabab o'smirlarning o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi g'oyat katta ahamiyatga egadir O'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi - bu do'stlik, o'rtoqlikdagi

elementar normalarini aniqlash va egallashdir. O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysunadi. *O'smirlar do'stlik*, o'rtoqlik va o'zaro yordamlashyni hamma *narsadan yuqori qo'yadilar*, ana shunday o'zaro munosabatlar, o'spirinlik yillarida ham davom eta beradi. O'smirlarning do'stlari, o'rtoqlari ularning xulq-atvorlariga ota-onalar va pedagoglarga nisbatan bir necha marta kuchliroq ta'sir etadilar. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, o'smir bolaning hali to'la yetilmaganligi va tajribasizligi uni tevarak-atrofdagi kimsalardan madad axtarishga majbur qiladi. O'smir bolaga uning istaklarini tushunadigan va ularni amalga oshirishga yordam beradigai do'st kerak. O'smirning do'stlari bilan muloqoti ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tengdosh bolalar bilan prinsipial tenglik holatidagi munosabatlar muhitiga nisbatan o'smirda alohida qiziqish bo'ladi. Bu hol o'smirda yuzaga keladigan shaxsiy kattalik hissining etik mazmuniga mos keladi. Kattalar bilan muloqotda bo'lish tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotning o'rnini bosa olmaydi.

O'smir uchun tengdoshlari bilan bo'lgan muloqot u mustaqil harakat qiladigan o'zining shaxsiy munosabatlari muhitiga ajraladi. U bunga haqqim bor, deb o'ylaydi, o'z

. O'z sirlarini bola endi ota-onasiga emas, balki do'stiga ko'proq ishonadi. O'z tengdoshlari bilan muloqot va munosabat jarayonida o'z shaxsini erkinlik bilan to'la namoyon eta oladi. Tengdoshlari, shuningdek, sinfdoshlari guruhida o'smir o'zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. O'smir o'z guruhiga bog'liq va qaram bo'lgani holda shu guruhning umumiy fikriga qo'shilishiga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo'ladi. Guruh ko'pincha o'smirda «Biz» hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustahkamlaydi. O'smir yoshdagi bola uchun do'st tanlash juda katta ahamiyatga ega. O'smirlik davrida do'stlik juda qadrlil hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj o'smir do'stlarning hol-ahvol so'rashishi va ko'rishishlarida, (qo'l berib, quchoq ochib ko'rishish) birga o'tirish va birga yurishga harakat qilishlarida ko'rinadi. Ko'pgana ana shunday juda yaqin munosabatlar, hamkorlikdagi harakatlarining izi o'smirlarning shaxs bo'lib shakllanishida, shuningdek ularning qalbi va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

O'smirning o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligini yaxshi bilgan tajribali o'qituvchilar sinfda ham o'quvchilarning ayrim kichik –kichik guruxlari orasida ijobiy ijtimoiy fikrni shakllantirishga katta e'tibor beradilar, o'smirlarga ularning yaqin do'stlari orqali ta'sir ko'rsatishga harakat qiladilar. Ayrim o'quvchilarning (ayniqsa

o'qishda o'rqada qoladigan va "tarbiyasi qiyin" bo'lgan o'quvchilarning) sinf jamoasidagi shaxslararo munosabatlar tizimidan "tushib qolishlariga" yo'l qo'ymaydilar.

O'smirlarning ota-onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti xarakteri ularning katta bo'lganlik hissi asosida tuzilgan bo'ladi. Kattalar tomonidan qilinadigan o'smirlarning haq-huquqlarini cheklashlariga bildirgan qarshilik va e'tirozlariga o'zlari ham qattiq qayg'uradilar.

Ota- onalarning o'smirlarga shu erkinlikni bermasligi yoki o'smirlarning shunday deb bilishi natijasida, ular ota-onaga qarshi pozitsiyada bo'ladilar. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, ana shu muloqot va munosabat asosida o'smirlarda g'urur hissi shakllana boshlaydi. Albatta, g'urur me'yori va qoidalari kattalardan o'rganiladi, lekin o'z g'ururini qanday himoya qilishi o'smirlarning alohida nazoratida bo'ladi. Ular muloqotda kattalarning qo'llab-quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat o'smirlarga kattalarni yaxshiroq tushunishlari uchun yordam beradi. O'smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar. Kattalarning o'smirlar yoshdagilarga ta'sir ko'rsatishi, tarbiya berishi uchun eng qulay sharoit - bu umumiy mehnat bilan shug'ullanishdir.

O'smirlar psixik jarayonlarning keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burishlar seziladi. SHuning uchun shaxslararo munosabatda, o'quvchi bilan o'qituvchi muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: o'qituvchining yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirlarni qoniqtirmay qo'yadi.

O'QUV TOPSHIRIQ

Keys vaziyat va trening



Adabiyot darsida bolalar adabiy portretning yaratilishi ustidi ishlashardi. O'qituvchi o'quvchilarning har biriga ularning o'zlariga yakindan tanish bo'lgan kishining tashqi qiyofasini tasvirlashni tavsiya qildi. Barcha bolalar o'z daftarlari ustiga egildilar...

Shu payt bir o'jar bola o'z yozganlarni ovoz chiqarib, butun sinfga o'qib bera boshladi... o'qituvchi esa sekingina "oh" deb yubordi:

portretida, o'quvchi tasvirda uning ko'rimsiz tashqi qiyofasidagi alomatlar shunchalik mohirlik bilan tasvirlangan ediki, u gap kim to'g'risda ketayotganligini darhol payqadi. Ha? U o'zini tanidi! Baqirib yuborgisi, bu yaramas bolani jim bo'lishga majbur qilgisi, sinfdan qochib chiqib ketgisi keldi...

1. *Yuzaga kelgan vaziyatda o'qituvchi o'zini qanday tutsa pedagogik maqsadga muvofiq bo'ladi?*
2. *O'qituvchining xulq-atvorini, uning tutayotgan pozitsiyasini baholang. Bu vaziyatni yuzaga keltirish bilan u qanday muammoni hal etyapti?*
3. *Bunga o'xshash vaziyatlar qaysi jixatlari bilan o'ziga xoslikni tashkil qiladi? Bunday vaziyatlar har vaqt ham sodir bo'lib turadimi? Ularning sodir bo'lishiga nima sabab bo'lishi mumkin.*

1. a) bu vaziyatda o'qituvchi bosiq, og'ir, bo'lishi kerak. Xatto kulimsirab qo'yishi mumkin. Chunki bola mavzuga to'la amal qilyapti;

b) o'quvchi mavzuni to'la yoritgan, lekin o'zini tuta bilmadi. O'qituvchi baqirmasligi kerak edi. Bu bilan u o'qituvchining nihoyatda mahoratga ega bo'lishi kerakligini muammo qilib qo'ymoqda;

v) o'quvchilarda bunday xislatlar bo'lishi tabiiy. Bunday vaziyatlar doim bo'lib turadi. Bolalar o'zini ko'rsatishni yaxshi ko'radi.

2. a) o'qituvchi bolani jim o'tirishga majbur qilishi kerak;
b) o'quvchi yaxshi ish qilmayapti, bu bilan u o'ylab topshiriq berish kerakligini eslatadi;
v) dars jarayonida bunday bolalar bilan ishlash kerakligini eslatyapti. Bunday xodisalar tez-tez bo'lib turadi. Bularning sodir bo'lishiga sabab o'zini maqtasin deb qiladi.
3. a) o'quvchi jim bo'lishiga erishsin;
b) o'quvchi o'qituvchisiga yaxshi ko'rinish uchun, bunday ish bilan bolalar har xil ekanligini bildirmoqchi;
v) bunday voqealar bo'lib turadi. Bularning sodir bo'lishiga tarbiya sababchidir.
4. a) o'quvchiga baqirish, do'q urish kerak;
b) o'quvchi o'zini ko'rsatmoqchi, qanday muammoni hal qilyapti ekan?
v) goh-gohida sodir bo'ladi, bilmadim

Olma-olcha

Maqsad: diqqat va eshitib reaksiyaga kirishish jarayonini rivojlantirish, ijobiy kayfiyatni shakllantirish.

Jarayon: birinchi navbatda ishtirokchilardan ikki kishilik kichik guruhlar (juftliklar) hosil qilinadi. Ular bir biriga yuzma-yuz turib olishlari va qo'llarini xuddi salomlashishda qo'l siqishgandagiday, lekin 5-10 sm masofa saqlab qo'llarini tekkazmayin turishlari kerak. SHundan so'ng shart tushuntiriladi, bunda trenerdan o'ng tarafda turgan ishtirokchilar olma deb ataladilar va trenerdan chap tomonda turganlar olcha deb ataladilar. Agar trener olma so'zini aytsa, "olma"lar (ya'ni olma deb atalgan ishtirokchilar) "olcha"larning (olcha deb atalgan ishtirokchilarning) qo'lini ushlab olishlari kerak, bunda "olchalar" qo'llarini olib qochishlari lozim. Agar trener aksincha olcha so'zini aytsa "olchalar" "olmalarning" qo'llarini ushlab olishlari kerak, bunda "olmalar" qo'llarini tezda olib qochish uchun ulgurishga harakat qilishi joiz. Trener uchun shart shuki, u olma va olcha so'zlarini shunchaki emas, ishtirokchilarni avval ol ol ol ol ol ol deb chalg'itib turib, keyin olma yoki olcha so'zini aytishi muhim. Olma yoki olcha so'zlarini trener ixtiyoriy tarzda qaysidir birini aytadi.

O'yin ikki-uch marotaba o'ynalgach, olma va olcha nomlarini ishtirokchilar o'zaro almashishlari maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ish yuzasidan savollar:

- 1.O'smirlik davrining asosiy psixik xususiyatlari.
- 2.O'smirlik davridagi yetakchi faoliyat turi.
3. O'quv faoliyatining qayta tuzilishi hamda o'smirdagi bilish jarayonlarining rivojlanishi.
- 4.O'smirlik davri krizisi, sabablari va namoyon bo'lishi.
- 5.«Tarbiyasi qiyin» o'smir xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlar va ularga psixologik yondoshuv.
- 6.O'smirlik yoshida individual yondoshuv.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'ixati.

1. A.V Petrovskiy taxririda. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Moskva 1979y.
2. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya kursi. Moskva 1982 y.
3. V.A Kruteskiy. Pedagogik psixologiya asoslari Toshkent 1976 y.
4. V.A Kruteskiy. O'quvchilarning ta'lim va tarbiyasi psixologiyasi 1976 y.
5. M. G Davletshin taxririda. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya Tosh. 1974 y.
6. M. G Davletshin. Ta'limning psixologik asoslari. Tosh. 1990 y.

7-MAVZU: O‘SPIRIN PSIXOLOGIYASI

Reja:

- 7.1. Ilk o‘spirinlik davrida jismoniy va psixik rivojlanishi
- 7.2. Ilk o‘spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish
- 7.3. O‘spirin ijtimoiy-psixologik hodisasi o‘quv faoliyati
- 7.4. O‘spirinlarning kasbga tayyorgarlik muammosi
- 7.5. O‘spirinlik davrida o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi

Maqsad:

O‘spirinlik davrida shaxs taraqqiyotini o‘ziga xos psixologik va fiziologik xususiyatlarini tahlil etish va o‘rganish. Yosh psixologiyasida o‘spirinlik odatda jinsiy voyaga yetish bilan boshlanib, kattalikning boshlanishi bilan yakunlanuvchi rivojlanish bosqichi sifatida belgilanadi. Bunday birinchi chegara – fiziologik chegaradir. Ikkinchisi esa – ijtimoiy. Bu yosh davri murakkab va ko‘pqirrali.

Vazifa:

1. Ilk o‘spirinlik davrida jismoniy va psixik rivojlanishni farqlash
2. Ilk o‘spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish
3. O‘spirin ijtimoiy-psixologik hodisasi o‘quv faoliyatini asoslash
4. O‘spirinlarning kasbga tayyorgarlik muammosi tavsiflash
5. O‘spirinlik davrida o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishini yoritish

Tayanch tushunchalar:


yoshlik, ijtimoiy hayotdagi faollik, muloqot va emotsional hayot, tashxis markazi, o‘z-o‘zini anglash, sevgi-muhabbat va do‘stlik hislari

7.1. Ilk o‘spirinlik davrida jismoniy va psixik rivojlanishi

Ilk o‘spirinlik davri «*kamolot bo‘sag‘asi*» deb ta’riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o‘z ichiga oladi. Psixologiya fani o‘spirinlik muammosini kompleks o‘rganishni da’vat etadi.

Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur’ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy yetilish muddati bilan hamma vaqt ham to‘g‘ri kelavermaydi.

Akseleratsiya natijasida bugungi ilk o'spirinlarning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o'rtacha ikki-uch yil avval yetilmoqda. Fiziologlar bu jarayonni 2-darajali jinsiy belgilarning paydo bo'lishiga qarab, 3-ta bosqichga ajratadilar:



Akseleratsiya munosabati bilan o'spirinlik yoshining chegarasi bugungi kunda 15-16 dan 18 yoshni tashkil etadi. Demak, o'spirinlik ham oldin boshlanadi. Lekin bu taraqqiyot davrining qonkret mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o'rnini, ularning mavqei, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator boshqa omillar ijtimoiy sharoitlarga bog'liqdir



Ilk o'spirinlik yoshidagi bolalar bu 15 yoshdan 17-18 yoshgacha bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilaridir. O'spirinlik – bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi, o'z taqdirini o'zi hal qilishi, ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishi davri, fuqaro va vatanparvarning ma'naviy sifatлари tarkib topadigan davrdir. Faol ijtimoiy hayot, o'qishning yangi xarakteri (mustaqil bilim olish) yigit va qizlarda dunyoqarashning shakllanishiga, ularda mustaqillik va burch hissining tarkib topishiga, bilimning turli sohalarida ularning ijodiy qobiliyatini avj oldirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Rus psixologi L.I.Bojovich ilk o'spirinlik davrida shaxs motivasion sohasining rivojlanishiga urg'u beradi: o'quvchilarning hayotda o'z o'rnini va ichki pozitsiyasini aniqlashi, dunyoqarashning shakllanishi va uning bilish faoliyatiga, o'z-o'zini anglashga va axloqiy ongga ta'siri nazarda tutiladi.

Ilk o'spirinlar mustaqil hayot sohasida yaqin istiqbolga ega bo'lar ekanlar, o'zlarining hayot yo'llarini belgilab olishga, bundan buyongi mehnat faoliyatlarining aniq istiqbollari aniqlab olishga, o'zlarining kelgusi ixtisoslarini

tanlashga intiladilar. Shu munosabat bilan kasb-hunarga oid qiziqishlar tarkib topadi va yanada barqarorroq bo'lib qoladi, yigit va qizlar o'z kelajaklari haqida jiddiyroq o'ylay boshlaydilar.

Bo'yni o'sishi o'spirin qizlarda 15-16 yoshgacha, o'g'il bolalarda 17-18 yoshgacha davom etadi. Bu yoshda muskullar kuchi tez o'sadi. Masalan, 18 yoshli bola muskul kuchi 12 yoshli bolaga nisbatan 2 baravar ko'p bo'ladi. Jismoniy taraqqiyot, asosan, to'g'ri ovqatlanish rejimiga va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishiga ko'p jihatdan bog'liq. Jinsiy taraqqiyot jihatdan bu yoshdagi ko'pchilik yigit va qizlar postpubertat (tugallanuvchi) davrda bo'ladilar. Bularning jismoniy rivojlanishi katta yoshdagi odamning jismoniy rivojlanishidan kam fark qiladi. Bo'yni va organizmning notekis o'sishi va rivojlanish davri tugallanadi hamda jismoniy rivojlanishning nisbatan birmuncha tekis davri boshlanadi. O'spirinlik yoshida jismoniy sifatlar (bo'y, og'irlik) nisbatan barqaror darajaga yetgan bo'ladi. Shuningdek, muskul kuchi va ishchanlik qobiliyati sezilarli darajada ortadi.

Ko'krak qafasining hajmi kengayadi, skelet, naychasimon suyaklar qattiqlashadi, to'qimalar va a'zolarining shakllanishi va funksional taraqqiyoti tugallanadi. Odatda bu yoshda yurak va qon tomirlarning rivojlanishida o'smirlarga xos bo'lgan notekislik endi tekislashadi, qon bosimi baravarlashadi, ichki sekresiya bezlari bir me'yorda ishlay boshlaydi. Nerv sistemasining va xususan, miya rivojlanishidagi o'zgarishlar ma'lum bo'lib qoladi. Lekin, bu o'zgarishlar miya massasining ortishi hisobiga emas, balki miyaning ichki hujayralari tuzilishining murakkablashuvi hisobiga ro'y beradi. Katta yarim sharlar qatlamidagi hujayralarning tuzilishi sekin-asta katta yoshdagi kishi miyasining hujayralariga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'ladi. Bosh miya po'stining qismlarida assotsiativ to'qimalarning miqdori ko'payadi. Natijada o'qish va mehnat jarayonida katta (yarim sharlar) qatlamining analitik-sintetik faoliyati murakkablashadi. Ba'zan bu yoshdagi o'quvchilarda nerv qo'zg'aluvchanligining ortishi, nerv sistemasi normal ishlashining buzilishi ko'pincha noto'g'ri yashash rejimini: tungi mashg'ulotlar, to'yib uxlamaslik, toliqish, chekish, norasional ovqatlanish, zararli odatlar va boshqa ayrim sabablarning natijasida ro'y beradi.

Ilk o'spirinlik yoshining boshlanishida odatda jinsiy yetilish tugallanadi, ikkilamchi jinsiy belgilar rivojlanadi, bu hol yigit va qizlarning tashqi ko'rinishida ham sezilarli o'zgarishlarni hosil qiladi. Jinsiy yetilish davrining tugallanishi hali jismoniy yetuklikni ham, buning ustiga psixik va ma'naviy yetuklikni ham anglatmaydi. Faqat 18 yoshga borib, nikohdan o'tishga ruxsat

beriladigan davrda, shu yosh uchun minimal darajada zarur bo'lgan jismoniy, ma'naviy, fuqarolik yetuklik darajasi boshlanadi. 18 yoshli yigit va qizlar jamiyat tomonidan katta yoshli kishilar deb e'tirof etiladi.



Ilk o'spirinlik davrini ikkinchi o'tish davri deb hisoblash mumkin. Agar birinchi o'tish davri ko'proq bolalikka yaqin bo'lsa, ikkinchi o'tish davrida bo'lgan o'spirin ko'proq yoshlik davriga yaqindir va shu jihatidan o'rganiladi hamda tadqiq etiladi. Ilk o'spirinlik davri, asosan, unda mustaqil hayotning boshlanishi (o'rta maktabni tamomlab, litsey, kollejlarga kirishi) bilan xarakterlanadi. Hayotdagi bu o'zgarishlar ilk o'spirinning shaxsiga, o'z-o'zini anglashiga ta'sir ko'rsatadi.

O'smirlardan farqli o'laroq ilk o'spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki unda ishtirok etadilar. Hayot faoliyati kengaygan sari, o'spirinlarda ijtimoiy rollar kengligi faqat miqdor tomondangina kengayib qolmay, balki sifat tomonidan ham o'zgarib boradi. Masalan: 16 yoshda pasport oladi; 18 yoshidan faol saylash huquqiga va oila qurish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'spirin jinoiy ishlar uchun javobgar bo'ladi. Ba'zi o'spirinlar bu yoshdan boshlab ishlay boshlaydilar. Kasb tanlash haqida o'ylay boshlaydilar. Lekin, shunga qaramay o'spirinlarda kattalarga qaramlik xususiyatlari saqlanib qoladi.

O'spirinlar (16-18 yoshlar) o'zlarining psixologik xususiyatlari bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar. Jismoniy hamda aqliy jihatdan voyaga yetgan, kamolotga erishgan, dunyoqarashi, o'z-o'zini boshqarishi kabi yetuk insoniy xususiyatlari tarkib topgan bo'ladi. Ular vazmin, mulohazali bo'ladilar, katta yoshdagilarga hurmat-ehtirom bilan qaraydilar. Ular uzoqni ko'zlaydigan, kelajak uchun qayg'uradigan, otalarining yaqin yordamchisiga aylanadilar. O'quv faoliyati o'spirinning asosiy faoliyati bo'lib qolaveradi, o'qishga nisbatan o'smirlik yoshiga qaraganda o'spirinlikda bir muncha yuqoriroq bo'ladi. Mustaqil hayotga tayyorgarligini o'z-o'zini anglashi bilan bog'liq motivlar bu davrda yetakchi o'rinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga intilish, insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu davrda o'spirinlarning kelgusi hayoti va tanlayotgan kasbiy rejalariga ko'ra fanlarga nisbatan qiziqishlari o'zgaradi. O'spirinning fanlarga hamda shu fan o'qituvchilariga nisbatan munosabati o'zgaradi. O'spirinlik davrida o'zi

ko‘zlagan maqsadlariga erishishga asoslangan motivlar birinchi o‘ringa ko‘tariladi. O‘smirlar o‘zlarining o‘qishga bo‘lgan munosabatlari va ularning o‘qish-o‘rganishga undovchi sabablarni yaxshi anglaydilar. O‘spirinlik yoshida boshdan kechiriladigan his-tuyg‘ularning boyligi, xilma-xilligi bilan, hayotning turli tomonlariga emotsional munosabatda bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Xorijiy psixologiyada o‘spirinlik haqida nazariyalar

Rus psixologi L.S.Vigotskiy 1920 yillardayoq ilk o‘spirinlarning rivojlanishi haqida nazariyalar ko‘pligini ta’kidlagan edi. Ilk o‘spirinlar rivojlanishi bo‘yicha 3ta yirik yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.



Birinchi yo‘nalish biogenetik yo‘nalish deb ataladi, uning asosida yetilishning biologik jarayonlari yotadi. Ikkinchi yo‘nalish sotsiogenetik yo‘nalish deb ataladi va unda asosiy e’tibor ijtimoiylashuvga qaratiladi. Uchinchi yo‘nalish psixogenetik deb atalib, uning asosida psixik jarayonlar va funksiyalarning rivojlanishi yotadi.

Taraqqiyotning biogenetik nazariyalarida rivojlanishning biologik determinantlariga asosiy urg‘u beriladi. Rivojlanish jarayonining o‘zi bosqichlari universal bo‘lgan yetilish sifatida talqin etiladi. Bu yo‘nalishning yorqin namoyondalaridan biri XX asr amerikalik psixologi S.Xolldir. Uning ta’kidlashicha, rivojlanish psixologiyasining asosiy qonuni biogenetik

“rekapitulyatsiya qonuni” hisoblanadi, unga ko‘ra individual rivojlanish, ontogenez filogenezning asosiy bosqichlarini takrorlaydi. Go‘daklik rivojlanishning hayvonot fazalarini takrorlaydi. Bolalik qadimgi odamlarning asosiy mashg‘ulotlari ovchilik va baliq ovlash bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. 8 dan 12 yoshgacha bo‘lgan davr o‘smirlikdan oldingi davr deb ataladi, yovvoyilik tugallanib, madaniyatning boshlanishi deb ta’riflaydi. 12-13 yoshdan 22-25 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘spirinlik deb ataladi, kattalikning boshlanishi, romantizm davri deb ataladi. Bu davrda tashqi va ichki nizolar avj olib, insonda “individuallik hissi” paydo bo‘ladi. Holning bu nazariyasi psihologlar tomonidan tanqid qilinadi.

Biogenetik nazariyaning boshqa varianti nemis “konstitusional psixologiya” vakillari tomonidan ishlab chiqildi. E.Krechmer va E.Ensh ba’zi biologik omillar asosida (tana tuzilishi tiplari va boshqalar) shaxs tipologiyalari muammolarini ishlab chiqib, insonning jismoniy tiplari va uning rivojlanish xususiyatlari orasida qandaydir bog‘lanish mavjud bo‘lsa kerak deb taxmin qiladilar. E.Krechmer barcha insonlarni ikki tomonga joylashtirish mumkin, bir tomonda sikloid (oson qo‘g‘aluvchan, kayfiyati o‘zgaruvchan) ikkinchi tomonda shizoid (kamgap, hissiyotlar i yorqin bo‘lmagan) tiplarni joylashtirish mumkin. Krechmerning shogirdi K.Konradning ta’kidlashicha, bu tavsiflarni yosh bosqichlariga ham qo‘llasa bo‘ladi: O‘smirlikdan oldingi davr “sikloid”, ilk o‘spirinlik esa “shizoid” davrga to‘g‘ri keladi. SHizoid shaxsning o‘spirinligi murakkab va og‘ir kechadi, uning hislatlari individual-tipologik xususiyatlar bilan yanada chuqurlashadi. Sikloid shaxs ilk o‘spirinlik xavotirlanishlarini yengil shaklda boshidan kechiradi, bu yoshning xususiyatlari uning tipologik xususiyatlari bilan muvozanatlashadi.

Biogenetik yo‘nalish namoyondalari olimlar e’tiborini taraqqiyotning psixik va jismoniy o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga qaratdilar. Bu psixofizologiya uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Psixika taraqqiyotini faqat biologik qonunlar asosida tushunish muvaffaqiyatga erishmadi. Ular taraqqiyotning ijtimoiy omillarining rolini yo‘qqa chiqarib, faqat biologik omillarning rolini bo‘rttirmoqchi bo‘ldilar. SHunday nazariyalardan biri mashhur amerikalik psiholog A.Gezell nazariyasidir. U taraqqiyotda biologik omillarga urg‘u beradi. Gezellning fikricha, ilk o‘spirinlik yoshi 11 dan 21 yoshgacha davom etadi, ulardan birinchi besh yil (11dan 16 yoshgacha). Shu o‘lgan davr juda muhimdir. Uning ta’kidlashicha, o‘n yil oltin davr hisoblanib, bola muvozanatli, hayotni oson idrok etadigan, ota-onasi bilan muomalasi yaxshi bo‘lgan, tashqi ko‘rinishi haqida

qayg'urmaydigan davr bo'ladi. 11 yoshdan organizmda qayta qurish boshlanadi; bola ta'sirchan bo'lib qoladi, qarshilik ko'rsatish (negativizm), kayfiyatning tez o'zgarishi, tengdoshlari bilan janjallar, ota-onaga qarshi isyon paydo bo'ladi. 12 yoshda hayotga munosabat ijobiylasha boshlaydi, o'smirning oiladan uzoqlashishi hamda tengdoshlarining ta'siri kuchaya boradi. Bu yoshdagi asosiy hislatlar: aqllilik, chidamlilik va hazil; o'smir bajonudil tashabbus bilan chiqadi, tashqi ko'rinishi haqida qayg'ura boshlaydi va qarama-qarshi jins vakillariga qiziqishi ortadi. 13 yoshlilarning asosiy hislatlari – o'smir o'zi bilan o'zi bo'lib, introvertlik hislatlari kuchayadi; o'z-o'zini tanqid qiladi, tanqiddan tez xafa bo'ladi, o'z psixologiyasi bilan qiziq boshlaydi, ota-onaga ham tanqidiy munosabatda bo'la boshlaydi, do'st tanlashi ham o'zgarib boradi, somatik o'zgarishlar kuchayganligi sababli kayfiyatning tez o'zgarishi namoyon bo'ladi.

16 yoshda yana osoyishtalik boshlanadi: isyonchilik hushchaqchaqlikka aylanadi, ichki mustaqillik, hissiy barqarorlik, muloqatchanlik, kelajakka intilish kuchayadi. Shunday qilib, Gezell g'oyalarida biogenetik qonsepsiya taraqqiyotning turli jihatlarini, xronologik birlashtirilgan tavsiflashga aylanadi.

Sotsiogenetik nazariyalarda ilk o'spiinlik xususiyatlari jamiyatning tuzilishidan, ijtimoiylashuv usullaridan, boshqalar bilan o'zaro ta'sir xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ilk o'spirinlikni o'rganishda sotsiogenetik yo'nalish ijtimoiy psixologiyaning ta'siri bilan bog'liq. Nemis psixologi K.Levinning "maydon nazariyasi" bo'yicha insonning xulq-atvori, bir tomondan shaxsning, ikkinchi tomondan uni o'rab turgan muhitning funksiyasidir. Lekin shaxs xususiyatlari va muhit hislatlari o'zaro bog'liq. Bola oiladan, maktabdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi, chunki bu ijtimoiy institutlar alohida olingan individlarsiz bo'lishi mumkin emas. Levin shaxsiy va muhit komponentlarining birligi va o'zaro ta'sirini hayotiy yoki psixologik fazo deb ataydi. O'tish davrining muhim jarayonlari sifatida Levin shaxs hayotiy dunyosining, muloqot doirasining kengayishi deb hisoblaydi. Ilk o'spirinning xulq-atvori o'zgaruvchandir. Bolalikdan kattalikka o'tgan o'spirin, to'liq unisiga ham, bunisiga ham kirmaydi. Uning hayotiy dunyosi va ijtimoiy vaziyatdagi bu xususiyati intilish darajasining noaniqligi, ichki qarama-qarshilik, kuchli tortinchoqlik va agressivlik kabi psixikasining holatlarida namoyon bo'ladi. Bunday nizolar qanchalik ko'p bo'lsa, bolalar dunyosi va kattalar dunyosi orasida farq shunchalik ko'p bo'ladi.

Levin qonsepsiyasining yutug'i shundaki, u o'spirinlikni ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida qaraydi, shaxsning psixik taraqqiyotini uning ijtimoiy holatining o'zgarishi bilan bog'laydi.

Ilk o'spirinlik haqida psixodinamik nazariyaning yirik namoyondasi mashhur amerikalik psixolog E.Erikson hisoblanadi. Uning falsafiy-metodologik qarashlari freydistik-psixoanalizning davomi hisoblanadi. Z.Freyd shaxs taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi biologik jinsiy mayl("libido") deb hisoblaydi. Eriksonning ta'kidlashicha, insonning rivojlanishi, o'zaro bog'liq uch jarayondan iborat: biologiya o'rganadigan jismoniy taraqqiyot, psixologiya o'rganadigan ongli "Men"ning rivojlanishi, ijtimoiy fanlar o'rganadigan ijtimoiy rivojlanish.

Taraqqiyotning asosiy qonuni – "epigenetik prinsip" bo'lib, rivojlanishning har bir yangi bosqichida oldingi bosqichlarda bo'lmagan yangi hodisa va hislatlar paydo bo'ladi. Taraqqiyotning yangi fazasiga o'tish "normativ inqiroz" shaklida o'tadi, u tashqaridan patologik hodisaga o'xshaydi, lekin o'sishning normal qiyinchiliklarini ifodalaydi.

Taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tish oldingi bosqichga xos bo'lgan asosiy qarama-qarshilikni hal qilish asosida mumkin bo'ladi. Agar qarama-qarshilik hal qilinmasa u albatta keyin namoyon bo'ladi.

7.2. Ilk o'spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanishi

Ilk o'spirinlarning bilish jarayonlari shunday darajaga yetadiki, kattalar bajaradigan barcha aqliy ishlarni bajarishga amaliy jihatdan tayyor bo'ladilar. Ularning bilish jarayonlari murakkab va egiluvchan bo'lib boradi. Ular bu yoshga kelib jiddiy ishlarga ko'p vaqtlarini ajrata boshlaydilar, dam olish va o'yin-kulguga juda kam vaqt ajratadilar. Ularning barcha bilish jarayonlari, jumladan, xayol, xotira, nutq, tafakkur rivojlanadi. Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarining bilish jarayonlari turli nuqtai nazarlarni tahlil etishga va bu masala bo'yicha har tomonlama fikr yuritishga yordam bera oladi. Bilishga qiziqishning rivojlanishi, o'qishga ongli munosabatda bo'lishning o'sishi bilish jarayonlarining ixtiyoriyligini, ularni boshqara olish mahoratini yanada rivojlantirishga undaydi.

Bu yosh davrining oxiriga borib, o'quvchilar o'zlarining bilish jarayonlarini to'la-to'kis egallab oladilar, ularni hayot va faoliyatning muayyan vazifalariga bo'ysundiradilar. Ular axloqiy va siyosiy va boshqa mavzular bo'yicha erkin

fikrlaydilar. Ilk o'spirinlarga umumiydan xususiyya, xususiyydan umumiyga xulosa chiqarish, ya'ni induksiya va deduksiya xosdir.

Ilk o'spirinlar ko'pchilik ilmiy tushunchalarni o'zlashtiradilar, turli masalalarni yechish jarayonida ulardan foydalanishni o'rganadilar. Bu esa ularda nazariy yoki so'z-mantiq tafakkurning rivojlanganligini bildiradi. Kuzatish aniq maqsadga qaratilgan va yanada sistemali bo'lib boradi. SHaxsning kuzatuvchanlik xususiyati rivoj topadi. SHu birga N.D.Levitov ko'rsatib o'tganidek, o'spirinlar o'z kuzatishlarida parishonxotir bo'lmasliklarini, kuzatishni o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarga bo'ysundirishlarini, yetarli darajada to'plangan faktlar to'planmaguncha xulosa chiqarishga shoshilmasliklarini nazorat qilib borish zarur. Ilk o'spirinlarning o'quv faoliyati ularning faolligi va mustaqilligiga ancha yuqori talablar qo'yadi. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji dasturida belgilangan materiallarni o'zlashtirish uchun nazariy tafakkur rivojlangan bo'lishi hamda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini egallash zarur.

Xotirani rivojlantirishda mavhum so'z-mantiq xotira, ma'nosiga tushunib esda olib qolishning roli sezilarli darajada ortadi. Garchi ixtiyoriy xotira ustunlik qilsa-da, ixtiyorsiz esda olib qolish ham ilk o'spirinlar tajribasidan chiqib ketmaydi. U faqat o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi, ilk o'spirinlarning qiziqishlari, xususan ularning bilishga oid va kasb tanlashga oid qiziqishlari bilan ko'proq bog'lanadi. SHu bilan birga faol ravishda bilim egallash, o'qish va jamoat faoliyatida har holda ixtiyoriy xotira yetakchi rol o'ynaydi.

So'zma-so'z yodlab olish alohida hollarda zarur ekanligini o'quvchilar yaxshi tushunadilar. Ilk o'spirinlar esda olib qolish usullaridan – rejalarni va tekstning sxemalarini, qonspektlarni tuzish, asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatish va ostiga chizish, ilgari ma'lum bo'lgan fikrlarga taqqoslash, solishtirish usullaridan o'smirlarga qaraganda beqiyos darajada keng suratda foydalanadilar. Ular esda olib qolishga alohida-alohida yondoshadilar. Qiziqishlarning differensiyalashganligi diqqatning tanlovchanligini, ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqatning roli ancha ortishini belgilab beradi. Ilk o'spirinlarda ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat bilan bir qatorda ixtiyoriy diqqatning ham ahamiyati



ortadiki, ular o'quv materiali bilan bevosita qiziqmasdan, o'rganilayotgan hosidislarning hayotiy ahamiyatini tushunib, unga diqqatlarini qaratadilar.


Diqqatni ko'chirish va taqsimlash qobiliyati sezilarli ravishda rivojlanib, takomillashib boradi. Xususan, diqqatni taqsimlash bir vaqtning o'zida o'qituvchining tushuntirgan narsalarini ham tinglash, ham yozib borish, o'z javobining mazmunini kuzatib borish mahoratining shakllanishida o'z aksini topadi. Ilk o'spirinlar o'quv ishlari jarayonida o'zlariga ta'sir qiladigan chalg'ituvchi narsalarga o'smirlardan ko'ra ko'proq qarshi turishga, bardosh berib yengishga qobildirlar.

Ilk o'spirinlarning ayrimlarida diqqatning tanlovchanligi shu narsada ham ko'rinadiki, ular o'quv materialini idrok qilar ekanlar, hamma vaqt uning ahamiyatiga baho berishga, uni amaliy jihatdan ahamiyatligi nuqtai nazardan idrok qilishga harakat qiladilar. Agar unga material muhim bo'lib tuyulmasa, u o'z diqqatini susaytiradi. SHunisi qiziqki, diqqatning bu o'ziga xos harakati ko'pincha atayin ro'y bermaydi. Odatda ilk o'spirinning diqqati shu sohadagi muayyan bilimlarni amalda tatbiq etish haqida gap borgan vaqtdagina ixtiyorsiz ana shu predmetga qaratiladi. ***O'spirinlik yoshi o'qish, mehnat, muloqot singari yetakchi faoliyatlar asosida umumiy va maxsus layoqatlarning rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi.*** Lekin, bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. O'spirinlik davriga kelib, juda ko'p bolalarda o'z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan bo'ladi. SHuningdek, o'z-o'zini boshqarish ham o'spirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

7.3. O'spirin ijtimoiy-psixologik hodisasi o'quv faoliyati

O'spirinning o'quv mashg'ulotiga munosabati o'z xususiyati va mazmuni jihatidan boshqa yoshdagi o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi munosabatidan tubdan farq qiladi. Ular voyaga yetib boradilar, ularning tajribasi ortadi; ular mustaqil hayot bo'sag'asida turganliklarini anglaydilar. O'quvchilarning o'qishga ongli qarashi kuchayadi, bu qarash bevosita hayotiy ma'no kasb etadi. Ilk o'spirinlar jamiyatning kelajakdagi mehnat hayotida to'laqonli ishtirok etishning zaruriy sharti bilim, ko'nikma va malkalarning mavjud fondi ekanligini, hosil qilingan mustaqil bilim egallash ko'nikmalari ekanligini aniq ravshan his qiladilar. Bilimlarga ehtiyoj sezish hozirgi vaqtda ilk o'spirinlarning xarakterli xususiyatlaridan biridir. O'quv rejasi va dasturning

murakkablashuvi, yangi fan va mavzularning kiritilishi, o‘zlashtirilishi nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, o‘quvchilarning o‘qishga munosabati ham o‘zgaradi, ular ayrim fanlarga tanlab munosabatda bo‘la boshlaydilar. O‘spirin o‘quvchilarning o‘quv fanlariga munosabatlari quyidagi holatlarga bog‘liqdir:



O‘spirinlik davrida bilishga oid qiziqish ko‘lami tobora amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy masalalarga, texnika, tabiatga, osmon jismlariga, sport va hokazolarga qiziqishi kuchayadi. O‘spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik yanada takomillashib boradi, mantiqiy xotirasi, esda olib qolishining oqilona yo‘li sifatida ta’lim jarayonida yetakchi vazifani ado eta boshlaydi. Mazkur pallada o‘spirinlarning tafakkuri tobora mantiqiy, faol, mustaqil va ijodiy xususiyat kasb eta boshlaydi.

Tafakkur rivojlanishi bilan birgalikda o‘quvchilarning nutq madaniyati rivojlanadi. O‘spirin turli janrdagi adabiy asarlarni o‘qishi, tushunishi orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishish, nazariy fikrlash hamda o‘z-o‘zini tahlil qilishga o‘rganib boradi. O‘spirinlik

tafakkurining sifatiga uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi kabilar kiradi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, o'spirin ongida tevarak-atrofdagi voqelik to'g'risida qancha miqdorda mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi.

Ta'limda onglilik o'quvchining yuqori darajadagi faolligi bilan ta'minlanadi. Bilimlarini faol faoliyat ko'rsatib o'zlashtirganda, o'quvchilar bu bilimlarni yaxshi tushunibgina qolmay, ularni amaliy faoliyatda qo'llashga ham o'rganadilar. O'quvchilarga ijtimoiy masalalar, iqtisodiy hamda ijtimoiy faktlar va hodisalarni mustaqil ravishda ilmiy tahlil qilish va ularga baho berish usullarini maxsus o'rgatish muhim va zarurdir. Bu o'rinda o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini faollashtirishga, to'g'ri rahbarlik qilgan holda rivojlantirish lozim. O'spirinlarning aqliy jihatdan rivojlanishida nazariy tafakkurning roli kattadir.

O'spirin adabiy asarlarni o'qish va tushuntirish orqali mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish va munozaralarga kirishishga o'rgana boradi. Unda asta-sekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtai nazari, e'tiqodi, qarashi shakllanadi. Ma'lumki, shaxsning ana shu fazilatlarini uning fikrlashi, mustaqil o'ylashi, to'g'ri hukm va xulosalar chiqarishi, qat'iy qarorga kela olishi natijasidir.

O'spirinlarning adabiy asarni baholashi, u haqda shaxsiy fikrlarni bildirishi, muammo yuzasidan bahslashuvi insoniy hislatlarning muayyan darajada ishtirok etishi tanqidiy tafakkurning aynan o'zginasidir. Turmushda uchraydigan noo'rin tanqidiylik esa o'spirinning badiiy didi va hayotiy tajribasi zaifligidir. O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilar tafakkuridagi tanqidiylikni haqqoniylik darajasiga ko'tarishdan, ularga voqelikka odilona, oqilona, tanqidiy nuqtai-nazardan qarashni o'rgatishdan iborat. O'spirinlarda moddiy dunyo to'g'risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi. Tanqidiy tafakkurning rivojlanishi o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga, ta'lim jarayonida tashabbuskorlikka, voqelikni isbotlash va asoslash ko'nikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi. Hodisalar to'g'risida hukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'spirinning qobiliyati va iste'dodi ta'lim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi.

Qobiliyatning o'sishi bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning sifatiga bog'liq bo'lib, shaxsning kamol topish jarayoniga qo'shilib ketadi. Demak, maktabda o'tiladigan, darslar, laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar, referat, qonspekt yozish kabi faoliyat turlari o'spirinlar o'zlashtirish uchun zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi.

Shaxsning bilish jarayonlari uning emotsiyalari bilan bog'liq. O'smirlik davridagi kuchli emotsional reaksiyalar garmonal va fiziologik jarayonlarga bog'liq. Bolgariyalik psihologlar G.D.Pirov va boshqalar 5 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarni ko'ndalang kesim metodi orqali o'rganib, nerv faoliyatining eng qo'zg'aluvchan tipi 5 yoshlilar orasida uchrashini aniqlashgan. Bola katta bo'lgan sayin qo'zg'aluvchanlik kamayib, muvozanatlilarning soni ortgan. Pubertat yoshda (11-13 yosh qizlarda va 13 -15 yosh o'g'il bolalarda) qo'zg'aluvchanlarning miqdori ortadi, bu davrning oxiriga borib qo'zg'aluvchanlik yana kamayadi.

Emotsional zo'riqishning fiziologik manbaalari qizlarda aniq payqaladi, ularda depressiya, jizzakilik, xavotirlanish va o'z-o'zini hurmat qilishning pasayishi hayz ko'rishning ma'lum davrlariga bog'liq. Bunga o'z vaqtida SH.Byuller ham e'tibor bergan edi.

O'g'il bolalarda aniq fiziologik bog'liqlik ko'zga tashlanmaydi, lekin pubertat davr ular uchun ham qiyin kechadi. Rus psihologi P.M.Yakobson kattalar va tengdoshlariga salbiy reaksiyalar 12,5 -13, 5 yoshda eng ko'p uchraydi, deb ta'kidlagan edi. O'smir va o'spirinlardagi emotsional reaksiyalar faqat gormonal o'zgarishlarga bog'liq bo'lib qolmay, balki ijtimoiy omillar va tarbiya sharoitlari, individual-tipologik farqlarga ham bog'liq. Katta bo'lishdagi psixologik qiyinchiliklar, "Men" obrazi va intilish darajasi orasidagi qarama-qarshilik kabi o'smirlarga xos bo'lgan emotsional zo'riqish, ilk o'spirinlik davrida ham saqlanib qoladi.

Yosh ulg'aygan sayin insonda emotsional qo'zg'alish hosil qiluvchi omillar ko'payib boradi. Agar katta odam yosh bolalarga o'xshab har bir qo'zg'atuvchiga javob qaytaraversa, u ko'p qo'zg'alish va emotsional beqarorlikdan olamdan o'tgan bo'lur edi. Kattalarni xavotirlanishdan tashqi ta'sirlarga tanlab javob qaytarish hamda ichki tormozlanish va o'z-o'zini nazorat qilishning mahsuldor ichki mexanizmlari qutqaradi.

Amerikalik olim G.Djons 12 yoshli o'smirlar va 17 yoshli ilk o'spirinlarning emotsional roeaksiyalarini (teri -galvanik reaksiyalari) solishtirdi. U so'zli qo'zg'atuvchilarni yoqimli, yoqimsiz va befarqlarga ajratgan. Tajriba natijalaridan ma'lum bo'lishicha, umumiy emotsional reaksiya o'smirlarga nisbatan ilk o'spirinlarda yuqori bo'lgan. Lekin ular orasidagi asosiy farq tanlash darajasida kuzatilgan: ilk o'spirinlar o'smirlarga nisbatan befarq va yoqimsiz so'zlarga javob qaytarganlar. SHunday qilib, ilk o'spirinlarning emotsiyalari, intellekt singari aniq qo'zg'atuvchi bu sinaluvchi uchun qanday ahamiyatga

egaligini hisobga olmasdan o'lchash mumkin emas. Ilk o'spirinlik davridagi emotsional qiyinchilik va muammolarni aniq qarab chiqish lozim, chunki ularning kelib chiqish sabablari har xil. O'smirlik davridagi *dismorfofobiya* – o'z tanasi va tashqi ko'rinishidan tashvishlanish ilk o'spirinlik davrida o'tib ketadi. Ilk o'spirinlarda namoyon bo'ladigan xavotirlanish belgilari bu yoshdagi maxsus qiyinchiliklarga reaksiya emas, balki ilgari olingan ruhiy jarohatlanishning keyin namoyon bo'lishidir.

Ko'pchilikda o'smirlikdan ilk o'spirinlikka o'tishda muloqotchanlik va umumiy emotsional kayfiyat yaxshilanadi. Ye.A.Silining longitudinal tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, u bolalarni 7 va 9 sinflarda kuzatib, o'smirlarga nisbatan ilk o'spirinlarda kamroq impulsivlik va emotsional qo'zg'aluvchanlik, ko'proq ekstravertlik va emotsional barqarorlik kuzatilishini aniqlashgan. A.V.Kuchmenko tadqiqotlarida ham 16-18 yoshli ilk o'spirinlar o'smirlarga qaraganda, o'zlarining nerv sistemasi tipiga bog'liq bo'lmagan holda bosqichlik va barqarorlik kuzatilgan.

Amerikalik psixolog R.Kettel tadqiqotlarida ham ilk o'spirinlarda o'smirlarga nisbatan muloqotchanlik, odamlar bilan kirishimlilik, boshqaruvchanlik kabi hislatlar ortishini, umumiy qo'zg'aluvchanlik kamayishini aniqlashgan.

Shunday qilib, ilk o'spirinlik yoshi emotsional holatlarni ifodalash usullari va emotsional reaksiyalarning differensiallashishini hamda o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini boshqarishning ortishini kuzatish mumkin. Ilk o'spirinlarning kayfiyati o'smirlarga nisbatan barqaror va anglangan hamda ijtimoiy sharoitning keng doirasiga mos bo'ladi.

Shunga ko'ra har kim qobiliyatiga yarasha kasb-hunar tanlasa, bu sohada muvaffaqiyatli mehnat qilsa, ijtimoiy turmush taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan bo'ladi. O'spirinlar u yoki bu kasbni o'z ixtiyorlari bilan ongli ravishda tanlashlari uchun ular mustaqillik, dadillik, qat'iylik, o'zini tuta bilish, chidamlilik, sabr-toqat kabi irodaviy hislatlarga ega bo'lishlari kerak. Mehnat qilishda muqaddas burchni bajarish istagi, maqsadning aniqligi, hunar o'rganishga ishtiyoqmandlik mazkur fazilatlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'spirinlar aqliy rivojlanishida tasavvurning ahamiyati juda katta, chunki inson biron bir ishni qilishga kirishar ekan, albatta uning natijasini tasavvur eta olishi kerak. Tasavvursiz hech qanday ishni to'g'ri rejalashtirish mumkin emas. O'spirinda tasavvur qila olish layoqati yaxshi rivojlangan bo'lsagina, u o'z hayotidagi idealni tasavvur eta oladi, shunga ko'ra uzoq va yaqin rejalarini tuzadi.

O'zbekistonda E.G'.G'oziev rahbarligida J.S.Iskenderov tomonidan pedagogika kolleji o'quvchilarida xarakterning intellektual va irodaviy xususiyatlarini shakllanishini baholashda test-reyting tizimidan foydalanishning samarali yo'llari ishlab chiqildi. Pedagogika kolleji o'quvchilarida xarakterning intellektual va irodaviy xususiyatlarini shakllanish jarayoni shaxsning umumiy yo'nalganligi, kasbiy ustanovkalari, kasbiy tasavvurlari va imkoniyatlari mutanosibligi omillar asosiga qurilishi tadqiqot davomida dalillandi.

Bu yoshdagi bolalar uchun muloqotga kirishish ehtiyojining mavjudligi ham juda muhim, lekin u yetakchi emas, faqat tanlagan kasb va yo'nalishlari bo'yicha mashg'ul bo'lmagan o'spirinlarga ko'proq tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu yoshdagi bolalar mehnat faoliyati bilan xuddi kattalardek shug'ullana oladilar. Ilk o'spirinlik davrini kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi uchun senzitiv davr deb hisoblash mumkin. O'zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto'g'ri hal etilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qiz hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o'spirinlar o'z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati emotsional-irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.

Ilk o'spirinlik davrida do'stlashish muammosi

Axloqiy va ijtimoiy, siyosiy hislarning rivojlanishi ayniqsa xarakterlidir. Ular odatda muayyan axloqiy talablar bilan o'zaro to'g'ri munosabatda bo'ladilar. Boshdan kechirgan his-tuyg'ularni anglab yetish mahorati ham rivojlanadi.

Do'stlik – ilk o'spirinlik davridagi shaxslararo munosabat va hissiy bog'lanishning muhim turidir. O'spirinlik yoshida o'quvchilarda o'rtoklik hissining rivoj topishi xarakterlidir. *Rossiya* psihologlari *I.V.Straxov* bilan *A.L.SHnirman* tadqiqotlarining ko'rsatishicha, o'spirinlik yoshidagi do'stlik, o'smirlik yoshidagi do'stlikdan ba'zi bir xususiyatlari bilan farq qiladi.

Birinchidan, o'spirinlarda do'stlik motivlari ancha chuqurroq bo'ladi. Do'stlikning o'ziga yuqori talablar qo'yiladi, bular: oshkoralik, o'zaro ishonch, talabchanlik, sadoqat, birgalikda doimiy yordam ko'rsatish, kamchiliklarni tugatish, do'stiga yordam berish, o'zaro hurmat, bir-birini tushunish va hokazo.

Ikkinchidan, do'stlik hislari ancha sarmazmun bo'lib, qiziqishlar faoliyatning keng doirasini qamrab oladi.

Uchinchidan, do'stlik emotsional bo'lib, do'sti kechirayotgan hislarga javob bera olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

O'spirinlik yoshidagi do'stlik ko'pincha butun umr bo'yi davom etadi. Ilk o'spirinlik davridagi do'stlikning psixologik qonuniyatlari o'zining barqarorligi bilan ajralib turadi. Har xil insonlarning do'stligi bir xil bo'lmaydi, yosh, jins, va individual-tipologik xususiyatlarga ega bo'ladi. O'rtoqlik munosabatlari jamoani jipslashtirishga yordam beradi, uning hayotiy faoliyatini oshiradi. Yoningda o'rtog'ing borligini his qilishning o'ziyoq qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. O'spirinlar do'stlik, samimiylik, emotsional sofdillik kabi hislatlarni birinchi o'ringa qo'yishadi. Do'stlar bir-birlari bilan yuraklarini bo'shatadilar. Do'stlarga samimiy mehribonlik shaxsining reflektivlik darajasiga hamda uning emotsional hayot xususiyatlariga bog'liqdir. O'spirin hamma vaqt rostgo'y, samimiy bo'lishni istaydi.

Ilk o'spirinlik davridagi do'stlikning mezonlarini aniqlash uchun ularga quyidagi bir necha tugallanmagan gaplar taklif etiladi: "Do'st – bu...", "Do'stim bilan men ko'pincha...", "Do'st va o'rtoq bir emas, chunki ular ...". Bunda do'stlikning ikkita bosh mezonini aniqlandi: birinchisi o'zaro yordam ko'rsatish va sodiqlik; ikkinchisi – psixologik yaqinlik ("...meni tushunadigan"; "...meni yaxshi ko'radigan", "...hamma narsa haqida gaplashish mumkin" va h.). Birinchi tipdagi javoblar ko'p uchrasa-da, yosh ulg'ayishi bilan, ayniqsa 18-19 yoshlilarda psixologik yaqinlik ehtiyoji ortadi. Bu ehtiyoj qizlarda o'g'il bolalarga nisbatan, shahardagi ilk o'spirinlarda qishloqdagi tengdoshlariga nisbatan kuchli namoyon bo'ladi.

Ilk o'spirinlarning do'stlashishi o'z tabiatiga ko'ra ko'p funksiyalidir, bu esa uning ko'p shakllari mavjudligini: oddiy birgalikda vaqt o'tkazishdan, to bir-birlariga sirlarini ochiq aytishgacha kuzatish mumkin. Asosida birgalikdagi faoliyat yotadigan guruhiiy munosabatlardan farqli ravishda do'stlik bu eng avvalo hissiy bog'lanishdir. Do'st uchun shaxsiy yaqinlik muhimdir.



Ilk o'spirinlik davridagi do'stlikning psixologik ahamiyati shundaki, u bir vaqtning o'zida o'z-o'zini ochish maktabi va boshqa insonni tushunish maktabidir. Shuning uchun ilk

o'spirinlar alter ego (ikkinchi "Men")ning qanday tipini tanlashlari qiziqish uyg'otadi. 15-16 yoshli yigit va qizlar o'zlaridan kattalarni do'st sifatida tanlashadi, ularning gaplarini jon deb eshitishadi, ularning xulq-atvorini kuzatishadi. Kattalar bilan do'stlashish ular uchun qadrlidir. Kattalar bilan emotsional aloqaga kirish ehtiyoji ba'zan o'z hayotiy ideallarini topgandek, ularga berilib ketishga ham olib kelishi mumkin.

Lekin tengdoshlari bilan do'stlashish ehtiyoji undan-da kuchli namoyon bo'ladi. "Kim bilan do'stlashishni hoxlarding, o'zingdan kattalar bilanmi, tengdoshlaring bilanmi, yoki o'zingdan kichiklar bilanmi?" degan savolga ilk o'spirinlarning ko'pchiligi (75-85 %) tengdoshlarini tanlashgan, kattalarni (11-20%), hamda kichiklarni juda kam (1-4 %) tanlashgan. Qizlar ham ko'pincha tengdoshlarini tanlashgan, lekin ko'pincha kattalarni ham tanlashgan (39-50%), o'zlaridan kichiklarni hech tanlashmagan. (I.S.Kon va V.A.Losenkov tadqiqotlari natijalari).

Do'st tanlashdagi bunday farqlarning psixologik mohiyati nimada? Fransuz psihologi B.Zazzo ham o'z tadqiqotlarida yuqoridagidek natijalarni qo'lga kiritgan. "Ideal do'st" yoshi ba'zi har doim anglanmaydigan psixologik ehtiyojlarni ochadi. Buning uchun tengdoshlarni tanlash teng munosabatlarga intilishni bildiradi. Tengdoshi bilan do'stlashish o'xshashlik va tenglik tamoyillariga asoslanadi: "Men bilan teng yigit bilan muloqot qilish oson", "Ustimdan kuladi, deb qo'rqmasdan unga hamma narsani aytish mumkin", "O'zimni aqlli ko'rsatishga intilmasdan, qanday bo'lsa shunday o'zimni ko'rsatishim mumkin, u bilan o'zimni erkin tutaman". O'zidan kattaroq do'stni tanlash g'amxo'rlik, rahbarlik ehtiyojini bildiradi: "Men bilmaydigan narsalarni aytib berishi mumkin". Ilk o'spirinlik davridagi do'stlik psixologiyasi shaxs xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Bunda avvalo jins farqlari kuzatiladi. Qizlarda o'g'il bolalarga nisbatan 1,5-2 yil oldin yaqin do'stlikka ehtiyoj paydo bo'ladi, ularda do'stlik hissiyotlarga boy. Qizlarda do'stlikning mezonlari yigitlarga nisbatan psixologik motivlarga boy bo'lib, ular yozilib gaplashib, bir-birlariga sirlarini aytishga ehtiyoj sezishadi. Do'stlikning individual-psixologik xususiyatlari kam o'rganilgan. O'spirinning emotsional hayotida yangi bir holat sevgi paydo bo'ladi. O'spirinlik sevgisi sof, poqiza, beg'ubor, xilma-xil kechinmalarga boy, yoqimli, xayolga berilish va samimiyat belgilariga ega bo'ladi. Yigit va qizlarning sevgini boshdan kechirishida bir-birlarini hurmat qilish, do'stlik, o'zaro yordam, bir-birini tushunish kabi hislatlar xarakterli bo'lib, ular bir-birlaridagi yuksak ma'naviy sifatlarni qadrlaydilar. Yigit va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar o'spirinlik yoshida faollashgan bo'ladi.

O'rtoqlariga nisbatan munosabatlar doirasi kengayadi, Ayniqsa, qizlarda aralash do'stlik ehtiyojlari kengayadi. Bolalarga xos 16-17 yoshlarda birinchi jinsiy moyillik va sevgi ehtiyojlari ko'rina boshlaydi. Ikki jins o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi asosiy muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mabodo ana shunday hislar akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilarida paydo bo'lsa, unga qanday munosabatda bo'lish kerak? Ayrim o'qituvchilar o'quvchilarda ana shu hisning paydo bo'lishidan ko'pincha cho'chiydilar va asabiylashadilar. Ular bu tuyg'uda "yomon berilib ketishlik"ni, "bemavrid va zararli sevgini" ko'radilar, bu o'qishga va jamoat faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydilar. Tanalar, boshqacha nazar bilan qarash va mashara qilishlar, "baloning oldini olish", "ta'qiq etilgan munosabatlarga chek qo'yish", "yo'l qo'ymaslik" kabi nojo'ya urinishlar boshlanadi. Bu hisga ko'pincha salbiy munosabatda bo'ladilar. Vaholangki, 16-17 yoshda boshqa jinsdagi kishiga mayl qo'yish va qiziqish bilan qarash normal hodisadir. 18 yoshda yigit va qizlar nikohdan o'tish huquqiga ega bo'ladilar. O'spirin sevgisi o'z asos e'tibori bilan sog'lom sevgi bo'la oladi. Samimiy kechinmalar olamiga qo'pollik bilan bostirib kirish sira ham mumkin emas, buning ustiga yigit yoki qizning ana shu tuyg'uga berilgani uchun uning ustidan kulish, haqorat qilish va koyishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Birinchi sevgi alomatlarini avaylash, ularga sezgirlik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak. Lekin bu ana shu tuyg'ularga beparvo va befarq qarash kerak, degan ma'noni bildirmaydi.

Bu tuyg'ularning qanday xarakter kasb etishi, yigit va qiz o'rtasida qanday munosabatlarni keltirib chiqarishi o'quvchilar shaxsining ma'naviy darajasiga bog'liq. Ko'p hollarda sevgi tuyg'usi yigit va qizlarga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. U yigit va qizlarga o'z kamchiliklariga barham berishga, shaxsning ijobiy fazilatlarini hosil qilishga intilishni vujudga keltiradi, o'qib-o'rganishga, qiyinchiliklarga qarshi kurashga o'rgatadi. Bu tuyg'u ilk o'spirinlarni poqiza, muloyim qiladi, ularda olijanob tuyg'ular va intilishlarni tarbiyalaydi. Unday bo'lsa, nega bu tuyg'uga chek qo'yish kerak? Aksincha, tarbiyachi bunday tuyg'uni qadrlashi va hurmat qilishi, uning vujudga kelishidagi soflikni avaylashi, bu tuyg'uning kelgusida ham har ikkala tomonga yaxshi ta'sir ko'rsatishi uchun qo'lidan kelgan hamma chorani ko'rishi (hech bo'lmaganda, halaqit bermasligi) kerak.

O'spirinlarda sevgi hissi bir qancha holatlarga bog'liq. *Birinchi*dan - jinsiy yetilish; *ikkinchi*dan - ishonadigan, suyanadigan va har qanday nozik

masalalar bo'yicha gaplashish mumkin bo'lgan do'stga ehtiyoj; *uchinchidan* - bu tabiiy insoniy ehtiyoj hisoblanib, inson ko'pincha o'zini yolg'iz his qilganida kuchli emotsional bog'liqlikka intiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha bunday tuyg'u kuchaygan shaklda birinchi bor ilk o'spirinlik davrida yuzaga keladi. Ilk o'spirinlar yolg'iz bo'lishni istamaganliklari uchun o'zlari faol ravishda o'zaro yaqin muloqot, bir-birlari bilan intim munosabatni izlaydilar. Ba'zan o'spirinlar bu hislarga shunchalik berilib ketadilarki, boshqa narsalar mavjudligi haqida mutlaqo unutib qo'yadilar. Bu davrda o'spirinlarda sevish mumkin bo'lgan qiz yoki yigit ideali paydo bo'ladi va ko'p yillar davrida bu ideal saqlanib turadi. O'spirinlar tasavvuridagi ideal kimnidir yoqtirishiga, sevishiga turtki bo'ladi. O'spirinlarning ideal obrazlari ba'zan real bo'lmaydi, ya'ni ular hech kimni «unga» o'xshatmaydilar. Bu esa ularda ishonchsizlik hamda yolg'izlik hissini ham yuzaga keltirishi mumkin. Ilk o'spirinlarga shu mavzuda badiiy adabiyotlar o'qish, kinofilmlar, teatrlar tomosha qilishni tavsiya etish hamda yoshi ulug' kishilar bilan suhbatlar o'tkazish, ularga o'zlarini kelgusi hayotlarini o'zlariga mos turmush o'rtoqlar topish masalasiga jiddiyoq yondoshishlariga yordam beradi.

Respublikamizda ilk o'spirinlik davrida do'stlikning psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlagan tadqiqotlarni prof.G'.B.SHoumarov rahbarligida F.A.Akromova o'tkazgan. Uning tadqiqotlarida ham do'stlikka doir yuqoridagi natijalar olingan.

7.4. O'spirinlarning kasbga tayyorgarlik muammosi

Yaxshi kasb-hunar egasi bo'lish insonning eng katta ziynatidir. U farog'atga, kamolotga va izzat ikromga o'z kasb-hunari tufayli ega bo'ladi. O'z farzandlarini ilmli, hunarli qilib voyaga yetkazish millatimizga xos xislat bo'lib, ota-bobolarimiz farzandlarini savodini chiqarish, hunarli qilish uchun eng yaxshi muallimlarga, usta hunarmandlarga shogirdlikka berganlar, boshqa shahar va yurtlarga bilim olish uchun yuborganlar.

O'spirinlar kasb tanlashga qanday yondoshadilar? Bu mavzuda o'zbekistonlik psixologlar M.G.Davletshin, E.G'oziev, R.Yu.Toshimov, I.M. Asadov, chet el psixologlari A.V.Alekseyev, V.A. Kruteskiy, Ye.A.Klimov, L.Golovey va boshqalar o'z ilmiy izlanishlarini olib borganlar.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lumki, o'smirlik yoshining oxirlariga kelib, o'qituvchi va ota-onalarning sa'i-harakatlari tufayli (kasbga yo'naltirish, kasblar haqida ma'lumotlar berish, targ'ibot ishlari va x.k.) yoshlarda o'zlarining kelajakdagi kasbini belgilab olishga intilishi paydo bo'ladi, kasbni o'ylab tanlaydilar, nima uchun shu kasbni tanlaganliklarini aoslab beradilar va o'z xohish - istaklariga ko'ra o'qishning 3 yillik ta'limga asoslangan akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarini tanlaydilar.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturiga muvofiq amalga oshirilayogan islohatlarning ustuvor va bosqichma-bosqich prinsiplari asosida kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimini isloh qilishning o'zoq muddatli **strategiyasi** ishlab chiqildi. Dasturning tarkibiy qismi bo'lgan o'zluksiz ta'lim tizimiga kiritilgan 3 yillik o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining joriy etilishi tom ma'nodagi yangilik bo'ldi – yoshlar 9 yillik ta'limni tugatgandan so'ng, 3 yillik o'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurtlari –akademik litseylar va kasb - hunar kollejlarida ta'limni majburiy –ixtiyoriy davom ettiradilar.

Majburiylik – bu ikki yo'nalishdan birida o'qishni davom ettirishning shartligi.

Ixtiyoriylik esa, o'quvchi o'zi qiziqqan hamda layoqatiga mos yo'nalishni erkin tanlashidir.

Akademik litsey va kasb - hunar kollejlarining maqomi tenglashtirilgan, ularning bitiruvchilari oliy o'quv yurtiga kirishda yoki tanlangan yo'nalishi bo'yicha faoliyat ko'rsatishda teng huquqlidirlar. SHu bilan birga akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Akademik litsey o'quvchilarining qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan holda o'qitishni ta'minlaydi. Akademik litseylarda o'spirin yoshlar o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha bilimlarini oshirish va muayyan fan asoslarini chuqur mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Inson tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy –iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydigan omillardir. SHunday yoshlarimiz borki, umumiy o'rta ta'lim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon etadilar. Bu boylikdan oqilona foydalanish, uni to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyat kasb

etadi. Akademik litseylar aynan shu maqsadni amalga oshirishga, iqtidorli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kasb-hunar kollejlari esa o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularga tanlangan yo'nalishlari bo'yicha bir necha zamonaviy kasbni egallash imkoniyatini beradi. Masalan, Qo'qon shahridagi pedagogika kollejida ham o'spirin yoshlar boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bilan birgalikda tasviriyl faoliyat sohasini yoki musiqa sohasini ham egallamoqdalar.

Joylarda tashkil qilinayotgan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, viloyat markazlari va Toshkent shahrida tashkil etilgan Tashhis markazlari 9 sinfni tamomlayotgan yoshlarni iqtidori va layoqati, qiziqishlarini o'z vaqtida aniqlash, uni psixologik metodlar yordamida diagnostika qilishni amalga oshiradi. Bu tadbirlar yoshlardagi kasb-hunarga bo'lgan layoqatlilikni adekvat bilish, o'z yashash joyidan o'zoq bo'lmagan sharoitda zarur, o'z qobiliyatlariga mos hunar egasi bo'lib yetishishiga yordam beradi.

O'spirinlarga xos bo'lgan xususiyat –kasblarni keskin tanlash va ularga shunday munosabatda bo'lishdir. Ularning ko'plari ayrim kasblarni yuqori baholaydilar, o'quvchilarning ko'z o'ngida bu kasblarning ijtimoiyl mavqei juda ulug'dir, boshqa kasblarning ijtimoiyl mavqei nihoyatda past. Lekin muammo shundaki, ko'pgina kasblarning bunday mavqeligi jamiyat uchun, mamlakatimiz xalq xo'jaligi uchun real ahamiyatga ega bo'lmaydi.

V.SHubkin qiziqarli ma'lumotlar keltiradi. Ma'lum bo'lishicha o'spirin yoshlar sud-prokratura, iqtisodiyot, xarbiyl, kompyuter, chet tillarini o'rganish sohalariga qiziqadilar va mazkur kasblarni juda yuqori baholaydilar. Qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarish sohalariga oid, shuningdek tarbiyachilik, o'qituvchilik kasblarining mavqeini past baholaganlar. O'spirinlarning kasblarga bergan bahosi xalq ho'jaligi ehtiyojlariga mos kelmaydi. Ayniqsa, ishlab chiqarish kasblarining mavqeini ko'tarish muhimdir.

Litsey yoki kasb-hunar kollejlariga kirib ta'lim olayotgan o'spirinlarning hammasini ham o'zining kelajakdagi kasbini qat'iy tanlab olgan deb ayta olmaymiz. Bir qancha psixologlarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, turli shahar va tumanlarda o'zining kelajakdagi kasbini qat'iy begilab olgan o'quvchilar 65%-85% ni tashkil etadi, ya'ni litsey yoki kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning ayrimlari o'z kelajagi haqida xira tasavvurga ega bo'ladi. "Men qaysi kasbning qaziqarli ekanligini bilmayman, kollejga esa uyimizga yaqin bo'lgani tufayli kirdim" (ayrimlari akam o'qiganligi yoki ota-onam

tavsiyasi bilan) deb ko'rsatganlar. "Yana o'qimoqchiman, lekin qaerga kirishni o'ylab ko'rganim yo'q" deydi litsey o'quvchisi tadqiqot materiallarida. Lekin o'quvchilar kelajaklarini, o'z imkoniyatlarini to'g'ri belgilab olgan holar ham ma'lum: "Men o'tloqlarni, dala va o'rmonlarni juda yaxshi ko'raman. Ayniqsa o'simliklarni parvarish qilishni juda yoqtiraman. Kollejni tamomlagach, agronomlikka o'qiyman. Yozgi ta'til vaqtida dalada ishlayman. Mening shunday rejam bor –dastavval sabzavotchilik brigadasida, pichanzorda, so'ngra bog'da, shundan keyin kombayn yonida ishlamoqchiman, maqsadim-ko'proq malaka orttirishdir". Professional niyatlarning barqarorligini o'rganish yuzasidan N.I.Krilov o'tkazgan tekshirish shuni ko'rsatadiki, hatto o'z niyatlarini amalga oshirib, oliy o'quv yurtiga kirgan talabalar orasida ham ko'plari o'zlarining kim bo'lishlarini oxirigacha hal qilmaganlar. Bunga sabab yoshlarni mazkur oliy o'quv yurtiga olib kelgan kasb haqidagi tasavvur bilan bu kasbning haqiqiy, amaliy mazmuni o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. Ko'plari mazkur oliy o'quv yurtiga tasodifan kirgan bo'ladilar: "otam ham shifokor bo'lgani sababli kirdim", o'rtog'im kirayotgani sababli kirdim", "chunki bu yerga kirish osonroq bo'ldi" va xokazo.

Axir o'zining professional taqdirini tasodifan hal qilish murakkab kechinmalarga, tanlagan kasbi sohasida ikkilanishlarga, og'ir ichki ziddiyatlarga olib kelishi mumkin va olib keladi. Bu narsa yigit va qizlar uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi.

O'spirin yoshlar oliy ma'lumot olishga, o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettirishga bir tomonlama yondoshishlarini aytib o'tish kerak. Litsey va kollej o'quvchilarining 80% idan ko'prog'i oliy ma'lumot olishga intilamiz, deb qat'iy qaror qilgan, faqat ozchilik qismigina o'qishdan keyin ishlab chiqarishga bormoqchi ekanliklarini aytishgan (oliy o'quv yurtlariga bitta o'ringa 15-20 ta abituriyent hujjat topshiradi). Biroq ularning ma'lum qismigina oliy o'quv yurtiga real kira olishiga umid qilishi mumkin. Qolganlari ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritishlari kerak. Yoshlarning oliy ma'lumot olishga intilishining yaxshi tomonlari bo'lishi bilan birga buning salbiy oqibatlari ham bor. Birinchidan o'quvchilar o'zlari tanlagan oliy o'quv yurtiga kirish uchun topshiradigan 3-4 fanni chuqur o'rganishni mo'ljallaydilar xolos. Boshqa fanlarni o'rganishga vaqt sarflash oqilona va samarali ish deb hisoblanmaydi. Ikkinchidan, tanlagan fanlarni o'rganish ham M.G.Davletshin to'g'ri ko'rsatib o'tganidek, test talabalariga mos keladigan pragmatik xarakterga ega bo'ladi, ya'ni asosiy e'tibor test savollariga to'g'ri javob topishga qaratiladi.

Oliy o'quv yurtiga kirishga bir tomonlama psixologik ustanovka o'z niyatlarini amalga oshira olmagan bitiruvchilarga salbiy ta'sir qiladi. Muvaffaqiyatsizlik ularga og'ir ta'sir ko'rsatadi, ko'pincha bu holni o'z umidlarining barbod bo'lishi deb qaraydilar. O'quvchilar: agar oliy o'quv yurtiga bu yil kira olmasam, bir ikki yil kutaman, tayyorgarlik ko'raman deb o'ylaydilar.

Bularning hammasiga tarbiyaviy ishlarimizning bir muncha bo'sh olib borilayotganligi sabab bo'lmoqda, biz yigit va qizlarga oddiy ishlab chiqarish kasblariga muhabbatni singdirish, bu kasblarning ijtimoiy mavqeini oshirishga diqqat-e'tiborni kuchaytirishimiz zarur. Astoydil ish olib borish, bu kasblarni qat'iyat bilan mohirona targ'ib qilish, ularning beradigan yuksak ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari ko'rsatishimiz zarur.

7.5. O'spirinlik davrida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi

O'spirinlarni hali to'la katta deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning shaxs xususiyatlarida hali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida, berayotgan baholarida, hayotga va o'z kelajaklariga munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik o'spirinlar maktabni tugatish vaqtiga kelib ham kasb tanlashga nisbatan mas'uliyatsiz yondoshadilar. Bu davr o'spirinning axloqan *o'z-o'zini anglashi* va barqaror "Men" obrazining shakllanishi shuningdek, axloqning yangi bosqichiga o'tishi bilan xarakterlanadi. Bu anglash oddiygina o'sishdan iborat bo'lib qolmasdan, u sifat jihatdan o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi, bu hol o'z shaxsining ma'naviy-psixologik xususiyatlarini qonkret hayotiy maqsadlar va intilishlar nuqtai nazaridan anglash va ularga baho berish ehtiyoji bilan bog'langandir.

Ilk o'spirinning o'zini o'zi anglashi o'smirning o'zini-o'zi anglashidan xuddi shu tomonlari bilan farq qiladi. Xuddi ana shu narsa ilk o'spirinlarda o'zining psixik hayotiga, o'z shaxsining sifatlariga, o'z qobiliyatlariga chuqur qiziqish uyg'otadi, xuddi shuning uchun ham o'z xatti-harakatlariga nazar tashlash, o'z his-tuyg'ularini va kechinmalarini bilib olish ehtiyoji paydo bo'ladi.

O'z-o'zini anglash o'quvchining ichki kechinmalar dunyosiga kirishi bilan bog'liq emas va foydasiz, maqsadsiz o'z-o'zini tahlil qilishdan ham iborat emas. O'z-o'zini anglash hayot va faoliyat talablaridan kelib chiqadi. Jamoadagi yangi vaziyat, tevarak-atrofdagilar bilan bo'ladigan

yangicha munosabatlar o'quvchini o'z imkoniyatlarini baholashga, o'zining shaxsiy xususiyatlarini, o'ziga nisbatan qo'yilayotgan talablarga javob bera olishi yoki javob bera olmasligi nuqtai nazaridan anglashga majbur qiladi.

Ilk o'spirinning o'z-o'zini anglashiga oid bu qiziqarli xususiyat quyidagilardan iborat. Ilk o'spirin o'zining kuchli va ojiz tomonlarini, o'zining ustunligi va kamchiliklarini o'smirga qaraganda yaxshiroq va chuqurroq baholay oladi. Biroq o'smir ko'pincha ilk o'spiringa qaraganda o'ziga to'g'riroq baho beradi. O'smirda o'z-o'zini anglashning rivojlanishiga boshqa kishilarning fikrlari ta'sir qiladi. O'smir go'yo o'ziga tevarak - atrofdagilar ko'zi bilan qaraydi, uning aynan o'zi haqidagi fikrlari ko'pincha ota-onalari, o'qituvchilari va o'rtoqlarining fikrlarini takrorlaydi. Tabiiyki, uning o'z-o'ziga baho berishi ham ancha ob'ektiv bo'ladi, chunki u tevarak-atrofdagilarning ob'ektiv bahosini takrorlaydi. Bu hol akademik litsey va kollej o'quvchilarida boshqacha bo'ladi.

Intellekti yaxshi rivojlangan o'spirinlar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushuna oladilar va ularni muhokama eta oladilar. O'spirinlar juda ko'p muammoli savollarga javob o'ylaydilar. Ularning diqqatini ko'proq axloqiy masalalar tortadi. Ilk o'spirinning o'z-o'zini anglashi o'smirning o'z-o'zini anglashidan shu jihatlari bilan farqlanadi. Xuddi ana shu narsa ilk o'spirinni o'zining psixik hayotiga, o'z shaxsining sifatlariga, o'z qobiliyatlariga chuqur qiziqish uyg'otadi, xuddi shuning uchun ham o'z xatti-harakatlariga nazar tashlash, o'z his-tuyg'ularini va kechinmalarini bilib olish ehtiyoji paydo bo'ladi. Agar o'smirning tushunchasida sezgir kishi hamisha boshqalarga yordam ko'rsatsa, ilk o'spirin yoshidagi o'quvchilar esa bunda ancha nozik tafsilotlarning ham farqiga boradilar, ular sezgirlik – ayniqsa qanday yordam zarurligini his qila bilish va u ana shu yordamni ustalik bilan kishini xafa qilmasdan, ko'rsata olishdan iborat deb hisoblaydilar.

O'smir o'zining hozirgi ahvoliga muvofiq ravishda o'ziga baho beradi, katta maktab yoshidagi o'quvchi o'zining kelajagiga muvofiq ravishda o'ziga baho beradi. O'smir o'zicha: "Men maktab jamoasining a'zosi sifatida qandayman?" deb savol beradi. Ilk o'spirin esa o'ziga: "Men kelgusi mustaqil hayot uchun qandayman? Men unga yaroqlimanmi?" –deb savol beradi.

Ilk o'spirin shaxsga, umuman uning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda baho bera bilsa, o'smir o'zining shaxsiga ayrim ishlar, xatti-harakatlarga qarab baho beradi va bu bahoni umuman shaxsga tatbiq etadi.

Ilk o'spirinda o'zi, o'z shaxsi to'g'risida to'g'ri, ob'ektiv tasavvur hosil bo'lishi uchun unga ko'p o'ylab, ustalik bilan yordam ko'rsatish kerak. Agar o'qituvchining bergan bahosi do'stona va to'g'ri bo'lsa, uning fikrlari ilk o'spirinning imkoniyatlariga chuqur ishonch bilan, uning shaxsini chuqur hurmat qilish bilan aytilgan bo'lsa, hatto o'qituvchining bildirgan keskin tanqidiy mulohazalari ham odatda yetarli darajada diqqat-e'tibor va minnatdorchilik bilan qabul qilinadi.

O'spirinlarda axloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'spirinlarni yaxshilik va yomonlik, haqiqat va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o'spirinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabatlar bo'lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko'proq erkin va mustaqil bo'lishga intiluvchi yoshlardir.

O'spirinlar ongli ravishda egallangan axloq normalari asosida o'z xatti-harakatlarini yo'lga solishga intiladilar. Bu esa, avvalo o'spirin o'zini anglashining o'sishida namoyon bo'ladi.

O'zini anglash murakkab psixologik struktura bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *birinchidan*, bolada tashqi olamdagi predmet ta'siridan paydo bo'lgan sezgilari o'z tanasi bilan farq qila boshlaganda vujudga keladi;

- *ikkinchidan*, o'zining shaxsiy "Men"ligini aktiv faoliyati asosida anglashi;

- *uchinchidan*, o'zining psixik xususiyati va xislatlarini anglashi;

- *to'rtinchidan*, ijtimoiy, axloqiy o'z-o'ziga baho berishning ma'lum sistemasini anglashi. Mana shu elementlarning barchasi bir-biri bilan funksional va genetik bog'langandir. Lekin, bularning hammasi sizga ma'lumki, bir vaqtning o'zida shakllanmaydi.

Bolaning «men»ligini anglashi taxminan 3 yoshda paydo bo'ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan: *men*, *meniki*, *menga*, *menda* va hokazo.

O'spirinlar har joyda o'zini ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan o'smirlik vaqtidayoq, o'zlarining shaxsiy xususiyatlarini kuzata boshlaydilar. Ya'ni o'zlarining tashqi qiyofalariga tanqidiy qaray boshlaydilar: bo'yining pastligi yoki

aksinchasi, semizlik, yuzidagi husnbuzarlar yigit va qizlarni bezovtalantiradi, ular iztirob chekadilar. Kech yetiladigan o'g'il va qizlar yashirin kechinmalar kechiradilar. Kishining o'z obrazi - bu o'spirinlikning o'zini anglashi ancha muhim komponent bo'lib hisoblanadi. O'zining psixik sifatlarini anglash va o'z-o'ziga baho berish o'spirinlik yoshida, borgan sari ko'proq ahamiyat kasb eta boshlaydi.

O'spirinlikda o'z shaxsiy hislatlariga baho berish kuchayadi, o'spirin ham o'smir singari o'z qadr-qimmatini, uning nimalarni qilishga arzishi va nimalarga qodir ekanligini bilgisi keladi. O'ziga baho berish ikkita usulda bo'ladi.

1. Kishi o'zi qo'lga kiritgan yutuqlari natijasi bilan baholaydi. Masalan: bola qiyin vaziyatda o'zini yo'qotmadi yoki yosh bolani yong'indan qutqazdi – **“Men qo'rqqoq emasman”**. Ma'lum qiyin topshiriqni bajardi. **“Men qobiliyatliman”** – deydi. Axloqqa oid bunday xatti-harakatlar, o'spirinning o'z qat'iyiligini sinashi hamdir.

2. Ijtimoiy taqqoslash, ya'ni o'zi va xatti-harakatlarini boshqalarning ishlari, fikrlari bilan solishtirishdan iboratdir. Masalan: o'quvchilar tomonidan **“mardlik”** deb ma'qullangan xatti-harakatni o'qituvchi **«qalbaki o'rtoklik»** deb aytdi. Bunda bolalar o'z xatti-harakatlari to'g'risida o'ylab, bosh qotira boshlaydilar. Shaxsiy «men» obrazi, juda murakkabdir. Hatto kattalarning o'zini anglashi ham qarama-qarshiliklardan holi emas. Bu holat ayniqsa o'spirinlarda yanada kuchliroq bo'ladi. Ba'zi o'spirinlar o'zini kuzatish uchun kundalik daftarlar tutadi. Bu holat qizlarda ertaroq va ko'proq uchraydi. Bu holat shaxsda mohiyat jihatidan tubdan o'zgargan tarzda o'z shaxsining ma'naviy-ruhiy fazilatlarini, ijtimoiy turmush tarzi, maqsad va vazifalarini anglashi, ularni oqilona baholash zaruratini aks ettiradi. Undagi o'z-o'zini anglash, turmush, yashash, o'qish, mehnat va sport faoliyatlari tarzida namoyon bo'ladi. O'quv muassasa, mikromuhitidagi odatlanmagan vaziyat, shaxslararo munosabatlar va muomala ko'lamining kengayishi o'spirinning o'ziga xos tipologik aqliy, axloqiy, irodaviy, hissiy xususiyatlarini oqilona baholashi, qo'yilayotgan talablarga javob berish, uning o'z-o'zini anglashini jadallashtiradi. O'spirin o'quvchilarining o'z-o'zini anglashga aloqador o'ziga xos xususiyatlari mavjud, ular dastavval o'zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'spirin o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni o'quv muassasa, jamoat tashkilotlari, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy ta'siri doirasida bo'lmog'i shart. Toki o'z-o'zini tarbiyalashning takomillashtirilishi

jamoada munosib o‘rin egallashga, ijtimoiy burchni anglash, foydali mehnatga jalb etish ishiga xizmat qilsin. O‘z-o‘zini tarbiyalashni to‘g‘ri izga solib yuborish uchun uyg‘un birlikni tashkil etgan tarbiyaviy chora-tadbirlar majmuasi tarzida ta’sir o‘tkazish jamoa majburiyati, o‘zaro yordam va nazorat qilish, o‘zaro baholash va tanqid qilish kabilar maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy turmushda uchraydigan ba’zi bir salbiy yurish-turish ko‘rinishlariga, illatlariga, sarqitlariga qaqshatkich zarba berish, ularning ta’siridan yigit va qizlarni asrash, yot tashviqot mohiyatiga qarshi kurash olib borish pedagoglar jamoasining bosh vazifasidir. O‘spirinlarda balog‘atga yetganlik tuyg‘usi takomillashib borib, o‘z-o‘zini qaror toptirish, o‘z ma’naviy qiyofasini ifodalash tuyg‘usi o‘z-o‘ziga boradi.

Bu narsa ularning alohida shaxs ekanligini tan olishga intilishida o‘z ifodasini topadi. Buning uchun ayrim yoshlar turli modalarga mayl qo‘yish, tasviriy san’atga, musiqaga, kasb-hunarga, tabiatga maftunkor qiziqishlarini namoyish qilishga harakat qiladilar. O‘quv va mehnat jamoalari ta’sirida matonat, jasurlik, sabr-toqat, kamtarlik, intizomlilik, halollik kabi insoniy fazilatlar takomillashadi. Xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo‘rqoqlik, g‘ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, shaxsning ilk o‘spirinlikdagi eng muhim hislatlaridan biri o‘z-o‘zini hurmatlash, o‘z-o‘ziga baho berish hamda o‘zini shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O‘spirinlar o‘zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. Ularni o‘z-o‘zini tarbiyalash borasida bir butun ma’naviy psixologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va namunaning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Masalan: o‘g‘il bolalar - qahramonlik, yaxshi ota, tadbirkor, o‘qituvchi, vrach yoki badiiy asar hamda kinofilmdagi obrazlarni o‘zlariga ideal deb bilsalar; qizlarimiz mehnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki ilmiy xodim va boshqalarni ideal deb biladilar.. O‘zaro munosabat va emotsional hayot o‘z mavqeini belgilashning murakkab muammolarini o‘spirinning o‘zi hal qila olmaydi. Bu masalani o‘spirinning ota-onasi, o‘z tengqurlari, o‘qituvchilar ishtirokida ularning qo‘llab-quvvatlashida hal qilishi mumkin. O‘spirinlarni ming yillab tashvishlantirayotgan axloqiy muammolar bu – yaxshilik va yomonlik, adolat va qonunga xiloflik, tartiblilik va ma’suliyatsizlik va hokazo. Hozirgi ilk o‘spirinlar ko‘p asrlar oldin yashagan yigit va qizlardan farq qilmasalar-da, ularga hayotga amaliy nuqtai nazardan qarash xos bo‘lib, ko‘proq mustaqillik va erkinlik xos. Dunyoda va mamlakatimizda ro‘y berayotgan jo‘shqin ijtimoiy hodisalar, o‘zgarishlar yosh avlodga mustaqil tanlash, barcha narsada shaxsiy yo‘nalganlik, mustaqil qaror qabul qilish imkonini bermog‘da. Zamonaviy yigit va qizlarning

psixologiyasini hayotning o'zi bir necha o'n yillar ilgari yashagan tengdoshlaridan farq qiladigan psixologiyani shakllantirmoqda. Bu hislatlar quyidagilar: axloqiy xarakterga ega bo'lgan ko'p muammolarni qo'yish va hal qilish, mustaqillik, fikrlarning har doim to'g'ri emasligi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va diniy muammolarni hal qilish.

Respublikamiz psihologlari tomonidan ilk o'spirinlar shaxsining psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlagan qator tadqiqotlar o'tkazilgan. SHunday tadqiqotlar sirasiga A.Jabborov rahbarligida o'tkazilgan O.U.Avlaevning tayanch-harakat a'zolari buzilgan ilk o'spirinlarning shaxs xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotini keltirish mumkin. Tadqiqot natijasida muallif quyidagilarni aniqlagan: Tayanch-harakat a'zolari buzilgan kontingentlar shaxsining motivatsiyalari mazkur yoshdagi sog'lom tengdoshlari singari bir xildagi munosabatni namoyon qilganiga qaramay ularning imkoniyatlari shaxslilik pozitsiyasidan cheklanib qoladi. Ichki motiv, bilish motivi, musobaqalashuv motivlaridagi natijalar nisbiy ma'noda tenglikni ifodalasa-da, ammo ularning o'zini o'zi hurmatlashi sog'lom tengdoshlariga qaraganda ancha past ko'rsatkichli motiv darajasini namoyon etadi. Demak ilk o'spirinlik davri katta mustaqil hayotga qadam qo'yish bo'sag'asidir.

O'QUV TOPSHIRIQ

1. O'spirinlar mustaqil fikrlashda qanday kamchiliklarga yo'l qo'yadilar?

BBB texnologiyasi

<i>BILAMAN</i>	<i>BILISHNI XOXLAYMAN</i>	<i>BILIB OLDIM</i>

O'spirinlikdagi aqliy rivojlanish bilan yetakchi faoliyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni asoslang?

«Nilufar guli» chizmasi

		B			Z			C
				B	Z	C		
		D		D	A	F		F
				G	H	Y		
		G			H			Y

“MENING HAYOTDAGI SHIORIM” trening mashg‘uloti.

Mashg‘ulot tavsiya etiladigan holatlar: guruhiiy psixokorreksion faoliyatda hamda individual psixokorreksion faoliyatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib *emotsional-hissiy sohadagi buzilishlarni, *qadriyatlar tizimida yuzaga kelgan buzilishlarni, *xarakter aksentuatsiyasini psixokorreksiya qilishda, shuningdek motivasion sohani rivojlantirishda va psixologik resurslarni shakllantirishda.

Ishtirokchilarga hayotda unga doimo olg‘a intilishga, kuch va g‘ayrat topa olishga, kelajakka ishonchini kuchaytirishga har vaqt yordam bera oladigan hayotiy motivasion (ilhomlantiruvchi) shior o‘ylab topish topshirig‘i beriladi. SHunga e‘tibor berish so‘raladiki, o‘sha shiorni siz doimo ko‘rinib turadigan joylarga yozib qo‘ya oladigan bo‘ling va uni ko‘rganda sizda beixtiyor hayotga nisbatan motivatsiya(qiziqish va intilish) paydo bo‘lsin. O‘ylab ko‘rish uchun 5-10 daqiqa vaqt berilish mumkin. Ijodiy, o‘ziga xos yondoshish so‘raladi. SHundan so‘ng hamma o‘zining shiorini o‘qib eshittiradi.

Ishtirokchilardan ushbu shiorlarini yozib olishlari, doimo yodda tutishlari tavsiya etiladi. Chunki ushbu shior bevosita mazkur trening bilan bog‘liq barcha bilim-ko‘nikmalarni yodga tushishini va saqlanishini ta‘minlaydi. Trener ishtirokchilarning shiorlarini diqqat bilan tahlil qilishi hamda o‘rni kelsa ularni psixologik tahlil qilib ushbu shior uning o‘ziga yoki boshqalarga qanday ijobiy va salbiy ta‘sir qilishi mumkinligini aytib o‘tishi lozim. Chunki, gohida o‘quvchilarda destruktiv prinsiplar hayotiy shiorga aylanib qolishi kuzatiladi, psixologning vazifasi o‘quvchilardagi shunday destruktiv, shaxs shakllanishiga salbiy ta‘sir qiluvchi omillarni bartaraf qilishdan iborat. Bu mashg‘ulot orqali o‘quvchining dunyoqarashi va tafakkur tarzini ham o‘ziga xos ravishda diagnostika va korreksiya qilish imkoni yuzaga keladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Ilk o'spirinlik davrida psixologik jarayonlarning shakllanish xususiyatlari.
2. Umumiy va maxsus layoqatlarning rivojlanishi.
3. O'spirinlik davrida kasb tanlashning o'ziga xos xususiyatlari.
4. O'spirinning mustaqil fikrlashini rivojlantirish omillarini sanab bering.
5. Litsey va kasb – hunar kollejlari o'quvchilarining o'quv faoliyatidagi xarakterli xususiyatlari qaysilar?
6. O'spirinlarda o'z – o'zini anglash qanday namoyon bo'ladi?
7. O'spirin yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish deganda nimalar nazarda tutiladi?
8. O'spirinlar kasb tanlashga qanday yondoshadilar?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'ixati.

1. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi. –T., 2013 yil
2. Ivanov P.I., Zufarova M.E. «Umumiy psixologiya» T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. 480b.
3. Do'stmuhammedova SH.A., Z.T. Nishonova, S.X. Jalilova, SH.T. Karimova, SH.T. Alimbayeva "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" T., 2013.
4. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya kursi. Moskva 1982 y.
5. V.A Kruteskiy. Pedagogik psixologiya asoslari Toshkent 1976 y.
6. V.A Kruteskiy. O'quvchilarning ta'lim va tarbiyasi psixologiyasi 1976 y.
7. M. G Davletshin taxririda. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya Tosh. 1974 y.
8. M. G Davletshin. Ta'limning psixologik asoslari. Tosh. 1990 y.
9. A.V. Petrovskiy taxririda. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. M. 1979.
10. Umumiy psixologiya, yoki yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya kursi. M. 1982

8-MAVZU: YOSHLIK PSIXOLOGIYASI

Reja:

- 8.1. Yoshlik tushunchasi va uning yosh chegaralari
- 8.2. Yoshlik davri va uning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari
- 8.3. Yetuklik davrining birinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlari
- 8.4. Yetuklik davrining ikkinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlari
- 8.5. Erta yoshlik – inson jismoniy rivojlanishining yakunlanish davri

Maqsad:

Yoshlik tushunchasi va uning yosh chegaralari xaqida tasavvurlarni boyitish va ushbu davrga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlar xamda yetuklik davrlari xaqida ma’lumotlar berish

Vazifa:

1. Yoshlik tushunchasi va uning yosh chegaralarini asoslash
2. Yoshlik davri va uning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari bayon etish
3. Yetuklik davrining birinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlarini taxlil qilish
4. Yetuklik davrining ikkinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlarini taqqoslash
5. Erta yoshlik – inson jismoniy rivojlanishining yakunlanish davrini taxlil qilish

Tayanch tushunchalar:

Yoshlik, yosh chegaralari, xususiyat, fiziologiya, yetuklik, jamiyat, inson, rivojlanish, tarbiya, faoliyat

8.1. Yoshlik tushunchasi va uning yosh chegaralari

Yoshlikning yosh chegarasini aniqlash “yoshlik”ga aloqador bo‘lgan ko‘pgina muammolarni yechimi singari mavzuar hozirgacha ilmiy baxslarning mavzusi bo‘lib qolmoqda. Mashhur jamiyatshunos I.V. Bestujev-Lada shunday yozadi: «Gap shundaki, “yoshlar”-bu nafaqat umr tushunchasi, balki ijtimoiy va tarixiy

voqelikdir». Bu toifaga turli zamonlarda va jamiyatning turli qatlamlarida turli yoshdagi insonlarni munosib ko'rganlar. Inson umri yoshi tadqiqotchisi, ruxshunos A.V.Tolstix, yoshlik tushunchasiga kengroq qarashga jiddiy e'tibor berib, yoshlik "yosh olim" sifatida o'ttizdan keyin, "yosh shoir" deb, qirqdan keyin va yubileyiga hozirlik ko'rayotgan (ya'ni ellik yilligacha) "yosh rejissyor" deb atalishini aytib o'tgan. Shundan so'ng u o'z fikrini rivojlantirib: "Ko'pincha yoshlik yoshlarning o'zlari tomonidan,

birinchidan o'ziga xos "kelgusiga avans" sifatida,

ikkinchidan xatolarga yo'l qo'yishiga bo'lgan huquq (albatta ulardan hech kim xoli emas),

uchinchidan uzoqni ko'zlamaslik (buning oqibati o'ziga bo'lgan talabni pasayishi, o'ziga, o'zining kirdikorlariga bo'lgan ma'suliyat hissining yetarli bo'masligi, hali yoshda qablida qabul qilinadi).

O'z o'zidan bizlar o'zimizga ajratilgan umrni hozir, shu damda, shu yerda qilinadigan ishni ertaga qoldirib haddan ziyod isrof qilmayapmizmi degan haqli savol tug'iladi A.B.Tolstixning nuqtai nazariga qo'shilib, insonning yoshlik davri o'smirlikdan boshlanadi deb faraz qilamiz (ba'zi davriyliklarda bu bosqich 18dan 25yoshgacha bo'lgan "kechikkan o'smirlik" deb ham ataladi). Bu boqich shu bilan bir vaqtda "inoniy yaqinlashuv" bosqichi deb ham ataladi.

Yoshlik munosabat uchun ochiq, tanishish oson kechadigan, do'stlik rishtalari shakillanadigan, sevgi hislari paydo boladigan, oila hosil bo'ladigan davr. Bu davrda asosiy faoliyat yo kasbiy o'qish, yo mehnat, yoki ikkalasi birgalikda namoyon bo'adi. Bunday faoliyatlar evaziga yoshlar insonlar o'rtasidagi munosabat hamda kasbkor sirlarini o'zlashtiradilar. Bu yosh "barqaror konseptual ijtimoiylashuv, shaxsda muhim xususiyatlarning barpo bo'lishi" bilan tasvirlanadi barcha ruhiy jarayonlar barqarorlashadi, inson fe'l-atvori barqaror tus oladi. Yoshlikda inson ijodiy faoliyat olib borishiga, turli kutilmagan gipotezlar shakillantirishiga moyil bo'ladi, shu sababdan ilm-fanning ko'p sohalaridagi ravnaqi ko'pincha yoshlarning faoliyati bilan bog'langan.

Yoshlar ilm-fanning nihoyatda turli tuman va zamonaviy sohalarida aqliy faoliyatning murakkab usullarini egallaydilar. Ularning mehnat faoliyati (aqliy, jismoniy), o'zlashtirgan bilimlari, malaka, uddaburonlik nafaqat hayotga tadbiq etiladi, balki o'zining kelgusi rivojiga va ijodiy mukammallashuviga (shu jumladan fanning menejment, marketing, ekologiya kabi boshqa yangi sohalarida) olib keladi.

Yoshlik ko'pchilik yoshlar uchun jismoniy, aqliy, ahloqiy, irodaviy kabi anchagina kata vazifalarga dosh berishi to'g'ri keladigan talabalik davridir. Bu davrning dastlabki pallalarida ularning ko'pchiligi o'zining shaxsiy kuchlarini to'g'ri taqsimlash, o'z ishlarini oqilona tashkillashtirishga erisha olmaydilar. Bunda talabalarning maishiy hayotida, faoliyatida bo'ladigan o'zgarishlarning barchasi o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu sababdan o'quv yurtining quyi bosqichlarida talabalarning o'quv faoliyati ustidan doimiy nazoratni tashkillashtirish, alohida konsultatsiyalar o'tkazish, kuratirkar ishlari nihoyatda muhim o'rin tutadi. Yuksak darajada, shu bilan bir vaqtda talabaning imkoniyatidan aniq bo'lmagan batartib aqliy yuklanishni joriy etish o'quvchi yoshlarning tashkilotchilik va faolligini oshirishning muhim sharti bo'lib qoladi.

Yoshlik-aqliy qobiliyatning rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Nazariy fikirlash, narsalarni muayyan xususiyatlari va alomatlariga ko'ra fikran ajratishni, umumlashtirishni bilish xususiyatlari keskin rivojlanadi. Bilish imkoniyatlarida sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunda gap yosh yigitning qancha va qanday masalalarni yechayotgani ustida emas, balki uni qay yo'sinda bajarish (ma'lum muammolarga nostandart yondashuv; umumiy, kata muammolarga kichik muammolarni kirita olish; unchalik mohirlik bilan shakillantirilgan sayoz masalalar asosida ham samarali umumiy masalalarni qo'yabilish va boshqalar). Yoshlikda aql-farosatning o'sishi faqargina mavjud axborotni o'zlashtirishni nazarda tutmay, balki aqliy tashabbusni vujudga kelishi va nimanidir yaratish bilan uzviy bog'langan.

Talabaning bunday fikirlash xususiyatini oliy o'quv yurtining o'quv faoliyatini tashkillashtirishda, xususan maruza olib borishda, mustaqil ta'lim uchun vazifa tayyorlashda, amaliyot va laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazishda, ularning ilmiy tadqiqot ishlarida hisobga olish zarur. Yoshlarning ijodiy faolligi odatiy tasavvurlarni yengib o'ta olishini, ba'zan esa qat'iy mantiqiy yo'l yo'riqlar, xuloalar chegarasidan noodatiy aloqa va o'xshashliklarga binoan, hamda o'zini to'liqroq namoyon etish, yangilikni erkin izlash va boshqalarni nazarda tutadi. Shu bilan bir vaqtda ishda aqliy intizomni, uyushqoshlikni, saramjonlikni saqlash lozimligini unutmaslik kerak. Bu jabhada ayniqsa ijodiy qobiliyatga ega bo'la turib, yetarli darajada ishga shay bo'lmagan, unchalik uyushqoq bo'lmagan, ko'pincha ishni chala rejasiz va betartib bajaruvchi talabalar muxtojlik sezadilar. Kimda kim ishda betartib bo'lsa, rejalashni bilmasa, boshlagan ishini oxiriga yetkazmasa, barobar sharoitlarda ham uning muvofaqqiyatga bo'lgan imkoni boshqalarnikidan kam. Aksincha kimki o'zining aql zakovat zaxiralarini ko'proq ishlatishni uddalasa, masalalarni yechishga kuchli ishtiyoqi bo'lsa va faqatgina doimiy ish jarayonida toblanib, mukammallashib borsa, ular ishda, ijodda ko'proq

yutuqqa erishadilar. Talabalarning o'quv faoliyatidagi ishtiyoq tavsifi jiddiy ahamiyatga molik, zero ular bevosida kabiyy tayyorgarlik sifatiga, shaxsning kasb ustasi sifatida shakillanishiga olib keladi. Ularning ayrimlari bilish jarayoni, kasbiy, ijodiy yutuqlarga ishtiyoq, keng ijtimoiy sabablar, shaxsiy obro' ishtiyoqi, o'z vaziyatini saqlash vako'tarishga bo'lgan ishtiyoq, biror narsaga erishish uchun intilish ishtiyoqi, o'zini toppish ishtiyoqi, moddiy ishtiyoqlar kabilardan iborat. Talabalarning o'quv faoliyatidagi samaradorlikni muhim, qiziqtiruvchi omillaridan biri bu ijodiy yutuq ishtiyoqidir. Shuni unutmaslik kerakki, insonda muvaffaqiyat qozonishga bo'lgan ehtiyoj yutuq sari qilingan intilish sifatida muvaffaqiyat uchun o'z o'zi bilan musobaqalashishni, qilmoqchi bo'lgan har qanday ish natijalarini yaxshilashga bo'lgan harakat ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Shu bilan bir vaqtda bu narsa erishiladigan muvaffaqiyatlarga olis maqsadlarni qoshilishi; ijod maqsuli, ham muammo yechish usullarida noyob, betakror natijalarda namoyon bo'ladi. Yutuqlarga bo'lgan ehtiyoj insonda yutuqlarga erishishdan qoniqish hosil qilishga olib keladi. Modomiki, o'quv jarayoni (odatdagi mashg'ulotlar, sinov, imtixon va boshqalar) yuqori yutuqlarga erishish uchun ko'pdan ko'p imkoniyatlarni o'z ichiga olar ekan, kata yutuqlarga talabi yuqori bo'lgan shaxslar o'qishdan ko'proq qanoat olishni, o'qish jarayonida ko'proq kuch-g'ayrat qilishi lozim. Bu esa o'qishda yuqori natijalarga (talabalarning yuqori darajada o'zlashtirishiga) olib keladi. Yutuqlarga bo'lgan ehtiyojning teskari tarafi esa muvaffaqiyatsizlikdan qochish hioblanadi. Muvaffaqiyatsizlikdan qochishga ochiqdan-ochiq intiluvchi talabalar odatda erishilgan natijalarni yaxshilashga kam ehtiyoj sezadi, mavjud usullarda standart yo'llarni afzal ko'radi, ijod qilishdan qo'rqadi.

Omadsizlikdan qochishga bo'lgan ehtiyoj faoliyatni mutanosib asosda bajarishi, yoshligida ham, hayotining kelgusi davrida ham turli yo'riqnomalarga so'zsiz amal qilishni keltirib chiqaradi. Omadsizlikdan qochishga ko'proq moyil bo'lgan talabalarda yuqori darajada bezovtalik, o'qishga bo'lgan rejasiz munosabat (ko'pincha ularda o'quv faoliyatiga nisbatan himoya ko'rsatmalari paydo bo'ladi) kuzatiladi. Odatda ular o'qish muvaffaqiyatlaridan qoniqish olish uchun emas, balki omadsizlikdan bo'ladigan ko'ngilsizliklardan qutilish uchun o'qiydilar. Albatta, harqanaqasiga yutuqlarga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish odat tusiga kiritish lozim, zero bu narsa oliy o'quv yurtida (yoki boshqa maxsus o'quv yurtida) o'qish holatida qoniqish hisini hosil qiladi, o'qishni osonlashtirish ta'surotini keltirib chiqaradi, o'quv maqsadlariga erishishga ketadigan vaqt sarfini kamaytirish orqali samradorlikni oshiradi. Shu bilan bir vaqtda talaba shaxsini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning shaxs sifatida o'sishiga, o'zining

shaxsiy hayot tarzini shakllanishi jarayonida potensial imkoniyatlardan maksimal foydalanish va uni kelgusida hayotga tadbiq etish imkonini beradi.

Yoshlikda muloqot katta ahamiyatga ega. O'quv faoliyati (avvalambor auditoriya mashg'ulotlari) guruhlarda kursdoshlar muhitida o'tadi. Shu munosabat bilan mutaxassislar (Y.M.Orlov, N.D.Tvorogova va boshqalar) affilyatsiya ishtiyoqi muhimligiga etiborni qaratadi. Uning tagida insonning o'z jamoati a'zolari bilan muloqotga kirishishga intilish, boshqa odamlar bilan ijobiy hissiyotli o'zaro munosabatlarni yaratish, saqlash va qayta tiklashga intilishni anglash yotadi. Tibbiyot oliy o'quv yurti talabalari ustida affiliatsiya motivini tadqiq etish uning o'qish natijalariga muhim ta'sir etishni ko'rsatadi. Masalan yuqori affiliatsiyali ikkinchi kurs talabalarining "alo"ga o'qishlari quyi bosqichdagilarga nisbatan anchagina murakkab ekanligi ma'lum bo'ldi, zero muloqot (ayniqsa shiddatli) ulardagi vaqt va quvvatni ko'p sarflashga olib keladi. Biroq yuqori affiliatsiyali to'rtinchi bosqich talabalariga "a'lo"ga o'qish past affiliatsiyali talabalarga qaraganda oson, chunki yuqori bosqichdagilar allaqachon muloqot texnikasini o'zlashtirib olganlar va jonli muloqot jarayoni o'qishiga xalal bermaydi, aksincha yordam beradi.

Agar affiliatsiyaga bo'lgan ehtiyojni qondirishga monelik ayon bo'lsa (haqiqiy yoki xatto taxminiy), u holda bu talabada ruxiy tushkunlik va vahima holatini oshishiga, ruhiy azoblanish, frustatsiya va boshqa holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'adi. Masalan, affilyatsiyaga ehtiyoji yuqori bo'gan shaxslar orasida ruhiy-jismoniy kasalliklarning miqdori ancha yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi (N.D.Tvorogova, 1976). Shunday qilib muloqotga bo'lgan ehtiyoj, affilyatsiya motivi talabalarining o'quv faoliyatiga jiddiy ta'ir ko'rsatib, yo bu jarayonni qiyinlashtiradi, yoki uni yaxshilab o'qishdan mamnunlik hisini uyg'otadi.

O'smirlik davrida hosil bo'lgan o'zbilarmonlik, yoshlikda tez rivojlanishda davom etadi. O'zbilarmonlik (ustun turish) motivi insonning boshqalarga ta'sir etishga, ularning xulqini nazorat qilishida, xurmatli va qattiyatli bo'lishga intilishida namoyon bi'ladi. Bu hislatlar boshqalarga haqiqatni isbotlashga, baxslarda g'olib bo'lishga, boshqalarga o'zining qarashlarini, ta'bini, tarz va rusmlarini tiqishtirishga bo'lgan harakatlarida ko'rinadi. Talabalarining o'quv faoliyatida bunday ehtiyoj o'qishdan mamnunlik hisini oshiradi, bu jarayonni yengillashtiradi, o'qishga nisbatan ma'suliyatni oshiradi. O'zini kata olish motivi o'quv faoliyati samaradorligini oshiradi, ayniqsa bu jarayonga musobaqalashish unsurlari kiritilganda, hamda yutuqlar motivi bilan hamohang bo'lganda bu narsa yaqqol ko'rinadi.

O‘qishning shunga o‘xshash motivlaridan biri (shu jumladan talabalarning ham) bilishga bo‘lgan ehtiyoj hosoblanadi. U insonning tajribasi va bilimni kengaytiriga bo‘lgan intilishida, ikkalasini ham tartibga solishda, omilkorlikka, o‘z bilimlarini erkin qo‘llash qobiliyatini o‘stirishga, muammo va masalalarning mohiyatini tushunishga intilishda namoyon bo‘ladi. U aqliy harakat orqali tajribalarni tartibga solidi, olamning mantiqiy mutanosib va asoslangan manzarasini yaratishga intiladi. Bilishga bo‘lgan ehtiyoj yutuqlar motivi bilan birgalikda talabaning o‘zlashtirishni oshishga juda kata ta’sur ko‘rsatgan, uning oliy o‘quv yurtida (yoki faoliyatning u yoki bu sohasiga kasbiy mutaxasilar tayyorlab beruvchi maxsus o‘quv yurtida) o‘qishdan chuqur mamnuniyat hisini yaratadi.

O‘quv yurtida o‘qish davrini shartli ravishda ikki boshqichga bo‘lish mumkin: birinchi bosqich yosh talabaning o‘quv yurtiga, oliy o‘quv yurtidagi faoliyat sharoitlariga moslashuvi yuz beradi va yuqori kurslar bosqichi (odatda uchinchi bosqichdan boshlab)- talabaning bo‘lg‘usi mutaxasis sifatida kasbiy shakillanish davri xisoblanadi. U bazan maktab o‘quvchisida shakillangan tasavvur, odatlarini ildizidan singish, o‘zining hulqi va faoliyatini o‘zgartirish va qayta qurishi, yangi sharoitlarga “kirish” zaruriyati bilan bog‘liq.

Xuddi shu davrda oliy o‘quv yurtidan yuqori darajada saralash yuz beradi. Binobarin talaba bu davrda ishlab chiqarish sharoitlarida (shu jumladan pedagogik mehnat sharoitida) mavjud masalalarni hal qilishda qatnashmagani uchun, uning asosiy va tamomi fikr-maqsadi o‘quv faoliyatining usul va yo‘llarini egallash, fundamental bilimning kerakli tizimini olish, talabaning ijtimoiy vaziyatini olishidan iborat bo‘ladi. Quyi kurs talabalarida bo‘lg‘usi mutaxasislikka bo‘lgan munosabat unchalik yorqin ko‘rinish olmaydi va shu sababdan ularning o‘zlashtirishiga ham ta’sir etadi. Sekin asta ular mutaxasislik bilimlarini olib borib o‘zlarining bo‘lg‘usi iqtisodliklarining kasbiy nozik taraflari haqida chuqurroq fikirlay boshlaydilar..ularning yuqori darajada ijtimoiy yetuklikka erishgan kopchiligida iqtisosi bo‘yicha o‘zini anglash davri boshlanadi. Buning asosiy belgisi tanlangan iqtisodlik bo‘yicha faol mustaqil faoliyat olib borishniunda muntazam mukammalashuvga intilish kerakligi haqida anglash hisoblanadi

8.2.Yoshlik davri va uning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari

Yoshlik davri 23–28 yoshlardan iborat bo‘lib, bu davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok etish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir.

Yoshlarning mehnat faoliyati quyidagi **uchta muhim belgisi** bilan boshqa yosh davrlaridan farqlanadi:



1) mutaxassislikning mohiyatiga, ishlab chiqarish shart-sharoitiga va mehnat jamoasi a'zolarining xususiyatiga moslashish (ko'nikish) – mehnat faoliyatining dastlabki yillari (taxminan 1 yildan 3 yilgacha) yoki jamoada o'z o'rnini topish va qadr-qimmatga erishish;

2) mutaxassis sifatida o'zini takomillashtirish uchun ijodiy izlanishni amalga oshirish (mehnat faoliyatining ikkinchi pallasi – 3 yildan 8 yilgacha – ish staji nazarda tutiladi) yoki kasb-korlik, mahoratini egallash;

3) mahorat sirlaridan foydalanish, tashabbus ko'rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ijtimoiy yetuklikni namoyish qilish yoki mehnat faoliyatidagi barqaror ijod bosqichida bir tekis 10 yillab ishlab sifatli mahsulot yaratish namunasini ko'rsatish.

Yuqoridagi bosqichlar barcha kasb-kor egalariga xos bo'lsa-da, lekin ishlab chiqarishga ertaroq va kechroq kirib kelgan odamlar o'rtasida yosh jihatdan tafovut mavjud bo'ladi. Masalan, kasb-hunar kollejinı tamomlagan yigit-qizlar o'z mehnat faoliyatini oliy ma'lumotli yoshlardan oldin boshlaydilar, biroq ular ham mazkur bosqichlarnı bosib o'tishlari shart.

Hozirgi mutaxassislarning ko'pchiligi o'quv yurtlaridagi nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasida uzilish mavjudligi sababli mustaqil faoliyatning dastlabki kunlaridan boshlab qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar o'z mohiyatiga ko'ra uch xildir; ular:

a) ijtimoiy qiyinchiliklar: notanish muhit shart-sharoitlari, shaxslararo munosabatlar, mehnat jamoasining saviyasi, undagi kishilarning xarakter xislatlari, ishlab chiqarish jamoasining qadriyatları, ma'naviyati, an'analari va hokazo;

b) bilim va bilishga oid qiyinchiliklar: maxsus o'quv yurtida olgan bilimlardagi uzilishlar, saviyaning cheklanganligi, ijodiy izlanish faoliyatining zaifligi, tashabbuskorlikning yetishmasligi va boshqalar:

v) mutaxassislik bilan bog'liq o'ziga xos qiyinchiliklar; ishlab chiqarishning mohiyati, xususiyati, texnologiya, qurilmalar, asboblari, amaliy ko'nikmaning bo'shligi yoki ular bilan yetarli darajada tanishmaganlik, kasbning iqtisodiy

negizini to'la anglab yetmaslik, xavfsizlik texnikasi mahsulot ishlab chiqarishning chizma-yoyilmasi va grafik irodasini taqqoslash murakkabligi, muammolar oldida lol qolish. Bu qiyinchiliklarni yengish davrida insonning ruhiy holatlari, jarayonlari va xususiyatlarida miqdor hamda sifat o'zgarishlari ro'y beradi.

Psixofiziolog P.P.Lazarevning fikricha, eshitish, ko'rish, periferik va kinestetik sezgirlikning o'zgarishi 20 yoshdan boshlanadi. Bu ma'lumotni chet el psixologlari Fulds, Raven, Pako kabilar yanada rivojlantirib aqliy va mantiqiy qobiliyatning mezoni 20 yosh deb hisobladilar. B.G.Ananev o'zining ilmiy-tadqiqotlarida yoshlik davrida yigit va qizlardagi o'zgarishlarni murakkab shaxs jihatlaridan umumiy ruhiy holat, verbal va noverbal aqliy (mantiqiy va mnemik funksiyalar) sodda jarayonlargacha (organizmda issiklik paydo bo'lishidan metabolizm – modda almashinuvigacha), hatto shaxsning xususiyatigacha bo'lgan (holatlarni o'z ichiga qamrab olishini matematik usullarga asoslangan ilmiy ma'lumotlar va ularning chuqur sifat tahlili orqali ko'rsatib o'tadi. Ko'zlarning farqlashdagi sezgirligi inson yoshiga qarab o'zgarishini tadqiq qilgan S.V.Kravkov sezgirlikning ortishi 25 yoshgacha davom etishini, barqarorlashuvi esa 25 yoshdan keyin ham davom qilishini ta'kidlaydi.

B.G.Ananev laboratoriyasida olingan natijalar inson funksional darajasining oshishi 23–27 yoshdagi yigit va qizlarda 44 foiz, funksional holatining barqarorlashuvi 19,8 foiz, funksional darajaning pasayishi 36,2 foizga tengdir. Bu ma'lumotlar kamolot bosqichining turli mikrodavrlarida o'sish jihatlarining o'zaro munosabati har xil kechishini ko'rsatib turibdi. Yu.N.Kulyutkin katta kishilarning diqqat, xotira, tafakkur bilish jarayonlarini birgalikda o'rgangan. Yu.N.Kulyutkin o'z tadqiqotida 0–130 shkalagacha oraliqni tekshirib, 22–25 yoshlarda diqqat va xotira 100,5 tafakkur 102,5 ballga tengligini, 26–29 yoshlarda esa diqqat 102,8, xotira 97,0 tafakkur 95,0 ball ekanligini isbotlab berdi. Amerikalik olim V.Shevchuk voyaga yetgan odamlarda ijodiy faoliyatning boshlanish nuqtasini tadqiq kilib, 11–20 yoshlar oralig'ida 12,5 foiz, 21–30 yoshlarda esa 66 foiz ekanini aniqladi.

Yoshlik davrida yigit-qizlar kamolotiga **uchta muhim psixologik mexanizm**, ya'ni mehnat jamoasi, oila mikromuhiti va norasmiy ulfatlar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mehnat jamoasidagi psixologik muhit, ma'naviyat olami, barqarormaslik, ijtimoiy ong, ijtimoiy qadriyatlar, muayyan an'analar va odatlar yangi a'zoning xarakterida ijobiy yoki salbiy o'zgarishni vujudga keltirishi mumkin. Mazkur ta'sir natijasida astasekin umuminsoniy fazilatlar tarkib topishi yoki muayyan shaxsiy nuqtai nazar yo'qolishi mumkin.

Mehnat jamoasiga yangi qo'shilgan a'zo unda o'z o'rni va qadr-qimmatini qaror toptirish uchun bir qator yon berishga, o'z maslagidan sal bo'lsa-da chetlashishga majbur bo'ladi. Bu yo'l jamoadagi psixologik iqlimga moslashishi maqsadida ichki ruhiy ziddiyatlarga, murakkab kechinmalarga, unsiz tug'yonga qarshi qo'yilgan qadam hisoblanadi.



Shuning uchun yakka shaxs xarakterini shakllantiruvchi yoki uning mustahkam ichki rishtalarini yemiruvchi omil mehnat jamoasidagi ijtimoiy fikrdir. Jamoaga bo'ysunish har bir a'zoning burchidir. Ayrim hollarda ko'pchilikning tazyiqiga uchragan shaxsda prinsipiiallik, adolatlilik singari hislar shaxsiy nuqtai nazar bo'shashib qoladi, natijada unda ikkilanish tuyg'usi paydo bo'ladi.

Yoshlik gashtini surayotgan yigit va qizlar ota-onasiga, buva-buvisiga, opa-singillariga, akaukalariga, turmush o'rtog'iga, farzandlariga oqilona munosabatda, oila a'zolarining har biri bilan to'g'ri muloqotda bo'lishi, muayyan qoidaga asoslangan muomala qilishi shart. **Oiladagi shaxslararo munosabatning** ko'lami kengligi sababli bir nechta bosqichli muloqotga asoslanish kerak. Lekin oila tinchligi, totuvligi va ahilligiga halal bermaslik niyatida yosh yigit va qizlar (kelinlar) vijdon amriga qarshi xatti-harakat qilishga ham majbur bo'ladilar, o'z maslamlari, fikrlari, shaxsiy qarashlariga xilof yo'l tutadilar. Dilkashlik uchun har bir oila a'zosi bilan umumiy "til" topishga intiladilar.

8.3.Yetuklik davrining birinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlari

Yetuklik davri tezkor fiziologik, jinsiy, kognitiv va hissiy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. O'smirdan kattalarga o'tish jismoniy kamolot jarayonini yakunlashi va ikkinchi darajali jinsiy xususiyatlar to'liq shakllanishi bilan aniq bo'ladi. Yetuklik davridagi insonlar quyidagi rollari va majburiyatlariga o'tishadi:

oliy ma'lumotli o'qishni boshlashi,

ishchi kuchiga kirishi,

uydan ketishi

oil qurishi mumkin.

Ular qonuniy ravishda o'zlari uchun javobgarlikni qabul qilishlari, o'zlari uchun qaror qabul qilishlari va aksariyat hollarda ko'pincha moddiy ta'minotni

boshlashlari tavsiya etilishi mumkin. Erikson o'zining sakkizta rivojlanish bosqichida yetuklik davrini "yaqinlik va izolyatsiya" deb atagan va uni shaxslar o'zlikni anglash tuyg'usini rivojlantirgandan keyin tez-tez samimiy munosabatlarni boshlash davri deb ta'riflagan.

BU QIZIQ!

Milliy Ruhiy Sog'liqni Saqlash Instituti (NIMH) ko'rsatdiki, Yetuklik davridagilar miyasi taxminan 25 yoshgacha to'liq yetuk hisoblanmaydi. Balog'at yoshidan keyin eng muhim o'zgarishlar emotsional nazorat va yuqori darajadagi bilim faoliyati bilan shug'ullanadigan hududlarda sodir bo'lishi aniqlandi. Ko'pincha his-tuyg'ular, motivatsiya va xatti-harakatlar bilan bog'liq bo'lgan limbik tizim balog'atga yetishish davrida katta o'zgarishlarga duch kelsa, prefrontal korteks yana 10 yil davomida pishib turadi. Miyaning bu qismi odamning impulslarni boshqarishiga va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishiga ta'sir qiladi. Shunday qilib, biron bir kishi "Men o'z hayotimni nima qilaman?" degan savolga javob berishga harakat qilganda foydali bo'lishi mumkin.

Kamol topishning bu bosqichiga 28–35 yoshlardagi erkak va ayollar kiradilar. Yetuklik davrida odam o'zining barcha kuch-quvvati, qobiliyati, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini o'z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga to'la safarbar qila oladi. Erkak va ayollarning bu davrda mehnat va ijtimoiy faoliyatda muayyan tajribaga egaligi ularni istiqbol sari yetaklaydi. Yetuk shaxsning boshqalarga munosabati, ularni baholashi, dinamik stereotipida sezilarli o'zgarishlar bo'ladi

1995 yilda psixolog Jefri Jensen Arnett tomonidan olib borilgan tadqiqotda 18 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan 300 yoshdan kattalar ostonasida bo'lganida boshdan kechirgan his-tuyg'ulari va hissiyotlari haqida xabar berishlari so'ralgan. Arnett butun dunyodagi odamlarni so'roq qildi, ammo eng asosiy natijasi, kerak bo'lganda qo'llab-quvvatlash uchun o'z oilasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mustaqil hayotga erishish istagi edi

Ko'pgina yetuklik davridagilar ushbu o'tish davrini qabul qilishadi va kelajak uchun imkoniyatlarni o'rganish, oliy ma'lumot olish, do'stlik va yoki yaqin munosabatlar bilan band bo'lishdan zavqlanishadi. Ba'zi yetuklik davridagilar o'z majburiyatlariga kirishni juda katta yoki tushunarsiz deb hisoblashlari mumkin, garchi ular hali ham tajribadan zavq olishlari ham mumkin.

Bu g'ayritabiiylik va chalkashliklar biologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishdagi tezkor o'zgarishlar bilan bir qatorda ushbu depressiyani rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. U endi faqat o'zining xatti-harakati uchun emas, balki boshqa odamlarning qilmishlari, uchun ham javobgarligini anglay boshlaydi, ayniqsa, hayot tajribasiga ega bo'lmagan yoshlarning o'z farzandlarining xulq-atvori, yurish-turishi uchun ham kuyadi, ularga imkoniyat boricha yordam berishga intiladi

Oliy ma'lumotni yaqin tarixda yetuklik davridagilarning ijtimoiy umidlari o'zgarganligining ko'rsatkichi sifatida qarash mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 1940 yilda yetuklik davridagilarning atigi 14 foizi o'rta maktabni tugatgandan so'ng kollejdagi o'qigan. 1990 yillarning o'rtalariga kelib, yetuklik davridagilarning 60% dan ortig'i o'rta maktabdan keyin oliy ma'lumot olishdi. Oliy ma'lumot olish ko'pchilikning fikriga ko'ra, shaxsning rivojlanishi va kelajakdagi tanloviga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yetuklik, kattalik, donishmandlik, rahnamolik, g'amxo'rlik, homiylik davridir. Boshqa yosh davrlardagi kabi mazkur davrda ham muayyan darajada inqiroz bo'ladi. Bu davrda inson qanday ishlarni amalga oshirishga, qaysi imkoniyatlardan foydalanmagani, ayrim xatolar, tushunmovchiliklar sababli, ko'ngilsizliklar vujudga kelganligini anglay boshlaydi. O'ziga o'zi hisob berish shu davrning muhim psixologik xususiyatlaridan biridir. Yetuklikning turli davrlarida kamol topish jabhalarining o'zaro munosabatini tadqiq qilgan B.G.Ananov laboratoriyasi hodimlari 29–32 yoshlarda funksional darajaning oshishi 46,2 barqarorlashuvi 15, 8, funksional darajaning pasayishi 38,0, 33–35 yoshlarda 11,2, 33,3 foiz, 55,5 foizni tashkil qilishini aniqlashgan. Yu.N.Kulyutkin tadqiqotining natijasiga qaraganda, 30–35 yoshlarda diqqat 102,8, xotira 99,5, tafakkur 102,3 birlikka baravardir. Yetuklik davri faoliyatining mahsuldorligini o'rgangan G.Leman uning cho'qqisi kimyogarlarda 30 yosh, matematiklarda 30–34, geologlar va

astronomlarda 30–35 yosh ekanligini va o‘rtacha mahsuldorlik cho‘qqisi 37 yoshda bo‘lishini qayd qilgan. Psixofiziolog S.V.Kravkov ko‘zning farqlash sezgirligi yoshga qarab o‘zgarishini 4 yoshdan 80 yoshgacha bo‘lgan odamlarda tekshirib, sezgirlikning ortishi 25 yoshgacha, sezgirlikning barqarorlashuvi 25–50 yoshgacha davom etishi mumkinligini aniqlagan. 3.F.Esareva oliy maktab o‘qituvchilari aqliy faoliyatining mahsuldorligi muammosini tadqiq qilib, nomzodlik dissertatsiyasini yoqlashni matematiklar – 26, psixologlar 32, filologlar – 34, tarixchilar – 31, fiziklar – 30 biologlar 32 yoshda amalga oshirishi mumkinligini aniqlagan.

Kamolotning birinchi bosqichidagi yetuk kishilarda ijtimoiy faoliyatida qatnashish istagi 30 yoshda 18,3 foiz, 35 yoshda 6,2 foizni tashkil etadi. Demak, ijtimoiy tashkilotlar faoliyatida qatnashish ko‘lami torayib boradi. Bu davrda erkak va ayollarning tafovutlari namoyon bo‘ladi: jismoniy, jinsiy, ruhiy kamolotda ayollar ilgarilab kelgan bo‘lsalar, endi erkaklar oldinga o‘tib oladilar va bu hol inson umrining oxirigacha saqlanib qoladi.

Yetuklik davrida ijodiy faoliyatning mahsuldorligini Z.F.Esareva quyidagi mezonlar bilan o‘lchashni lozim topadi:

- 1) e‘lon qilingan ilmiy ishlarning miqdori;
- 2) chop qilingan asarlar ichida o‘quv qo‘llanma, darslik va monografiyalarning mavjudligi;
- 3) ilmiy tadqiqotda yangi yo‘nalishning ochilishi;
- 4) ilmiy muammoni hal qilishda yangi usulning kashf etilishi;
- 5) ilmiy maktabning tashkil qilinishi;
- 6) boshqa mualliflarning ishlariga murojaat qilish va ilova berish miqdori;
- 7) o‘qituvchining ilmiy ma‘lumotlaridan talabaning mustaqil ishlarida foydalanish ko‘lami;
- 8) o‘qituvchi rahbarligidagi diplom va dissertatsiya ishlarining miqdori va sifati;
- 9) o‘qituvchining ilmiy faoliyatdagi muvaffaqiyat mukofot bilan taqdirlanishi;
- 10) dotsent va professor degan ilmiy pedagogik unvonlarga sazovor bo‘lish kabilar.

Mazkur yoshda shaxsiy hayotdagi yutuqlar, g‘alabalar yoki muvaffaqiyatsizliklar kishining ruhiy dunyosiga qattiq ta‘sir etadi. Natijada unda takabburlik, mag‘rurlik hislari paydo bo‘ladi, o‘zining boshqalardan ustun qo‘ya boshlaydi yoki,



aksincha, hayot zahmatlari uning pessimist, narsa va hodisalarga nisbatan loqaydlik tuygʻusini vujudga keltiradi. Lekin har ikkala koʻrinishga ega boʻlgan ruhiy holat ham oila aʼzolari, tengqurlari, mehnat jamoasi aʼzolarining taʼsiri orqali astasekin muayyan yoʻnalishga tushib qoladi. Umuman, kamolot bosqichidagi odamlar istiqbol rejasi bilan yashashga harakat qiladilar, voqelikka, turmush ikirchikirlariga, tabiat, jamiyat, koinot hodisalariga befarq qaramaydilar, imkoni boricha hotirjamlik, totuvlik, tinchlik, doʻstlik, dunyo lazzeatlaridan oqilona foydalanish tuygʻusi bilan yashaydilar.

8.4.Yetuklik davrining ikkinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlari

Yetuklik davri 36–55 (60) yoshlardagi erkak va ayollarni oʻz ichiga oladi. Mazkur davrda ijodiy faoliyatni qaytadan baholashda oʻz ifodasini topuvchi yangi xislat namoyon boʻladi. Ular shu kungacha mehnat faoliyatida miqdor ketidan quvib yurgan boʻlsalar, endi mehnat mahsulining sifati ustida bosh qotira boshlaydilar. Oilaviy turmushga, ijtimoiy hayotga, yashashning maqsadiga, inson qadr-qimmatiga, tevarak-atrofga, oʻzlariga va boshqa odamlarga yangi mezon bilan qaray boshlaydilar. Turmushning ikirchikirlari, ijtimoiy hodisalarga vazmin, sabr-toqat bilan hayot tajribasiga suyangan holda munosabatda boʻladilar, har bir narsaning nozik tomoni yoki yomon oqibati haqida oʻz fikrlarini bildiradilar. Hayotda qoʻldan boy bergan imkoniyatlari, xato va kamchiliklari ularda yetti oʻlchab, bir kes qabilida ish tutish tuygʻusini vujudga keltiradi. Shuning uchun ular umrning biror daqiqasi behuda oʻtishiga achinadilar, yoshlik yillarida yoʻqotganlarini aql-zakovat, donishmandlik bilan toʻldirishga intiladilar.

Yetuklik davrining ikkinchi bosqichida qarilik alomatlari koʻproq oʻrin egallay boradi, uning boshlanish nuqtasi 45–50 yoshlardir. Lekin odamlarning oʻziga xos xususiyatlariga koʻra bu, chegara turlicha, masalan, bu bir kishida 60 yoshda, boshqa birida esa 70 yoshda boʻlishi mumkin. Shu sabablityosh davrining chegaralari faqat shartli belgilanadi. Bu omil odamlar yashayotgan oila muhitiga, tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitga, jugʻrofiy iqlim va hokazolarga ham bogʻliqdir. Mazkur yosh davrining oʻzgaruvchanligini insonning biologik, ijtimoiy va tarbiyaviy omillari (irsiy alomat, ijtimoiy muhit, uzluksiz tarbiyaviy taʼsir) belgilaydi. Yu.N.Kulyutkin bir xil yosh davridagi odamlarda har xil jarayonlar, holatlar, xossalar, xususiyatlarning oʻsishi, oʻzgarishi baravar emas, balki ularning birovda oldin xotira, keyin tafakkur, boshqa birovda, aksincha, rivojlanishini, bir psixik jarayonning zaiflashuvi, ikkinchisini jadal surʼat bilan oʻstirishini uqtiradi.

Shaxsning o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga intilishi faoliyatning barcha turlarida ma'naviy va ruhiy jihatdan o'zini anglashini yanada takomillashtiradi. Yetuklik davridagi erkak va ayollarning o'zligini anglashdagi "Men" uch xil ko'rishdan ifodalanadi: "Men" ko'pincha "Men – obraz" shaklida o'zi tomonidan talqin qilinadi. Shaxsning "Men – obrazi": 1) retrospektiv "Men"dan iborat bo'lib, o'tmishdagi o'zligini aks ettiradi; 2) aktual "Men" sifatida tasavvur etilib, o'zining hozirgi davrini ifodalaydi; 3) ideal "Men" obrazi esa yaqin kelajakda o'zining qanday tasavvur qilish tuyg'usi bilan bog'liq holda yaratiladi.



Shuning uchun o'z imkoniyatlarini hayotda to'la safarbar qilish istagi ijtimoiy turmushning barcha jabhalarida o'zining o'tmish obrazini hozirgisi bilan solishtirib, shaxsiy ideal modelini vujudga keltiradi, shaxs mazkur modelga asoslanib, turmush rejalarini, xatti-harakat maqsadini, usul va vositalarini tanlay boshlaydi. Insonning o'tmishidan hozirgi kunga, hozirgi kundan kelajakka intilishi o'zini anglashning bosh mezonlari hisoblanadi.

O'zligini anglashning boshqa mezonlari ham mavjud bo'lib, ular o'zini o'zi baholash, nazorat qilish, tekshirish, qo'lga olish, o'ziga buyruq berish kabilarda aks etadi. O'zini anglash ko'pincha, o'ziga boshqa kishilar:

a) yoshi ulug' odamlar;

b) tengdoshlari;

v) o'zidan kichik odamlar nuqtai nazaridan qarashda ko'rinadi. Mazkur yosh davridagi odamlarning ko'rish maydonini o'rgangan L.N.Kuleshova va M.D.Aleksandrovalar 36–50 yoshli erkaklarda ko'rish chegarasi quyidagicha ekanini aniqlaganlar: normadan ortiq 4 foiz, normada 53 foiz, qolganlari normadan kam. Yu.N.Kulyutkin 36–40 yoshli sinaluvchilarda diqqat, xotira, tafakkurning 0–130 gacha shkalada 94,8; 93,7; 99,0 birliklarga ega ekanligini isbotlab berdi. B.G.Ananov esa mazkur yoshdagilarda shaklni idrok qilishni binokulyar va monokulyar yo'llarida muayyan darajada tafovutlar yuzaga kelishini aytadi. Qator

olimlar (Klapared, Mayls, Bellis, Filip) mazkur yoshdagilarning tovush va yorug'likdan ta'sirlanish vaqti o'zgarishini o'rganganlar. Olingan ma'lumotlar amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'z qimmatini hozirgacha saqlab kelmoqda. Fulds, Raven, Pako kabi tadqiqotchilar intellektning mantiqiy qobiliyatini tekshirib, 30 yoshda 96, 40 yoshda 87, 50 yoshda 80, 60 yoshda esa 75 foiz bo'lishini aniqlaganlar.

Ularning ijtimoiy faoliyatga kirish xususiyatini faollik nuqtai nazaridan o'rgangan V.SHevchuk 35 yoshdagi odamlarning 6,2 foizi bu faoliyatda qatnashish istagini bildirsa, 40 yoshda 2,2 foizi qatnashishni xohlaydi, 2,8 foizi esa undan chiqishga qaror qiladi. Ahvol shunday davom etadi.

3.F.Esareva oliy maktab o'qituvchilarining ijodiy faoliyati xususiyatlarini o'rganib, doktorlik ishlarini yoqlashni matematiklar 33, psixologlar 46, filologlar 46, tarixchilar 47, fiziklar 37, biologlar 40 yoshda amalga oshirishini aniqlagan. Umuman yetuklik davrining ikkinchi bosqichiga mansub kishilar bir tomondan, butun imkoniyatini mehnat va ijtimoiy faoliyatlarga bag'ishlagani bilan, ikkinchi tomondan, ijtimoiy faolliklari susayib borishi bilan farqlanadi. CHunki insonning keksayishi ham quvonchli, ham o'kinchli damlarga, kechinmalarga, his-tuyg'ularga serobligi bilan boshqa yosh davrdagi odamlardan ajralib turadi.

Hotirjam dam olish istagi bilan ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashish tuyg'usi o'rtasida inqiroz vujudga keladi. Qanday qarorga kelish, ya'ni mehnat jamoasi bilan aloqani uzmaslik yoki mutlaqo ijtimoiy faoliyatdan chetlashish muayyan holatlardagi motivlar kurashiga bog'liqdir. Hozirgi zamon kishilarining o'rtacha umr ko'rishi XX asr boshlaridagiga nisbatan qariyb bir yarim – ikki marta uzayganligi, yetuklik davridagi erkak va ayollarning jismoniy baquvvatligi, ma'naviyati va ruhiyati tetikligi ijtimoiy faollikni susaytirish haqida so'z bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatmoqda.

O'QUV TOPSHIRIQ

Yoshlik davrining umumiy xususiyatlari va psixologik mexanizmlariushbu jadval asosida yoriting?

INSERT jadvali

“V”- men bilgan ma'lumotlarga mos;

“-“ - men bilgan ma'lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma'lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to’ldirish talab etiladi.

V	+	–	?

Mustaqil ish yuzasidan savollar:

1. Yetuklik davrining psixologik xususiyatlari.
2. Yoshlik davri va uning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari
3. Yetuklik davrining birinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlari

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘ixati.

1. G‘oziev E. Ontogenez psixologiyasi. –T., 2013 yil
2. Ivanov P.I., Zufarova M.E. «Umumiy psixologiya» T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati., 2008.480b.
3. Do‘stmuhammedova SH.A., Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, SH.T.Karimova, SH.T.Alimbayeva “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” T., 2013.
4. A.V Petrovskiy taxririda. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Moskva 1979y.
5. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya kursi. Moskva 1982 y.
6. V.A Kruteskiy. Pedagogik psixologiya asoslari Toshkent 1976 y.
7. V.A Kruteskiy. O‘quvchilarning ta’lim va tarbiyasi psixologiyasi 1976 y.
8. M. G Davletshin taxririda. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya Tosh. 1974 y.
9. M. G Davletshin. Ta’limning psixologik asoslari. Tosh. 1990 y.
10. Umumiy psixologiya, yoki yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya kursi. M. 1982

9-MAVZU: TA'LIM - PSIXOLOGIYASI.

Reja:

- 9.1. Ta'lim psixologik-pedagogik jarayon sifatida.
- 9.2 O'quv faoliyatining psixologik moyiyati.
- 9.3. Boshqarishning metodologik va nazariy asoslari
- 9.4. O'quv faoliyatini boshqarish.
- 9.5. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish



Maqsad:

Ta'lim psixologik pedagogik jarayon sifatida olib borilishi, o'quv faoliyatini tashkil etishdagi boshqaruv asoslari. Bilimlarni o'zlashtirish ko'nikma va malakalarni shakllantirish

Vazifa:

1. Ta'lim psixologik-pedagogik jarayon sifatida asoslash
2. O'quv faoliyatining psixologik moyiyati yoritish
3. Boshqarishning metodologik va nazariy asoslarini taqqoslash
4. O'quv faoliyatini boshqarish xaqida tushunchalarni izoxlash
5. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, psixologiya, o'quv faoliyati, aqliy xarakatlar, imkoniyat, extiyoj, metod, tarbiya, boshqaruv, maktab, soxa, kunikma va malaka

9.1. Ta'lim psixologik-pedagogik jarayon sifatida.

Ta'lim – bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining birgalikdagi ish faoliyati jarayonidir. Bunda ta'lim beruvchi uchun tashkil etish funksiyalari, rag'bat va ta'lim oluvchining yordami kerak bo'ladi. Maktabdagi ta'limning o'ziga xos an'anaviy modeli axborotni yod olishga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi.

Bilim sistemasini egallash – bu kelajagi abstrat istiqbollar ko‘rinishida taqdim etuvchi o‘quvchining faolligini yuzaga keltirish uchun bilimlardan foydalanish maqsadidir.

An‘anaviy ta‘lim – bu turli usullarga tayanmagan holda taraqqiyot predmetini amalga oshirishga yo‘naltirilgan ma‘lumot va axborot beruvchi bilimlardir. An‘anaviy ta‘limda o‘zlashtirish jarayonini tekshirish bo‘lmaydi, u taftish qiluvchi emas. Bu ta‘lim tartib-intizomli fan asosiga qurilgan. Bizning mamlakatda maktab ta‘limining an‘anaviy modeliga qo‘shimcha sifatida ta‘lim-tarbiyaning psixologik yo‘l ko‘rsatuvchi modellari ham ishlab chiqildi. Psixologik yo‘l ko‘rsatuvchilar – bu o‘quvchilarning psixologik bilim jihatdan o‘sish mexanizmini hisobga olish demakdir. Asosiy psixologik harakat o‘quvchilarning shaxsiy hamda bilim jihatdan o‘sishi va rivojlanishiga yo‘naltirilgandir. Ta‘lim bu shaxsiy faollikning o‘ziga xos shakli bo‘lib, bilimlarni o‘zlashtirishga, ko‘nikmalarni paydo bo‘lishiga, o‘quvchining rivojlanishiga yo‘naltiriladi.

Psixologiyada o‘quv jarayoni deb ataluvchi sharoitda hamisha shaxsning bilim va ko‘nikmalar olishga bo‘lgan ongli harakati turadi. Ta‘lim qaerda insonning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga bo‘lgan ongli maqsadi bor joyda mavjuddir. Aynan shu narsa o‘qishni faoliyat sifatida qarash imkoniyatini beradi. Ongli o‘quv jarayonining psixologik tomoni olingan bilimlarning o‘quvchi tomonidan qanday qabul qilinishi bilan o‘lchanadi. Bolaning o‘qishga bo‘lgan ongli munosabatini, ta‘lim olish nima uchun kerak ekani haqidagi tushunchalarini shakllantirib borish kerak. Bu esa ta‘limni tashkil etish va biror muvaffaqiyatga erishishdagi asosiy shartlardandir. Faqatgina mazkur sharoitdagina ta‘lim olishning rasmiy usulidan qutilish va bilimning yuqori darajasiga erishish mumkin. O‘quv faoliyatini tahlil etgan D.B. Elkoninning ta‘kidlashicha, bolada kechadigan o‘zgarishlar nafaqat undagi bilim va ko‘nikmalarga, balki uning faoliyatidagi ayrim jihatlariga ham bog‘liqdir. Ta‘lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, xarakatlarni, xulk- atvorning shakllarini uzlashtirishga karatilgandir. O‘qish va urgatish tushunchalari o‘quv faoliyati bilan boglik bulib, ular bilim, kunikma va malakalarni uzlashtirishga, urgatishga xizmat kiladi.

9.2 O‘quv faoliyatining psixologik moxiyati

O‘quv faoliyatining **besht element**i mavjud:

1. O‘quv motivlari.
2. O‘quv topshiriqlari.
3. O‘quv xarakatlari.
4. O‘qituvchining nazorati.

5. O'qituvchining baxolashi.

D.B.Elkoninning ta'kidlashicha, o'quv faoliyatining shakllantirilishi bu faoliyat ayrim kishilar bajarilishini asta- sekinlik bilan o'quvchining uziga o'qituvchining ishtirokisiz mustakil bajarish uchun utkazilishidir. Ta'lim jarayoni aloxida tashkil etiladigan xamda boshqariladigan faoliyat bulib, u o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi. Ta'lim jarayoni besh elementdan iborat:

- Ta'limning maqsadi - nima uchun o'qitish kerak?
- Ta'limning mazmuni -nimaga o'qitish kerak?
- Ta'limniig metodlari,usullari va pedagogik muloqot yullari.
- Ta'lim beruvchi.
- O'quvchi



Ta'lim jarayonini tashkil etish: ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffakiyatli tashkil etish uchun zarur bulgan tashki olamning mukim akamiyatli xossalari xususidagi axborotning uzlashtirilishi:

faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topgan usullari va jarayonlarining uzlashtirilishiga;

maksadga muvofik keladigan usullar va jarayonlarni tugri tanlash va foydalanishga boglik.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati:

1. Motivatsiya.
2. Ma'lumot usullari.
3. Ma'lumotning tushunariligi.
4. Xotira.
5. Ma'lumotni qullash.

Ta'lim va ta'lim jarayonida bolaning rivojlanishi muammosi yosh davrlari va pedagogik psixologiya fanining asosiy masalalaridan biridir

Aqliy xatti-karakatlar, bilimlar, malaka va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish nazariyasi (P.Ya.Galperin).

P.Ya.Gal'perin nazariyasi buyicha bilimlarni o'zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga:

1. Motivatsiya.
2. Tushuntirish.
3. Moddiy formadagi xatti-xarakatlarni bajarish.
4. Baland ovozda xatti-xarakatlar va vazifalarni bajarish.
5. Bajariladigan xatti-xarakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish.
6. Faoliyatni fikran bajarish kiradi.

Ushbu nazariyada ta'limning uchta asosiy turlari ajratiladi:

- **birinchi turda** - uatti-xarakatlarni uzlashtirish xatolar bilan kechadi, berilayotgan material yetarli darajada anglanilmaydi, ta'lim oluvchi ta'limning asl mohiyatini tushunib yetmaydi;

- **ikkinchi turda** - materialni nisbatan dadil va tula tushunilishi va material bilan bog'liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi;

- **uchinchi tur** - tez, samarador va bexato xatti-xarakatlarni uzlashtirilishini ta'minlab beradi.

V.V.Davidov nazariyasi. Ushbu nazariya kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ilmiy tushunchalarni uzlashtirilishini tashkil qiladi. Bunda o'quvchilar tomonidan ta'lim jarayonida nazariy tushunchalar tizimini uzlashtirilishi lozim bo'lib, bu usulda xususiylardan umumiy bilimlarga ulashni ta'minlaydi.

Kator nazariyalar muammoli ta'lim bilan bog'liq bo'lib, **L.V.Zankov va A.M.Matyushkin tomonidan** olib borilgan tadqiqotlar ta'limda muammoli darslarni tashkil etishga xaratilgandir.

Ta'limning psixologik asoslari muammosi ko'pgina masalalarni qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. Avvalo o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatiga tuxtaylik. Bu munosabat diqqatda, xis-tuygularida, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yulida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini yulga solishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollangan, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ishlash xolatini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda uladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish xamdir. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqati o'zgarib turadi. O'qitish

jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va uxuvchilar diqqatini materialning asosiy jixatlariga jalb etish xamda ularni takrorlash kerak.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jixatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan kursatmalarga xam bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani xosil kilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib kolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib xolmasdan, faxat tushunib olish kifoya xilishini, nimani so'zma-so'z esda olib xolishni, nimaning ma'nosini uz suzlari bilan aytib berish uchun esda olib xolish zarurligini kursatib utishi lozim. Kuzatishlar ko'rsatadiki, bunday kursatmalar berilmaganda, uxuvchilarda kupincha notugri tasavvurlar vujudga keladi.

O'qitishning emotsionalligi ta'limning muvaffaqiyatliligini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda xech xanday xis-tuygu uygotmasa, uni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o'quvchilarning psixik xolatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari xakida xam borishi kerak, albatta. Ulardagi kuvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali kiladi. O'quvchilar emotsional ruxdagi materialni durustrok uzlashtirib oladilar.

O'tkazilgan tajribalar o'quvchilar xech kanday xis-tuygu uygotmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruxdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini kursatadi. O'qituvchi o'quv jarayonining emotsional tomoni xaqida gamxurlik qilishi kerak. Bu muammo juda muxim axamiyatga ega, Chunki, birinchidan, ta'limning mazmuni nixoyatda murakkablashib, xajmi esa goyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini kuchaytirish lozim. Ijobiy tuygular o'quv mexnatining samaradorligiga kuchli ta'sir etadi. Xafsala bilan bajarilgan begaraz munozara paydo bo'ladi, baxslashiladi, befarq qaragan yoki undan xam salbiy munosabatda bulgan ishga esa, xech qanday xafsala bo'lmaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilishga qiziqishlari goyat katta rol uynaydi. Ma'lumki, qiziqish o'quvchilarning emotsional bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yunalishidir.

Ma'lumki, psixologiyada kizikishning ikki turi o'quvchilarning ta'lim jarayonida aniklanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita kiziqish. Xar bir o'qituvchi o'z o'quvchilarida o'z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga xarakat qiladi. Qiziqishlar orqali o'quvchilarda ta'limga faol munosabat namoyon buladi. Psixologiyada qiziqish - bu shaxsning uzi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki xodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar

shaxsning muxim va individual xususiyatlaridan biri bulib xisoblanadi. Qiziqishlar o'quvchilar xayotida katta rol o'ynaydi. Ular o'quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar - motivlardir. Qiziqishlar maktab o'quvchisiga fan asoslarini durustroq uzlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarning usishiga, bilim doirasining kengayishiga imkon beradi.

O'qituvchilarning vazifasi o'quvchini dastlab qiziqtirib qolgan ishning uzi bilan shugullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta'sirchan qilish, qiziqishlarining markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug'ullanish istagiga, mayliga aylantirishdir.

O'quvchilarning muayyan maqsadni ko'zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni yenga olishida, ishdan chalg'itadigan narsalar bilan shug'ullanishdan o'zini tiya olishida, unda o'qishga ishtiyok tarkib toptirishda namoyon buladigan iroda, ta'lim jarayonida aloxida axamiyat kasb etadi.

Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, iroda bu shaxsning o'z oldiga kuygan maqsadining anikligi, uni amalga oshirish uchun intilishi, maqsad yulida ma'lum bir qarorga kelish tezligi va uni uz vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan sifatidir. Ta'lim jarayonida o'quv materialiga bulgan diqqatning barqaror bulishida irodaviy zur berishning axamiyati nixoyatda kattadir.

Ta'limda iroda o'quvchida maktab va uyda utkaziladigan mashgulotlarga tayyor turishda namoyon buladi. O'quv materialini o'rganish, eslab kolish va o'quvchining irodaviy zur berishiga botlik. Iroda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarida - masalani yechishga, kuyilgan savolga javob topishga va xokazolarga intilishida namoyon buladi. Ular o'quvchilarda kunikma, va malakalarni xosil kilishda xam tarkib topadi.

Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda o'quvchilar tomonidan berilgan materialning o'zlashtirilishi ko'p jixatdan irodaning tarbiyalanishiga bogliqdir. Irodaviy aktivlik ta'limning zarur shartidir. Ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayonining uzi o'quvchilardan irodaviy ustirish omillaridan biridir. Bunda o'quvchilarning kundalik rejimi, o'qish va oqilona dam olishni bir-biri bilan tugri almashtirib turishda katta rol o'ynaydi.

Ta'lim jarayonida bilish jarayonlarini shakllantirishga aloxida e'tibor berish lozim. Zero bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bulib, unda jonli mushoxadadan mavxum tafakkurga, mavxum tafakkurdan esa amaliyotga utiladi, ana shundan sung ob'ektiv xakikat bilib olinadi. Binobarin, biz birinchi navbatda kurib chikishimiz lozim bulgan narsa o'quv materialini idrok kilish jarayonidir. Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, idrok bu narsa va xodisalarni sezgi

organlariga ta'sir etishi natijasida ularning kishi psixikasida yaxlit obrazini paydo bulishi bulib, idrok etish jarayoni ta'limda turli formalarda o'qituvchining og'zaki xikoya kilishida, suxbat utkazishda, ma'ruza o'qishida, kinodars, televizion parcha, sxemalar va kurgazmali qurollar ko'rsatish, ekskursiyalar o'tkazish, o'quvchining uziga darsliklar xamda boshqa kullanmalarni ukitish tarzida utishi mumkin. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, idrokni tarkib toptirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini xisobga olish nixoyatda muximdir. Chunki, fazoni, vaqtni va xarakatlarni idrok etishda xam yosh xususiyatlarda turli farklar mavjud buladi.



O'quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun fikrlash xususiyatlarini shakllantirish zarur. Fikrlash operatsiyalari asosida dars jarayoni faollashtiriladi. Bu o'qituvchining: **«Nima uchun?»**, **«Qanday maqsadda?»**, **«Sabablari qanday?»**, **«Natija nima uchun shunday buldi?»** singari savollarning muxokamasi orqali amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchilarni evristik, muammoli vaziyatlarga tortish, tanqid, gumon xolatlarini muxokama kilish, ulardagi muammolarni mustakil xolda topish va ularni yechish uchun uz loyixalarini tuzish va ximoya kilish o'quvchilar tafakkurining ma'nodor va unumdor bulishiga xizmat kiladi.

9.3. Boshqarishning metodologik va nazariy asoslari

Ta'lim boshqariladigan jarayoni bo'lib, bunda xar bir bolaning xarakati qadamba-qadam nazorat qilinadi, o'qituvchi xar bir bosqichda o'quvchining bilimlarini malakalarini uzlashtirish xaqida axborot olib turadi, yangi material avvalgi materialni o'zlashtirishga qarab taqdim etiladi. Boshqaruv bu shunday yo'naltiruvchi kuchki, u insonlardagi ijodiy potensial imkoniyatlarini oladigan sharoitlarni yuzaga chikarishni maqsad qilib quyadi.

Shunday ekan, o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini tugri va oqilona boshqara olishi o'quvchi shaxsi kamolotida nixoyatda kattadir.

Faoliyatdan kutiladigan natija psixologiyada maqsad deyiladi. O'quv jarayonining boshqarilishi ikkita asosiy maqsadni ko'zda tutadi. Ulardan birinchisi, o'quv jarayonini tugri tashkil eta olish, ikkinchisi esa o'quvchilarning shaxsiy qiziqish va extiyojlarini qondirishdir. Ana shu maqsadlar boshqarishning vazifalarini belgilab beradi. Demak, o'quv jarayonini boshqarishning:



birinchi vazifasi tashkiliy bo'lib, o'quvchilarning ta'lim va tarbiyasi bo'yicha ijtimoiy buyurtmalarni qondirish;

ikkinchi vazifasi – bevosita o'quvchining qiziqish va talablarini qondirishga yo'naltirilgan xolatdagi ijtimoiy vazifadir. Shuningdek, bu vazifa o'quvchilarni kutarinkilik, yaxshi kayfiyat va o'quv jarayonidagi ishchanlikni yuzaga keltirishni xam uz ichiga oladi.

Afsuski, kup yillar davomida boshqarishning ana shu ijtimoiy vazifasiga juda kam e'tibor berilgan.

Boshqaruvning ikkinchi vazifasi bu ijtimoiy-psixologikdir. Bu vazifa o'quvchilarda samarali faoliyat uchun zarur bulgan ijtimoiy- psixologik xolat va xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgandir.

Bu xolat va xususiyatlar o'quvchilarni o'zaro jipslashtirish, nazorat, o'z-o'zini boshqarish, shuningdek, mustakil ta'lim olishlarini rivojlantirishdan iboratdir.

9.4. O'quv faoliyatini boshqarish.

O'quv jarayonini boshqarish uchun quyidagi tarkibiy qismlarni egallash lozim:

1. Berilgan o'quv topshirigini yechish uchun vositalar tanlash.
2. Topshiriqlarni yechish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish.
3. O'zlashtirilgan bilimlar, malakalar, kunikmalar sifatini
4. O'quv topshiriqlarini bajarilganligini tekshirish.
5. O'z oldiga maqsad quya olish.

6. Turli belgilar bilan predmetning ichki munosabatlari muvofiqligini kura olish.

Uqitishning ikkita usuli mavjud. Biri an'anaviy uqitish usuli - bunda o'qituvchi muammoni belgilaydi, vazifalarni aniqdaydi va muammoni yechib beradi. O'quvchi esa masalani yechish yullarini eslab qoladi va uni yechishni mashq qiladi. Bunda o'quvchilarda reproduktiv tafakkur shakllanadi. Rivojlantiruvchi ta'lim o'qitishning muammoli usulida o'qituvchi o'quvchilarning bilish jarayonlarini boshqaradi, uni tashkil etadi va nazorat qiladi. O'quvchi esa muammoni tushunadi, uni yechish yullarini qidiradi va uni yechadi. Bunday xollarda o'quvchi tafakkurining maxsuldorligi oshadi va uning mustakilligi rivojlanadi.

O'quvchining o'qishga bulgan qiziqishini rivojlantirish uchun o'qituvchi quyidagi qoidalarga tayanishi lozim:

1 O'quv jarayonini shunday tashkil etish lozimki, bunda o'quvchi faol xarakat qilishi, mustakil izlanishi, yangi bilimlarni uzi kashf etishi va muammoli xarakterdagi masalalarni yechish uchun sharoit izlashi kerak.

1. O'quvchilarga bir xil uqitish usullari va bir turdagi ma'lumotlarni berishdan qochish kerak.

2. O'rgatlayotgan fanga nisbatan qizikishning namoyon bulishi uchun ayni shu fan yoki bilim, o'quvchining uzi uchun kanchalik axamiyatli va muxim ekanligini bilishi kerak.

3. Yangi material qanchalar o'quvchi tomonidan avval uzlashtirilgan bilimlar bilan bogliq bulsa, u o'quvchi uchun shunchalik qiziqarli bo'ladi.

4. Xaddan ziyod qiyin material o'quvchida kiziqish uygotmaydi. Berilayotgan bilimlar o'quvchining kuchi yetadigan darajada bulishi lozim.

O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu yoki bilimining axamiyatini kursatish, o'quvchining o'quv faolligini oshirish uchun qiziqarli misollar, aqliy uyinlardan keng foydalanishi lozim. Lekin, ta'limdagi xar bir beriladigan bilim yorokin, qiziqarli bulavermaydi, shuning uchun o'quvchilarda iroda, katiylik, mexnatsevarlik kabi xislatlarning kamol toptirilishi nixoyatda zarurdir. Ana shu xislatlar o'quvchining kelgusida o'z-o'zini nazorat qilishga, o'z-o'zini baxolashga va mustaqil ta'lim olishga asos bulishi kerak.

9.5. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish

Ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay xilma-xil kunikma va malakalarni uosil kiladilar.

Ko'nikma - mashq qilish natijasida yuzaga kelgan xatti - xarakatlarning avtomatlashgan usuli. Fiziologik jiuatdan ko'nikma bosh miyaning katta yarim sharlari pustlogida xosil bulib, vaqtinchalik nerv boglanishlarining barqaror tizimining funksiyasini ta'minlaydi. Dinamik-stereotiplarni yaratish sharoitlari bir vaktning uzida avtomatlashgan akt bilan murakkab analitik-sintetik faoliyatni yuzaga keltiradi. Buning natijasida nafakat kunikmalar, balki malakalar uam yuzaga keladi.

Malaka - oldinga quyilgan maqsad va xatti-xarakat sharoitidan kelib chiqadigan muvaffaqiyatli xarakatlar usulidir. Malakalar xatti- xarakatning maqsad va konkret shart-sharoitlariga tegishli bulgan xolda doimo suyanadi. Odam ishni



qanchalik yaxshi bilsa, uni shunchalik malakali amalga oshiradi va undan foydalanadi.

Ko'nikma va malakalar xatti-xarakat uslubi bula turib, ma'lum faoliyat turiga karab ishlab chikarish, o'quv, ijtimoiy, sport, tashkiliy, texnik faoliyat, ilmiy faoliyat, san'at sohasidagi kunikmalar va boshqalar bulishi mumkin. Lekin, barcha faoliyat turlarida kullaniladigan kunikma va malakalar mavjud: bular - xarakat, sensor, aqliy kunikma va malakalardir. Xarakat kunikmalariga jismoniy mehnat, sport va o'quv kunikmalari (xat yozish, tez o'qish va xokazo) kiradi.

Sensor kunikma va malakalarga ulchov, yoruglik, ovoz va simvolik ma'lumotlarni tez va tugri kabul kilish bilan boglik bulgan va boshkarish markazlarida takrorlab borishlar kiradi.

Aqliy ko'nikma va malakalarga-kuzatish usullari, malakalarni rivojlantirish, ogzaki va yozma xisob-kitobni ishlab chiqish, xarakatlarga yo'naltirish, kitob bilan ishlash, arxiv materiallarini yigish, ilmiy tajriba o'tkazish va xokazo. Ko'nikmalar mashk kilish natijasida yuzaga keladi, ya'ni bunda maksad sari yunaltirilgan (doimiy) kaytarish mustaxkamlashga olib keladi va samarali usullar asosida qayta-qayta qaytarilishi amalga oshiriladi.

Inson tomonidan egallangan kunikma va malakalar yangi kunikmalarni shakllantirishiga ta'sir kursatadi.

Qonuniyatlar:

1. Ko'nikma xosil bulishining notekis jarayoni. Bu mashqlarning egri grafigida namoyon buladi.
2. Ko'nikmalarning kuchishi. Ijobiy kunikmalarning
3. Ko'nikmani progressiv va regressiv - kunikma uzoq vaqt miqdorida xizmat qilishi uchun undan foydalanish lozim. Aks xolda deavtomatlashtirish yuzaga kelib, zarur xarakatlar uz tezligi, yangiligi, aniqligi va avtomatlashtirilgan xarakatlarni ta'minlovchi xususiyatlarini yuqotadi.

Odatlar bu shunday xatti-xarakatlarki, ular o'z-o'zidan, avtomatik tarzda yuz beradi. Odatlarni insonning madaniy va aloqiy xulqida axamiyati katta.

Ta'lim boshkariladigan jarayoni bulib, bunda xar bir bolaning xarakati qadamba-qadam nazorat qilinadi, o'qituvchi xar bir bosqichda o'quvchining bilimlarini malakalarini o'zlashtirish xaqida axborot olib turadi, yangi material avvalgi materialni o'zlashtirishga karab takdim etiladi.

O'qituvchi urganilayotgan mavzu yoki bilimining axamiyatini kursatish, o'quvchining o'quv faolligini oshirish uchun qiziqarli misollar, aqliy o'yinlardan keng foydalanishi lozim. Lekin, ta'limdagi xar bir beriladigan bilim yorqin, qiziqarli bulavermaydi, shuning uchun o'quvchilarda iroda, qa'tiylik, mehnatsevarlik kabi xislatlarning kamol toptirilishi nixoyatda zarurdir. Ana shu

xislatlar o'quvchining kelgusida o'z-o'zini nazorat qilishga, o'z-o'zini baxolashga va mustakil ta'lim olishga asos bulishi kerak.

O'QUV TOPSHIRIQ

Keys vaziyat

Lobar tug'uruq ta'tilidan so'ng ishga qaytish taraddudini ko'ra boshladi. Ishlamasa xam bo'lmaydi, jo'jabirday jon bo'lishsa! Ishlaydiga qadrdon maktabining ostonasiga qadam qo'yarkan, bu maskanni sog'inganini his qildi. Maktab direktorini xonasiga kirib bordi. Direktor Lobarni ochiq chehra bilan kutib oldi. Uni ishga qaytish xaqidagi qarorini eshitib, birdaniga kayfiyati o'zgardi.

-Qizim, sen ta'tidaligingda o'rninga boshqa o'qituvchilarni ishga olganman. Hozircha bo'sh ish o'rni yo'q.

-Domla, men ishga chiqmasam bo'lmaydi. Biror ilojini qilib bering.

-Men aytadiganimni aytdim, - dedi direktor qo'pollik bilan.

-Men baribir ariza yozib ketaman, qabul qilmaslikka xaqqingi yo'q.

Lobar ishga chiqish to'g'risida arizani yozib chiqib ketdida. Direktor ensasi qotgancha qolaverdi. Lobar ishga qaytish uchun bir necha marotaba direktor xuzuriga qatnadi va pora evaziga o'z ish joyiga tiklandi.

«Buzuq telefon» mashqi.

Maqsad: Ma'lumot uzatishdagi buzilishlarni anglash.

Ma'lumotni anglangan holda idrok qilish va faol tinglash uslubini o'zlashtirish.

Yo'riqnoma: «Ushbu mashqimizda 6 kishi ishtirok etishi kerak. Bunda 5 kishi xonadan tashqarida poylab turishadi, 1 kishi esa xonada qoladi. Men xonada qolgan odamga og'zaki topshiriq aytaman. Bu odam iloji boricha hamma topshiriqni eslab qoladi va ikkinchi (xonadan tashqarida turganlardan biriga) odamga aytadi. Ikkinchi odam uchinchisiga, uchinchisi to'rtinchisiga va h.k. Biz esa ma'lumotlar qanday uzatilishini kuzatib turamiz. Keyin esa xuddi shu jarayonni muhokama qilamiz».

5 ta o'quvchi xonadan chiqqanidan keyin boshlovchi qolgan 1 kishiga quyidagicha topshiriq aytadi: «Siz maktab direktorining muovinisiz. Direktorimiz Sobir Komilovich Sizni ancha poyladilar. Lekin kelmaganingizdan so'ng sizga men orqali topshiriq aytib ketdilar. Aytdilarki, u kishi hozir bizga Yaponiya apparaturasini olish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishga ketdilar, u yerdan chiqib

rayonda kengaytirilgan yig'ilishga borar ekanlar. Agar ular soat 12 gacha kelmasalar o'qituvchilar majlisini o'zingiz o'tkazar ekansiz, bu majlisda 8 «b» sinfning davomatini ko'rib chiqish kerak. Keyin soat 15.00 da maktabimizga Polshadan kelayotgan mehmonlarni kutib olish uchun aeroportga 1 ta «Neksiya» bilan 1 ta «Damas» avtomashinasini chiqarish kerak ekan. Yana aytdilarki, soat 17.00 da XTBning ijtimoiy ta'minot bo'limidan go'sht kelar ekan. Hamma o'qituvchilarga 2 kilogrammdan go'sht tarqatib direktorning ulushini xolodilnikka solib qo'ysangiz o'zlari kelib olib ketar ekanlar».SHundan so'ng ma'lumotlar birin-ketin kirib kelayotgan o'quvchilarga uzatila boshlaydi.

Mashq so'ngida odatda ma'lumotning buzilishi kuzatiladi. Mashqda ishtirok etgan o'quvchilar video yordamida ma'lumot mazmunini bilib oladilar. SHundan so'ng o'quvchilarga har qanday ma'lumotni birinchi manbadan olish zaruriyati aytib o'tiladi. Ma'lumotlarning bir kishidan ikkinchi kishiga o'tishi natijasida u qanchalik o'zgarib ketishi paydo bo'ladigan mish-mish gaplarga asos bo'lishi aytib o'tiladi.

Ma'lumot uzatishdagi xatolarni bartaraf etish maqsadida faol tinglashni o'rganish mashqi taklif etiladi. Bu mashq yo'riqnomasiga ko'ra hamma o'quvchilar uch kishilik guruhlariga bo'linadilar. Bu guruhdagi uch o'quvchi uch xil rolda ishtirok etadi: gapiruvchi, tinglovchi va nazoratchi.

Gapiruvchi hayotdagi biror bir voqeani aytib beradi va tinglovchi bu voqeani iloji boricha esida olib qolib, qaytadan takrorlab aytib berishi kerak. Nazoratchining vazifasi yo'l qo'yilgan xatolarni aytishdan iborat. Guruhdagi har bir ishtirokchi uchta roldan birortasida ishtirok etishi shart. Ushbu mashqni bajarish orqali ishtirokchilar verbalizatsiya, ya'ni faol tinglash metodini o'zlashtiradilar

Mavzu yuzasidan savollar:

1. O'quv faoliyati va uning elementlari nimalardan iborat?
2. Ta'lim jarayonida bilimlarni uzlashtirish nimaga boglik?
3. O'qish motivlari va motivatsiyaga izox bering.
4. O'quv faoliyati motivatsiyasining manbalariga nimalar kiradi?
5. Bilimlarni uzlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari nimalardan iborat?
6. Ta'lim faoliyatiga kura ta'limning kanday metodlarini bilasiz?
7. Kunikma va malakalar ta'lim jarayonida kanday shakllantiriladi ?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'ixati.

1. Ivanov P.I., Zufarova M.E. «Umumiy psixologiya» T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati., 2008.480b.
2. Do'stmuhammedova SH.A., Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, SH.T.Karimova, SH.T.Alimbayeva "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" T., 2013.
3. V.A Kruteskiy. Pedagogik psixologiya asoslari Toshkent 1976 y.
4. V.A Kruteskiy. O'quvchilarning ta'lim va tarbiyasi psixologiyasi 1976 y.
5. M. G Davletshin taxriri. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya Tosh. 1974 y.
6. M. G Davletshin. Ta'limning psixologik asoslari. Tosh. 1990 y.
7. A.V.Petrovskiy taxriri. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. M. 1979.
8. Umumiy psixologiya, yoki yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya kursi. M. 1982

10 MAVZU: TARBIYA PSIXOLOGIYASI

Reja:

- 10.1. Xulq-atvor va odatni shakllantirish shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishi sifatida.
- 10.2. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, psixologik shart- sharoitlari.
- 10.3. Tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar
- 10.4. «Tarbiyasi qiyin» bolalar psixologiyasi

Maqsad:

Tarbiya jarayoning umumiy qonuniyatlari, xususiyatlari, pedagogik va psixologik jihatlarini tahlil etish.

Vazifa:

1. Xulq-atvor va odatni shakllantirish shaxsni tarbiyalashning asosiy yunalishi sifatida tasniflash
2. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, psixologik shart- sharoitlarini o'rganish
3. Tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlarni ishlab chiqish
4. «Tarbiyasi qiyin» bolalar psixologiyasini tahlil qilish

Tayanch so'zlar:

tarbiya, shaxs, maqsad, muammo, faoliyat, umuminsoniy qadriyatlar, tarbiyasi «qiyin» bolalar, milliy ong, g'urur,oila,millat.

10.1.Xulq-atvor va odatni shakllantirish shaxsni tarbiyalashning asosiy yunalishi sifatida.

Tarbiya psixologiyasi maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi, Tarbiya har qanday jamiyatning muhim vazifasidir.

Tarbiya - bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir.



Odam ijtimoiy zot bo'lganligidan unga o'zligini anglash qobiliyati xosdir. Faqat ijtimoiy hayotda, o'zga kishilar bilan qiladigan turli munosabatlarda odamning o'zini anglashi, o'zini «men» deb bilishi vujudga keladi va taraqqiy etadi. Odam o'zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o'zining o'tmishi va kelajagini, o'z xuquq va burchini anglashi va nihoyat o'zining fazilati hamda kamchiliklarini bilishi o'zini anglashga kiradi.

Insonning tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil - tarbiya vositasi orqali inson orttirgan tajribalarining bolalarga berilishidir. Shunday qilib, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Ilmiy manbalarga qaraganda, inson shaxsi uchta omil ta'sirida tarkib topadi.

Ulardan birinchisi, odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri bo'lsa, ikkinchisi, odamga o'zoq muddat davomida muntazam beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siridir va nihoyat, uchinchi odamga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir.

Shunday qilib, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o'tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir omilga ham bog'liqdir. Bu faktor nasliy yo'l orqali o'tadigan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siridir. Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlar beriladi. Masalan: tanasining tuzilishi, sochi va qo'zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug'ma ravishda berilishi mumkin. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatleri nasliy yo'l bilan berilmaydi. Nihoyat, nodir hollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqa, matematika bilan shug'ullanish qobiliyati nasliy yo'l bilan berilishi mumkin. Bunday imkoniyatlarning amalga oshirilishi, ya'ni ro'yobga chiqishi uchun albatta ma'lum sharoit bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda xalqimiz orasidan yetishib chiqqan iste'dodli olimlar, muhandis-ixtirochilar, yozuvchi va shoirlar, davlat va jamoat arboblari, iste'dodli artistlar, rassomlar va boshqa kishilarimizga nasliy yo'l bilan berilgan barcha

imkoniyatlarning ro'yobga chiqishi uchun harqanday sharoit maydonga kelganligini dalili bo'la oladi.

Bolalar maktab yoshiga yetgach, shaxs shakllanishining yangi mazmuni boshlanadi. Kichik maktab yoshi, o'smirlik yoshi va katta maktab yoshi davrlarida shaxs shakllanishining yuqori bosqichi namoyon bo'ladi.

Inson shaxsini o'rganish masalasi bilan falsafa, psixologiya, pedagogika kabi fanlar shug'ullanadi. Hozirgi davrda inson muammosi aniq va gumanitar fanlarning umumiy tadqiqot ob'ektiga aylanib bormoqda. Shunga qaramasdan, bir tomondan, insonni o'rganishda differentsiatsiya xodisasi yuz bermoqda, ikkinchi tomondan, inson taraqqiyotining sintetik tavsifi bo'yicha integratsiya holati ko'zga tashlanmoqda. Inson bir qator fanlarning tadqiqot ob'ekti ekanligini yig'iq tarzda tasavvur etish uchun uni biosotsial va sotsiobiologik jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, inson hayoti va faoliyatining operatsional (o'quv, operatsiya, harakat, malaka) mexanizmi uning ontogenezida funksional mexanizmga o'sib o'tadi, binobarin, unda komillik belgisi shakllanadi, natijada u kamolot cho'qqisining muayyan darajasiga erishadi.

XXI asrda ham odam individ, shaxs, sub'ekt, komil inson sifatida talqin qilinishda davom ettiriladi, lekin har bir tushuncha mohiyatida sifat o'zgarishlari yuz berishi mumkin.

Odamga individ sifatida tavsif berishda uning yosh davri, jinsiy va individual-tipologik xususiyatlariga asoslaniladi. Yosh davr sifatleri ontogenetik evolyusiya bosqichlarida izchil ravishda namoyon bo'ladi va takomillashuv jarayonida o'z ifodasini topadi, jinsiy dimorfizm xususiyati esa ularga mos tushadi. Individning individad-tipologik xususiyatiga konstitutision (tana tuzilishi, bioximik individadlik) holatlar, simmetriya va assimetriya juft reseptorlari, effektorlari funksiyasi kiradi. Bu xususiyatlar va xossalr birlamchi hisoblanib, hujayra va molekulyar tuzilishning barcha darajalarida ishtirok etadi.

Yosh, jinsiy va individual tipologik xususiyatlar sensor, mnemik, verbal va mantiq psixofiziologik funksiyalari dinamikasi hamda organik - ehtiyojlar tuzilishini aniqlaydi. Individning bu xususiyatlarini ikkilamchi deb atab, ularning integratsiyasi temperamentida va tug'ma mayllarda ifodalanilishini ta'kidlab o'tish joiz. Yuqoridagi sifatlar rivojining muhim shakli ontogenetik evolyusiyadan iborat bo'lib, ular filogenetik dasturga asoslanib hukm suradi. Yosh va individual o'zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta'siri ostida har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatleri ta'sir etib, uning individual o'zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi.

Insonni shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasi uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi mavqei (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'рни) orqali ifodalanadi. Mavqe negizida doimiy o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning ijtimoiy funksiyasi muayyan maqsadlarga va qadriyatlarga yo'nalganlik shaxsni faollashtiradi. Mavqe, rol, qadriyatga yo'nalganlik shaxs xususiyatlarining birlamchilarini tashkil etadi va uning tuzilishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning ta'rifi xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe'l-atvor tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar sifatida joy egallaydi. Shaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o'zaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl - uning jamiyatdagi hayot yo'li va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi.

Individ, shaxs va sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga e'tibor qilishi zarur;

- inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari);

- insoning o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyusiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyusiya;

- inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlariga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi kabilar.

Uch xil hususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy va nazariy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. Chunki, faoliyatda yashash muhiti tarixiy tajribani egallashning interiorizatsiya va eketeriorizatsiya amalga oshadi.

Odamning maqsadga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyati jarayonida hayotiy deb ataladigan mexanizmlari va ongli faoliyatining funksional tizimi jarayonlari yuzaga keladi. Ana shular tufayli odam bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, kishining sotsial tajribalarini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining idroki, tafakkuri, hayoli, hissiyotlari va irodasini bir so'z bilan aytganda, voqelikka bo'lgan ongli munosabatini hamda o'z harakatlari va hulq-atvorining motivlarini tarkib toptiradi.

Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va hatti-harakatlari shaxsning hayoti faoliyatida ma'lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab qurilmadan iborat bo'lgan hamda shartli ravishda to'rtta o'zaro mustahkam boglangan funksional bosqichlarga birlashtiriladi:

Birinchisi - boshqaruv tizimi;
Ikkinchisi - stimullashtirish tizimi;
Uchinchisi – stabilizatsiyalash tizimi;
To'rtinchisi - indikatsiyalash tizimi.

Shaxsning ana shu sotsial ahamiyatga ega bo'lgan barcha sifatleri ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi uning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilaydi.

Birinchi tizimining hosil bo'lishida analizatorlar o'rtasidagi doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mexanizmlar katta ro'l o'ynaydi. Biroq, bu yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ontogenez jarayonida filogenetik analizatorlar o'rtasidagi aloqa vaqtli aloqalar bilan organik jixatdan qo'shib keladilar. Bunda mazkur tizimning ichida perseptiv tizimiga o'tib ketadigan yuksak darajada integratsiyalangan ma'lum ichki sensor komplekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, ko'rish hamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarning hammasi odamning hayot-faoliyati jarayonida o'zaro bir-biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensor-perseptiv uyushishning yagona funksional dinamik tizimini yaratadi. Insonning sensor-persiptiv jihatleri doimo takomillashib boradi.

Ikkinchi tizim barqaror psixik holatlarni o'z ichiga oladi. Bu holatlar bolaning aniq maqsadni ko'zlovchi va foydali faoliyatning ongli sub'ekti sifatida shakllana boshlagan ilmlarining dastlabki yillaridayoq rivojlana boshlaydi. Temperament, intellekt, bilim va munosabat ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi.

Uchinchi tizim - shaxsni arbob sifatida stabillashishi tizimidir. Yo'naltirilganlik, qobiliyat, mustaqillik va xarakter uning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Yo'naltirilganlik - shaxsning integral va generalizatsiya qilingan xususiyatidir.

Integral — (lot. butun, tiklangan) - uzviy bog'liqlik, butunlik, birlikdir.

Generalizatsiya (lot. umumiy, bosh) - shartli va shartsiz reflekslarning umumlashishi.

Yo'naltirilganlik bilim, munosabatlarning hamda shaxsning xulq-atvori va xatti - harakatlarida ijtimoiy ahamiyat yetakchilik qilgan motivlarning bir butun ekanligida o'z ifodasini topadi. Bu xususiyat odamning dunyoqarashida, qiziqishlarida va ma'naviy ehtiyojlarida va ma'naviyatida namoyon bo'ladi.

Yo'naltirilganlik tizimida g'oyaviy e'tiqod katta ro'l o'ynaydi. G'oyaviy e'tiqod - bu bilimning, o'sha shaxsga xos bo'lgan intellektual, emotsional va iroda sifatlarining sintezi, g'oyalar va xatti - harakatlar bir butunligining negizidir.

To'rtinchi tizim shunday xususiyatlar, munosabatlar va xatti-harakatlarni o'z ichiga oladiki, ularda real shaxslarning ijtimoiy «o'y fikrlari va his - tuyg'ulari» aks ettiriladi. Ular bu shaxslarning siyosiy jihatdan ongli, ijtimoiy taraqqiyotning mas'ul arboblari sifatida xulq-atvorini belgilab beradi. Bunga gumanizm, kollektivizm, optipizm va mehnatsevarlik fazilatlar kiradi.

10.2.Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, psixologik shart-sharoitlari.

SHaxs shakllanishida u yashayotgan muxit, kishilar, jamiyatning roli juda katgadir. Masalan, biron maxallada inson shaxsining tarkib topishiga faol ta'sir kursatuvchi besh yuzta uziga xos ijtimoiy muxit bor degan ma'noni bildiradi. Bu yerda shunday bir savol tugiladi: **«Tashqi muxit inson shaxsining tarkib topishiga sanday ta'sir siladi?»**

Birinchidan, ijtimoiy muxitdagi turli xodisalar odamning ongiga bevosita ta'sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi.

Ikkknchidan, tashqi ijtimoiy muxit ta'sirining chuqurroq va mustaxkamrox bulishiga odamning uzi yordam beradi. Ma'lumki, bolalar o'z tabiatlariga kura, ilk yoshlik chog'laridan boshlab, nixoyat darajada taxlidchan buladilar. Bolalar katta odamlarning barcha xatti-xarakatlariga bevosita taxlid xilish orxali bu xatgi-xarakatlarni, yaxshi-yomon fazilatlarini uzlariga singdirib boradilar. Bolalar oilada, kucha - kuyda, katta odamlarning xar bir xarakatlarini, uzaro munosabatlarini zimdan kuzatib turadilar.

Inson shaxsining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muxitning roli xaqida gap borar ekan, shuni xam ta'kidlab o'tish zarurki, ayrim gayri tabiiy xodisalar inson shaxsining tarkib topishida tashqi muxit ta'sirining xal xiluvchi axamiyatga ega ekanligini to'la tasdiqlaydi. Biz ayrim tasodifiy xollarda odam bolalarining yovvoyi xayvonlar muxitiga tushib xolish xodisasini nazarda tutayapmiz. Xayotda bunday xodisalar juda siyrak bo'lsa xam xar xolda uchrab turadi. Masalan, Xindistonlik doktor **Sing Kalkutta** yaqinidagi o'rmonzorda bo'ri bolalari bilan birga ikkita odam bolasining xam turt oyoqlab yugurib yurganini ko'rib xoladi. Keyin ularni poylab, qarorgoxlarini topib, bolalarni olib ketadi. Ulardan biriga **Amala**, ikkinchisiga **Kamala** deb nom quyadi.





Shu narsa xarakterliki, bolalar yoshlikdan bo‘rilar muxitiga tushib qolganliklari tufayli, fe‘l-atvorlari, xatti-xarakatlari jixatidan bo‘rilardan farq qilmas edilar. Nutq yuq, demak tafakkur xam nixoyat darajada cheklangan edi. Juda katta qiyinchiliklar bilan qayta tarbiyalanilayotgan bo‘ri muhitidagi bolalar shamollash natijasida ulib qoladilar. Bu xodisa odamning shaxs sifatida rivojlanishi uchun eng avval insoniy muxit, ya’ni ijtimoiy muxit bulishi kerakligini tula tasdixlaydi. Shaxs va uning psixologiyasiga ta’sir etuvchi ikkinchi omil ta’lim- tarbiyaning ta’siridir. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya inson ongini shakllantiradi, uning dunyoqarashi, e’tiqodi, xayotga bulgan munosabatini tarkib toptiradi. Agar bolalarning ruxiy taraqqiyotlari va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi faxat tashqi ijtimoiy muxit bilan, ta’lim-tarbiyaning o‘zigagina bog‘liq bo‘lganda edi, unday paytda biz bir xilda sun’iy va aynan bir xil ta’lim-tarbiya sistemasini tashkil xilib, xar tomondan bab-baravar taraqqiy etgan va deyarli bir xil shaxsiy xususiyatlarga ega shaxslarni yetishtirib chikarar edik.

Vaxolanki, bunday bo‘lishi mumkin emas. Shuni aytib o‘tish kerakki, bola shaxsining tarkib topishiga ta’lim-tarbiyaning ta’siri deganda, albatta, birinchi navbatda tarbiya muassasalarida, ya’ni bog‘cha, maktab, internat, litsey va kollejlarda beriladigan ta’lim-tarbiya tushuniladi. Birok, bundan oilada bolaga beriladigan ta’lim -tarbiya mutlako mustasno emas. Oiladagi umumiy ijtimoiy muxitdan tashqari, oilada beriladigan ta’lim-tarbiyaning xam roli kattadir. Bola tarbiyasi bilan sistemali shug‘ullanadigan va umuman shug‘ullanmaydigan oilalarga misollar keltirish mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilgan ikkita omildan tashkari uchinchi omil xam mavjudki - bu nasliy xususiyatlardir. Odamga ***nimalar nasliy beriladi?*** Odamga nasliy yul bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlari beriladi. Masalan, tana tuzilishi, sochi va kuzlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim xarakatlari tug‘ma berilishi mumkin. Lekin shuni xech kachon esdan chikarmaslik kerakki, odamga xech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya’ni uning aqliy tomonlari bilan boglik bo‘lgan sifatlari nasliy yul bilan, ya’ni tugma ravishda berilmaydi. Nihoyatda nodir xollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqa, matematik qobiliyatlar nasliy yul bilan berilishi mumkin.

Odamning ruxiy taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi xaqida gapirar ekanmiz, yana bir muxim narsa ustida tuxtab utish kerak. Xozirgi kunda tez-tez ***akseleratsiya*** terminini ishlatayapmiz. ***Xo‘sh akseleratsiya bu nima?***

Akseleratsiya - «tezlatish» degan ma'noni anglatadi. Xozirgi kunda bolalarni xam jismoniy, xam ruxiy jixatdan juda jadallik bilan rivojlanayotganliklarining guvoxi bulib turibmiz. ***Xush, buning sababi nima bulishi mumkin?*** Albatta, bunga turli fikrlar bor. Ayrim olimlar akseleratsiyaning sababini ilmiy-texnika tarakkiyoti bilan boglab tushuntirishga intilmokdalar. Ularning fikricha, ilmiy - texnikaning juda jadal temp bilan rivojlanishi insoniyatning oldiga mislsiz kup axborotlarni idrok kilish va fikrda kayta ishlash talablarini kuyadi. Bu talab uz navbatida insonni xar tomonlama, ya'ni xam jismoniy, xam psixik jixatdan tez rivojlanishiga olib keldi. Yuqorida aytib utilgan olimlarning fikricha, akseleratsiya - bu XX asrning ikkinchi yarmiga xos bulgan xodisadir.

10.3.Tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar.

Tarbiyali bo'lish - bu xulq-atvorini nazorat kilishdan iboratdir. Bunday nazorat insonga yomon xatti-xarakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi xaqida qaygursa, u ijtimoiylashuvga erishgan buladi. Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni urganish jarayoni sifatida karaladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi. Bola uzini egotsentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik kandy ragbatlantirilishi kerak? Tarbiya uz moxiyatiga kura ijtimoiy jixatdan ijobiy extiyojlarni xosil kilishidir. Agar ta'lim shaxsning ongini shakllantirish bulsa, tarbiya uning ongsizlik sferasiga ta'sir etishdir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga xissiy yakinlik xos. Odatda 6 oylik bolalar unga gamxurlik kiladigan ota-onasiga boglanib koladilar. Ota-onaning oldida, ular bilan muloqotda bulish bolalarga juda yokadi, ularning yuqligi bolaga yoqmaydi. Ota-onaning gamxurligini bildiradigan suzlar, xatti-xarakatlar bola uchun juda katta axamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy axamiyatga ega buladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu urganish jarayoni orkali sodir bulishi mumkin: xulk,- atvorning istalgan shakllari gamxurlik va e'tibor bilan takdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qullab- quvvatlanmaydi. Lekin, yaxshi xulq-atvorni ragbatlantirish va yomon xulq- atvor uchun jazolash axloqiy ijtimoiylashuvning kichik bir qismidir. Biz kurib chiqqan xulk-atvor xamma bolalarga xam taalluqli emas.

Bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an'ana va urf- odatlarning roli katta.

Xalq urf-odatlari, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy axamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, dustlik- birodarlik xis-tuygularini rivojlantiradi. Bular uz navbatida yoshlar uchun ibrat namunasi utaydi. Mustakil jamiyatning baxt-saodati yulida xalol mexnat kilish: jamiyat

boyiligini saklash va kupaytirish yulida xar bir kishining tinmay gamxurlik kilishi, ijtimoiy burchni yaxttti anglash; jamiyat xayotida va shaxsiy xayotda xalollik va rostguylik, axloqiy sofdillik, odamiylik va kamtarlik, milliy va irqiy adovatlarga aslo yul quymaslik va shu kabilar tarbiya jarayonining muxim xislatlaridir.

Tarbiya jarayonida gamxurlikning funksiyasi kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan gamxur ota-onaga kuproq taqlid qiladilar. Gamxur ota-onalar bolaning salbiy xulq-atvorini qullab-quvvatlamaganda, bola uz xatti-xarakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi. Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda gamxurlik bilan bir qatorda yaxshi kurishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy muloqotni tushuntirishni, muxokama kilishni, agar bolaning xulk-atvori shuni talab qilsa, ogzaki tanbex berishni, yaxshi xulq-atvor uchun takdirlashni nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonining texnologiyasini quyidagicha sharxlash mumkin;

1. Tarbiyalanuvchini aloxida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim. Uning extiyojlari strukturasini aniklash kerak.

2. Ijobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulk-atvor odatlarini shakllantirmok kerak. Ong xam, iroda xam motivlar ierarxiyasini shakllantira olmaydi. Zotan, bir extiyojning urnini fakat boshka extiyojgina egallashi mumkin.

3. Shu extiyojlarni kondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan muloqotni xam, xamdardlikni xam emas, aynan shu vositalar bilan qurollantarishni kutadi.

Arastu aytganidek: « ***Tarbiya uch narsaga extiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa***».

Mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari

Konfusi: «***Eskini uzlashtirgan va yangini tushunishga kodir insongina tarbiyachi bula oladi***» degan edi. Mustakillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat mikyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-xunarga urgatish soxalarini islox qilishga nixoyatda katta zarurat sezila boshladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida xam kator uzgarishlar amalga oshirilmokda.

Shuni ta'kidlash lozimki, ma'rifat xalkimiz, millatimiz qonidadir. An'anaviy sharkona qarashga ko'ra, ma'rifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma'naviyat va guzal axloq degani xamdir.

Bir ijtimoiy jamiyatning ikkinchisiga almashishi, shuningdek, milliy mustaqillik va uning ne'matlari respublikamiz fuqarolarida tub o'zgarishlarni vujudga keltirmoqda. Milliy tuygu, kiyofa, xarakter, ta'b, kuy, raqs, ma'naviyat, qadriyat xamda ruxiyat ta'siri ostida uzining tub moxiyatini aks ettira boshladi. O'tmishning boy merosi, uning an'analari milliy istiqlol tufayli uz egalariga

qaytarib berildi. Fukarolarning ijtimoiy ongi asta-sekin o'zgarib borishi natijasida etnopsixologik xususiyatlar tiklana boshladi, milliy, umumbashariylik xislatlari urtasida adolatlilik, teng xuquqlilik aloqalari o'rnatilmokda.

XXI asrda shaxs shakllanishida, uning tarbiyalanganlik darajasini ortishida dinning, xususan «Xadis» ilmining ahamiyati kattadir. Shaxslararo munosabatda tenglik, gamxurlik, samimiylilik, uzaro yordam, simpatiya, antipatiya, xamdardlik, sevgi-muxabbat singari milliy xususiyatlarni tarkib toptirishda xadislarning roli yanada ortmokda.

O'zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni tarbiyaning kundalik va istiklol rejasi, bolalarga ta'sir o'tkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish uziga xos xususiyatga ega, chunki uning asosida xalq an'analari yotadi..

O'zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni tarbiyaning kundalik rejasi, bolalarga ta'sir o'tkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish uziga xos xususiyatga ega, chunki uning asosida xalq an'analari yotadi.

O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish xar tomonlama tarakkiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muxim rol uynaydi. Abdulla Avloniy aytganidek: « **Tarbiya biz uchun yo xayot, yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat - yo falokat masalasidir**».

Yosh avlod tarbiyasida milliy ruxiyat, umuminsoniy, xalkchil milliy kadriyatlar, urf-odatlar, an'analari yetakchi urin tutmogi lozim (tarbiya etnopsixologik va etnopedagogik munosabat). Bular orkali yoshlarda quyidagi fazilatlarini tarbiyalash lozim:

- a) yoshlarda vatanparvarlik xis-tuygularini shakllantirish;
- b) xayrixoxlik, odamlarga .xurmat, mexr-shafsat;
- v) kattalarni xurmat silish, e'zozlash;
- g) muloyimlik;
- d) ~~ish~~ bilarmonlik**, mohirlik, ishchanlik, istisodiy tafakkur;
- y) kichik yoshdan mexnatsevarlik;
- j) jismoniy baquvvatlik;
- z) axloq-odoblilik;
- i) oilaparvarlik;
- k) ayollarga xurmat;
- l) o'zaro xamkorlikka intiluvchanlik.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan oila, maxalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, xuquqni muxofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shugullanadilar. Tarbiya jarayonida barcha

ishtirokchilarning baxamjixatlik bilan olib boradigan ishlarigina, uzining ijobiy natijalarini berishi mumkin.

Tarbiyaga 4 xil yondashuv. Siz qaysini tanlaysiz?

Barcha ota-onalar bolalarida mehribonlik, mehr-shafqat va bag'rikenglik kabi muhim insoniy fazilatlarni ko'rishni istashadi. Ular o'zlari biladigan tarbiyaviy yondashuvni - eng to'g'ri yondashuv, deb bilishadi. Biroq, hayot shuni ko'rsatadiki, bolamizni chuqur o'rganmay, o'zimiz eshitgan-bilganimizdan kelib chiqib tarbiyalash kutilgan natijalarni bermaydi. Ba'zilar hatto bolalarni ota-onalaridan begonalashtirib, bezdirib yuboradi.

"Doktor Xaus" xorijiy badiiy filmini eslang. U sheriklari xulqidagi kamchiliklarni umumlashtirib, kulib, "Bizlarni ota-onalarimiz mayib qilishgan", degan fikrni aytadi. Bu ota-onalarning tarbiyada yo'l qo'ygan xatolarining aks sadosi, desa bo'ladi. Bola va ota-ona o'rtasida ma'naviy, mehrli aloqa o'rnatish zarur. Lekin bu ancha vaqt, mehnat, hafsalani talab qiladi. Shu sababli tarbiyani zargarlikka o'xshatishadi. Ya'ni bunda xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun tarbiyaga qanday yondashishni ko'p o'ylab, qat'iy qarorga kelib, amal qilish kerak.

Bunda bolaning hozirgi holatini emas, balki ertaga, bir yildan keyin va undan so'ng bo'ladigan o'zgarishlarni ham ko'zda tutish kerak bo'ladi. Ana shunda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kelishmovchiliklarning oldi olinadi. Odatda, bolalarni tarbiyalashda uchraydigan muammolarni hal qilish bolalarga emas, balki ota-onalarga bog'liq. Ba'zi ota-onalar "universal odamcha"ni yarataman, deb xatolarga ham yo'l qo'yadilar.

Qancha odam bo'lsa, shuncha fikr bor. Bola tarbiyasi haqida ham. SHu bilan birga, pedagoglar tomonidan tarbiyaga yondashuvning 4 asosiy turi borligini aniqlangan. Siz o'zingizni bulardan qaysiga moyil deb hisoblaysiz?



Qattiqqo'l tarbiya

Qattiqqo'l ota-onalar asosan avtoritar tarbiyaga amal qilishadi.

Bunda ota-ona bolaning ustidan mutlaq hukmronlik qilishadi. Aytganim-aytgan, deganim-degan deyishadi go'yo. Boladan ham "aytganimni qilasan", deb, ko'r-ko'rona itoatni talab qilishadi. Ko'pincha bolaga ortiqcha, odamni xo'rlaydigan, shafqatsiz talablar qo'yishadi.

Buning oqibatida bola nimaga o'rganadi? Tashqi talab, buyruqlarni o'ylamay bajarishga odatlanishi. Ya'ni tashabbussiz, irodasiz, qo'rqqoq, mute, mustaqil qaror qabul qila olmaydigan, hayotida uchraydigan to'siqlarni o'zi hal qila olmaydigan sustkash bo'lib qolishadi. Shuning uchun bolaning boshida doimiy tergovchi, ortiqcha nazoratchi bo'lib qolmasdan, unga mustaqillik ham berib borish zarur.



To'g'ri, bolalar xato qilishadi. Bu ayb emas. Bolalik – xatolar fasli. Chunki u har bir ish, yumush, harakatni mashq qilayapti. Lekin ataylab emas, hali bilim va malakasi kamligi, bu ishni qilib ko'rmaganligi, yoki kam qilganligi tufayli xato qilayapti. 5-10 marta qilib ko'rgach, bexato bajaradi. Bola 3 yoshida 3 yoshli bolaning qo'lidan keladigan ishlarni qilishga qodir bo'lishi kerak. Agar nuqul “to'xta”, “tegma”, “qo'y”, “o'chir ovozingni”, desak, hech narsa qilolmay, o'rgana olmay, 20 yoshli bola bo'lib qoladi. Nuqul taqiqlar ichra katta bo'lgan bola ana shunday noqobil(qobiliyatsiz) bo'lib qoladi. “He, serraymay o'l”, deymiz ba'zan. Aslida bunga o'zimiz sababchimiz.

Yumshoq tarbiya

Qattiq tarbiyaning ziddi. Odatda yumshoq tarbiyaga ota-onaning ortiqcha mehr-muruvvati sabab bo'ladi. Bu esa bolalar erkalik huquqini, ortiqcha xatti-harakatlar erkinligini oladilar. Bu yondashuv ham salbiy oqibatlarga olib keladi. Yumshoq, ko'ngilchan, liberal ota-onalarning «homiyligi» ostidagi o'sgan bolalar ko'pincha xudbinlik va mas'uliyatsizlikka moyil bo'lishadi.

Befarq tarbiya

Befarqlik, beparvolik bolalar tarbiyasida mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydigan yondoshuv. Afsuski “farzand tarbiyasiga loqayd ota-onalar” toifasi paydo bo'ldi. Davlatimiz bu illatni yo'qotish uchun ko'p kurashmoqda.

O'zi tuqqan bolaga e'tiborsizlikdan ham yomon illat bo'ladimi? Sizga baribir bo'ladigan bo'lsa, nega tug'(dir)dingiz? Bu tarbiyaning oqibatlarini hech kim bilmaydi. Shuning uchun o'z bolalarining kelajagiga befarq bo'lmagan har bir ota-ona bu yondashuvni tez to'xtatishlari kerak



Demokratik tarbiya

Demokratiya har doim tanlash erkinligini nazarda tutadi. Tarbiya ham istisno emas. Demokratik tarbiya yo‘rig‘ini tanlagan ota-onalar bolasini yaxshi nazorat qilishadi. Ammo uni ezishmaydi. Har bir vaziyatga qarab

o‘z ta’sir kuchlarini mohirona qo‘llaydilar. Bu yondashuv bolalarga ob’ektiv hayotiy bilim, malakalarni o‘rgatadi. Yaxshilik va yomonlikni, yaxshi va yomonni ajratishni o‘rganishadi. Va ularning qay birini tanlashni ongli ravishda hal qilishadi. Bolalarni to‘g‘ri tarbiyalash - bu ilm. Ilm esa najot. Imom Buxoriy bobomiz “Ilmsiz najot yo‘q va bo‘lmag‘ay”, deganlar.

Demak, o‘g‘il-qizidan umid kutib yashayotgan har bir ota-ona tarbiya ilmi – pedagogikani o‘rganishlari kerak. Aks holda najotsiz qoladilar. SHuning uchun, agar siz ertaga baxtli, mustaqil va ishonchli bolani ko‘tarishni xohlasangiz, ota-onalik huquqlarini suiiste’mol qilmang. Burchlariningizni ham unutmang.

Uyingiz bir-biri bilan urushayotgan “ota-ona va bolalar”, degan ikki alohida davlatga bo‘linmasin. To‘g‘ri qaror har doim murosaga erishish qobiliyatining samarasidir.

10.4. «Tarbiyasi qiyin» bolalar psixologiyasi.

«**Tarbiyasi qiyin**» bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S.Vigotskiy fikricha, «**qiyin**» o‘smir xayoti munosabatlar xarakterining natijasidir. Bular avvalo qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish, ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir.

Ularning ma’lum bir qismi intizomsiz, qupol bolalardir Ularning faolligini maqsadga muvofiq o‘zgartirish, ularga ba’zi xuquqlarni berish yuli bilan ularga ta’sir utkazish mumkin.

Psixologiyada "**tarbiyasi qiyin**" bolalarning bir qancha klassifikatsiyalari mavjud.

Birinchi gurux - ijtimoiy salbiy, mustaxkam qarashlarga ega bolalar;

Ikkinchi gurux - qonunbuzarlarga taqlid qiluvchi bolalar;

Uchinchi gurux - ijobiy va salbiy xulq - atvor stereotiplari o‘rtasida ikkilanuvchi, uz xatolarini tushunuvchi bolalardir.

To‘rtinchi gurux - irodali bolalarga buysunuvchilar.

Beshinchi gurux - qonunbuzarlik yuliga tasodifan kirib qolganlar.

Shuni aytish lozimki, tarbiyasi ogir bolalar uchun, ular yashayotgan muxit, oila, ular o'qiyotgan jamoa, sinfning roli juda kattadir.

O'QUV TOPSHIRIQ

Xulq-atvor va odatni shakllantirish - shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalish sifatida fikr muloxazalaringiz?

IJOBIY

SALBIY

PSIXOKORREKSION RIVOYAT

Hayotning har qanday muammoli holati va vaziyati uchun sharq xalqlarida rivoyatlar, hadislar, donishmandlarning hikoyalari, masallari mavjud bo'lib, ular muayyan muammoli-psixologik holatlarda korreksion ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Psixologik konsultatsiya jarayonida shunday rivoyatlardan va korreksion voqelikni mujassamlashtirgan matnlardan foydalanish psixoterapevtik mashg'ulot sifatida samarali hamdir. Jumladan aytib o'tish joizki: psixolog bir necha savollarni bir rivoyat bilan yechimini taklif qilishi mumkin, mijozga (o'smir o'quvchiga) kuchli u kutgan va ehtiyojmand bo'lgan "yo'lni ko'rsatishi mumkin", shuningdek, berilgan psixokorreksion rivoyat mijozni himoya mexanizmlarini buzib, uni o'ylantirgan muammolar yechimini va talqinini beradi. Rivoyat aytib berilayotgan jarayonning o'zida mijozda refleksiya va o'zini o'zi tahlil qilish jarayoni bilan korreksion jarayon uyg'unlashib ketadi.

Bu metoddan foydalanishda psixologdan ijodkorlik, kuchli dunyoqarash va katta psixokorreksion rivoyatlar bazasi kerak bo'ladi. Aytish joizki, har qanday sharq xalqlari rivoyatlari va hikoyalarini tematik ro'yxatini tuzib ulardan

korreksion faoliyatda foydalanish mumkin. Bunda Yusuf Xos Xojib, Jaloliddin Rumiy, Imom G‘azzoliy asarlariga murojaat qilish mumkin. Ayniqsa hozirgi kunda ulug‘ allomalarimizning hamda xalq og‘zaki ijodining namunalari bo‘lgan odob-axloq, tarbiya, xush-xulq to‘g‘risidagi rivoyatlari va hikoyalari jamlanmalari kichik kitobchalar shaklida juda ko‘p miqdorda nashrdan chiqmoqda. Amaliyotchi psixologlarimiz ham shu tarzda turli rivoyatlardan amaliy faoliyatda foydalanishlari mumkin.

“MIXLAR HAQIDA RIVOYAT” trening mashg‘uloti.

Mashg‘ulot tavsiya etiladigan holatlar: guruhiiy psixokorreksion faoliyatda hamda individual psixokorreksion faoliyatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib emotsional-hissiy sohadagi buzilishlarni, qadriyatlar tizimida yuzaga kelgan buzilishlarni (agressivlik, bezovtalik), xarakter aksentuatsiyasini psixokorreksiya qilishda.

Trener quyidagi rivoyatni o‘qib beradi:

Bitta kichik shaharchada bir yosh yigit yashar ekan. U yigit juda jahldor, jahli tez, odamlarning kichik ayblari uchun ularni haqoratlab, gohida atrofdagilariga baqirib tashlar, hayotdan alamzada ekan. Ichidan kechayotgan his tuyg‘ularini umuman boshqara olmasligi, o‘zini nazorat qila olmasligidan tajovuzkor va zulmkor insonga aylana boshlabdiki, uning qo‘ni-qo‘shnilari, atrofdagilar undan shikoyat qila boshlabdilar. Buni payqagan uning kekxa lekin donishmand otasi o‘g‘lini yoniga chaqirib nasihat qilibdi va unga har vaqt yigitning yana jahli chiqsa, o‘zini nazorat qilishi qiyin bo‘lsa, kimnidir haqorat qilish holatiga tushib qolsa, alamzadalik zulm hislari chulg‘ab olsa hovli chetidagi katta chinorni ko‘rsatib unga uzun bir mixni qoqishni buyuribdi. Yigit otasini ko‘rsatmasini bajara boshlabdi, vaqt o‘tib yigitdan odamlar shikoyat qilmay qo‘yishibdi, chunki yigit ancha o‘zini nazorat qilishni o‘rganib olgan edi. SHunda ota yigitni o‘z oldiga chaqirib ikkinchi ko‘rsatmasini beribdi. Endi yigit har gal o‘zini biror bir keskin vaziyatda o‘zini boshqara olsa uyga kelib daraxtdan bitta mixni sug‘urib tashlashi kerak edi. Yana ma‘lum vaqt o‘tibdi. Ota qarasaki daraxtda bironta ham mix qolmabdi. Shunda ota o‘z o‘g‘lini chinor yoniga chaqirib uning kamolot yo‘lida ekanligini aytibdi va uni maqtabdi. Lekin so‘zi oxirida quyidagi gapni ta‘kidlabdi: “O‘g‘lim chinor bag‘ridagi ushbu mix izlari sening insonlar qalbida va o‘zingning ruhiyatingda qoldirgan og‘riqli izlaringdir, garchi sening qilmishlaring mixlarni yulib olib tashlaganing kabi unut bo‘lgandir, biroq izlar qolgan”.

Rivoyat trener tomonidan aytib berilgach, ishtirokchilardan olgan xulosa va taassurotlari hamda jaxldorlik, qo‘pollik kabi boshqa yomon xulq namunalari, illatlar salbiy tomonlari va oqibatlarini to‘g‘risida so‘raladi? SHuningdek, ushbu rivoyat hikmatini doimo esda saqlash tavsiya etiladi. Qo‘shimcha ravishda, kichik aqliy hujum mashg‘ulotini amalga oshirish ham mumkin, bu “Agar shunday jahldor hayotdan alamzada insonni uchratsangiz unga nima maslahat bergan bo‘lardingiz?” degan savol bilan amalga oshiriladi hamda o‘quvchidan shaxsiy fikri (maslahati)ni aytish so‘raladi, agar mashg‘ulot guruhda bo‘lsa guruh bo‘ylab o‘quvchilar fikrlarini bildirishlari kerak yoki kichik guruhlarda ishlash orqali, har bir guruh shu masalada tavsiyalar jamlanmasi asosida guruh taqdimotini ham qilishi mumkin.

Mustaqil ish yuzasidan savollar:

1. Tarbiya nima?
2. Xozirgi mustaqillik davrida tarbiya jarayonida qanday muammolar paydo bo‘ldi va uni qanday kilib bartaraf kilinmokda?
3. Faoliyat shaxs tarakiyotida qanday rol o‘ynaydi?
4. Yetakchi faoliyat va shaxs shakllanishini qanday izoxlaysiz?
5. Umuminsoniy va milliy boyliklarni shaxs taraqqiyoti va tarbiyasi ta’siri tavsifnomasini bering?
6. Ijtimoiy foydali faoliyat va shaxs tarbiyasi orasida qanday bog‘liqlik bor?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘ixati.

1. Goziev «Psixologiya» T., 1994 y.
2. E.Goziev «Oliy maktab psixologiyasi» T.. 1997 y.
3. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya kursi. Moskva 1982 y.
4. M. G Davletshin taxririda. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya Tosh. 1974 y.
5. M. G Davletshin. Ta’limning psixologik asoslari. Tosh. 1990 y.
6. Umumiy psixologiya, yoki yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya kursi. M. 1982

GLOSSARIY

Adaptatsiya - (lot. «*adapto*» - moslanmoq) – sezgi organlari, ya'ni a'zolari (analizatorlar)ning taassurot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishidan iborat bo'lgan holatdir. Adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortishi yoki kamayishi mumkin.

Antipatsiya - (lot. «*anticipatio*» - oldindan sezish, payqash, oldindan idrok qilish, hodisa mohiyatini ochishdagi topqirlik) inson tomonidan faoliyat maqsadini ro'yobga chiqarish rejasini va modelini yaratishda ifodalanadi.

Appersepsiya – idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman, ruhiy hayotning barcha mazmuni bilan belgilanishidir.

Aralashtirib yuborish – shaxs xavotiriga sabab bo'lgan ob'ektga nisbatan yuzaga keluvchi hisslarni boshqa ob'ektga yo'naltirilishini ifodalovchi himoya mexanizmi.

Attraksiya - insonni (o'zi bilan o'zga o'rtasidagi munosabatda namoyon bo'ladigan) o'ziga mahliyo qilish, qalbni «jiz» ettiradigan, ongsizlikka taalluqli insonni inson tomonidan idrok qilish hodisasi bo'lib, bu hodisa bir qancha manbalar, qo'zg'atuvchilar, motivlar ta'sirida vujudga keladi.

Affekt - (hissiy portlash, jazava) kishini tez chulg'ab oladigan va shiddat bilan o'tib ketadigan holat bo'lib, ular ongning anchagina darajada o'zgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilgan-ligi, odamning o'zini o'zi idrok qila olmasligi, shuningdek uning butun hayoti va faoliyati o'zgarib qolganligi bilan ajralib turadi.

Biogenetik konsepsiya - inson shaxsining taraqqiyotini biologik omil, ya'ni nasliy omil bilan belgilaydigan yo'nalish.

Biografiya (tarjimai hol) metodi - yordamida inson hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar o'rganiladi. Bunda kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o'zgalar ijodiga bergan baholari, tanbehlari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi.

Boshqaruv psixologiyasi – jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslar, guruhlar va jamoalar o'rtasidagi ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan nazorat, baholash, munosabat qonuniyatlarini, rahbar faoliyati va xarakteri, qobiliyati xususiyatlarini tadqiq qiladigan ijtimoiy psixologiyaning sohasi.

Gallyusinatsiya - yaqqol voqelikdagi idrok va hodisalarning tana analizatorlariga bevosita ta'sir etmasdan inson ongida turli obrazlar-ning (ovozlarning

eshitilishi, sharpalarning sezilishi) xayolan, fikran paydo bo'lishidan iborat idrokning psixopatologik (ruhiy xastalik) hodisasi.

Guruh – ma'lum ijtimoiy faoliyat maqsadlar asosida to'plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasi bo'lib, bunda ikkita asosiy mezon mavjud, ya'ni biror faoliyatning bo'lishi (muloqot, o'yin, o'qish, mehnat) hamda u yerda odamlarning o'zaro muloqoti uchun imkoniyatning mavjudligi kuzatiladi.

Demokratik usul – bu usulda suhbatlar, munozaralar, mulohazalar o'zaro tenglik, o'zaro hurmat ruhiga bo'ysundirilib, ta'sir o'tkazish sohalari yashiringan holda bo'ladi.

Depressiya – bu hozirgi kunga va kelajakka ishonchsizlik bilan qarash, doimo past kayfiyatda bo'lish, horg'inlik, hech narsa qilishga intilmaslik va fikrlashning sustlashuvidir. Depressiya (tushkunlik) - bu siqilish, ma'yuslik va g'amginlik kayfiyatidir.

Determinizm prinsipi - *(lot. determinata-belgilayman degan ma'noni bildiradi)* tabiat va jamiyat hodisalari, xususan, psixik hodisalarning ob'ektiv sabablar bilan belgilanishi haqidagi ta'limotdir.

Diqqat - inson his-tuyg'usini va ongini bir nuqtaga to'plab, muayyan bir ob'ektga faol qaratilishiga aytiladi.

Diqqatsizlik – diqqatni ob'ektga yo'naltira olmaslik va to'play olmaslik, atrofdagi kishilarga nisbatan e'tiborsizlik yoki iltifotsizlikdan iborat shaxsning salbiy xarakter xislatidir.

Differensial psixologiya – shaxslar o'rtasidagi tafovut va farqlarni hamda guruh a'zolari orasidagi nomutanosibliklarning psixologik jihatlarini, ya'ni psixologik farqlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi.

Yosh psixologiyasi – shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug'ilishidan to umrining oxirigacha bo'lgan davrini, ya'ni ontogenezni o'rganadigan psixologiya sohasi.

Identifikatsiya - (aynan o'xshatish) kishi hamkorlikda harakat qilish vaziyatida sherigi o'rniga o'zini qo'yib ko'rib, uning ichki holati, niyatlari, o'y-fikrlari, xohish-istaklari haqida taxmin qilinadi, bunda ular anglanilgan yoki anglanilmagan bo'lishi mumkin.

Idrok - sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo'lib, barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi va bevosita aks ettirishda ishtirok etadi.

Ijtimoiylashuv – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash, hayot – faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni bo'lib, bunda har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning me'yorlari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak

bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishdek murakkab jarayondir.

Izolyatsiya - uyat , aybdorlik, shodlik, qayg'u bilan bog'liq tasavvurlar bo'lib, shaxs ular bilan bog'liq affektlardan uzoqlashtiriladi (ajratiladi).

Illyuziya - hissiy a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni noto'g'ri (noadekvat), yanglish, xato idrok qilishdan iborat jarayonning noyob hodisasi.

Ingibisiya - shaxs faoliyati samaradorligiga o'zgalarning borligi tufayli salbiy ta'sir ko'rsatish, masalan, ma'nosiz so'zlarni yodlashda, labirintli masalalarni yechishda, ko'paytirish bilan bog'liq, murakkab arifmetik misollarni bajarishda boshqa odamlarning aralashuvi va ularning borligi faqat fikrlash jarayoniga tormozlovchi salbiy ta'sir ko'rsatishi tushuniladi.

Intellekt - (lot. «*intellectus*» – tushunish, bilish, «*intellectum*» – aql) aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib boriladi. Bu intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi.

Intellekt karta - (ing. *mind maps*) taniqli ingliz psixologi, xotira va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodikalar muallifi Toni Byuzen tomonidan ishlab chiqilgan.

Intellektualizatsiya – mavhum, intellektual terminlarni muhokama qilishdan o'zini uzoqlashtirish sifatida tazyiq soluvchi emotsional tang vaziyatdan chiqib ketish uchun o'ziga xos urinishdir.

Interioreseptiv sezgilar - ichki tana a'zolari holatlarini in'ikos etuvchi hamda uning reseptorlari ichki tana a'zolarida, to'qimalarida joylashgan bo'ladi.

Interiorizatsiya - tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o'tish ro'y berishidir.

Intravertlik - timsollarga, tasavvurlarga, o'tmish hamda kelajak bilan uyg'unlashgan mulohazalarga taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Iroda – shaxsning oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishidir.

Irodaviy harakatlar - oldindan ko'zlangan maqsadga erishish uchun ongli ravishda amalga oshiriladigan va rejalashtirilgan harakatlardir.

Kayfiyat – ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatni ifoda etib, u aniq bir hissiyotga aloqador bo'lmaydi.

Kauzal atributsiya - kishining o'z xatti-harakatlari sabablarini, niyatlarini, o'y-fikrlarini, xulq-atvor motivlarini boshqa kishilarga to'nkash orqali tushuntirishidir.

Kognitiv dissonans - insonni yangi bilimlarni izlashga, muammolar yechimini topishga chorlovchi hayajonlanish, ajablanish, qiziqish, hayratlanish, lol qolish, shubhalanish kabi intellektual hisslarning paydo bo'lishi.

Konformizm — shaxsning guruh yoki ko'pchilikning ta'siriga berilishini tushuntiruvchi xodisadir.

Kuzatish metodi - tabiiy metodlar jumlasiga kirib, bunda tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini bevosita tashqaridan turib kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash usuli bo'lsa, o'z-o'zini kuzatish esa odam o'zida kechayotgan biror o'zgarish yoki hodisani o'zi o'rganish maqsadida ma'lumotlar to'plashdir.

Qobiliyat - shaxs faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyat-larga aytiladi.

Laboratoriya eksperimenti - tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisani qachon kerak bo'lsa, o'sha vaqtda ataylab vujudga keltirilib, tekshirilayotgan psixik hodisa tabiiy sharoitda birgalikda sodir bo'ladigan boshqa psixik hodisalar eksperiment mobaynida o'zgartirilishi, boshqa psixik hodisalar bilan muayyan bir tarzda bog'lanishi, kuchi, tezligi, hajmi va boshqa shu kabi jihatlari o'lchab ko'rilishi mumkin.

Layoqat - qobiliyatlar taraqqiy etishining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining, sezgi a'zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlari.

Liberal usuli - bu usul muloqot jarayonida murosasiz, ko'ngilchan bo'lish, tashqi ko'rinishdan iliq psixologik iqlimni, guruhni moslikni o'zida aks ettirgandek tuyulsada, har qanday vaziyatni til topib hal qilishga, prinsipiiallikdan uzoqlashishga, subutsizlikka olib keladi.

Lider - guruhning shunday a'zosiki, u go'yoki barcha guruhni jarayonlarning boshida turadi va o'z xulqi, qobiliyati bilan o'zgalarga ta'sir qila oladi.

Manipulyatsiya - muloqot jarayonidagi manipulyatsiyada suhbatdoshga ta'sir ko'rsatib, uning xohishiga qarshi ravishda o'z fikriga ko'ndiriladi. Bunda biryoqlama ustunlikka erishiladi.

Maxsus psixologiya — normal psixik rivojlanmagan tug'ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar, defektlar ta'siri ostidagi insonlarning psixologiyasini tadqiq qilish sohasi.

Mehnat psixologiyasi – insonning mehnatga munosabati, mehnat faoliyatining qonuniyatlari va rivojlanishini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi.

Mehnat faoliyati - tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo‘lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma‘naviy ne‘matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdir.

Modellashtirish metodi - kuzatish, so‘roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida olingan natijalar qoniqtirmagan vaziyatda qo‘llaniladi. Bunda o‘rganilayotgan hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o‘sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o‘rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Muloqot - odamlar o‘rtasida birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir.

Muloqot faoliyati – shaxsning individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo‘ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri bo‘lib, u insondagi kuchli ehtiyojlardan biri – inson bo‘lish, odamlarga o‘xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashti-rishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Muloqotning interaktiv jhati - munosabatga kirishuvchilarning nutq jarayonida axborotni faqat so‘zlar bilan emas, balki *xatti-harakatlar* bilan ham almashinuvi nazarda tutiladi.

Muloqotning kommunikativ jhati - muloqotda hamkorlikdagi faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlashni o‘z ichiga olib, ma‘lumot almashinuv sifatida ta‘riflanadi.

Muloqotning perseptiv jhati - munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlari tushuniladi.

Nutq – inson til yordami bilan boshqa odamlarga o‘tmish, hozirgi zamon va kelajakka oid narsalar, voqelik yuzasidan axborot, xabar, ma‘lumot berishi.

Ong va faoliyat birligi tamoyili - psixologiya fanida ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi voqelik emas, ular aynan bir-biriga o‘xshash ham emas, biroq ular bir butunlikni tashkil etishi bilan izohlanadi.

Ongsizlik - shunday holatki, bunda odam ixtiyorsiz tarzda, o‘zi bilmasdan yoki anglamasdan turli xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Bu xatti-harakatlar avtomatik tarzda kundalik hayotda, uyquda, ya‘ni tush ko‘rayotganda yoki gipnotik holatlarda kuzatilib turadi. Ongsizlik, tabiiyki, ongga bog‘liq bo‘lmagan holat.

Oreol effekti - shaxs muloqot jarayonida o‘z ob‘ektiga nisbatan ijobiy taassurotga ega bo‘lsa, sub‘ektga ma‘lum bo‘lmagan fazilatlarni ijobiy baholashga yoki aksincha, ob‘ekt salbiy taassurot qoldirgan bo‘lsa, sub‘ektga ma‘lum bo‘lmagan xislatlarini salbiy baholashdir.

Parapsixologiya – hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqari-dagi, tushuntirish qiyin bo‘lgan ekstrosensorika – o‘ta sezuvchanlik, telepatiya – fikrni masofaga uzatish, kelajakka bashorat qilish va shu kabi psixik hodisalarni o‘rganadi.

Parishonlik – diqqatni ma’lum bir ob’ektga qarata olmaslikdan iborat salbiy xususiyat.

Pedagogik psixologiya – tarbiya va ta’lim muammolarini hamda shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishi, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o‘rganadi.

Proeksiya - individ o‘zining nojoiz istaklari va qilmishlarini boshqa odamga tegishli deb hisoblaydigan xavfli himoya mexanizmi hisoblanadi.

Proprioreseptiv sezgilar - tana va gavdaning holati hamda harakatlari haqida ma’lumot (axborot, xabar) beruvchi, muskullarda, bog‘lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan bo‘ladi.

Psixogenetik yondashish - biogenetik, sosiogenetik omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotini birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi.

Psixika - yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati va miyaning mahsuli bo‘lib, u borliqni sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta’sir etishi asosida vujudga kelib, bilish jarayonlarida, shaxsning xususiyati va holatlarida, diqqati, his-tuyg‘ulari, xarakter xislatlarida, qiziqishi hamda ehtiyojlarida o‘z ifodasini topadi.

Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi tamoyili - psixik taraqqiyot insonning mehnat faoliyatiga, ta’limga, o‘yin va muloqot faoliyatiga bog‘liq ekanligini aniqlashda foydalaniladi.

Psixologik himoya – sub’ektning mavjud ijobiy holatni saqlashga yunaltilgan jarayon va mexanizmlar tizimidir.

Psixologiya - yunoncha psychelogos so‘zi “jon”, “ruh” haqidagi fan, ta’limot degan ma’noni anglatadi.

Psixofiziologiya – odamlarning individual-psixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixikaning genetikasini o‘rganuvchi psixologiya sohasi.

Rad etish – individning atrofdagilar tufayli unga tahdid solayotgan kechinmalardan, ularning mavjudligidan o‘zini chetga tortish yo‘li bilan himoyalashda namoyon bo‘ladigan himoya mexanizmi.

Rasionalizatsiya - individga o‘z muvaffaqiyatsizliklarini haqiqatga yaqinroq oqlab izohlashga imkon beradigan himoya mexanizmi sanaladi.

Reaktiv qurilma (reaksiya shakllanishi) - himoya mexanizmi bir xil impuls va hissiyotlarni cheklash, ularga qarama qarshi impuls va hissiyotlarni kuchaytirish yuli bilan xavotirlanish darajasini pasaytirishga imkon beradi.

Reaktivlik - aynan bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi va uning yorqin ro'yobga chiqishi – emotsionallik, ta'sirchanlikda ifodalanadi.

Reaksiya tempi – turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, binobarin, harakat tezligiga, nutq sur'atiga, farosatlilikka, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqarishdir.

Regressiya – individning stressni bartaraf qilishga urinishda bir muncha soddaroq usullardan foydalanishi. Masalan, tang vaziyatlarda bolalikka qaytishi yoki o'zini yosh boladek tutishidir.

Repressiya (siqib chiqarish) - noxush fikrlarni ong darajasiga yetib borishiga to'sqinlik qiladigan himoya mexanizmi. Bunda ong uchun iztirobli bo'lgan mazmun birmuncha yengilroq narsaga ko'chadi.

Referent guruh - shunday odamlar guruhiki, ular har bir shaxs uchun ideal insonlar bo'ladiki, shaxs ularning niyatlari, qiziqishlari, harakat normalari, g'oya va fikrlariga ergashishga tayyor bo'ladi, harakatlaridan andoza oladi, ularga taqlid qiladi.

Refleksiya - kishining idrok etish sub'ekti sifatida o'ziga nisbatan sherigining munosabatini anglab yetishidir.

Ruhlanish - muayyan maqsadga, faoliyatga katta kuch va istak bilan intilishdan iborat bo'lgan holat.

Salomatlik psixologiyasi - psixogigiena va psixoprofilaktika, turmush darajasining infratuzilmasini oshirish masalalari bilan shug'ullanadi.

Samotizatsiya – qiyin vaziyatdan chiqib ketish uchun o'zini bemor sifatida ko'rsatish, yoki sog'ligi yomonligi bilan fiksatsiya qilish tushuniladi.

Sezgi - oddiy psixik bilish jarayoni bo'lib, moddiy qo'zg'atuvchilarning muayyan reseptorlarga bevosita ta'sir etishi orqali real olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini va shuning bilan birga, inson organizmining (uning a'zolarining) ichki holatlari-ni alohida-alohida aks ettirishdan iborat bilishning dastlabki bosqichidir.

Senzitivlik - (lot. «sensus» - sezish, his qilish) – insonda bironta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun qo'zg'ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasining (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashishi tushuniladi.

Sensibilizatsiya - analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezgirlikning kuchayishi.

Sinesteziya - (yunon. «sinesteziya» - *birgalikda sezish*) qo'zg'atuvchi-ning birin-ketin analizatorga ta'siri bilan analizatorlarga xos sezgining paydo bo'lishi.

Sotsiogenetik konsepsiya - shaxs taraqqiyotini uning atrofidagi ijtimoiy muhitga bog'lab tushuntiradi. Bunga ko'ra, «odam ijtimoiy muhit nusxasidir».

Sotsiometrik test - kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llanilib, unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan.

Stereotiplashtirish - kishilarga, ijtimoiy guruh a'zolariga nisbatan berilgan xislatlarni hozirgacha ma'lum bo'lgan ijtimoiy qoliplarga mos tarzda ommaviy tarzda yoyish, tavsif berish va baholashdir.

Stress - (inglizchada *stress* – *tazyiq ko'rsatish, zo'riqish degan so'zdan olingan*) psixologik ta'rifga ko'ra, affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomliligiga ko'ra kayfiyatlarga yaqin bo'lgan his-tuyg'ular boshdan kechirilishining alohida shakli ya'ni, hissiy zo'riqishdir.

Sublimatsiya - idning impulsleri ijtimoiy ma'qul faollikka yo'naltiriladigan o'rin almashtirish shaklidir.

So'rov metodi - psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan biri bo'lib, unda sinaluvchi tekshiruvchining savollariga javob berishi kerak bo'ladi.

Tabiiy eksperiment - kuzatish va laboratoriya eksperimenti metodi o'rtasida turadi. Tabiiy eksperimentda tekshiruvchi kishining o'zi tekshiriladigan kishida yoki kishilarda psixik jarayon (masalan, xotira, diqqat, tasavvur) hosil qilish yoki tekshiriladigan kishilarda individual xususiyatlarni namoyon etish uchun maxsus sharoit tug'diriladi.

Talant - (yunon. «talanton» - *qimmatbaho, noyob narsa, irsiy, tabiiy xislat*) muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar majmuasi-dir.

Tafakkur - atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordamida bilvosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon bo'lib, u ijtimoiy sababiy ichki bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir. Qachonki muammoli vaziyat paydo bo'lganda tafakkur ishga tushadi.

Temperament (lot. «*temperamentum*» - *aralashma*) – shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o'zgaruvchan) va emotsional-hissiy tomonlarini xarakterlovchi, biologik shartlashgan individual xususiyatlar majmuidir.

Test metodi - (ing. *sinash, tekshirish*) biror o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, hamda ularni ko'pchilikda qayta-qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyatsion analiz orqali ishonchlilikni tekshirishda ham ishlatiladi.

Tibbiyot psixologiyasi – bemorlarning davolanishi, gigiena, profilaktika, diagnostika jihatlarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi bo‘lib, unda tadqiqotlar tizimiga kasalliklarning kechishi, ularning shaxs psixologiyasiga ta’siri qonuniyatlari, insonning kasallikdan sog‘ayishiga mikroijtimoiy guruh ta’siri o‘rganiladi.

O‘yin faoliyati – bevosita biror moddiy yoki ma’naviy ne‘matlar yaratishni nazarda tutmasada, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari taqlid qilish orqali bola tomonidan o‘zlashtiriladigan faoliyatdir.

O‘qish faoliyati - shaxs kamolotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko‘nikmalar o‘zlashtiriladi.

Umumiy psixologiya – umumiy psixologik qonuniyatlari, mexanizmlar, murakkab ichki bog‘lanishlar, nazariy va metodologik tamoyillar, ilmiy tadqiqot metodlari, psixikaning filo va ontogenetik o‘zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan o‘rganadigan fan sohasidir.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi - inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida psixologiyada keng qo‘llaniladi.

Faollik – inson qandaydir faollik darajasi bilan tashqi olamga ta’sir etishi va maqsadlarini amalga oshirishida ob’ektiv hamda sub’ektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan yengishidir.

Fasilitatsiya - inglizcha «*facilitate*» so‘zidan olingan bo‘lib, “engillashtirmoq” degan ma’noni anglatib, o‘zgalarning borligi tufayli shaxs faolligining ortishi, ishining yengillashuvi va samaradorligi tushuniladi.

Frustratsiya - doimiy stress oqibatida maqsadning yo‘q bo‘lib qolishi, rejaning izdan chiqish holatidir.

Xayol - inson ijodiy faoliyatining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi, u tizimiy xususiyatli xatti-harakatning oraliq va yakuniy mahsullari orqali aks etadi, muammoli vaziyatda noaniqlik, noma’lumlik alomatlarini vujudga kelsa, u holda faoliyat rejasini qayta ko‘rib chiqishni ta’minlash imkoniyatiga ega.

Xarakter – ijtimoiy muhit ta’sirida tarkib topib, shaxsning atrofdagi voqelikka va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatida ifodalanadigan, muayyan sharoitda tipik xulq-atvor usullarini belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlar yig‘indisidir.

Xotira - individning o‘z tajribasini esda olib qolishi (fiksatsiya), esda saqlashi (retensiya) va keyinchalik uni yana esga tushirishi (reproduksiya) yoki unutishi jarayoni.

His-tuyg‘u – kishining o‘z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg‘ul bo‘layotganiga nisbatan o‘zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir.

Shaxs yo‘nalganligi - psixologiyada ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo‘naltirib turadigan hamda real vaziyatlarga nisbatan turg‘un va barqaror motivlar majmuiga ega bo‘lish deb, ta’riflanadi.

Shaxs - muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug‘ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individdir.

Ekzopsixika - shaxsning tashqi muhitga nisbatan munosabati, shaxsga qarama-qarshi bo‘lgan barcha jihatlari, shaxslararo va ob’ektiv munosabati ifodalanadi.

Eksperimental psixologiya – eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qilishning umumiy sohasi. XIX asrning o‘rtalarida psixologik hodisalar ustidan ilk bor amaliy eksperimental-psixologik tadqiqotlar o‘tkazilgan. V.Vundt eksperimental psixologiya-ning fan sifatida ajralib chiqishiga o‘zining katta hissasini qo‘shgan.

Eksterioreseptiv sezgilar - tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan hamda reseptorlari tananing sirtqi qismida joylashgan bo‘ladi.

Eksteriorizatsiya - aqlda shakllangan g‘oyalarni bevosita tashqi harakatlarga yoki tashqi faoliyatga ko‘chirilishidir.

Ekstravertlik - shaxs faoliyati va reaksiyasi ko‘p jihatdan favquloddagi tashqi taassurotlarga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Emotsiyalar – «hissiyot» («emotsiya») va «his-tuyg‘u» so‘zlari ko‘pincha sinonimlar sifatida qo‘llaniladi. «Emotsiya» so‘zini o‘zbek tiliga aniq tarjima qilinganda u ruhiy hayajonlanish, ruhiy harakatlanish degan ma’noni anglatadi.

Endopsixika - shaxs psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o‘zaro bog‘liqligida aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: O‘zbekiston, 1997.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. 2017 y, 104 bet, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi.
3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 y, 488 bet, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi.
4. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2016 y, 56 bet, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi.
5. Abdullayeva SH. A. Pedagogika.- Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2012.
6. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. - T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
7. **Bern E. Igri, v kotorie igrayut lyudi. Lyudi, kotorie igrayut v igri. / Erik Bern; [per. s angl. A.Gruzberga]. –M.: Eksmo, 2012.**
8. **Bordovskaya N.V., Rozum S.I.** Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya vuzov Piter, 2016 g.
9. Verderber R., Verderber K. Psixologiya obsheniya. – SPb.: praym - EVROZNAK, 2003.
10. Davletshin M.G., To‘ychiev S.M. Umumiy psixologiya T.:TDPU, 2002.
11. Ziyamuhamedov B. “Pedagogika” Toshkent. “Tamaddun” nashriyoti, 2014.
12. Ibragimov X.I., Abdullayeva SH.A. Pedagogika nazariyasi. / Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.
13. Ibragimov X.I., Yo‘ldoshev U.A., Bobomirzaev X. Pedagogik psixologiya./O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
14. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. - T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.

15. Ilin Ye.P. Psixologiya obsheniya i mejlichnostnix otnosheniy. – SPb.: PITER, 2009. – 576 s
16. Iskandarova SH.T., Shoyimova SH.S., Mirzayeva N.A. Psixologiya. Darslik – Toshkent, 2010.
17. Iskandarova SH.T., Shoyimova SH.S., SHukurova M.A. Psixik-bilish jarayonlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2010.
18. Karimova V. M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T., 2002.
19. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. Ma’ruzalar matni. – T., 2000.
20. Karimova V.M. Psixologiya. T.: SHarq, 2000.
21. Кудрявая Н. В., Уколова, Е. М., Смирнова Н. Б., Волошина Е. А., Зорин К. В. (Под общ. ред. Н. В. Кудрявой) Педагогика в медицине. М.: [Издательский центр «Академия»](#), 2012.
22. Келвин С.Холл, Гарднер Линдсей. Теория личности / пер. с англ. I.B.Grinnshpun. – 2-э изд. – М.: Психотерапия, 2008
23. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. – Toshkent, «O‘qituvchi», 2001.
24. Nemov R.S. Psixologiya. M.: Vldos, 2003. 1-2 t.
25. Новгородцева I.V. Педагогика в медицине. Издательство «ФЛИНТА», 2017
26. Oila psixologiyasi / Mualliflar: G‘.B.Shoumarov va boshqalar. Prof. G‘.B.Shoumarov tahriri ostida. – Toshkent: “SHarq” NMAK, 2008.
27. Ochilov M., Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: “Nasaf” nashriyoti. 2000.
28. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Sh.A.Abdullayeva, D.A.Axatova, B.B.Sobirov, S.S.Sayitov. – T.: Fan, 2004.
29. Piz A., Piz B. Noviy telodvijeniy. Rasshirennaya versiya. – M.: Eksmo, 2010.
30. Podlasiy I.P. “Pedagogika” 2 tomlik kitob. Moskva. Vldos. 1999.
31. Реан А.А., Бордовская Н.В., Розум С.И. Психология и педагогика. Учебник для вузов. - СПб.: Питер, 2002
32. Umarov B.M., Raxmanova D.R. Osnovi uchebno-psixologicheskoy deyatelnosti studentov vuza. Izd. im. G.Gulyama, Tashkent, 2008 g. 111 str.
33. Umarov B.M. Psixologiya (2-nashr. Nopedagogik, nopsixologik oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun dasrlik). “Voris” nashriyoti,- Toshkent, 2012.
34. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida. – T.: «O‘qituvchi», 1992.
35. Фрейджер Р., Фейдимен Д. Большая книга психологии. Личност. Теории, упражнения, эксперименты. /пер. с англ.-SPb.:Praym-EVROZNAK. 2008.
36. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. –T.: TDPU, 2010.

37. G'oziev E. Yosh davrlari psixologiyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 2008. Uchinchi nashr.
38. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010.
39. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 Kitob.
40. Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. - T. 2005.
- 41.1. Чалдини Р. Как научиться убеждать и добиваться успеха / Роберт Чалдини; [пер. с англ. О.Еримахова]. –М.: Эксмо, 2010.
42. SHoyimova SH.S. Muloqot psixologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma «ZAMON POLIGRAF»OK Toshkent, 2017.
43. SHoyimova SH.S. SHaxs psixologiyasi. O'quv qo'llanma. «LESSON PRESS» Toshkent, 2017 y.
44. Mers David G., DeWall C. Nathan. Psychology. Hardcover, Revised. 2015.
45. Davis S. F. Handbook of Research. Methods in Experimental Psychology. Wiley-Blackwell, 2003.
46. Criteria for High-Quality Assessment. Stanford Center for Opportunity Policy in Education. CHicago. 2013.
47. Dominic Upton, Annie Trapp. Teaching psychology in higher education. Copyright © 2010 Blackwell Publishing Ltd . 328 pages.
48. Nine Principles of Good Practice for Assessing Student Learning. Authors: American Association for Higher Education (AAHE), 2014
49. Sed Amin Tabish. Assessment Methods in Medical Education. 2012.
50. Tony Buzan. Mind Map mastery. The complete guide to leering and using the most powerful thinking tool in the Inverse. 2018 years. 233 page.
51. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahririda. "O'qituvchi" nashr., T
52. V.M.Karimova. Ijtimoiy psixologiya asoslari - Toshkent, 1994 yil
53. Tafakkur gulshani. SH.Abdurazzoqova tarjimasi. Toshkent, 1989
54. V.M.Karimova, F.A.Akramova. Psixologiya. T., 2000
55. Maklakov A.G. Obshaya psixologiya M.; Piter. 2003.

Internet saytlari:

1. www.edu.uz – OO'MTV rasmiy sayti
2. www.ziyonet.uz – ta'limiy portal
3. www.pedagog.uz – TDPU rasmiy sayti
4. www.natlib.uz - Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.....	5
1.1. Yosh va pedagogik psixologiyasining fan sifatida rivojlanishi.....	5
1.2. Yosh psixologiyasining tarmoqlari va boshqa fanlar bilan aloqasi. Yosh psixologiyasining nazariy va amaliy nazariyasi.....	
1.3. SHarq mutafakkirlarining (Al-Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Ibn Rashid va boshqalar) bola tarbiyasi haqidagi fikrlari J.Piaje maktabida psixik taraqqiyotiga yondashish.....	9
1.4. Xozirgi zamon psixologiyasida psixik taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchlari muammosi.(S.L.Rubeynshteyn, Leontev, L.S.Vigotskiy D. Elkonin va boshqalar).....	11 16
II BOB. YOSH DAVRLAR PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA FANINING SHAKLLANISHI XOZIRGI XOLATI.....	21
2.1. Yosh davrlari pedagogik psixologiyasi shakllanishining tarixi va hozirgi holati. Pedagogik psixologiya - fanlararo ilmiy bilim soxasi.....	21
2.2. Psixologiyada yosh tushunchasi va xususiyatlari. Yosh psixologiyasining metodlari.....	23
2.3. Kuzatish va eksperiment metodlarining yosh psixologiyasida qo‘llanilish xususiyatlari.....	25
2.4. Psixologik tadqiqotlarda “metodologiya, metod, va metodika” tushunchalarining munosabatini aniqlash.....	27
III BOB. PSIXIK TARAQQIYOT VA TA’LIM.....	30
3.1. Taraqqiyot-bolaning ijtimoiy tajribani egallash jarayoni ekanligi.....	31
3.2. Taraqqiyotning biologik va fiziologik shartlari.....	32
3.3. Faollik - bola taraqqiyotining manbai ekanligi.....	33
3.4. Bolalikni davrlarga ajratish muammolari.....	37
IV BOB. GO‘DAKLIK VA MAKTABGACHA YOSHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	43
4.1. Psixodinamika nazariyasi.....	44
4.2. Go‘daklikdagi psixologik rivojlanish asoslari va xususiyatlari.....	46
4.3. Ilk bolalik yoshi tavsifi	47
4.4. Bolaning maktabgacha yoshda rivojlanishining psixologik va fiziologik	

xususiyatlari.....	50
4.5. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi bilish jarayonlari va ijtimoiy vaziyatlar xususiyatlari.....	52
V BOB. KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRI PSIXOLOGIYASI	58
5.1. Kichik maktab yoshining umumiy tavsifi va jismoniy xususiyatlari.....	59
5.2. Bolada maktab hayotining boshlang'ich davri xususiyatlari.....	60
5.3. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning o'qish faoliyati va bilish jarayonlarini rivojlanishi.....	62
5.4. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning shaxsining rivojlanishi.....	70
5.5. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni.....	75
5.6. Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi holati va istiqbollari.....	80
VI BOB. O'SMIR PSIXOLOGIYASI.....	85
6.1. O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari.....	86
6.2 O'smirlik yoshdagi bolalarning jismoniy xususiyatlari.....	89
6.3. O'smirning hayot kechirish tarzi va uning psixik taraqqiyotga ta'siri.	91
6.4. O'smirlarning bilish jarayonlarining shakllanishi.....	94
6.5. O'smirlik davrida shaxs shakllanishi.....	98
VII BOB. O'SPIRIN PSIXOLOGIYASI.....	108
7.1. Ilk o'spirinlik davrida jismoniy va psixik rivojlanishi.....	108
7.2..Ilk o'spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanishi.....	115
7.3. O'spirin ijtimoiy-psixologik hodisasi o'quv faoliyati.....	117
7.4. O'spirinlarning kasbga tayyorgarlik muammosi.....	126
7.5. O'spirinlik davrida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi.....	130
VIII BOB. YOSHLIK PSIXOLOGIYASI.....	137
8.1. Yoshlik tushunchasi va uning yosh chegaralari.....	138
8.2. Yoshlik davri va uning o'ziga xos psixologik xususiyatlari	142
8.3. Yetuklik davrining birinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlari.....	145
8.4. Yetuklik davrining ikkinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlari.....	149
IX BOB. TA'LIM - PSIXOLOGIYASI.....	153
9.1. Ta'lim psixologik-pedagogik jarayon sifatida.....	153
9.2. O'quv faoliyatining psixologik mohiyati.....	154
9.3. Boshqarishning metodologik va nazariy asoslari.....	159
9.4. O'quv faoliyatini boshqarish	160
9.5. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish.....	161
X BOB. TARBIYA PSIXOLOGIYASI.....	161

10.1. Xulq-atvor va odatni shakllantirish shaxsni tarbiyalashning asosiy yunalishi sifatida.....	165
10.2. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, psixologik shart-sharoitlari.....	165
10.3. Tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar.....	170
10.4. «Tarbiyasi qiyin» bolalar psixologiyasi.....	172
GLOSSARIY	177
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	181
	191